

# MOLIYA KORXONALAR MOLIYASI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**MOLIYA:  
KORXONALAR MOLIYASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oly va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida  
tavsiya etilgan*

**TOSHKENT**  
**"IQTISOD-MOLIYA"**  
**2018**

**UO'K:336:658.1(075.8)**

**KBK: 65.261**

Professor J.R. Zaynalovning umumiy tahriri ostida

**Taqrizchilar:** *Samarqand qishloq xo'jaligi instituti  
"Agroiqtisodiyot va marketing"  
kafedrasi mudiri i.f.d., prof. O. Murtazayev;  
Samarqand viloyat hokimligi  
Moliya bosh boshqarmasi  
boshlig'i muovimi I. Axtamov*

**M 76 / Moliya: Korxonalar moliyasi. Darslik / J.R. Zaynalov,  
S.S. Alieva, Z.O. Axrorov va boshq. – T: 2018. – 268 b.**

Mazkur darslikda moliya tizimining shakllanishida korxonalar moliyasining tutgan o'rni, korxonalarning moliya-kredit tashkilotlari bilan munosabatlari, korxona foydasini shakllantirish va taqsimlash tartibi, korxonalarni soliqqa tortish va investitsiyaviy faoliyatini tashkil etish yo'llari, korxonalarda o'z kapitali va bahoni shakllantirish xususiyatlari, korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati keltirilgan. Darslikda korxonalar moliyaviy munosabatlarining nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, u 5230600 – "Moliya" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "Korxonalar moliyasi" fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

**UO'K: 336:658.1(075.8)**

**KBK: 65.272**

**ISBN 978-9943-13-720-2**

**© Mualliflar jamoasi, 2018**

**© "IQTISOD-MOLIYA", 2018**

## KIRISH

Iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish va o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, ularsiz ishlab chiqarish, aholi bandligi hamda boshqa moliyaviy munosabatlarni tasavvur etish qiyindir. Yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish masalalarida korxonalarning roli kattadir.


O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan mamlakatimizda samarali korxonalar faoliyati va uning moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, moliyaviy-iqtisodiy nazariya, byudjet-soliq munosabatlarini mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi dasturi asosida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Chunki O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni moliya, byudjet, soliq, sug'urta munosabatlarini korxonalar iqtisodiy taraqqiyoti bilan o'zarobog'liqlikda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Korxonalardagi moliyaviy munosabatlar iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barqarorligini ta'minlash jarayonida har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlanirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsad qilib qo'yildi<sup>1</sup>:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qonunda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 20 VA SEKTAVALIDAGI PES 147 nomi yomon. www.lex.uz – O'zbekiston Qonunchilik portalini nomotari.



- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddallashtirish, xo'jalik yurituvchi subyekflarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddallashtirish;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Ma'lumki hozirgi sharoitda moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish barcha moliyaviy tizimlarni barqaror rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishining o'ziga xos bosqichli yo'llari tanlanadi. Natijada O'zbekiston

Respublikasida zamonaviy barqaror rivojlanuvchi korxonalarga oid tub iqtisodiy islohotlarning samarali olib borilishi davlatning moliya, byudjet, soliq, kredit siyosatlarini Harakatlar strategiyasi talablari asosida tubdan qayta qurish, takror ishlab chiqarish jarayonida korxona moliyaviy munosabatlarini o'zgarishi, moliya, byudjet, soliq, kredit va investitsiya siyosatlarini yaxlit olib borishini ta'minlovchi aniq mezon va omillarning tizimlashgan uslubiyatini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan turli mulk shaklidagi korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy munosabatlarini o'zaro bog'liqlikda o'sishini ta'minlash shu orqali ularga turli engilliklarni taqdim etish nazarda tutilgan. Bu esa korxonalarni moliyaviy siyosati sohasidagi qarorlarini samarali bo'lishini, korxona daromad (foydalarni va xarajatlarini taxminlashtirish (rejalashtirish)da ilmiy asoslangan va tahlil etilgan iqtisodiyotning turli sohalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni aniq mezonlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish dolzarb vazifalar qatoriga kiritiladi.

Shuningdek, korxona moliyasini strategik o'sishini taxminlash-tirishda moliyaviy munosabatlarni va funksiyalarini muvofiqligini ta'minlash borasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish barqaror korxona moliyaviy siyosatni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Mualliflar mazkur darslikni tayyorlashda O'zbekiston amaliyotidan kelib chiqib, ushbu sohada mavjud adabiyotlardan, matbuotda e'lon qilingan maqolalardan foydalangan holda, ularni tizimlashtirishga harakat qildilar. Darslikning har bir bobi so'ngida talabaning bilimini mustahkamlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'zini-o'zi tekshirish uchun savollar tuzilgan.

Darslikni tayyorlashda o'z yordamlarini bergan taqrizchilar professor O.Murtazayev, professor T.Malikov, professor O.Olimjonov, professor B.Toshmurodova, professor M.Muxammedov, professor B.Istroilovlarga alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur darslik bo'yicha barcha fikr-mulohaza va takliflarni Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-uslubiy kengashiga yuborishingizni so'raymiz. Bu kelgusi nashriarda mazkur darslikning yanada mukammal tarzda tahrir qilinishiga sharoit yaratadi.

Shu munosabat bilan "Moliya" ta'lim yo'naliishi talabalari fanni chuqur o'rghanishlari uchun mazkur darslikni yaratishga kirishildi. Darslik korxonalar moliyaviy munosabatlarini chuqur o'rnatishni o'z oldiga maqsad qilib, unda moliya tizimining shakllanishida korxonalar moliyasining tutgan o'rni, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish asoslari, korxonalarining moliya-kredit tashkilotlari bilan munosabatlari, korxona foydasini shakllantirish va taqsimlash tartibi, korxonalarni soliqqa tortish va investitsiyaviy faoliyatini tashkil etish yo'llari, bahoni shakllantirish xususiyatlari, korxona o'z kapitalini shakllantirish siyosatining asosiy vazifalari, korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati ochib berildi.

## **I BOB. "KORXONALAR MOLIYASI" FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **1.1. "Korxonalar moliyasi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

Korxona rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz tushunamiz. Korxona faoliyatini rivojlantirishni rag'batlan-tirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2017 yil 1 yanvar ho-latiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) 218170 tani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 118731 taga yoki 2,2 barobar ko'paygan.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-2016 yillarda 31 foizdan 56,9 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 45,3 foizga o'sdi.

2000-yilda kichik biznes va xususiy talbirkorlik sohasida mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar soni 4,5 mlnni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 8,6 mln.ni, 2016 yilda esa 10,4 mlnni tashkil etib, mazkur sohada band bo'lganlar soni 2000 yilga nisbatan solishtirganda 5,9 mln kishi yoki 2,3 barobarga ko'paygan. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 78,2 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda<sup>2</sup>.

Umuman olganda, respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xalqaro miqyosdagi globallashuv, hududiy integratsiya, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar moliya tizimida, molivaviy

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasiga rasmiy sayti ma'lumodani <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1428-o-zbekiston-respublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>

munosabatlarda yuz berayotgan tarkibiy va institutsional o'zgarishlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'limoqda. Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ushbu global jarayonlar o'zining tezkorligi, ko'lami va axborot sig'imi bilan korxonalar moliyasini boshqarish oldiga jiddiy vazifalarni qo'yemoqda. Misol uchun, ishlab chiqariladigan mahsulot (tovar, xizmat) sifatini oshirish, ular bo'yicha eksport salohiyatini oshirish va uni rag'batlantirish shular jumlasidandir.

Mazkur fanning boshqa fanlar singari o'ziga xos predmeti va vazifalari mavjud.

"Korxonalar moliyasi" fanining predmeti bo'sib bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning ichki va tashqi moliyaviy munosabatlari, ularni tashkil etish, boshqarish va korxonaning moliyaviy resurslarini jamlanishi, sarflanishi va taqsimlanishi hisoblanadi.

Fanni o'qitimishidan asosiy maqsad O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi jarayonida sodir bo'ladigan tubdan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda korxonalar faoliyatida ularning moliyasini tashkil etishga ta'sirini chuqur o'zlashtirgan holda tadbiq etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash; korxonalarni pul mablag'lari bilan ta'minlanish yo'llari, moliya bozorlarini tashkil etish; korxonalarning moliyaviy rejasini (biznes-reja) tuzish va uni boshqarilishini nazorat qilish hamda rejalashtirish istiqbollarini va boshqalarni chuqur o'zlashtirishdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari korxonalar moliyasini tashkil etishga taalluqli qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjat materiallaridan, moliya-kredit mexanizmlaridan oqilona foydalanib xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha iqtisodiy munosabatlarini atroflicha o'zlashtirib, korxona ichki imkoniyatlarini izlab xo'jalik subyektlarining davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, kredit tizimi va boshqa tizimlar oldidagi majburiyatları belgilangan muddatlarda bajarilishini, moliyaviy barqarorlikni oshirish va umuman iqtisodiy-moliyaviy samaradorlikni yanada oshirishni ta'minlay oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Bu fanni o‘qitishning zarurligi iqtisodiyotning erkinlashuvi va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxona moliya siyosati va moliya munosabatlarining yanada takomillashib borayotganligi bilan ham yanada kuchaymoqda.

“Korxonalar moliyasi” fanida moliya munosabatlarini va korxona moliya siyosatini boshqarish strategiyasini belgilash, korxona daromadlari (foydasи), xarajatlari, qarzлari, asosiy va aylanma kapitalni boshqarish kabi masalalarning nazariy-amaliy jihatlari yoritiladi. Korxonalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ushbu fan moliya faniga tayangan holda amaliy bilimlarni asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mazkur fanda bozor iqtisodiyoti qonunlaridan kelib chiqib, korxonalar moliyasining mohiyati va vazifalari yoritiladi.

“Korxonalar moliyasi” fani bo‘yicha talablar: korxonalar moliyasining tashkil etish asoslari, namoyon bo‘lishi shakllari, funksiyalari va moliyaviy kategoriylari, turli mulkchilik shakllarida korxonalar moliyasini tashkillashtirish tamoyillari va boshqalar bo‘yicha qo‘llaniladigan qonunchilik va me’yoriy hujjatlarni atroflicha o‘rganishi, moliya menejmenti, iqtisodiyotning moliya soxasi bozorlari tahlili bo‘yicha korxonalarning moliyaviy mustaqilligi va likvidligi, moliyaviy barqarorligi va to‘lovga layoqatligi, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar moliyasining xususiyatlari, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o‘tkazilayotganligini va “O‘zbek modeli” nomini olgan islohotlar bo‘yicha fundamental bilimlarni egallagan bo‘lishlari lozim.

Mazkur fan “Moliya” ta’lim yo‘nalishida institutni bitiruvchi yosh talaba-mutaxassislarga korxona moliyasini istiqbollashtirish (rejalash-tirish), korxona moliyaviy munosabatlarini uзвiy bog‘liq holda strategik rivojlanishini belgilash bilan bog‘liq muammolarni yechishga ko‘maklashuvchi qo‘srimcha nazariy bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularni amaliyotga tayyor kadrlar bo‘lib yetishishiga yordamlashadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan quyidagi ko‘p qirrali vazifalarni bajarilishini ham ta’minlaydi:

- korxonalar moliyasining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati vazifalari va tarkibiy tuzilishini o'rganish;
- korxonaning oborotdan tashqari aktivlarini moliyalashtirish asoslarini o'rganish;
- korxona aylanma mablag'larini moliyalashtirish asoslarini o'rganish;
- korxona mahsulot ishlab chiqarish harajatlari, va mahsulot sotishdagi tushumini o'rganish;
- korxona foydasining mohiyati, turlari, taqsimlanishi, ishlatalishi va rejalashtirilishini o'rganish;
- korxona foydasining soliqqa tortilishi asoslarini o'rganish;
- korxona faoliyatini moliyalashtirish va kreditlashtirish asoslarini o'rganish;
- korxonalarda moliyaviy aktivlari tarkibini o'rganish;
- pul muomalasi va hisob-kitoblar tizimini o'rganish;
- korxonada baho shakllanishining asoslarini o'rganish;
- korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishni o'rganish va boshqalar.

## **1.2. Moliya tizimining shakllanishida korxonalar moliyasining tutgan e'rni va mohiyati**

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillardanoq hozirgi kunga qadar va istiqbolda korxonalarda iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida optimal moliyaviy munosabatlarni shakllantirish va shu orqali korxonalar moliyasini tizim tarkibidagi mavqeini oshirish maqsadida ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish va taqsimlash, o'z mablag'larini investitsiyalarga jalb qilish, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiy infratuzilmalarni va moliyaviy institutlarni rivojlantirish bilan bog'liq ayrim muammolarni hal qilishga erishildi. Ammo, hozirgi paytda ham iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, moliyaviy resurslarni tashkil etish va taqsimlash orqali korxona

moliyaviy faoliyatini faollashtirish va ishlab chiqarishni (xizmat ko'rsatishni) rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida samarali foydalanishni, ya'ni noklassik nazariyasi qoidalarini respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan turli mulk shaklidagi korxonalar sharoitida mos holda qo'llanilishini taqozo etmoqda. Tovar ishlab chiqarishga va iste'molchilarga nisbatan moliyaviy munosabatlarni moslashtirish, ishlab chiqarishning o'sishini, tovarlar realizatsiyasini kengaytirishning omili bo'lib hisoblanadi. Barqaror va yuqori darajada ishlab chiqarishni o'sishi ta'minlansa, yuqori iste'mol mavjud bo'lganda esa pulni nafaqat jamg'arish ko'payadi, balki uni turli sohalarga jalb etish orqali korxonalar faolligini oshirishga erishish va shu orqali ularni turli moliyaviy institutlar bilan uzviy aloqasini mustahkamlashga erishish mumkin bo'ladi. Bunday sharoitda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar kutilgan samarani berishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, korxona faolligining oshishi moliyaviy resurslar bozorini kengaytirish orqali iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili moliya tizimidagi subyektlar bo'lib hisoblanishini hisobga olib, moliya tizimini samarali boshqarishga erishish, avvalambor, puxta ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy va uning tarkibiy qismi bo'lmish moliya siyosatini yuritish va oqilona moliya ma'murchilikni turli moliya bo'g'inalrida tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Respublikamizda moliya tizimining bo'g'inalri moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishga asoslangan holda rivojlanib, ularning har biri pul mablag'lari jamg'armalarning shakllanishida va undan foydalanishda o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlar jamg'armalarning jamiyatdagi qayta ishlab chiqarishda tutgan o'tni va har xil roliga qarab belgilanadi va bir butun moliya tizimida shakllanadi. Shu bois ham mualiflar fikricha, moliya tizimini turli bo'g'inalar o'rtaсидаги молиави муносабатларига ишлаб чиқаришда туған отни ва

Bundan shunday xulosa chiqadiki, hozirda iqtisodiyotimiz erishayotgan yutuqlar qatorida iqtisodiy rivojlanishning Harakatlar

strategiyasi barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush farovonligi darajasining muttasil oshib borishi, tashqi savdo balansining ijobjiy saldo bilan bajarilishi, hech mubolag'asiz, moliya munosabatlarini moliya bo'g'irlari doirasida samarali yuritish va boshqarish natijasidir.

O'z o'mnida, rivojlanishning Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan moliya tizimida islohotlarni o'tkazishda muhim hisoblangan vazifalardan biri mustahkam moliya munosabatlar asosini shakllantirish hisoblanadi.

Moliya tizimini oqilona tashkil etish orqali moliya munosabatlarini bosqichma-bosqich kuchaytirib borish va ularni optimal boshqarish tizimini yaratish hukumatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Moliya tizimida moliyaviy munosabatlarni to'g'ri shakllantirish jarayonida davlat tomonidan moliya funksiyalarini sifatli darajada bajarish, shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi asosiy omil – moliya munosabatlarini oqilona tashkil etish va boshqarish talab qilinadi.

Shu nuqtai nazardan moliya tizimi quyidagi zamonaviy moliyaviy munosabatlar shakillarini o'z ichiga oladi:

- umum davlat moliyasi (davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar, davlat krediti va sug'urta jamg'armalari);
- turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar aksiyadorlik jamiyatları, firma, kichik va xususiy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatları moliyalari.

Korxonaning moliyaviy faoliyati iqtisodiy faoliyatning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatlari, moliyaviy resurslarning barqaror o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi korxonalarning moliyaviy holati bilan belgilanadi. Korxonalarning moliyaviy faoliyatini samarali yuritish esa korxona moliyaviy siyosati orqali amalga oshiriladi va boshqariladi. Korxona moliya siyosati, moliyaviy salohiyatni shakllantirish va undan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lib, u moliyaviy munosabatlarning natijasi hisoblanadi va yagona moliya siyosatiga asoslanadi.

Har qanday mamlakatda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham iqtisodiy o‘sishga samarali moliya siyosatisiz erishish imkonsiz.

Hozirgi sharoitda mikro va makro iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiy va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash raqobatbardoshlikka erishish bilan bog‘liq vazifalarning hech birini korxona moliyaviy munosabatlарини kuchaytirmasdan tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ana shuni e’tiborga olgan holda aytish mumkinki, korxonalar moliyasi – bu mustaqil iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u korxonaning pul daromadlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlari yig‘indisi sifatida amal qiladi. Moliya munosabatlарини o‘ziga xosligi shundaki, u doim pul harakatlari shaklida bo‘ladi, taqsimot xarakteriga ega va moddiy ishlab chiqarish sohasi qatnashchilarining turli daromad va jamg‘armalarining shakllanishi va ishlatalishini aks ettiradi. Korxona moliyasi davlatning yagona moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarning turli tarmoqlaridagi korxonalarda (tashkilotlarda) daromadlarning shakllanishida, taqsimlanishi va ishlatalishi jarayonini aks ettiradi. Korxonalar moliyasi milliy daromad va milliy boylik yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko‘rsatadi. Shu bilan birga korxona moliyasiga xos pul munosabatlарини 5 guruhga bo‘lish mumkin.

- korxona ichida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlар;
- korxonaning boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan munosabatlари;
- korxonaning yuqori, ya’ni o‘zi bo‘ysunuvchi tashkilot bilan munosabati yoki ichki moliya-sanoat guruhlари, shuningdek, xolding kompaniyalari bilan munosabatlари;
- korxonaning bank tizimlari bilan munosabatlари;
- korxonaning byudjet tizimlari bilan munosabatlари.

Munosabatlarning turli-tuman xarakterga egaligi va o‘ta muhimligi ularning yechimini talab qilib, ular doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni dolzarbligini belgilab beradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, korxonaning pul fondlari asosan uning balasini aktiv va passivida o'z aksini topadi.


Aktiv – korxonaning mol-mulkini o'zida aks ettirsa, passiv mol-mulkni o'zida aks ettiruvchi pul mablag'larini tashkil etuvchi manbalardir.

Korxona mol-mulki ikki qismidan iborat bo'ladi:

- aylanmadan tashqari aktivlar – bu nomoddiy aktivlar, asosiy fondlar, tugallanmagan qurilishlar, uzoq muddatga jalb etilgan moliyaviy mablag'lar;

- aylanma aktivlar – bu zaxiralar, debitor qarzdorliklar, qisqa muddatga jalb etilgan moliyaviy mablag'lar, pul mablag'ları, korxona mol-mulki tashkil etiladigan pul mablag'ları – xususiy mablag'lar (III bo'lim), shuningdek, qarz va jalb etiladigan (IV va V bo'lim) ko'rinishida bo'ladi. Shu o'rinda aytish joizki, qarz mablag'ları uzoq muddatli (IV bo'lim) va qisqa muddatli (V bo'lim) bo'ladi.

Aylanmadan tashqari aktivlarni tashkil etish manbalari xususiy mablag'lar va uzoq muddatli majburiyatlardan tashkil topsa, unda aylanma aktivlar – xususiy mablag'lar va qisqa muddatli majburiyatlardan tashkil topadi (1.1-chizma).



1.1-chizma. Korxonaning aktiv va passiv balansining uzviy bog'liqligi

Permanentli kapital – bu doimiy va uzoq muddatli kapital bo‘lib, uning tarkibiga xususiy mablag‘lar va uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi.

Aytish joizki, korxona moliyaviy munosabatlarini yanada takomillashtirilgan ko‘rinishlari ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan ko‘rsatib o‘tilayotganligiga ham duch kelish mumkin. Ammo ularning umumiylar mazmunga ega bo‘lgan fikrlarida tarqoqlik, ketma-ketlik yo‘qligi e’tirof etilmoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy munosabatlarni zamon talablaridan kelib chiqib, yagonaligini ta’minalashga erishish lozim. Aks holda, yangi moliyaviy munosabat va unga amal qilishni ta’minalash borasidagi harakatlar samarasiz bo‘lib katta moliyaviy xarajatlarni talab etadi.

Umuman olganda, korxonalar moliyasi – xo‘jalik yurituvchi subyekt va davlat pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan takror ishlab chiqarish, rag‘batlantirish va jamiyatning itimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalanishdagi pul munosabatlarining yig‘indisidir.

Ushbu ta’rifni umumlashtirish orqali qisqa ta’rif beradigan bo‘lsak, unda korxonalar moliyasi bu moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq pullik munosabatlar yig‘indisidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasini oldingi ma’muriy xarakterdagi boshqarish usullaridan (ya’ni limitlar, markazlashgan ta’mnot va boshqalardan) farqli ravishda korxonalarda samarali boshqarishning o‘ziga xos usullari shakllandiki, bular vositasida korxonaning moliyaviy resurs potensiali optimallashtirildi. Ular faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlari yanada kuchaytirildi. Bunda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish ahamiyati tezlik bilan o‘sdi va moliyaviy resurslar birinchi darajali ahamiyat kasb etgan holda korxonalarni ma’lum vaqt oraligida tezlik bilan boshqa resurslarga trasformatsiyalanish imkoniyatini kuchaytirdi.

Korxonalar moliyasi 2 asosiy funksiyani bajaradi:

- korxonaning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi olingan moliyaviy natijalarini taqsimlash;
- moliyaviy natijalarini taqsimlanishi natijasidagi pul fondlarini shakllanishi va tegishli moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilish.

Iqtisodiy adabiyotlarda hanuzgacha moliyaning /funksiyalarini 3,4 yoki 5 guruhga bo'lish orqali uning mazmun-mohiyatini yoritishga nisbatan urinishlar mavjud. Bunday holatni ijobjiy deb bo'lmaydi. Chunki u moliyaviy natijaviylikka erishishda ijobjiy roj o'ynamaydi.

Korxonalarni moliyaviy boshqaruvi tizimi: pul resurslarining vaqtli qiymati, pul oqimlari, tadbirkorlik va moliyaviy xatarlar, kapitallar bahosi, samarali bozor kabi qator konsepsiyalarga asoslanadi. Moliyaviy munosabatlardan tortib umum davlat miqyosigacha bo'lgan bosqichdagi pulning harakati bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga olishi sababli umum davlat, mahalliy xokimiyat organlari hamda korxonalar moliyasi farqlanadi.

Korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish jarayonida moliyaviy institutlar bilan moliyaviy munosabatlarda bo'ladi. Ularning asosiyları bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Yalpi daromadni shakllantirish va foydalanish jarayonida, xo'jalik subyektlararo moliyaviy munosabatlardan, ya'ni xomashyo, yoqilg'i, materiallar, butlovchi asbob uskunalar tayyor mahsulotni realizatsiya qilish, jarimlar to'lash va moliyaviy jarima olish hamda ikki yoklama shartnoma va majburiyatlarni bajarishdagi jarayonlar.
2. Investitsiyaga mo'ljallangan korxona qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish hamda qo'shma korxonalar tashkil etishda hissali mablag'lar orqali ishtiroy etish.
3. Korxonalar valyuta fondini tashkil etishda va foydalanishda tashqi iqtisodiy aloqa kompaniyalari bilan bo'lgan moliyaviy munosabatlardan.
4. Moliya tizimi organlari bilan korxonalar o'rtaida bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan. Jumladan: nobyudjet jamg'armalarga

ajratmalar (pensiya jamg'armasi, bandlik jang'armasi, yo'l jamg'armasi va h.k. hukumatimiz tomonidan amaliyotga kiritilishi mumkin bo'lgan jamg'armalar), respublika va mahalliy byudjetlarga soliqlar to'lash, korxona agar davlatga tegishli bo'lsa byudjetdan dotatsiya olish.

5. Tijorat banklaridan qisqa va uzoq muddatli kreditlar olish, ssudalarni qaytarish, kredit uchun foizlar to'lash bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasining salmogi yanada kengayadi. Bu holat korxonalar moliyaviy rejalarini mustaqil ishlab chiqaruvchi subyekt bo'lganligi bilan bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasini obyektiv bo'lishiga ta'sir etgan omillar mavjud bo'lib, ular tarkibi rang-barangdir. Bulardan asosiyllari:

- tovar pul munosabatlarining mavjudligi;
- xo'jalik subyektlarining turli xil mulk shakllarida faoliyat ko'rsatishi;
- iqtisodiy rag'batlantirish va kengaytirilgan ishlab chiqarishni moliyaviy ta'minlash maqsadida pul daromadlari hamda jamg'armalarini shakllantirish va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Korxonalar moliyasining tashkiliy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy-xo'jalik faoliyati soxasida mustaqillik;
- o'z-o'zini moliyalashtirish;
- ish natijasidan manfaatdorlik;
- moliyaviy resurslarni tashkil etish;
- vositalarni o'ziniki va boshqalarnikiga ajratish;
- byudjet va davlat nobyudjet jamg'armalari oldida o'z majburiyatlarini birinchi navbatda bajarish;
- korxona faoliyati ustidan moliyaviy nazoratni o'rnatish bo'lib hisoblanadi.

Korxonalar moliyasini boshqarish korxonaning moliyaviy OT faoliyatini boshqarish sifatida sotishdan tushiga e'saslangan

taqsimot obyektlarini moliyaviy boshqarishning asosiy obyekti hisoblanadi.

Moliyaviy boshqaruvni ma'lum bir uslub va tamoyillarga hamda ragbatlantirish hamda sanksiyalarga tayanib maxsus apparat amalga oshiradi. U yoki bu yo'nalishdagi vazifalarni bajarishda turli xil yo'nalishdagi yechimlarga duch kelish mumkin bo'ladi. Ammo ularni samarali yechishning o'ziga xos bo'lgan yo'llarini bor imkoniyatlardan tez va samarali foydalanish yoxud, yangi davr talabiga mos bo'lgan uslublarni joriy etish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Har qanday boshqaruv tizimiga xos bo'lgani kabi, moliyani boshqarishda ham obyektlar va subyektlar mavjud bo'ladi.

Moliyani boshqarish obyekti – davlat byudjeti, pensiya fondi, subyektlarning ixtiyoridagi markazlashmagan fondlar va sug'urta munosabatlari bo'lib hisoblanadi. Subyekt deganda moliyaviy munosabatlarning turkumlanishidan kelib chiqib, moliyaviy boshqaruv obyektlarini moliyani boshqaruv subyektlari mos kelishi tushuniladi, ya'ni moliya organlari va soliq xizmatchilari, moliya xizmat (bo'lim)lari va sug'urta organlari. Ular moliyaviy obyektlarni boshqarishda yetakchi subyektlar bo'lib hisoblanadilar. Bu yerda jismoniy va yuridik shaxslar, davlat, tadbirdorlik subyektlari va h.k. Ular qaysi sohada, qayerda va qanday shaklda faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, birgina "subyektlar" so'zida mujassamlangan.

### **1.3. Korxonaning moliyaviy mexanizmi**

Korxonalarini rivojlanishi va ularni barqaror korxona sifatida shakllanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bunga korxonaning kuchli moddiy-texnika bazasini yoritish bilan bir qatorda, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan va korxona moliyaviy munosabatlarini samarali harakatga keltiruvchi mexanizmlarini to'g'ri boshqarish ham kiradi. Ushbu maqsadga korxona moliyaviy

mexanizmlarini isloh qilmasdan, uni korxona moliyaviy barqarorligini yuzaga chiqarishga yo'naltirmasdan, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirmasdan, korxonaning mo'ljallangan moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanmasdan turib erishib bo'lmaydi. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan korxona moliya tizimini modernizatsiyalash jarayoni ushbu sohaga yo'naltirilgan moliyaviy resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni taqozo etadi.

Bu borada korxonalarining moliyaviy resurslarini tashkil etish va foydalanish mexanizmlarini isloh qilish, zamon talablariga mos keladigan tartibda boshqarishni yo'lga qo'yish moliyaviy mexanizmlarni boshqarishning bosh vazifasi bo'lishi lozim. Aynan ushbu yondashuv korxona uchun mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni tashkil etish va sarflanishiga alohida munosabat qaratishini talab etadi.

Korxona moliyaviy mexanizmini keng tushuncha bo'lib, u nafaqat moliyaviy boshqaruvni, balki korxona moliyaviy faoliyatini rejalashtirish va rag'batlantirishni talab etadi. Ularni inobatga olgan holda, korxona moliyaviy mexanizmi tushunchasini quyidagicha e'tirof etish mumkin: "Korxonada moliyaviy mexanizm – bu boshqaruvchi tizim va korxona xo'jalik faoliyatini operativ rejalashtirish va rag'batlantirish elementlari yig'indisidir". Korxona moliyaviy mexanizmi – bu muayyan aniq xarajatni amalga oshirish maqsadida moliyaviy mablag'larni harakatga keltirish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarishdir.


Fikrimizcha, boshqaruv o'z tarkibiga quyidagi bo'limlarini: texnika, tijorat, ishlab chiqarish, moliya, buxgalteriya hisobi va boshqalarini olishi mumkin. Shunday qilib, korxonaning xo'jalik faoliyati quyidagi ishlab chiqarish bo'limlari elementlaridan iborat bo'ladi (1.2-chizma).

Shu nuqtai nazardan korxonaning moliyaviy mexanizmi – bu korxonani moliyaviy munosabatlarni boshqarishni moliyaviy richag va usullar orqali tashkil etishdir.

Moliya mexanizmini richag va usullariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy boshqarish obyekti sifatidagi moliyaviy munosabat;

- moliyaviy richaglar (foyda, daromad, moliyaviy jazolar, baho va boshqalar);
- moliyaviy usullar (moliyaviy hisob, moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazorat);
- moliyaviy boshqarishni qonuniy asoslari va axborot-uslubiy manbalari.



### 1.2-chizma. Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi ishlab chiqarish elementlari

Agarda moliyaviy munosabatlар investitsiyalashtirish, kreditlashish, soliqqa tortish, moliyaviy richaglar tizimi, sug'urtalash va boshqalar orqali subyektlar o'rtaсидаги moliyaviy munosabatlarni aks ettirsa, unda moliyaviy richaglarga korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi foya, daromad, moliyaviy jazolar, baho, dividendlar, ish xaqi, soliqlar va boshqalar kiradi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini boshqarishda moliyaviy usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois moliyaviy usullar moliyaviy hisob, moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazoratdan keng foydalanishda o'z ifodasini topadi.

Ushbularga asoslangan holda moliyaviy munosabatlarning ichki va tashqi aloqalarga ta'sirini tahlil etish bosh mezon qilib olingan.

Ayni damda har bir korxonaning xo'jalik faoliyatidagi asosiy maqsadi mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) natijasida foyda olishdan iboratdir.

Korxonaning xo'jalik faoliyati esa uch bosqichdan iboratdir, ya'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bosqichlaridan.

Qolaversa, bu jarayonlarda buxgalteriya hisobi quyidagi axborot manbalariga ega bo'ladi: tovar – material, qiymatliklarni yig'ish (zagotovka); yig'ilgan tovar-moddiy qiymatliklarni omborlarga taxlash; sotish uchun tovar (ish xizmatlari) ishlab chiqarish; tayyor mahsulotni taxlash, saqlash, mahsulotni sotish. Shu sababdan har qanday korxonaning huquqiy asosini Konstitutsiya tashkil etadi. Unda korxona moliyasini boshqarishga tegishli jihatlar aks ettiriladi, masalan:

- korxonaning barcha mablag'lari maxsus hisobvaraqqa jamlanishi va ularidan faqat qonunchilik doirasida foydalaniish;

- boshqaruvning markazlashgan va markazlashmagan darajalari o'rtaidiagi moliyaviy munosabatlar;

- korxona moliyasi borasida ishchi va boshqaruvchi-tadbirkor o'rtaida vakolatlarning chegaralanishi. Bunda korxona moliyaviy boshqaruvini normativ tartibga solish maqsadida alohida sohalarga tegishli bo'lgan qonunlarga amal qilishi yoki ularni e'tiborga olishlari mumkin.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi islohotlari makroiqtisodiy tartibga solish va boshqarish vositasi sifatida qabul qilinmoqda. Ularni boshqarishga taalluqli qonunchilik hukumatga yalpi xaratjatlar darajasini, bankrotlikni keltirib chiqaruvchi ko'rsatkichlar hajmini va korxona mablag'larini, qarzlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi, ya'ni makroiqtisodiy siyosatning asosiy yo'naliishlarini nazorat qilish quyidagilarni qonuniy biriktirish orqali amalga oshiriladi:

- tadbirkor va ishchilar o'rtasida moliyaviy boshqaruv vakolatlarini taqsimlanishi;
- ichki va tashqi nazoratni cheklovchi va korxona faoliyatini yuritish jarayonlari oshkorraligini pasaytiruvchi faoliyatini ta'qilash;
- qonunchilikdan makroiqtisodiy nazoratni ta'minlovchi vosita sifatida foydalanish maqsadida, korxona kamomadimi, davlatga bo'lgan qarz va uni bartaraf etilishini ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonada boshqarish quyidagilarni ham o'z ichiga oladi: boshqarish uchun axborot manbalarini to'plash, uni tahlil qilish va moliyaviy qaror qabul qilish. O'z navbatida, qaror qabul qilish esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: prognozlash (bashoratlash), operativ boshqarish va nazorat (taftish va audit).

#### **1.4. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish asoslari, ularni shakllantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari**

Bozor munosabatlарини тартибга солувчи молиавија виситаларинг ўзага келтирish молиавија муносабатларни босқичма-босқич ривојлантирishда корхона молиасини аhamiyati tobora ortib бормоqда. Mamlakatimizda oxirgi besh yilda Harakatlar strategiyasi dasturi asosida amalg'a oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, ayniqsa kichik hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bog'liq bo'ladi.

Chunki taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, kichik biznesni rivojlantirish, xususiylashtirish jarayonini tezashtirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar berish, ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, ammo shu bilan bir vaqtda byudjet daromadlarining kamayishiga yo'l qo'ymaslik iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari hisoblanadi. Shu bois iqtisodiy

vazifalardan kelib chiqqan holda korxonalar iqtisodiyotini rivojlantirishga erishishda moliyaviy munosabatlardan foydalanishning optimal variantlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish zarur bo'lmoqda. Bu esa ancha murakkab va qiyin vazifa bo'lib, ko'p hollarda ularni bir vaqtida bajarish imkoniyati cheragalangan. Shu tufayli korxonalardan shunday vaziyatni ta'minlash talab etiladiki, shakllangan moliyaviy munosabatlar korxona iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ishlab chiqarishni kontsenratsiyalashuviga ijobiy ta'sir etishi lozim bo'lsin.

Aytish joizki, agarda jahon iqtisodiyotida XX asrning birinchi yarmida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ya'ni yiriklashtirish holati kuzatilgan bo'lsa, uning ikkinchi yarmidan boshlab to hozirgi kunga qadar va undan keyingi davrlarda esa teskari holat, ya'ni kichik (o'rta) biznesni va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilishini qayd etilganligi fikrimiz dalilidir.

Rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotidagi so'nggi paytlarda kichik va o'rta biznesning bir qator afzalliliklari tufayli ularning salmog'i tobora ortib bormoqda. Masalan, Yaponianing kichik korxonalarida barcha mamlakat ishchilarining 80 foizi ishlamoqda. Germaniya va Niderlandiyadagi kichik va o'rta korxonalar hissasiga eksport qilinayotgan sanoat mahsulotining 40 % to'g'ri keladi. AQShda esa so'nggi 10 yil ichida kichik korxonalar evaziga 20 mln yangi ish joyi vujudga keltirildi<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda muhim masalalardan biri turli shakldagi korxonalarini tashkil etish hamda rivojlantirish uchun ular faoliyatiga investitsiyalar (shu jumladan, xorijiy investitsiyalar)ni jalb qilishdir. Buning uchun kerakli investitsiyalarning samaradorligini har tomonlama asoslab beruvchi takliflar va xulosalarni o'zida mujassamlashtirgan korxona moliyasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>3</sup> Шишкян С.Н. Государственное регулирование экономики: предпринимательско-правовой аспект. М.: Волтерс Клювер, 2007. 256 с.

Hozirda korxona moliyasisiz biron-bir ishlab chiqarish, xususan, tijorat g'oyasini amalga oshirib bo'lmaydi. Buni taraqqiy etgan mamlakatlarning tadbirkorlari to'g'ri qabul qilgan holda o'z ishlarini tashkil etib kelmoqdalar.

Shu bois ham korxona moliyasi tadbirkorlikning asosini tashkil etadi, deb aytilsa mubolag'a bo'lmaydi. U korxona rahbarlarining o'z maqsadlariga qanday erishishlarini, qilinayotgan xarajatlarning qancha vaqt ichida qoplanishini, ishning daromadligini qay darajada bo'lishini asoslab beradi.

Iqtisodiy ilm sohasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri, iqtisodiyotning erkinlashuvi va globallashuvi sharoitida korxonalar moliyasini to'g'ri tashkil etish, ularni shakllantirish va boshqarishni takomillashtirish iqtisodiyotda qanchalik ijobjiy siljishlarni ta'minlanayotganini tasavvur etish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish moliyaviy munosabatlarni rivojlanishiga to'siq bo'lувchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini qidirish muhim bo'lmoqda. Faqat shunday imkoniyatlarga erishish orqali korxonalar byudjet daromadlarini oshirishga, yangi ish o'rinnarini yaratishga, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida korxona moliyasini rivojlanishish borasida chuqur ilmiy izlanishlarni olib borishni ham vazifa etib qo'yadi.

Keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish vazifalari ichida korxona moliyaviy munosabatlarini o'rganish, uning faoliyatidagi ijobjiy natijalarni amaliy faoliyatga tadbiq qilish, korxonaning moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish, korxonada moliyaviy ahvolni sog'lomlashirish asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bir paytning o'zida korxonalarni ichki moliyaviy imkoniyatlarni izlab topish, uning aktivlarini to'g'ri boshqarish, ulardan samarali foydalanish, moliyaviy resurslarni aniq yo'nalishlarga safarbar etish kabi vazifalar ham nazarda tutiladi. Korxona moliyasini chuqur o'rganish natijasidan kelib chiqqan holda korxonalarda, tadbirkor shaxslar moliya (biznes) rejasini tuzish va uning bajarilishini taminlashni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarga ega

bo'lish ham asosiy vazifa sifatida qo'yiladi, ya'ni jamoa mulki, davlat mulki va xorijiy tashkilotlar, davlatlar mulkchiligi asosida tashkil qilingan, xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, fermer xo'jaliklari va xolding konpaniyalari, birjalardan va boshqa korxona, tashkilot va boshqa muassasalarning jismoniy tadbirkorlarning moliyasini tashkil etish va har birini o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etgan holda ko'nikmalarga ega bo'lish fan oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlar respublikamiz iqtisodiy rivojlanishida korxona moliyaviy munosabatlarini samarali tashkil etishni taqozo qiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Korxona, korxonalar moliyasi, fan predmeti, moliya tizimi, moliyaviy boshqaruvi, moliyaviy mexanizm, moliyaviy munosabat, moliyaviy richag, moliyaviy usul, aktiv, passiv, taqsimot, nazorat.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. "Korxonalar moliyasi" fanini o'qitishdan maqsad nima?
2. Korxonalar moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Korxonalar moliyasining tashkiliy tamoyillari nimalardan iborat?
4. Korxonada moliyaviy mexanizm qanday tashkil etiladi?
5. Korxonalarni aktivi va passivi deganda nima tushuniladi?

### **Topshiriqlar**

1. "Korxonalar moliyasi" fanining ahamiyati haqida gapirib bering.
2. Moliya tizimining shakllanishida korxonalar moliyasining tutgan o'mi muhimligi asoslab bering.

- 3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida korxonalar moliyasiga doir fikrlarni o'rganib chiqing.
- 4. Korxonalar moliyasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plang.
- 5. Korxonalar moliyasini tashkil etish yo'llarini aytib bering.

## **II BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY MUNOSABATLARINING MAZMUNI VA ULARNI TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI**

### **2.1. Korxonalar moliyaviy munosabatlarining mazmuni va ularni mustahkamlash**

Xo‘jalik subyektlari moliyasi – bu moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan maqsadli yo‘nalishlarda foydalanish bilan bog‘liq pulli munosabatlar yig‘indisi sifatida moliyaviy munosabatlar maydoniga chiqadi va o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishga kirishadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasini boshqarishning o‘ziga xos usullarini shakllantirish va rivojlantirish orqali korxonaning resurs potensialini optimallashtirishga erishish moliyaviy resurslarni samarali boshqarish ahamiyatini tezlik bilan oshiradi. Buning uchun moliyaviy resurslarni birinchi darajali ahamiyat kasb etganligini ta’minlash ma’lum vaqt oralig‘ida tezlik bilan korxona kapitalini boshqa resurslarga trasformatsiyalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Bu esa o‘z vaqtida korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish jarayonida bir nechta moliyaviy institutlararo turli moliyaviy munosabatlarni yuzaga keltiradi va rivojlantiradi. Bunday moliyaviy munosabatlarini mazmun-mohiyati quyidagilarda o‘z aksini topadi. Ularning asosiyлари bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- yalpi daromadni shakllantirish va foydalanish jarayonida, xo‘jalik subyektlariaro moliyaviy munosabatlar, ya’ni xomashyo, yoqilg‘i, materiallar, bug‘lovchi asbob uskunalar tayyor mahsulotni realizatsiya qilish, jarimalar to‘lash va moliyaviy jarima olish hamda ikki yoqlama shartnoma va majburiyatlami bajarish jarayonlarini rivojlantirib borishida;

- investitsiyaga mo‘ljallangan korxona qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish hamda qo‘shma korxonalar tashkil

etishda hissali mablag'lar orqali ishtirok etish ko'lamini kengayib borishida;

– korxonalar valyuta fondini tashkil etishda va foydalanishda tashqi iqtisodiy aloqa kompaniyalari bilan bo'lgan moliyaviy munosabatlar o'rnatishda va ularni rivojlantirib borishda;

– moliya tizimi organlari bilan korxonalar o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni yanada kuchayishida, shu jumladan nobyudjet jamg'armalarga ajratmalar, respublika va mahalliy byudjetlarga soliqlar to'lashda, korxona agar davlatga tegishli bo'lsa byudjetdan dotatsiya, subvensiya olish ko'lamini oqilona tashkil etishda;

– tijorat banklaridan qisqa va uzoq muddatli kreditlar olishda, ssudalarni qaytarishda, kredit uchun foizlar to'lash bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarni rivojlantirib borishda;

– korxonalar moliyasining salmog'ini bosqichma-bosqich kengayib borishida;

– korxonalar o'z moliyaviy rejalarini mustaqil ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishda.

Aytish joizki, moliyaviy munosabatlarni mazmun-mohiyatini, ularni namoyon bo'lish vaqt va amal qilish xususiyatlarini tushunib yetmagan holda korxona faoliyatini hamda kapitalini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaslik mumkin. Korxonalarni moliyaviy munosabatlari ular ixtiyoridagi kapitalni qanchalik samarali boshqarish holati moliyaviy munosabatlarni o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lishi zarur. Moliyaviy munosabatlarni samarali va kuchli tashkil etish orqali katta hajmdagi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish mumkin bo'ladi.

Oqilona tashkil etilgan moliyaviy munosabatlar korxonalarning o'sib borayotgan kapitalga egalik qilishga, undan har tomonlama samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Chunki, korxonalarning moliyaviy munosabatlarini talab darajasida tashkil etilishi aynan korxona kapitalini ko'p darajada tashkil etilishi, aynan korxona kapitali miqdorini o'sishini va shu orqali daromad (foyda) darajasini belgilaydi.

Moliyaviy munosabatlar korxona kapitali, uni muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun nafaqat o‘z-o‘zidan o‘sishi, balki korxona faoliyatini butun jamiyat manfaati yo‘lida harakat qilishga majburlaydigan, iqtisodiy jihatdan oqlangan amal qilish sharoitlariga imkoniyat yaratib berish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish jamiyat va davlatning vazifasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatga erishish vositasi korxonaning quyidagi yo‘nalishlaridagi siyosati bo‘lib hisoblanadi:

- shakllanayotgan va turli mulk shaktiga moslashishga qaratilgan korxonalarini moliyaviy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- moliyaviy jihatdan yordam berish ko‘lamini kengaytirishga yordam ko‘rsatish. Bunda vaqtincha bo‘sh turgan moliyaviy resurslarni vaqtincha resursga muhtoj korxonalar ixtiyoriga berish (qaytarib berish sharti asosida) bu esa qo‘srimcha xarajatlarni cheklaydi, kapitallar harakatini oshiradi;
- korxona moliyaviy munosabatlarini huquqiy va tashkiliy jihatdan mustahkamlash.

Bu vazifalarni amalga oshirilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- korxonalarda moliyaviy munosabatlarning muntazam murakkablashib borishini keltirib chiqaradi;
- korxonalar orasida raqobatlashuv darajasini oshiradi;
- tovarlar (xizmatlar) taqchilligining qisqarishiga, so‘ngra esa tugatilishiga, iste’molchilarga taklif qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) miqdori va sifatini nafaqat oshishiga balki, ular assortimentining kengayishiga, assortimentlar kesimida rentabellik darajasini kengayishiga ham olib keladi;
- korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qilinadigan xarajatlarni pasaytirish orqali narxlarni tartibga keltirish va korxonalar daromadini (foydasini) oshirish, iste’molchilar pul daromadlarini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Yangi korxonalarini tashkil qilishda hamda qandaydir yangi loyiha yoki g‘oyani amalga oshirishda kapitalning asosiy va aylanma kapitalga

ajratilishi ulardan samarali foydalanish ham moliyaviy munosabatlarni kuchaytirilishini ko'zda tutadi. Bunda dastlabki moliyaviy munosabatlarni shakllantirishning mumkin bo'lgan usullariga alohida qaratilishi lozim bo'ladi:

- korxonalarning oldingi moliyaviy natijalaridan amaldagi ya'ni joriy natijalarini yuqori bo'lishligiga erishish;
- shaxsiy jamg'armalar (nafaqat pul ko'rinishida, balki buyum, tovar shaklida bo'lganlardan) maksimal darajada korxona moliyaviy natijalarini oshirish yo'lida foydalanish;
- ma'lum majburiyatlar bilan (masalan, foizga) olingan qarz mablag'lari kapital aylanishi tezligiga ta'siri, uni ta'sirini pasaytirish (har qanday olingan qarz xarajatlarni qoplangan holda foyda keltirishi lozim).

Shunday qilib, korxona kapitalini shakllantirishning moliyaviy jihatlarini muammolarini mukammal tushunib yetishda ham iqtisodiy, ham siyosiy tavsifdagagi ko'plab omillardan kelib chiqib, moliyaviy qaror qabul qilishi zarur. Mazkur vaziyatda moliyaviy omillari haqida emas, balki korxona moliyaviy munosabatlarini tashqi muhitga bog'liqligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish muhimdir. Bunda korxona quyidagi tashqi muhit omillarini e'tiborga qaratishi talab etiladi:

- korxonada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning moliyaviy sharoitlari;
- korxona faoliyati biznes sohasidagi qonunchilik nimanidir hal qiladigan yoki ta'qiqlaydigan me'yoriy hujjatlar;
- korxona chiqadigan yoki chiqmoqchi bo'lgan sohadagi raqobat darajasi;
- iste'molchini tugatib turgan moliyaviy-iqtisodiy ustuvorliklar tizimi;
- ishlab chiqarishni boslash va moliyaviy munosabatlarga yo'l ochib berishga zarur bo'lgan omillarning ilmiy-ishlab chiqarish darajasi va ularga erishish sharoitlari (narxlar, sifat, majburiy to'lovlar va h.k.);
- talab qilingan moliyaviy resurslarni jalb qilish shartlari.

Moliyaviy munosabatlarning xususiyati shundaki, oldindan hisob-kitoblar bosqichida korxona ishlab chiqarish jarayonini me'yorida tashkil qilish uchun kapitalni o'z ixtiyoriga olishning tejamli usullarini izlashi lozimligi bilan belgilanadi. Moliyaviy munosabatlarning mazmun-mohiyatida ularni mustahkamlashda bu jarayon muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy munosabatlarni mustahkamlash maqsadida moliyaviy qarorni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy natijalar shakllarining taqqoslama tablili o'tkazilishi, ikkinchidan daslabki kapitalni shakllantirish zaruriy infratuzilmaning mavjudligi, korxonaning moliyaviy ta'minotiga tayyorgarligi bilan bog'liq xususiyatlarga ega bo'lishi muhimdir.

Bunday vaziyatda korxona kapitalini shakllantirish va mustahkamlash har bir moliyaviy munosabatni o'zida gavdalantirish lozim, ya'ni har qanday vaziyatda ham amaldagi moliyaiviy munosabatlar doirasida mablag'lar harakati yangi qiymatni yaratgan holda ma'lum samara yoki foyda (daromad) keltirishi lozim.

Korxona moliyaviy munosabatlarini mustahkamlash davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishi Harakatlar strategiyasida muhim o'rinnegallashi lozim bo'ladi. Bunda:

- moliyaviy biznes uchun qulay huquqiy sharoitlarni yaratish va takomillashtirish (soliqlarni kamaytirish, erkinlikni kengaytirish, eksport potensialini oshirishda moliyaviy mexanizmlar rolini oshirish va h.k.);

- korxonalarning pul jamg'armalarini uning muhim investitsiya resurslariga aylantirishni rag'batlantirishni davom ettirish (moliyaviy nazoratni kuchaytirish, kredit resurslariga bo'lgan talablarni optimal chegaralarini aniqlash, sofiq to'lovlarini soliq yukiga ta'sir etishini pasaytirish);

- korxona ishchi va xizmatchilarni vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini korxona faoliyatiga yangi innovatsion mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarishga jalb etishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va rivojlantirib borish;

- korxonada innovatsion mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni davlat tomonidan muhofaza qilishning samarali moliyaviy tizimini takomillashtirishga erishish (sug'ortalash mexanizmlari) orqali ishchi-xizmatchilarni va aholini korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;

- korxona moliyaviy faoliyati ustidan jamoatchitlik nazoratini o'matish.

Shu bilan bir qatorda hozirgi sharoitda korxonani innovatsion taraqqiyot yo'liga olib chiqishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, korxonalarda moliyaviy munosabatlarni yanada mustahkamlab borishga erishish lozim.

## **2.2. Korxonalar tashkiliy-huquqiy shakllari va ularning korxonalarni moliyaviy munosabatlariga ta'siri**

O'zbekistonda butun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda mulkchilikning turli shakllari teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi" - deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoasi yoki muassisalar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Korxona joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'lmalarni tashkil qilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona-mustaqlil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar:

- mulkchilik shakliga ko'ra, davlat va nodavlat (xususiy, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, aksiyadorlik jamiyatları, qo'shma korxonalar, chet el korxonaları, aralash shakldagi va boshqalar);
- tarmoq belgilariga ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va boshqalar;
- ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga ko'ra, mikrofirmalar, kichik va yirik korxonalar;
- faoliyat miqyosiga ko'ra, xalqaro (boshqa davlatlarda filiallarga ega bo'lgan), mamlakat miqyosida faoliyat yurituvchi, lokal, ya'ni bit aholi punktida faoliyat yurituvchi korxonalar;
- faoliyat yuritish muddatiga ko'ra uzlusiz, mavsumiy va uzlukli; xo'jalik yuritish shakllariga ko'ra korxonalar shaxsiy xamkorlikda faoliyat olib boruvchi (1 kishi yoki oila), mas'uliyati cheklangan, aksionerlik jamiyatları va boshqa shakldagi;
- faoliyat maqsadlariga ko'ra foyda olishni maqsad qilib qo'ygan ishlab chiqarish, tijorat va boshqa korxonalar hamda foyda olish emas. balki ijtimoiy samarani-homiylik, xayriya, beg'araz yordamni maqsad qilib qo'ygan korxonalarga;
- ixtisoslashuv darajasiga ko'ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo'linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o'rtaсидаги oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi;
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyalı va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo'linishi mumkin;
- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlash-tirish darajasiga ko'ra, korxonalar to'liq va qisman avtomatlashtirilgan

yoki mexanizatsiyalashtirilgan, qo'l-mashina va faqat qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo'linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxona Nizom asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi tashkilot va bu tashkilotning nomi, nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatları, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'fari va boshqa aktivlar kiruvchi Nizom jamg'armasiga tayanadi. Nizom jamg'armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar-davlat, huquqiy va jismoniy (rezident va norezident) shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

Amaldağı qonunchilikka asosan korxona davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina yuridik shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: muassisning arizasi, korxonaning nizomi, korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislar shartnomasi, davlat bojini to'laganlik haqida kvitansiya va boshqalar.

Korxona o'ziga xos bo'lган malum xususiyatlarga ega: **birinchidan**, korxona o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

**Ikkinchidan**, korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zar munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi.

**Uchiuchidan**, korxona xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xomashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnomaga tuzish huquqiga ega.

**To'rtinchidan**, korxona qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega.

**Beshinchidan**, korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobtlarni taqdim etadi.

**Oltinchidan**, korxona o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdag'i PF-3305-sonli Farmoniga asosan "o'rta korxonalar" tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes subyektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni: yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida - 100 kishidan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsuletlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida - 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida - 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Yirik korxonalar tarkibiga ishlovchilar soni 500 va undan ortiq kishini tashkil qiluvchi korxonalarni kiritish mumkin.

Xususiy lashtirish va davlat tasarruffidan chiqarish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimizda yangi tashkiliy-huquqiy turdag'i - **qo'shma, ijara, hissadorlik, xususiy, ollaviy, kooperativ** va boshqa korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xususiy mulk mulkchilik shaklining boshqa ko'rinishlari bilan bir qatorda daxlsizligi va davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan. Yangi qonunchilik hujjatlariiga yangi iqtisodiy tushuncha - korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi kiritilgan.

Korxonalarining qonun hujjatlari va boshqa xo'jalik huquqi normalarida ko'zda tutilgan mulkchilik shakli, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va hajmi, kapitalning shakllanishi, turli xil firmalararo uyushmalarga a'zo bo'lish usullari va olib boruvchi raqobatchilik kurashlari bilan farq qiluvchi faoliyat tavsifi va mazmuniga bog'liq bo'lgan strukturaviy tuzilishining usul va ko'rinishlari **xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklini ifodalaydi**. Hozirgi vaqtida mulkchilik shakliga ko'ra davlat, munitsipial, jamao, individual (ollaviy, xususiy) turdag'i korxonalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga biriktirib qo'yilgan mulk tavsifi yoki tezkor (operativ) boshqaruv huquqiga ko'ra ham tashniflanadi.

Xo'jalik faoliyati yurituvchi har bir subyekt bir qator huquqlarga ega bo'lib, bular bir tomonidan, ularning ichki tashkilotchiliginini aniqlab bersa, ikkinchi tomonidan, jismoniy va huquqiy shaxslar hamda davlat bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirishda ko'zga tashlanadi.

Korxonalar huquqiy shaklining har bir ko'rinishida ularning egalari, ya'ni xususiy mulk egalari, korxona bilan turli darajadagi aloqada bo'ladilar. Masalan, ochiq turdag'i hissadorlik jamiyati egalari korxona mulkining bir qismigagina egalik qilish huquqiga egalar hamda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda ham o'z aksiyalari miqyosida ishtirok etadilar.

Xo'jalik o'rtoqliklarida (masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda) esa mulk egasi va mulk yaqinlashtirilgan bo'lib, korxonani boshqarishda ularga bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratib berilgan.

Keng tarqalgan korxona shakllaridan biri xo'jalik o'rtoqliklari bo'lib, ular ishonch asosidagi to'liq o'rtoqlik (kommandit o'rtoqligi) ko'rinishida tashkil qilishi mumkin.

Qonunga asosan ishtirokchilari imzolagan shartnomalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hamda ularga tegishli mulk javobgarligiga ega bo'lgan o'rtoqliklar-to'liq o'rtoqliklar hisoblanadi.

**Kommandit o'rtoqligi** bir nechta fuqarolar yoki huquqiy shaxslarning o'zaro xo'jalik faoliyati yuritish maqsadidagi shartnomalar asosida birlashuv natijasida paydo bo'ladi.

Jamiatlarning ko'pchiligidagi kapitallar birlashtirilgan bo'ladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilib, Nizom jamg'armasi hujjatlarda (Nizom va ta'sis shartnomasi) belgilab qo'yilgan ulushlarga bo'lingan bo'ladi.

Bunday jamiyat muassislari jamiyatning majburiyatlar uchun javobgar bo'lmaydilar hamda jamiyat faoliyatida o'zlarini kiritgan ulushlar doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

### 2.3. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyani tashkil etishda avvalo mazkur shakldagi korxonalarning tashkiliy-huquqiy jihatlari va ulardagi moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish va faoliyatini tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan. Ushbu qonunning 2-moddasiga muvofiq: ustav jamg'armasi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo'lingan hamda

jamiyatning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlari aniq belgilangan xo'jalik yurituvchi subyekt - **aksiyadorlik jamiyatni deb ataladi**.

Aksiyadorlik jamiyat mavjud korxonalarini qayta tashkil etish yoki yangisini barpo etish yo'li bilan ta'sis etilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatni huquqiy shaxs bo'lib, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, shuningdek, ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar aksiyadorlik jamiyatining muassislari bo'la oladilar. Jamiyatning ustav fondi ular tomonidan tuzilgan ta'sis shartnomasi asosida shakllantiriladi. Shartnomada aksiyadorlik jamiyatining barpo etish yuzasidan birqalikdagi faoliyat tartibini, ishtirokchilaming aksiyalarga yozilgan shaxslar va uchinchi shaxslar oldidagi ma'suliyatlari belgilab qo'yiladi.

Jamiyat jamlangan kapitaliga qarab maxsus qimmatli qog'oz - aksiya chiqaradi. Aksiyani sotib olganlar hissadorlarga aylanishadi va foydadan o'z hissasi - dividendni olib turadilar. Aksiyadorlik jamiyatni o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli butun mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi. Aksiyadorlar jamiyatni majburiyatlari bo'yicha javobgar emas va uning faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun faqat o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida javobgar hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan aksiyalarning nominal qiymatlaridan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim. Aksiya bo'linmas hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etishda uning jami aksiyalari ta'sischilar orasida tarqatilishi kerak.

Aksiya fond birjalarida muomalada bo'ladi, bir shaxsdan boshqasiga erkin o'tadi va aksiyalar uchun uning hissasi to'g'risidagi hujjat hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatini:

- aksiyadoring umumiy majlisi;
- kuzatuv kengashi;
- ijro organi boshqaradi.

Aksiyadorlarning umumiy majlisi oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, u aksiyadorlik jamiyatni faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatida umumiy yig'ilishlar o'ttasidagi muddatda hissadorlar manfaatlarini ifodalash va ustavda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish uchun aksiyadorlik jamiyatining kengashi (kuzatuv kengashi) tuziladi.

Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlik jamiyatini ijroiya organining a'zolari bo'la olmaydilar.

Ustavda ko'zda tutilgan boshqaruv organi aksiyadorlik jamiyatining ishini tashkil etadi, umumiy yig'ilishga yillik hisobotini taqdim etadi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi bevosita umumiy yig'ilish va kengashi (kuzatuv kengashi) vakolatiga taalluqli masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qiladi.

Boshqaruv ishiga uning raisi rahbarlik qiladi. Rais aksiyadorlik jamiyatni Ustaviga binoan tayinlanadi yoki saylanadi. Rais jamiyat nomidan harakatlarni ishonch qog'ozisiz bajara oladi.

Jamiyat boshqaruvining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni taftish komissiyasi amalga oshiradi. Aktivlar qiymati 1 milliard so'mdan ortiq jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Moliya-xo'jalik faoliyatining tashqi audit manfaatlari jamiyatni va uning aksiyadorlari bilan bog'lanmagan mustaqil auditor tomonidan bir yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi kerak. Moliyaviy hisobot taftish komissiyasi va tashqi audit tomonidan tasdiqlangach, ochiq matbuotda e'lon qilinishi lozim.

Aksiyadorlik shaklidagi tadbirkorlikning quyidagi afzalliklari bor:

-aksiyadorlik jamiyatni bu biznesning ko'proq demokratik shaklidir. Unga xohilagan kishi bevosita yoki obuna bo'lish yo'li bilan aksiyani sotib olib, a'zo bo'lishi va mulk egasiga aylanishi mumkin;

-vaqtincha bekor turgan sarmoyalarni markazlashuviga erishiladi;

-nisbatan samarali sohalarga kapital oqimini tashkil qilish imkoniyati tug‘iladi;

-davlat mulkini xususiy lashtirish imkoniyatlari kengayadi;

-moliyaviy barqarorlikka erishiladi;

-tadbirkorlikda tavakkalchilik xavfi kamayadi (hissador o‘z aksiyasi miqyosida ziyon ko‘rsa, korxona egasi butun mulkidan ajraladi);

-bir vaqtning o‘zida ishlab chiqaruvchilar, /tovar yetkazib beruvchilar, haridorlar va mahalliy davlat organlari manfaatlarining o‘zaro muvofiqlashuviga erishiladi.

Dividend foydaning soliqlar va majburiy to‘lovlar to‘langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so‘ng aksiyadorlar jamiyatni ixtiyoridagi aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanishi kerak bo‘lgan qismi.

Jamiyat aksiyalarining har bir turi bo‘yicha e’lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart.

Aksiyadorlar jamiyatint umumiy yig‘ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari bilan to‘lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida, agar ushbu qonun va jamiyat ustavida o‘zgacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qaror qabul qilishga haqlidir.

Yillik dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan va to‘langan oraliq dividendlardan kam bo‘lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo‘yicha dividend to‘lamaslik to‘g‘risida shuningdek, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘liq bo‘lmagan miqdorda dividendlar to‘lash haqidagi qaror qabul qilishga haqli, bunday aksiyalar bo‘yicha devidend miqdori ustavda belgilab qo‘yiladi

Dividendlar jamiyatning joriy yildagi sof foydasining bir qismi ko‘rinishida to‘lanadi.

Dividendlar to'lash vaqtida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi.

## **2.4. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar moliysi**

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi.

Jamiyat o'z faoliyati uchun ustav fondi miqdorida javobgar hisoblanadi. Har qanday zarar, xavf-xatar va tadbirdorlik risklari jamiyat a'zolari o'rtasida ularning ulushiga mutanosib tarzda taqsimlanishi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi korxona ta'sischilarining individual zararlari darajasini yoki bankrot bo'lish ehtimolini pasaytiradi.

Mas'uliyati cheklangan shirkat firmalar nomiga "limited" so'zi qo'shiladi, bu inglizcha so'z bo'lib, "cheklangan" ma'nosini bildiradi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning bir qator turlari mavjud. Ularning eng keng tarqalgan shakli korporatsiyalardir. Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan bozor sharoitiga tez moslashish xususiyatiga hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatlari o'tishini ta'minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o'z faoliyatlarini har bir ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o'zlashtirib boradilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi kichik korxonalar xususiyatlari (muomala kapitalining kichikligi, uning tez aylanuvchanligi, ishlab chiqarish vositalarini tezda almashтирish imkoniyatlari va boshqalar) uning bir qancha afzalliklarga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga yetkazish va o'zlashtirish, talabning tez o'zgarib turish riskini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;
- tezkor texnik servisning ishonchiligi va iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish;
- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga hamda bozordagi vaziyatlarning o'zgarishlariga muvofiq olib borish;
- ortiqcha ish kuchini o'ziga singdirish;
- boshqarishning oddiyligi, katta ma'muriy apparatning yo'qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o'zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o'zini oqlashi. kapital aylanmasida yuqori tezlik:

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasini tashkil etishning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- korxona aktivlarini shakllantirishni nisbatan soddaligi va tezkorligi;
- muomala kapitalining kichikligi va tez aylanuvchanligi;
- ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari;
- bozor kon'yukturasiga mos ravishda tovarlarni ishlab chiqarishga tez moslashuvchanligi;
- har qanday zarar, xavf-xatar va tadbirkorlik risklari jamiyat a'zolari o'rtasida ularning ulushiga mutanosib tarzda taqsimlanishi;
- moliyaviy menejerning moliyaviy qarorlar qabul qilishida aksionerlik jamiyatlariga nisbatan mustaqillik va erkinlik darajasining yuqoriligi.

## **2.5. Kichik va xususiy korxonalar moliyasi**

- Umuman olganda tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:
  - yakka tartibdagи tadbirkorlik;
  - jamoa tadbirkorligi;
  - mikrofirma va kichik korxonalar.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yo'llash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtaсидаги o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

**Jamoa tadbirkorligi.** Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi bиргаликдаги тадбиркорлик faoliyatidir. Tadbirkorlikning bu shakli er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligini yuritish nazarda tutiladi.

Er-xotinga umumiy mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish munosabalarida er-xotin nomidan arning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi. Bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati obyekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, uy-joy mulkdorlaridan birining ish munosabatlariga kirishishi oilaning voyaga yetgan boshqa a'zolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar tariqasida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan keyin ular bиргаликдаги тадбиркорлик

faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasi taraflari bo‘lishlari mumkin.

Dehqon xo‘jaligi va oddiy shirkatni tuzish, ularning faoliyat yuritishi va faoliyatini tugatish bilan bog‘liq munosabatlар qонун hujjatlari bilan tarlibga solinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmay, o‘z faoliyatini amalga oshiradigan tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxsga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqidagi guvohnoma beriladi va u jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazish reestrida qayd qilinadi. Ushbu guvohnoma bankda hisob-kitob varag‘i ochish, soliq organlaridan ro‘yxatdan o‘tish, muhr va boshqa rekvizitlarni tayyorlash uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida xususiy korxonalar asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. O‘zbekiston Ruspublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi”gi Qonuni<sup>4</sup>ga muvofiq tadbirkorlik daromad yoki foyda olish uchun o‘z mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida amalga oshiriluvchi tashabbuskor xo‘jalik faoliyatini anglatadi.

Xususiy tadbirkorlikning mulki quyidagilarni mujassamlashtirilishi orqali o‘z aksini topadi, ya‘ni: uning o‘z mol mulki (yoki davlat, kooperativ yohud bo‘lak korxona mulkining hammasi yoki bir qismi), fuqaroning mulki sifatida unga o‘tishi (yoki sotib olinishi, ijara mulkini sotib olish yohud uni qonunda kozda tutilgan boshqa usullar bilan shaxsiy jamgarmalar, bank qarzları) asosida, davlat mulki va jamoat tashkilotlari mulkidan tadbirkorlikning foydalanishi (yoxud yuqorida ko‘rsatilgan usullarni uyg‘unlashtirgan holda qo‘lga kiritish) asosida shakllanishi mumkin.

Xususiy korxonalar yuridik shaxs hisoblanib, o‘z mustaqil balansiga, muhriga va hisob raqamiga ega bo‘ladi. O‘zi joylashgan

<sup>4</sup> O‘zbekiston Ruspublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi»gi 2012-yil 2-maydagи O‘RQ-328-soni qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

yerdagi tuman, shahar va shahardagi tuman hokimligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi. Yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yuritish istagini bildirgan tadbirkor o'z turar joyidagi tuman, shahar va shahardagi tuman hokimligiga ariza beradi. Xususiy korxonalar o'z faoliyatlarida tarmoq korxonalariga va vakolatxonalariga ega bo'lishi mumkin. Xususiy korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Xususiy korxonalar xodimlarni yozma ravishda o'zaro tuzilgan hamda tomonlarning huquq, majburiyaflari bayon etilgan mehnat shartnomasi asosida ishga yollaydi. Mehnat shartnomasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- malaka yoki muayyan mutaxasislik, lavozim bo'yicha vazifalarini bajarish majburiyati;
- shartnoma amal qilish muddati;
- mehnat sharoitlari va ish haqi, ijtimoiy va tibbiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot tartibi;
- xodimni ijtimoiy jihatdan himoyalash;
- mehnat shartnomasini buzganlik uchun javobgarlik;
- tomonlar roziligi bilan belgilanadigan boshqa ma'lumotlar.

Asosiy va aylanma mablag'lar, shuningdek, korxonaning mustaqil balansida qiymati ifodalangan boshqa boyliklar xususiy korxona mulkini tashkil etadi.

Mulkdorning pul va moddiy ajratmalari, xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, banklar va boshqa qarz beruvchidan olingan qarzlar, qimmatli qog'ozlar harakatidan yoxud ularni sotishdan olingan daromadlar; meros tariqasida, almashadirish va sovg'a qilish yo'li bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ta'qilganmagan boshqa manbalardan tushgan mol-mulk xususiy korxona mulkini shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin.

Xususiy korxona o'z majburiyatlari bo'yicha mulkdorga xususiy va shaxsiy mulk huquqiga tegishli bo'lgan mulk bilan javobgar bo'ladi.

U o‘z ishlab chiqarishi va kapital qurilishini ixtisoslashgan ta’minot - savdo tashkilotlari, birjalar, yarmarkalar, kimoshdi savdolari xizmatidan foydalanib yoki bevosita ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatga kirishib, shuningdek, chetdan keltirish yo‘li bilan moddiy- texnika jihatidan mustaqil ta’minlaydi.

Davlat xususiy tadbirkorlikning huquqlari va qonuniy manfaatlariiga rioya etilishini kafolatlaydi, erkin holda raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratadi, moddiy-ashyoviy, moliyaviy, axborot va boshqa resurslarga erishuvning teng imkoniyatlarini ta’minlaydi, bunda ularning bozorga yakka egaligiga yo‘l qo‘ymaydi. Davlat yoki boshqa idoralar tomonidan o‘z vakolatiga yoxud qonun talablariga nomuvofiq qarorlar qabul qilingan va bu xususiy tadbirkor haq-huquqlarini cheklashga sabab bo‘lgan hollarda u bunday hujjalarning haqiqiy emas deb e’tirof etilishini so‘rab sudga murojaat qilish huquqiga ega. Davlat idoralarini yoxud ularning mansabdar shaxslarining ko‘rsatmalarini amalga oshirish va uning huquqlariga daxl qilish natijasida tadbirkorga yetkazilgan zararlar bu idoralar tomonidan qoplanishi kerak.

Bank bilan xususiy korxona o‘rtasidagi munosabatlar shartnomaviy xarakterga ega. Xususiy korxona mijoz sifatida o‘ziga kredit hisob-kitob va kassa xizmatini ko‘rsatadigan bankni mustaqil tanlaydi.

Banklar kreditning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minalash borasida mijozlarning garovlarini, kafolatlarini, ishonchnomalarini va boshqa shakldagi majburiyatlarini qabul qiladi.

Xususiy korxona va yakka tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi asosida (2008 yil) soliq to‘laydilar.

## **2.6. Korxonalarning byudjet, nobyudjet fondlari, tijorat banklari va boshqa muassasalar bilan munosabatlari**

Korxona foydasining bir qismi mahsulot tannarxida ijtimoiy zaruratlarga (nafaqa, ijtimoiy sug‘urta, ish bilan bandlik jamg‘arma-

lariga), soliq va yig‘imlarni to‘lashga, maxsus byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar ko‘rinishida yo‘naltiriladi.

Oldingi mavzularda korxonalar turli moliyaviy institutlar bilan o‘zaro aloqlarda bo‘lishi, moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishi, shu jumladan byudjet va davlat nobyudjet jamg‘armalari oldida o‘z majburiyatlarini birinchi navbatda bajarishi lozimligini aytib o‘tgan edik.

Korxona moliyaviy munosabatlari tarkibidagi pul muomalalarining quyidagi guruhlari ajratiladi:

Kontragentlar bilan – birlamchi daromadlar shakllanishi bo‘yicha ichki xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan maqsadli jamg‘armalarni tashkil etish va undan foydalanish (ustav kapitali, ish haqi fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish jamg‘armasi, mukofotlash fondlari va h.k.). Bunda ish haqi doirasidagi pul muomalasi qo‘shilgan qiymat yaratilishida asosiy o‘rin egallaydi. Moliyaviy munosabatlardagi ilk belgilar shu jarayonda yuzaga keladi.

Korxonalar bilan – mablag‘larni taqsimlash bo‘yicha: bunda moliyaviy resurslarning harakati nojamg‘arma shaklida amalga oshiriladi (shartnoma majburiyatları buzilganda jarima to‘lash yoki uni olish, turli xil to‘lovlar to‘lash, o‘zaro hamkorlik faoliyatidan olingan foydani taqsimlashda qatnashish, boshqa korxona va davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib olish, ular bo‘yicha dividendlar olish va h.k.). Mahsulot iste’molchilari bilan munosabatlarda korxona mustaqil ravishda shartnoma turi va shaklini tanlaydi, o‘z mahsuloti va xizmatlariga baholar belgilaydi. Shuningdek, sug‘urta tashkilotlari bilan - turli majburiy va ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha munosabatlar o‘rnatalidi. Sanab o‘tilgan omillar yakuniy moliyaviy natijaga ta’sir ko‘rsatadi.

Bank tizimi bilan - hisob-kassa xizmati bo‘yicha, ssuda olish va uni qoplash, foizlar to‘lash, shuningdek, ortiqcha pul mablag‘larini banklarga aniq bir to‘lovlar evaziga foydalanish uchun berish bo‘yicha:

- davlat bilan – byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar tashkil etish bo‘yicha. Pul muomalalarining bu turi byudjet va nobyudjet

jamg'armalariga to'lovlar, turli soliqlar, badallar o'tkazish bilan amalga oshadi. Boshqa tomondan, noishlab chiqarish soxasi, maqsadli dasturlar va boshqalar byudjet tomonidan moliyalashtiriladi;

- yuqori boshqaruvi tuzilmalari bilan – moliyaviy resurslarning ichki tarmoq taqsimoti bo'yicha "vertikal" va "gorizontal" o'zaro aloqasi.

Pul muomalasining bu guruhlari umuman olganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul daromadlari va jamg'armalarining shakllanishi va taqsimlanishini hamda ularning moliya va bank tizimlari oldida, joriy, ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy ta'minot va ishchilarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilgan majburiyatlarini bajarish borasida sarflanishini ko'zda tutgan korxona moliyasini tashkil etadi.

Korxonaning byudjet bilan o'zaro munosabatlarini tasniflash korxonalarning daromad va xarajatlar balansini 4 – bo'limida keltirilgan. U korxonalarni byudjet va nobyudjet fondlar bilan ikkiyoqlama munosabatlari deb nomlanadi. Bu bo'lim ham ikki qismdan iborat bo'lib, xarajat qismida davlat byudjetiga turli xil soliqlarni to'lash va nobyudjet fondlarga har xil ajratmalarni amalga oshirish bo'lsa, daromad qismida markazlashgan fondlardan olinadigan ajratmalar ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning byudjet bilan o'zaro munosabatlarini barqarorlashtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Respublikamizda soliqlar va majburiy to'lovlarining byudjetga o'z vaqtida va toliq tushishini taminlash, soliq va to'lov intizomini mustaxkamlash, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun mas'uliyatini oshirish maqsadida qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan. Ularga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga soliqlar va byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni qarzdor korxonaning mulki hisobidan undirib olish huquqi berilishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi Adliya vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birligida to'lovni qarzdar korxonaning mulki hisobidan undirib olish tartibini bir oy muddatda ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Tijorat banklari vakillik hisobvaraqlarining holatidan qat'iy nazar, soliq to'lovchida mablag' mavjud bo'lgan taqdirda byudjetga to'lovlar o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlashlari belgilab qo'yilgan.

Bunda belgilangan tartibdag'i majburiyatlar buzilganda, aybdor korxona va tijorat bankiga yuridik yoki jismoniy shaxsning bank hisobvarag'iiga oldindan o'tkazilmay qolgan pul mablag'i miqdoriga nisbatan jarima solinadi.

Pul mablag'larni jamlash va ularni ssuda (qarz)ga berish banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. To'lovlarda vositachilik qilish esa ular vazifasi doirasidagi ish sanaladi. Banklar va pul mablag'larini o'zlarida saqlashni markazlashtirar ekan, mijozlar topshiriqnomasi bo'yicha yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisobkitob qiladi, g'aznaga to'lovlar hamda korxonalarga kassa xizmatini ko'rsatadi.

Korxona, tashkilotlarga pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblar olib borish, kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun hisob-kitob yoki joriy varaqalar ochiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, ish haqi to'lash, byudjetga to'lovlar va ijtimoiy sug'urta jamg'armasi (nafaka jamg'armasi)ga to'lovlar barcha korxonalar uchun birinchi navbatda tulanadigan to'lovlar hisoblanadi.

Boshqa to'lovlar buyicha hisob-kitoblar navbatma-navbat bajariladi.

Aytish joizki, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda va ilmiy ishlarda korxona moliyaviy munosabatlari tarkibini bir necha guruhlarga ajratish orqali o'z oldlariga qo'yilgan maqsadga erishishni urinish holatlari mavjud. Misol uchun, uy xo'jaligi bilan byudjet tashkilotlari o'rta sidagi munosabat, aholi bilan byudjet o'rta sidagi munosabat va h.k. Aytish joizki, uy xo'jaligi subyekt maqomiga ega bo'lgan taqdirdagina

moliyaviy munosabatlarni shakllantira oladi. Jismoniy shaxs sifatida esa bir tomonlama, ya’ni ijtimoiy munosabatlar doirasida aloqada bo‘ladi va qo‘shilgan qiymat yaratishdagi roli cheklanadi. Keyingisi, ya’ni aholi faqat bir qismi qo‘shilgan qiymat yaratuvchisi bo‘lib hisoblandi. Shu bois uning aktiv qismi, ya’ni ishlab chiqarish bilan band bo‘lganlari qo‘shilgan qiymat yaratishi mumkin. Bu nuqtai-nazardan aholini barcha qatlamini moliyaviy munosabatlarni ishtirokchisi deb bo‘lmaydi. Aks holda moliyaviy munosabatlari ijtimoiy munosabatlardan yoki iqtisodiy munosabatlardan farqlanmagan bo‘lar edi.

## **2.7. Korxonalardagi moliya xizmatining funksiya va vazifalari**

Bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog‘liq holda korxonalarda moliyaviy ishlar sifat jihatdan yangi mazmunga ega bo‘lmoqda. Bozor munosabatlarini takomillashtirib borish bilan moliya xizmatining muhim vazifasi faqatgina byudjet, mol yetkazib beruvchilar, xatidorlar, bank, boshqa korxona tashkilotlari va o‘z xizmatchilar oldidagi majburiyatlarni bajarishgina bo‘lib qolmay, moliyaviy menejmentni oqilona tashkil qilishdan iboratdir. Bu hol o‘z navbatida moliya xizmati ishlarida sifat jihatdan ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Moliya menejmenti xo‘jalik subyektlarini ma’lum darajadagi moliyaviy strategiya va taktikasini ishlab chiqadi. Buning uchun korxonada moliya hisobotlari tahlil qilinib, xo‘jalikning aktiv va passivlari tarkibini o‘zgarishiga bog‘liq daromadlarning prognoziga (istiqboliga) baho beriladi.

Bu ahvol tadbirkorlikni boshqarishdagi tizimda moliya xizmatining tarkibini va uni o‘rni to‘g‘risidagi taassurotni o‘zgartirib, bozor munosabatlariga moslashtiradi.

Korxonaning moliyaviy xizmati deyilganda korxonani boshqarish tizimda ma’lum faoliyatlarni bajaruvchi mustaqil tuzilmaviy bo‘linma tushuniladi. Odatda bunday bo‘linma bo‘lib moliyaviy bo‘lim hisoblanadi. Uning tuzilishi va undagi xodimlar soni korxonaning tashqi

huquqiy iqtisodiy shakliga, xo'jalik faoliyatining xarakteriga, ishlab chiqarish hajmiga va korxonada ishlovchi xodimlarning umumiyligi soniga bog'liq bo'ladi.

Xo'jalik faoliyatining xarakteri va ishlab chiqarish hajmi pul oborotining miqdorini, boshqa korxonalar – ta'minotchilar va xaridorlar (buyurtmachi), tijorat banklari, boshqa kreditorlar, byudjet bilan hisob-kitoblar va ular bilan bog'liq to'lov hujjatlarining miqdorini belgilab beradi. Xodimlar soni kassa operatsiyalari va ishchi-xizmatchilar bilan hisob-kitoblar va ish haqi fondi hajmiga ta'sir qiladi.

Korxonada moliyaviy ishning asosiy yo'nalishlari moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalshtirish va nazorat ishlaridan iborat.

Kichik korxonalarda moliyaviy ishlar moliya - hisobot bo'limi yoki buxgalteriya tarkibidagi moliyaviy sektor tomonidan bajarilishi mumkin, yirik korxonalarda moliyaviy bo'lim bir necha guruhi (byuro)lardan tarkib topadi, ularning har biriga ma'lum funksiyalar yuklatilgan, bo'lim boshlig'i bevosita korxonaning boshqaruvchiga bo'y sunadi.

Keltirilgan moliyaviy bo'limning tuzilishi umuman korxonada barcha xarajatlarni moliyalashtirish va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun bajarish kerak bo'lgan moliyaviy ishlarning mazmuniga mos keladi.

Yaqin vaqtgacha korxonada moliyaviy ish so'f operativ masalalarni, hisob-kitob va to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish, boshqa korxonalar, byudjet, banklar, ishchi xizmatchilar bilan hisob-kitoblarni tashkil qilishdan iborat edi. Moliyaviy bo'limlarga Davlat korxonasi moliyaviy xizmatining vazifalari va funksiyalarini belgilab bergan "Moliyaviy ishni tashkil qilish to'g'risida"gi Nizom asosida korxonaning 5 yillik moliyaviy rejasida moliyaviy ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadlarida istiqbolli reja loyihibalarini baholash, ko'rsatgichning yillik moliyaviy rejalarini tuzish vazifasi yuklatilgan.

Lekin milliy xo'jalikni boshqarishning tarmoqli tizimi sharoitida korxonalarning moliyaviy rejalashtirish sohasidagi huquqlari juda chegaralangan edi.

Davlat korxonasining 5 yillik moliyaviy rejasi tarmoq vazirligining topshiriqlari bilan belgilangan. Korxona o'zi mustaqil tasdiqlaydigan yillik moliyaviy rejalar, korxonalarga sotishga beriladigan mahsulot hajmi, muhim buyumlar nomenklaturasi, foyda summasi, rentabellik ko'rsatkichi, byudjetga to'lovlar summasi bo'yicha nazorat raqamlari asosida tuzilgan korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi va ishlatalishi yuqori tashkilotlar tomonidan tartibga solingan. Korxonalar to'la xo'jalik hisobiga o'tish davrida esa - iqtisodiy rag'batlantirish fondlariga ajratmalar normativlari va kapital qo'yilmalari orqali tartiblashtirilib turilgan.

Moliyaviy rejani tuzishda korxonalarda xo'jalik yuritishning moliyaviy natijalarini yaxshilash, imkoniyatlarni safarbar qilishda haqiqiy iqtisodiy manfaatdorlik yotar edi, chunki amortizatsiya ajratmalarini va foydaning katta qismi vazirlik tomonidan markazlashgan fondlarga olib qo'yilgan va boshqa korxonalar o'rtaida taqsimlangan. O'tgan XX asrning 1986-1990 yillarda vazirliklar o'rtaida qayta taqsimlanadigan moliyaviy resurslar hajmi hatto avvalgi 5 yilliklarga nisbatan oshganligi qayd etilgan edi.

O'sha vaqtarda yirik birlashmalar tarkibiga kiruvchi ko'pgina korxonalarda moliyaviy xizmat umuman bo'lmagan, hisob-kitob va to'lov xujjalatini rasmiylashtirish bilan esa buxgalteriya xodimlaridan 1-2 kishi shug'ullangan.

Hozirgi sharoitda xo'jalik yuritishning moliyaviy ish sifati jihatidan yangi mazmun kashf etmoqda, bu obyektiv ravishda mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi va mulkchilikning shakllariga asoslangan turli tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy shakldagi korxonalarning vujudga kelishi, davlat korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, korxonaning xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatidagi, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mustaqilligi bilan bog'liq bo'ladi.

Aylanmalari va xodimlar soni kam bo'lgan kichik korxonalarda (xususiy, individual yoki masuliyati cheklangan o'rtoqliklarda) moliyachining funksiyalarini buxgalter faoliyati bilan birlashtirilishi mumkin, lekin yirikroq korxonalarda, ayniqsa ochiq yoki yopiq turdag'i hissadorlik jamiyatlari shaklidagi korxonalarda korxonani boshqarish tizimida moliyaviy xizmatning bo'lishi zarur deb topildi.

Xo'jalik yuritishning bozor sharoitlarida moliyaviy xizmatning muhim vazifasi bo'lib nafaqat byudjet, banklar, ta'minotchilar, korxona xodimlari oldidagi majburiyatlar, boshqa barcha moliyaviy majburiyatlarni bajarish, hisob-kitobiarni amalga oshirish, o'zlarining va qarzga olingan mablag'lar ishlatalishi ustidan nazorat qilish, balki barcha sanab o'tilgan masalalarini o'z ishlab chiqarishiga nisbatan sifat jihatdan yangilariga ega bo'lgan moliyaviy menejmentni tashkil qilish ham hisoblanadi.

Qisqacha moliyaviy menejmentni quyidagicha ta'riflash mumkin: moliyaviy menejment - bu o'z xususiy mablag'lari va jalb qilingan kapitalni eng samarali ishlatish va maksimal foyda olish maqsadlarda moliyaviy oqimlarni boshqarishni tashkil etishdir. Moliyaviy menejment moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish asosida ma'lum moliyaviy strategiya va taktikani ishlab chiqarishni ko'zda tutadi, buni u ko'rsatkichlar tizimi va korxona aktiv va passivlarining tarkibi o'zgarishiga ko'ra daromadlarni istiqbollashtirish yordamida amalga oshiradi. Ko'rinish turibdiki, bu moliyaviy xizmatlarning strukturasi haqidagi va uning korxonani boshqarish tizimidagi o'rni haqidagi eski tasavvurlarni o'zgartiradi.

Moliyani boshqarish apparatining xo'jalik yurituvchi subyekti umumiy boshqarish apparatining muhim qismi hisoblanadi. Yirik korxonalarda moliyaviy direktor yoki bosh moliyaviy menejer boshchiligidagi moliyaviy direksiya tuzilishi mumkin. U hissadorlik jamiyati boshqaruvchisi yoki korxona direksiyasi qarori bilan tashkil qilinadi.

Moliyaviy direksiya xo'jalik yurituvchi subyektning xo'jalik va moliyaviy faoliyatining xarakteri, tashkiliy, huquqiy iqtisodiy shakliga bog'liq bo'lgan strukturasiga ega bo'ladi. Moliyaviy direksiyaning bo'limmalari masalan quyidagilar bo'lishi mumkin: moliyaviy bo'lim, reja iqtisod bo'limi, buxgalteriya, iqtisodiy tahlil byurosi, valyuta operatsiyalari bo'limi va boshqalar. Barcha bo'limlarning strukturasi, funksiyalari va mas'uliyati, ularni boshqarishning boshqa bo'g'irlari bilan o'zaro munosabatlari moliyaviy direksiya to'g'risidagi Nizom bilan belgilanishi lozim.

Moliyaviy boshqaruvning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- korxona xo'jalik faoliyatini moliyalashtirishni ta'minlash;
- xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy rivojlanish dasturini ishlab chiqish;
- investitsiya siyosatini ishlab chiqish;
- korxonaning barcha bo'limmalari uchun pul mablag'larini sarflash tizimini o'rgatish;
- valyutaviy siyosatni ishlab chiqarish va valyutaviy faoliyatni ta'minlash;
- moliyaviy rejalashtirish, bizneslarning tuzilishida ishtirok etish;
- ta'minotchilar, xaridorlar, pudratchilar, banklar, byudjet bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urtalanishni ta'minlash;
- garov, trans, lizing va boshqa operatsiyalarni o'tkazish;
- moliyaviy-xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish;
- moliyaviy hisobot yuritish, buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hujjatlarni tuzish.

Korxonaning o'chami qo'yilgan maqsadlariga ko'ra yuqorida sanab o'tilgan faoliyatlar guruhrlar kesimida bo'linishi (detallashishi) yoki kengayishi mumkin. Masalan, investitsiya siyosati nafaqat kapital qo'yilmalarni amalga oshirish bilan, balki boshqa korxonaning nizom kapitaliga mablag'lar qo'yish yoki o'z aksiyalarini chiqarish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bu faoliyatni amalga oshirishda moliya sohasidagi professional mutaxassis sifatidagi moliyaviy menejer bosh rol o'ynaydi. Yirik korxonalarda bir nechta moliyaviy menejerlar ishlaydi, ular har xil ma'lum mansab vazifalarini bajaradi. Moliyaviy menejerlar guruhini yetakchi moliyaviy menejer boshqaradi, bunday guruhlar bir nechta bo'lsa, bosh menejer boshqaradi.

Moliyaviy menejerning professional darajasi uning moliyaviy va kredit sohasidagi bilimlari soliqlar, bank, birja va moliyaviy faoliyatlar, buxgalteriya hisobi sohasidagi qonunchilikni bilishi, korxonaning balansini tablil qila olishligi bilan belgilanadi. Moliyaviy menejer valyutaviy qonunchilikni, moliyaviy bozorda ishlashni bilishi lozim bo'ladi.

G'arb mamlakatlarda bunday mansab vazifalarini faqat yuqori malakali mutaxassis bajara olishi mumkin xolos, uning mehnatiga mos holda juda katta ish haqi to'lanadi. Odatda moliyaviy menejer korxonaning egasi emas, balki sharnoma bo'yicha ishlayotgan xodim bo'ladi. O'zining malakasi va boshqaruv faoliyatining natijalariga ko'ra moliyaviy menejer nafaqat ish haqi, balki foydadan ma'lum foiz ham olishi mumkin.

### Tayanch so'z va iboralar

Xo'jalik subyektlari moliyasi, korxonalar tashkiliy-huquqiy shakllari, aksionerlik jamiyat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiya, yakka tartibdagi tadbirkorlik, korxonalarning moliyaviy munosabatlari, hisob-kitob varaqlarini ochish.

### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Korxonalarning qanday tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud?
2. Aksionerlik jamiyatlari moliyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasi qanday tashkil etiladi?
4. Xususiy korxona va yakka tartibdag'i tadbirdorlik qanday farqli va o'xshash tomonlari mavjud?
5. Korxonalar nobyudjet fondlari, tijorat banklari va boshqa muassasalar bilan qanday munosabatda bo'ladi?
6. Korxonalarning byudjet bilan munosabatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Moliyaviy menejer kim?

### **Topshiriqlar**

1. Korxonalar tashkil etish bo'yicha nizom jamg'armalarni o'rganib chiqing.
2. Samarqand viloyati bo'yicha xususiy korxonalar va qo'shma korxonalar haqidagi amaliy ma'lumotlarni to'plang va tahlil qiling.
3. Korxonani mustaqil subyekt sifatida taysiflab bering.
4. Korxonalarning byudjet, nobyudjet fondlari, tijorat banklari va boshqa muassasalar bilan munosabatlarini chizma ko'rinishida ifodalang.
5. Biron korxona misolida moliya-kredit tizimlari bilan munosabatlarini o'rganing va aytib bering.

6. Korxona uchun bankda hisobraqam ochish tartibini o'rganib chiqing.

### **III BOB. KORXONALARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH XARAJATLARI, ULARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH**

#### **3.1. Korxonalarda mahsuleti ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mohiyati**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o'rinn tutadi.

Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovar sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir.

Korxonalarda xarajat turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiy, moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxona xarajatlari asosan xomashyo, materiallar, yoqilg'i va mehnatga haq to'lash xarajatlaridan iborat bo'ladi.

Respublikamizda xarajat moddalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5 fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (O'z.R. VM.ning 2003-yil 25 dekabrdagi 567-sonli qarori bilan o'zgartirish kiritilgan) "Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asoslanadi.

Bu Nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish yo'nalişidagi ustama xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- mamuriy xarajatlari;

✓ boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

– foizlar bo'yicha xarajatlar;

– xorijiy valyuta operatsiyalarida yuzaga keladig'an salbiy kurs farqlari;

– qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;

✓ moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Ishlab chiqarish yo'nalishidagi hamma xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritiladi. Bu esa ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

Har bir xil mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir mahsulotning tannarxi kelib chiqadi.

Tannarx ko'rsatkichi korxona faoliyatida muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U qancha past bo'lsa, ishlab chiqarish rentabelligi shuncha yuqori bo'ladi.

Yuqorida ishlab chiqarish xarajatlariga berilgan tushunchalardan ma'lumki, tannarxga korxonalarning hamma xarajatlari qo'shilmaydi, ba'zi xarajatlari boshqa manbalar hisobidan qoplanadi. Masalan, foyda hisobidan davr xarajatlari qoplanadi.

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)ni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi.

Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagicha tartibda guruhsilanadi:

– ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta ajratmalar;
- asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlari.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari qo‘yilgan vazifalarga muvofiq xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalariga bo‘linadi.

Xarajatlarni elementlari bo‘yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga qarab aniqlash va tegishli smetalar tuzishga asos bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya moddalarini bo‘yicha guruhlash esa mahsulotlar tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur xarajatlar xomashyo va materiallarni tayyorlash, qayta ishlash, yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish, yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lmagan xarajatlarga korxonaning madaniy-maishiy obyektlariga sarflanadigan xarajatlar kiradi.

Shuningdek korxonalarda xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishiغا ko‘ra bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar tarkibiga korxonalarga mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan xomashyo va materiallar, mehnatga haq to‘lash (ajratmalar bilan birga), ishlab chiqarishda foydalilanilayotgan asosiy vositalar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Bevosita moddiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot (ish va xizmat)larning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotlar tayyorlash, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishda foydalilaniladigan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va material xarajatlarini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan tashqari yuqoridagi Nizomga muvofiq quyidagi xarajatlar ham bevosita moddiy xarajatlar tarkibiga kiradi:

– normal texnologiya jarayonini taminlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ish, xizmat yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojiga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarни tuzatish uchun ehtiyoj qismlar, inventarlar, qiymati, xo'jalik buyumlari va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalari;

– sotib olinadigan, kelgusida korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

– tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, korxonaning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lмаган ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha muomalalarni bajarish, xomashyo va materialarga ishlov berish, ularning sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Korxona ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini markaziy ombordan, sexga, shuningdek, tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlar hisoblanadi;

✓ tabiiy xomashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslash-tirish, yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtlarga haq to'lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun esa

yog'och-taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari;

✓ texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonalarining transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

✓ korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdag'i xarid qilinadigan energiya. Bunda korxonaning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyiga transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari moddiy xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi;

✓ ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ularning ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

✓ korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog'liq xarajatlar, jumladan yuklash va tushirish ishlari ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kiritilishi zarur;

✓ korxonalar tomonidan mol yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi;

✓ mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlardan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalaniishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashilanadi;

✓ moddiy xarajatlar elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlaridan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'imlar, transportda

tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakilanadi.

Bevosita mehnat xarajatlari: bevosita ishlab chiqarish xodimlari, ishlab chiqarish jarayonida ishlayotgan mashina operatorlari va bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan boshqa xodimlar mehnat haqi xarajatlari.

Shuningdek nizomga ko'ra, bevosita mehnat xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylit uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar, shu jumladan:

- texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ishdan tashqari vaqtida, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzuksiz ish staji uchun ustamalar;

- aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega

bo‘lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan jo‘nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytgacha to‘lanadigan, yo‘lda o‘tgan har bir sutka uchun to‘lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal tamirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko‘chma va qatnov xususiyati uchun ustama;
- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo‘lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda), ish joyiga jo‘nab ketishlaridan oldin va orqaga qaytishlarigacha o‘tadigan normativ vaqt uchun qo‘srimcha haq;
- mehnatga haq to‘lashning rayonlar bo‘yicha tartibga solinishiga, shu jumladan rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to‘lovlar;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan (yig‘ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo‘lda o‘tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko‘ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda tutilib qolningan kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to‘lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);
- ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqtini jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqtini uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash;
- ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo‘srimcha tatillar uchun kompensatsiyalar, o‘smirlarning imtiyozli soatları, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

- majburiy tatilda bo‘lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to‘lash;
- donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;
- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig‘inlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha yig‘inlar va boshqalar) mehnat haqi to‘lash.
- xo‘jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagaga kiradi;
- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

Bilvosita xarajatlar esa mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘limgan xarajatlar hisoblanib, ularga mamuriy-boshqaruv xarajatlari, boshqaruv asbob-uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari kiradi.

Rejalashtirilishiga qarab xarajatlarni qisqa va uzoq muddatli xarajatlarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli xarajatlar korxonaning taktik maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Uzoq muddatli xarajatlar esa korxonaning strategik maqsadini amalga oshirishda yuzaga keladi.

Nizomga asosan mahsulotni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi: mahsulotni o‘rash, saqlash, ortish, joyigacha tashish, me’yor chegarasida reklama xarajatlari va hokazo.

### **3.2. Korxonalarning asosiy faoliyati bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari smetasini tuzish tartibi**

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi - korxona ishining muhim ko‘satkichidir. U ishlab chiqarishni rejalashtirish davomida aniqlanadi

va moliyaviy rejalashtirishda foydani, sotiladigan mahsulotning butun hajmini va uning alohida turlarining rentabelligini aniqlash uchun ishlatalidi.

Kelgusi yili ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan to'la tannarxi umumlashtiruvchi hujjatda-mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining smetasida aniqlanadi. Korxonaning xo'jalik faoliyatini bir yilgi rejalashtirishda xarajatlar smetasi har bir kvartalga bo'lingan holda bir yilga tuziladi. Lekin bunday smeta tuzish xo'jalik yuritishning barqaror sharoitlarida mumkin xolos. Inflyatsiyaning yuqori sur'ati, mehnatga haq to'lashning minimal miqdori indeksatsiya qilinishining, yoqilg'i va xomashyo narxlarining o'sishi va boshqa sabablar yillik reja tuzishni juda qiyinlashtiradi.

Korxonalarga berilgan xo'jalik yuritish mustaqilligi va anchagina murakkab iqtisodiy sharoitda ishlayotgan korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish bo'yicha asoslangan uslubiy ko'rsatmalarining yo'qligi ham tannarxnii rejalashtirishga bo'lgan e'tiborining susayganligiga sababchi hisoblanadi. Bunday sharoitda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining kvartallik smetasini tuzish maqsadga muvofiqdir va buning imkonи bor. Bu smeta tannarx bo'yicha sotiladigan mahsulotning hajmini, mahsulot sotishdan keladigan tushumni hisoblab chiqish, mahsulotni material sig'imi va mehnat sig'imi baholash, zaxitlaraga, xarajatlarga va tayyor mahsulotlarga qo'yilma aylanma mablag'lariiga bo'lgan ehtiyojini taxmin qilish imkonini beradi.

Smetada ko'rsatilgan elementlar bo'yicha xarajatlar majmuasi mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan umumiylar xarajatlar hajmini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish tannarxini aniqlash uchun ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar summasidan eng avvalo noishlab chiqarish schyotlariga olib boriladigan xarajatlar chegiriladi, bular o'zining korxonasi uchun bajarilgan kapital qurilish va kapital ta'mirlash bo'yicha ishlar qiymati, boshqa korxonalarga, korxonaning nosanoat xo'jaliklariga ko'rsatiladigan transport xizmati, boshqa korxonalar

uchun bajariladigan ilmiy tekshirish ishlarining qiymatlari va h.k. Keyingi kelgusi davr xarajatlarining qoldig'i, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ining tannarxining (bu rejalashtirish va hisob yuritishda tugallanmagan ishlab chiqarishga ajratiladigan tarmoqlar uchun) o'zgarishi hisobga olinadi: bu qoldiqlarning ko'payishi tovar mahsulotning tannarxini kamaytiradi, qoldiqlarning kamayishi tannarxini ko'paytiradi.

Rejalashtirilgan yilda ishlab chiqarilishi ko'zda tutilayotgan mahsulot tannarxi sotiladigan mahsulot tannaridan farq qiladi, bu sotiladigan mahsulot tannarxi asosida esa foyda aniqlanadi. Bu farqning kelib chiqish sababi-rejalatirilayotgan davr boshida sotilmagan mahsulot qoldig'ining mavjudligi va rejalashtirilayotgan davr oxirida sotilmay qoladigan mahsulot qoldig'ining miqdoridir.

Natural ko'rinishda sotiladigan mahsulot hajmi NSM<sub>h</sub> quyidagidan iborat bo'ladi:

$$NSM_h = R_bSMQ + QICh^{TM} - R_0SMQ$$

bu yerda:  $R_bSMQ$  - rejalashtirilayotgan davr boshidagi sotilmagan mahsulot qoldig'i;

$QICh^{TM}$  - kelgusi yilda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan tovar mahsuloti;

$R_0SMQ$  - rejalashtirilayotgan davr oxiridagi sotilmagan mahsulot qoldig'i.

Sotiladigan mahsulotga ketadigan xarajatlarni rejalashtirishda sotilmagan mahsulot qoldig'i tarkibini ularning tannarx bo'yicha miqdorini hisobga olish lozim. Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni hisoblash uslubi va mahsulot sotishdan keladigan tushumni hisoblash uslubi yagona bo'lishi kerak, shunda foyda sotilgan mahsulotlarning bir xil hajmi bo'yicha aniqlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari quyidagini tashkil qiladi:

$$Q_dSM^{TT} = R_{DB}STMQ_{IChT} + K_DIChRTM_{RT} - R_{D0}SMQ_{RT}$$

bu yerda:  $Q_{dSM}^{TT}$  - kelgusi davrda (yil, kvartal) sotiladigan mahsulotning to'la tannarxi bo'yicha xarajatlari;

$R_{DBSTMQ_{ICR}}$  - rejalashtirilayotgan davr (yil, kvartal) boshidagi sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining haqiqiy iqtisodiy ishlab chiqarish tannarxi;

$K_{DChRTM_{RT}}$  - mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining smetasida aniqlanadi, kelgusi davr (yil, kvartal)da ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan tovar mahsulotining rejadagi tannarxi;

$R_{DoSMQ_{RT}}$  - rejalashtirilayotgan davr (yil, kvartal) oxiridagi sotilmay qoladigan tayyor mahsulot qoldiqlarining rejadagi tannarxi.

Rejalashtirilayotgan davr boshi va oxiridagi qoldiqlarning tarkibi farq qiladi, mahsulot sotishdan tushadigan tushumni rejalashtirishning turli usullarida ham ular farq qiladi.

Xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida korxonalar tushumni hisobga olishning va shunga mos holda uni rejalashtirishning 2 usulidan birini ishlatishlari mumkin. Bu 2 usul mahsulot sotish momenti bo'lib nima hisoblanishi bilan farq qiladi: 1) xaridorga jo'natilgan mahsulot uchun korxonaning hisob raqamiga (kassasiga) pulning kelib tushishi; 2) mahsulot jo'natilishi va hisob-kitob hujjatlarining xaridorga berilishi. 1-holatda, agar tushum pul korxonaning hisobraqamiga (kassasiga) kelib tushishi bo'yicha rejalashtirilayotgan bo'lsa, rejalashtirilayotgan davr boshidagi sotilmagan mahsulot qoldiqlari o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

-ombordagi tayyor mahsulot;

-to'lov muddati yetib kelmagan jo'natilgan tovarlar; xaridor tomonidan o'z muddatida to'lanmagan jo'natilgan tovarlar;

-xaridorlarning javobgarligi ostida saqlanayotgan tovarlar.

Sotiladigan mahsulot tannarxini aniqlashda bu qoldiqlar hisobot davrining haqiqiy iqtisodiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Rejalashtirilayotgan davr oxirida mahsulot qoldiqlari tarkibida faqat 1-2 ta element hisobga olinadi xolos, chunki xaridor tomonidan o'z

muddatiga to‘lanmagan tovarlar va xaridorlarning javobgarligi ostida saqlanayotgan tovarlar hisob-kitob va shartnoma intizomining buzilishi oqibatlaridir, shuning uchun ular rejaga kiritilmaydi.

Rejallashtirayotgan davr oxirida sotilmay qolgan mahsulot qoldiqlari aniqlashda ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha 1 kunlik mahsulot ishlab chiqarish va zaxiraning kundagi me’yoridan kelib chiqiladi. Yillik rejallashtirishda kvartalning ma’lumotlari kvartallik rejallashtirishda mos kvartalning ma’lumotlari ishlataladi.

Zaxiraning kunlaridagi me’yori, taxminiy bo‘lsa ham, har bir korxonada hisoblanishi mumkin. Omborda tayyor mahsulot qoldiqlari uchun va to‘lov muddati yetib kelmagan jo‘natilgan tovarlar uchun bu me’yorning mazmuni turlicha bo‘ladi. Ombordagi tayyor mahsulot bo‘yicha kunlardagi me’yor - bu mahsulot omborda bo‘lgan kunlar sonidir. Bu son tayyor mahsulotni joylashtirish, uni komplektlash, idishlarga joylash, transport partiyasi o‘Ichoviga yetguncha to‘lash, hisob-kitob hujjatlarini yozib berish uchun zarur bo‘lgan kunlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi. To‘lov muddati yetib kelmasdan jo‘natilgan tovarlar bo‘yicha kunlardagi me’yoriy hujjatlar aylanish muddatiga, ya’ni hisob-kitob hujjatlari ta’minotchi bankidan xaridor bankiga va orqaga borib kelishi uchun zarur bo‘lgan vaqtga mos keladi.

Sotilmay qolgan mahsulot qoldiqlari ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha quyidagiga teng: ombordagi tayyor mahsulot bo‘yicha - (12153 mln so‘m: 90 kun) x 5 kun = 675,2 mln so‘m; to‘lov muddati yetib kelmagan jo‘natilgan tovarlar bo‘yicha - (12153 mln so‘m : 90 kun) x 15 kun = 2025,5 mln so‘m; demak, davr oxirida sotilmay qolgan mahsulot qoldiqlari ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha 2700,7 mln so‘m miqdorda (675,2+2025,5) rejallashtirilmoqda. Sotiladigan tovar mahsulotining to‘liq tannarxi yoki sotiladigan mahsulotga ketgan xarajatlar quyidagilarni tashkil qiladi:

$$R_{DBSTMQICHT} = 2850 + 44362 - 2700,7 = 44511,3 \text{ mln so‘m.}$$

Ikkinchchi holatda, agar tushum mahsulot jo'natilishi bo'yicha rejalashtirilsa, sotiladigan mahsulotga ketadigan xarajatlar-faqat korxonaning omboridagi tayyor mahsulot qoldiqlarini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Sotiladigan mahsulotga ketgan xarajatlar mahsulot sotishdan kelgan tushum hisobiga qoplanadi.

### **3.3. Korxonalarining asosiy faoliyati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish**

Jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, asosan, sanoat korxonalarining zimmasiga tushadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning muttasil o'sishi milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarish o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi. Bunga erishishda korxonaning asosiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan holatni o'rghanish talab etiladi. Bunda asosiy diqqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil etishga qaratiladi.

Korxonalarining asosiy faoliyati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirish bilan bog'liq masalalarni o'rghanishda, to'g'ri qarorlar qabul qilishda korxonada mahsulot ishlab chiqarish holatini tahlil etish muhimdir.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha belgilangan reja topshiriqlarining tig'izligini tekshirish;

- korxonalarni mahsulotlar ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va o'zgarishining hajmi, tarkibi, nomenklaturasi, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;
- o'tgan yilga hamda biznes rejaga nisbatan rejaning bajarilishidagi farqni va uning sabablarini aniqlash;
- tuzilgan shartnomalar majburiyatlari asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;
- mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish bo'yicha zaxiralarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalari, jumladan, 1 M "Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yillik hisoboti", "Oylik va choraklik hisobotlari" ham qo'llaniladi. Bundan tashqari 1-T "Sanoat mahsulotlarining tannarxi", "Ayrim sanoat mahsulotlarining rentabelligi", yangi texnikani joriy qilish bo'yicha hisobot, mahsulotning sifati va navi bo'yicha statistik ma'lumotlar va hokazolardan foydalilaniladi.

Hajm ko'rsatkichlari orasida mahsulotni sotish ko'rsatkichi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini aniqlovchi sifat ko'rsatkichlaridan biridir.

Darhaqiqat, sotish jarayoni - ishlab chiqarilgan mahsulotning ijtimoiy iste'mol talab va ehtiyojlariga javob berishi demakdir. Bunday sharoitda korxonalar mahsulot assortimentini kengaytirishdan va uning sifatini yaxshilashdan, u yoki bu tovarlarga bo'lgan taktif va talablarni o'rGANISHDAN manfaatdor bo'lishlari kerak. Zero, ishlab chiqarish sotish jarayoni bilan tugallanishi bilan chekianmay daromad (foyda)ni ham ta'minlashi lozim.

Mahsulotni sotish, avvalo, daromad (foyda) keltirishi mumkin bo'lgan tovar mahsulotini ishlab chiqarishga bog'liq. Tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan hamda texnika nazorati bo'limidan o'tgan, omborga topshirilgan va daromad (foyda) keltiradigan mahsulot tushuniladi.

Sotilgan mahsulot deganda esa tovarlar iste'molchilarga yuborilib, uning puli ta'minotchilarning bankdagi hisob-kitob hisobraqamiga to'liq (yoki qisman) o'tkazilishi tushuniladi.

Sanoat korxonalarining hajm ko'rsatkichlariga sotish, tovar, mahsulot va me'yoriy sof mahsulot kiradi.

Bu ko'rsatkichlarni tablil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-M, 2-M shakllaridan olinadi.

Sotish hajmining o'sish sur'atiga ko'pgina ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Bularga mahsulotning sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish hamda mahsulotni o'z vaqtida iste'molchilarga jo'natish va uning haqini to'lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qoldig'i kabi omillar kiradi. Shular ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir-biriga bog'liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin.

$$\text{SMybQ} + \text{JichTMh} = \text{JSMh} + \text{SMyoQ} \quad (1)$$

bu yerda:  $\text{SMybQ}$  - sotilmagan mahsulotlarning yil boshida bo'lgan qoldig'i;

$\text{JichTMh}$  - joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotning hajmi;

$\text{JSMh}$  - joriy yilda sotilgan mahsulotlarning hajmi;

$\text{SMyoQ}$  - sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'i.

Tovar balansining elementlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi muhimdir. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo'lgan qoldiq ko'p bo'lsa, u holda shu farqqa nisbatan sotish hajmi oshadi. Aksincha, sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'i kamaysa, u holda sotish hajmi oshadi.

Sotish hajmining o'zgarishiga tovar mahsulot ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o'zgarishi ham ta'sir qiladi. Endi yuqoridaqgi berilgan tenglikdan sotish jarayonini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$\text{JichTMh} = \text{SMybQ} + \text{JSMh} - \text{SMyoQ}. \quad (2)$$

### **3.4. Korxonalarda mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonlarini boshqarish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish**

Mahsulot tannarxi deganda, korxonaning mahsulot tayyorlash jarayonida sarflangan xomashyo, materiallar, ishlab chiqarish vositalari, to'langan ish haqi, shuningdek, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar uchun to'lov va xarajatlarning pul orqali ifodalanishi tushuniladi.

Ushbu ko'rsatkichlar orqali mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni iqtisodiy chegarasini aniqlash, ularning har bir elementiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar darajasi aniqlanishi, ularning ta'sirchanlik darajasini tahlil etish orqali istiqbolda mahsulot ishlab chiqarish va sotish miqdorini aniqlash bilan chegaralanmay ushbu jarayondan daromad (foyda) ko'rishni ham taxminlashtirish mumkin bo'ladi.

Aytish joizki, asosiy faoliyat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni rejalashtirishga mutloq to'g'ri yondoshgandan so'ng moliyalashtiriladigan obyektlar miqdorini aniqlash va moliyalashtirish to'g'ri yondoshilgan qarorlar qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Mahsulot tannarxi umumiashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, u korxona xo'jalik faoliyatining hamma tomonlarini aks ettiradi va uning ish samaradorligini ko'rsatadi. Mahsulot tannarxini tahlil qilish korxonalarda ta'sirchan xo'jalik hisobini amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Korxonalarning to'la xo'jalik hisobi, o'z xarajatlarini o'zi qoplash va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tishi, foydaning o'sishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni chuqur va har tomonlama tahlil qilishni taqozo qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Binobarin, mahsulot tannarxini kamaytirish xo'jalik hisobi daromadini oshirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitida mahsulot tannarxini tahlil qilishning shamiyati mulkchilikning barcha shakllarida ish yuritayotgan korxonalar uchun beqiyosdir, zero, ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida to'la-to'kis ma'lumotlarga ega bo'lmasdan ishlab chiqarishning ilmiy jihatdan va samarali boshqarish aslo mumkin emas. Mahsulot tannarxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni aks ettiradi, foyda daromadning ortishini ta'minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi.

Mahsulot tannarxini arzonlashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: boshqaruv usullarini, ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni, xo'jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlarni kamaytirish kabilar.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishning vazifalati quyidagilardan iborat: mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlarni rejaga nisbatan bo'lgan iqtisod yoki ortiqcha xarajatlarsiz ta'sir etuvchi omillarini aniqlash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida materiallar va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borish, mahsulot ayrim turlarining haqiqiy tannarxini reja tannarxi bilan solishtirish va farqlarni belgilash, ularning sabablari va tannarxni arzonlashtirishning zaxiralarini aniqlash, tannarx bo'yicha rejaning bajarilishi nazorat qilish.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jami tovar mahsulotining to'la tannarxi bo'yicha rejaning bajarilishiga umumiy baho berish bilan boshlanadi. Mahsulot ikki turkumga bo'linadi: taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan mahsulot.

Taqqoslanadigan mahsulot deganda, shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari tushuniladi.

Taqqoslanmaydigan mahsulot esa joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.

Tahlil qilish jarayonida taqqoslanadigan mahsulot jumlasiga kiradigan mahsulotning haqiqiy tannarxi reja tannarxi va uning o'tgan yilgi darajasi bilan, taqqoslanmaydigan mahsulotning haqiqiy tannarxi esa rejada ko'rsatilgan tannarxi bilan qiyoslanadi.

### **Tayanch so'z va iboraclar**

Xarajat, tannarx, davr xarajatlari, moddiy xarajatlar, smeta, sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar nimalardan iborat?
2. Davr xarajatlarini hisobga olishdan maqsad nima?
3. Mahsulot tannarxi nima va unga nima ta'sir ko'rsatadi?
4. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Sotilgan mahsulot deganda nimani tushunasiz?
6. Korxonalarda mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

### **Topshiriqlar**

1. Mahsulot tannarxi tarkibiga kiritiluvchi xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomni o'r ganib chiqing.
2. Biron mahsulotni ishlab chiqarish kalkulyatsiyasini tayyorlang.
3. Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda foydalani-ladigan axborot manbalarini o'r ganib chiqing.
4. Korxonalarda mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonlarini boshqarish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish yo'llarini o'r ganib chiqing.

## **IV BOB. KORXONADA PUL TUSHUMI, UNI REJALASHTIRISH VA TAQSIMLASH**

### **4.1. Iqtisodiyotining erkinlashuvi sharoitida korxonalar faoliyatida baholar tizimi, uning tarkibi va baboning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan tushum hajmi ko‘p jihatdan narxlarni shakllantirish jarayoni bilan bog‘liqdir. Pirovard natijada tovar bahosi bozor orqali aniqlanadi: unga talab va taklif munosabatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Lekin kalkulyatsiya sotish bahosi shakllanishining muhim qismi hisoblanadi. Agar kalkulyatsiya usuli bilan hisoblangan narxlar bozor narxidan yuqori bulsa, u holda tannarxni kamaytirish yoki bu turdag'i tovarni ishlab chiqarishdan voz kechish lozim.

Har bir tovarning 2 xil bahosi oldindan hisoblanadi: sotish bahosi, ya’ni tayyorlovchiga ishlab chiqarishning normal sharoitini yaratib beruvchi baho va minimal baho, korxona xarajatlarini minimal foydani olish orgali qoplanadigan baho. Yirik buyurtmalar bo‘lganda yoki ishlab chiqaruvchilarning xaridorlar bilan aloqalari mustahkam bo‘lganda, xaridorlar kalkulyatsiya bilan tanishish huquqiga egadir. Kalkulyatsiya taqdim etilmasa, unda xaridorlar tovar sotib olishdan voz kechishlari mumkin. Agarda bunday holatni yuzaga keltiruvchi omil narxni oshirib ko‘rsatilishi bilan bog‘liq bo‘lsa.

Kalkulyatsiya usuli bilan bir qatorda narxlar shakllanishining boshqa usullari dastlabki buyumda qo‘llanilishi mumkin: parametrik bu usul narxidan qat’iy-nazar mahsulot ko‘rsatkichlariga asoslanadi (quvvati, yuk ko‘tarish, tez harakat qilish va b.), statistik usul bu usul o‘xhash buyumlar baholarini tahsil qilishga asoslangan. Lekin har qanday sharoitda ham narx ishlab chiqaruvchining xarajatlarini qoplashi kerak shuning uchun kalkulyatsiyadan foydalanish zatur.

Ayrim hollarda yirik qimmatbaho buyumlar narxini loyihalash yirik konsalting firmalarga topshiriladi, ularning haqqoniyligiga ikki tomon (tayyorlovchi va buyurtmachi) ham ishonch hosil qilgan bo'lishi lozim. Misol uchun, bu ishni Amerikada «Rond corporation» firmasi bajaradi.

Mahsulotni ayrboshlashdan tushadigan tushum kattaligiga firma faoliyatiga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Korxonaga bevosita bog'liq bo'lgan omillarga quyidagilar kiradi:

- hajm;
- assortment;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligi;
- baho darajasi.

Mahsulot ishlab chiqarishni asosan mahsulotni ayrboshlash hajmi aniqlaydi: ayrboshlash hajmining o'sishi bilan uni ishlab chiqarish hajmi o'sadi, va aksincha.

Bundan tashqari, tushum qiymati:

- korxona ishining bir maromdaliligi;
- mahsulotning bir butunliligi;
- ortishning xususiyati;
- mazkur mahsulotga bo'lgan talab;
- mahsulot uchun hisob-kitob shakliga bog'liq bo'ladi.

Reja bo'yicha ishlash mahsulotni bir maromda ortishga va tushumning o'z vaqtida kelishiga ta'sir qiladi. Mahsulotni talab asosida ishlab chiqarish uning to'liq ayrboshlanishini ta'minlaydi. Mahsulot uchun hisob-kitoblarning nisbatan ilg'or shaklini qo'llash, to'lov hujjatlaridagi yozuvlarning o'z vaqtidaligi va ularni bankka taqdim qilish — tushumni rejalashtirishdagi asosiy omillardir. Mahsulot assortimenti tushum hajmiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki mahsulot bir xil bo'lmagan narxlarda ayrboshlanadi. Assortiment bo'yicha rejalashtirishning bajarilish sharti bo'lib hisoblanadi. Korxonaning mahsulotni realizatsiyasidan tushumi kattaligi bo'yicha baholar

darajasiga ham bog'liqdir: agar mahsulotning ulgurji narxi pasaysa, uning ayirboshlanishidan tushadigan tushum kamayadi, va aksincha.

Korxonaga bog'liq bo'Imagan omillarga quyidagilar kiradi:

- transport ishidagi uzilishlar;
- xaridorlarning to'lovga qobiliyatsizligi natijasida mahsulot to'loving o'z vaqtida amalgalashmasligi;
- bank hisob-kitoblaridagi kechikishlar va shu kabilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ixtiyoriy tijorat korxonasingning tushumi bиринчи navbatda korxonaning moliyaviy xizmatiga bog'liq bo'lgan tovar va xizmatlarga bahoning to'g'ri aniqlanishiga ko'p jihatdan bog'liq. 1992 yildan boshlab baboni tashkil qilish erkin asosda yo'lga qo'yildi, ya'ni, talab va taklif asosida aniqlanuvchi bozor bahosi kattaligi qo'llanildi. Qoidaga ko'ra, mahsulot bahosi korxona rentabelligining aniq darajasi asosida qo'yiladi. Lekin ba'zi hollarda zararli baholar ham qo'yiladi (o'tish bahosi deb nomlanuvchi), bunda raqobatchilarni siqib chiqarish, sotish bozorini kengaytirish va korxonaning bunday yo'qotishlari iste'molchilarni uning mahsulotiga bo'lgan talabi asosida qoplanishini ta'minlaydigan maqsadlar qo'llaniladi. Baholarning davlat tomonidan boshqarilishi monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan tor doiradagi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Erkin narxlar ham, boshqariluvchi narxlar ham ulgurji va chakana bo'lishi mumkin. Korxonaning ulgurji bahosi mahsulotning to'liq tannarxi va korxonaning daromadini ifodalaydi. Korxonaning ulgurji bahosi bo'yicha mahsulotlar boshqa korxonalarga yoki tijorat tashkilotlariga ayirboshlanadi. Ulgurji baho o'zida ulgurji baho va tijorat ustamasini ifodalaydi. Shunday qilib, erkin va boshqariluvchi baholar darajasi mahsulot ayirboshlanishidan tushumga, bunga bog'liq holda daromad kattaligiga ham ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yuqori darajadagi raqobatli bozorda unifikatsiyalangan mahsulotlarni sotuvchi korxonalardan boshqa barcha korxonalar o'z

mahsulotiga baho o'rnatishda ma'lum darajadagi erkinliklarni afzal ko'radi va shuning uchun korxona moliyaviy xizmati javob beruvchi baho qo'yish siyosatini mustaqil tanlaydi.

Ayirboshlashdan tushum hajmi mahsulotga baho qo'yish strategiyasini tanlashga bog'liq. Bozor sharoitida korxonaning baho qo'yish strategiyasi ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulotga bo'lgan talab va taklifni, sotish bozoridagi raqobatni, davlat boshqaruvi ta'sirini hisobga olib ishlab chiqiladi. Shuning uchun korxona dastlab boshlang'ich narxni o'rnatadi, keyin bozorning amaldagi tashqi omillarini hisobga olib uni to'g'irlaydi.

Quyidagi hollarda baho qo'yish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi:

- korxonada yangi mahsulot chiqarilganda birinchi marta baho qo'ysa;
- tashkiliy-texnikaviy sharoit korxonani bahoni o'zgartirishga majbur qilsa;
- raqobatchilar bahoni o'zgartirsa;
- bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlarni ularga bo'lgan talab va ularning tannarxi nuqtai nazaridan baholar tuzilmasidagi o'zgarishlar to'g'risidagi masalani yechish kerak bo'lganda.

Bunday holatlar marketing tadqiqotlariga bog'liq bo'ladi, lekin shu bilan birga ishlab chiqarish, mahsulot ta'minoti va savdosi bilan, mahsulotni ayirboshlashdan tushumni tashkil qilish bilan ham bog'liq.

Baho o'zida qiymat va tovarning iste'mol qiymatining puldag'i ifodasini ko'rsatadi, shuning uchun ham u ishlab chiqarishning ichki va tashqi omillarida ifodalaniqgina qolmasdan, ularga ta'sir ham qiladi. Mahsulot ayirboshlanishidan tushumni shakllantirishda baho bir necha funksiyalarni bajaradi:

- hisob funksiyasi, mahsulotning ayirboshlanishidan tushumni, mahsulotni ishlab chiqarish va ayirboshlash xarajatlarini, ishlab chiqarish samaradorligi hisobi bo'lib xizmat qiladi;

- rag'batlantiruvchi funksiyasi, ya'ni baland baho aniq mahsulotni ishlab chiqarishga etaklaydi;
- taqsimlovchi funksiyasi, ya'ni korxona mahsuloti bahosining o'rtacha hisoblangan bahodan o'zgarishi taqsimot yo'naliشining yoki ishlab chiqaruvchi foydasiga, yoki iste'molchi foydasiga hal bo'lishini ifodalaydi. Baho yordamida daromadlar korxonalar, sohalar, mintaqalararo qayta taqsimlanadi;
- boshqaruvchi funksiyasi, ya'ni aniq mahsulotga talab va taklifni va pul mablag'lari to'g'risidagi qonunni o'rgatadi, raqobat baholarni tenglashtiradi, resurslardan samarali foydalanishga yo'l ochuvchi chegaraviy ishlab chiqarish xarajatlarini ko'rsatadi.

#### **4.2. Korxonada mahsulot sotishdan tushgan tushumni rejalashtirish**

Maxsulot sotishdan tushgan tushum – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulot, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish uchun olingan pul mablag'lari summasidir. Bu korxona xarajatlarini qoplovchi va uning daromadini tashkil etuvchi asosiy manbadir.

Asosiy maxsulotni sotishdan tushgan tushumdan tashqari korxonada boshqa savdo-sotiqlikdan tushgan tushum ham bo'lishi mumkin va nosavdo operatsiyalardan ham tushum bo'lishi mumkin.

Tushumning kelib tushishi jarayonining muhim elementi - bu mablag'ning o'z vaqtida tushishidir. Sotishdan tushgan tushum hajmiga chiqarilayotgan mahsulot hajmi, uning turi, sifati, narx darajasi, hisoblanish shakli va boshqalar ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro standartlar bo'yicha daromad va xarajatlar jamg'arilib boradi, yani pulning kelib tushishi yoki to'lovnig amalga oshirilishi bo'yicha emas, balki uning paydo bo'lishi bo'yicha hisobga olinadi, yani tushumni mahsulotni sotishga jo'natish bo'yicha aniqlash usuli qo'llaniladi. Schyotlar bo'yicha to'lovnii amalga oshirib borish mobaynidagi moliyaviy natijalar va realizatsiya ko'rsatkichlari hisobga

olishning asosiy prinsipi - pul tushumi hajmi bilan mahsulotni tayyorlash xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni buzadi.

Tushumlarni rejalashtirish foydaning rejasini va byudjetga to'lovlar rejasini aniqlash uchun zarurdir. Rejali tushum hisobining asoslanganligi boshqa barcha moliyaviy ko'rsatkichlarning realligi bilan bog'liqdir.

Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumni rejalashtirish kelayotgan yil, chorak uchun amalga oshirilishi mumkin. Barqaror iqtisodiy holatlarda tushumni yillik rejalashtirish mumkin. Barqaror bo'limgan holatlarda yillik reja qiyin va samarali emas, shuning uchun chorakli rejalashtirishdan foydalaniladi. Operativ rejalashtirishda tushum aniq maqsadni ko'zlaydi, ya'ni korxonaning hisob raqamiga yuklab jo'natilgan tovarlar uchun tushumlarning o'z vaqtida kelib tushishini. Korxonaning asosiy faoliyatidan umumiy tushum o'zida sanoat va nosanoat xarakterdagi realizatsiya qilingan mahsulotlarni, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni aks ettiradi. Mahsulot sotishdan tushgan tushumni aniqlash uchun realizatsiya qilinadigan tovar hajmining qo'shilgan qiymat solig'isiz, aksiz solig'isiz va eksport qilinadigan tovarlar uchun eksport tariflarisiz haqiqiy bahosini mukammal bilish kerak.

Rejali tushum bir qancha yo'llar bilan hisoblanishi mumkin:

- assortment schyoti bo'yicha to'g'ri yo'l bilan (to'g'ri schyot usuli);
  - rejalashtirilayotgan davr oxiri va boshida relizatsiyalanmagan mahsulot qoldiqlarining o'zgarishini inobatga olib, tovar mahsulotlarining umumiy hajmidan kelib chiqqan holda (hisob-kitob usuli);
  - omillar usuli bo'yicha;
  - ekstrapolyatsiya usuli.

Birinchi usul uncha katta nomenklaturali mahsulotga ega bo'limgan va ishlab chiqarishning qisqa sikliga ega bo'lgan korxonalarda foydalaniladi, chunki ularda yildan yilga o'tadigan tayyor mahsulot qoldiqlari omborlarda yig'ilib qolmaydi. Bu yerda asosiy e'tiborni

rejalashtirilayotgan davrga notmenklaturani mahsulotlarning turlari, markalari, navlari bo'yicha va mahsulot hajmini buyurtma qiluvchilar bilan kelishgan holda tuzishga qaratish kerak. To'g'ri hisob metodi kafolatli talablarda asoslidir. Bunda barcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oldindan kelishilgan buyurtma hajmiga to'g'ri kelishi taxmin qilinadi. Qachonki, ishlab chiqarish rejasи va realizatsiya hajmi oldindan iste'molchilar talabi bilan bog'liq bo'lgan holatlarda bu eng ishonchli usul bo'lib hisoblanadi, chunki ishlab chiqarishning zatur tarkibi va assortimenti aniq, kelishilgan narxlar o'rnatilgan bo'ladi. Bunday sharoitlarda mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumni ( $T_{mr}$ ) realizatsiya qilinadigan mahsulot miqdorini ( $MM_r$ ) bir mahsulot uchun qilingan xarajatlar hajmiga ( $X_{1mh}$ ) ko'paytirish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$T_{mr} = MMr \times X_{1mh}. \quad (3)$$

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichida ko'pgina korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlari umumiyligi hajmiga kafolatlangan talabga ega emaslar, shuning uchun ular o'zlarini ishlab chiqargan mahsulotlari bozorini kengaytirish bo'yicha monitoring ishlarni har kun olib borishlari lozim. Bunda tushumni rejalashtirish yuqorida ko'rsatilgan tartibda amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shuning uchun birinchi usulga quyidagilarni hisobga olish talab etiladi:

- rejalashtirilayotgan yil uchun: ishlab chiqariladigan mahsulot, ish va xizmatlar hajmini;
- yangi davr boshiga: omborlardagi tayyor mahsulot qoldiqlarini, to'lov muddati yetib kelmagan yuklangan tovarlarni, muddatida to'lanmagan yuklab jo'natilgan tovarlarni, sotib oluvchining zimmasida saqlanayotgan tovarlar hajmini inobatga olish kerak.
- davr oxiriga: normativlar bo'yicha omborlardagi tayyor mahsulot qoldiqlarini, to'lov muddati yetib kelmagan yuklangan tovarlarni inobatga olish kerak.

Davr boshiga kutilayotgan tayyor mahsulotlarning qoldiq miqdorlari hisobot ma'lumotlaridan olinadi yoki ishning real darajasidan kelib chiqib bashorat qilinadi (prognozlashtiriladi). Buxgalteriya hisobi bo'yicha realizatsiya qilinmagan mahsulot qoldiqlari hisobi to'liq tannarx yoki ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatiladi. Shuning uchun ulgurji narxlar uchun o'tkazish koeffitsientlari qo'llaniladi.

Davr oxirida korxona omborlarida saqlanayotgan tayyor mahsulot qoldiqlari aniqlanganda ularning shakllanish omillarining tahsilini o'tkazish zarur bo'ladi. Bundan tashqari me'yortlardan yuqori qoldiqlar sabablarini, realizatsiya sharoitidagi kutilayotgan o'zgarishlarni (iste'molchilar o'mini, transportni, naqd pulsiz hisob-kitoblar tartibini o'zgartirish) aniqlash talab etiladi. Bu hisob-kitoblar me'yorlar bo'yicha tayyor mahsulot zaxiralar ostida shaxsiy aylanma vositalar kattaligi rejalashtirilganda olib boriladi. Yuklatilgan, lekin to'lov muddati yetib kelmagan yoki sotib oluvchining shaxsiy mas'uliyatida saqlanayotgan tayyor mahsulot qoldiqlarning hisobi debitor qarzlarni rejalashtirganda va analiz qilinganda hisoblab chiqiladi.

Inflyatsiyaning yuqori templarida narxlarning infliyatsion koeffitsiyentlar orqali o'zgarishini inobatga olish zarur. Agar korxonaning belgilangan narxlar ulgurji narxlar bilan to'g'ri kelmasa, tovar balansini tuzishda mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum hisobi uchun belgilangan narxlar bilan ulgurji narxlar orasidagi farqlarni hisobga olish zarur.

Realizatsiyadan tushgan tushumni uchinchi usul bo'yicha hisoblanishi kelgusi davrga rejalashtiriladigan va bazis davrida realizatsiya qilinadigan tushumni haqiqiy asosida amalga oshiriladi.

Tushum hajmini korrektirlaydigan o'zgarishlarning asosiy omiliga quyidagilar kiradi:

- realizatsiya hajmi;
- realizatsiya qilinadigan mahsulot tarkibi;
- mahsulot narxi.

$$Tmr = BRTHT \times RMHo'i \times RTNo'ti \times RMBo'i$$

bu yerda:  $T_{mr} \leftarrow$  mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum;

$BRHT$  – bazis yilida realizatsiyadan tushgan haqiqiy tushum;

$RMHo^i$  – realizatsiyalangan mahsulot hajmining o'zgarish indeksi;

$RTNo^ti$  – realizatsiyalanadigan tovarlar nomenklaturasidagi o'zgarishlarning tarkibiy indeksi;

$RMB^i$  – realizatsiyalanadigan mahsulotlar bahosining o'zgarish indeksi.

$$RMHo^i = \frac{\sum B_1 S_i}{\sum B_0 S_0}, RTNo^ti = \frac{\sum B_0 S_i}{\sum B_0 S_0}, RMB^i = \frac{\sum B_1 S_i}{\sum B_0 S_1}$$

bu yerda:  $B_0, B_1$  – rejalashtirayotgan va bazis davriga muvofiq baholar;

$S_0, S_1$  – rejalashtirayotgan va bazis davri mahsulet soni.

Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumni to'rtinchi usulida tushum hajmining o'sish yoki pasayish templari o'tgan davr vaqtleri asosida va bu templarni saqlab qolish yoki o'zgartirish bo'yicha ekspert baholash orqali aniqlanadi.

$$T_{mr} = T_{mr.baz.} \times K$$

bu yerda:  $K$  – hajmini o'stirish yoki pasaytirish koeffitsiyenti.

$T_{mr.baz.}$  – bazis davridagi mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum

Bu usulni barqaror iqtisodiy holatda ham qo'llash mumkin.

Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumni minimal, optimal va maksimal hajmlarini joriy etish orqali bashoratlashtirish mumkin. Bular egiluvchan moliyaviy smetalarni tuzishda e'tiborga olinadi va qo'llaniladi.

Aytish joizki, bunda mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum va uning hajmini amaliy aniqlash uchun ma'lumot manbai quyidagilar hisoblanadi:

- ko'rsatiladigan xizmat va tayyor mahsulot reja-grafigi;
- korxona omboridagi tayyor mahsulot tushumlarining o'sib borish yakunlari to'g'risida ma'lumot;

- o'sib borish yakunlarida yuklab jo'natilgan mahsulotlar to'g'risida ma'lumot;
- mahsulotni yuklab jo'natishdagi e'tirozlar;
- tayyor mahsulotni ombordan yuklab jo'natilganidan so'ng korxona hisob-kitob schyotiga va kassasiga pul vositalarning kelib tushishi haqidagi ma'lumotning o'sib borishi;
- yuklab jo'natilgan, lekin vaqtida to'lanmagan mahsulotlar to'g'risida ma'lumot;
- debtor qarzlarning o'sishi to'g'risida ma'lumotlar.


Tayyor mahsulotni chiqarib yuborish yoki uni yuklab jo'natish korxonada tovar-transportli nakladnoy orqali yoki tayyor mahsulotni chiqarib yuborishga tovar-transportli nakladnoy va omor buyrug'iini o'zida mujassamlashtirgan buyruq-nakladnoylar orqali rasmiylash-tiriladi. Omor buyrug'iini tegishli xizmat ko'rsatish bo'limi sotib oluvchining shartnomasiga muvofiq mahsulot turi va yuklab jo'natish muddatlarini inobatga olgan holda ikki nusxada tayyorlaydi va uning bir nusxasi omor mudirida qoladi, ikkinchi nusxasi ekspeditorga beriladi. Ekspeditor mahsulotni transport tashkilotiga topshirgandan va kvitantsiya olgandan so'ng to'lov hujjati yozib berishlari uchun uni korxona buxgalteriyasiga topshiradi. Bir vaqtning o'zida hisobvaraq-fakturalar ham yozib beriladi.

Korxonaning buxgalteriya yoki moliyaviy bo'limlarida material qimmatiklar, mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushum va chiqarilgan mahsulotlar to'g'risida jurnallar olib boriladi. Jurnal va to'lov hujjatlari asosida har kungi yuklab jo'natilgan va realizatsiya qilingan mahsulot hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan operativ qaydnoma tuziladi.

Bundan tashqari qaydnomada oy tugashi bilan umumiylar bilan to'ldiriladigan bo'lim mayjud: A - chiqarilgan va realizatsiya qilingan tovarlar, B - mahsulotlar qaytarilganligi bilan bog'liq chiqarilgan tovarlarning qisqarishi, V - sotib oluvchining mas'ulligida mahsulotlarni saqlashga qo'yilganligi bilan bog'liq chiqarilmagan va

to‘lanmagan summalar. Bu ma’lumotlar o’tayotgan mahsulot qoldiqlarini hisobini yuritish uchun zarur.

Tushumlarning taqsimlanishi 4.1-chizmada ko’rsatilgan. Qachonki, tushum tannarxdan oshib ketsa, bu hol foyda olishidan darak beradi.



#### **4.1-chizma. Mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumning rejali hisob-kitobi**

Mahsulot realizatsiyasidan tushadigan tushumlar yuqorida keltirgan bir qancha usullar orqali aniqlanadi. To‘g‘ri hisob usuli qo‘llanilganda realizatsiya qilingan mahsulot qiymatini realizatsiya bahosiga ko‘paytirib, olingan summani barcha mahsulot nomenklaturasiga qo‘shiladi.

Har bir mahsulot nomenklaturasi realizatsiyasidan tushgan tushumni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T = R \times B$$

bu yerda:  $T$  - tushum,

$R$  - realizatsiya qilingan mahsulot miqdori,

$B$  - har bir realizatsiyalangan mahsulot bahosi.

Realizatsiya hajmini rejalashtirilayotgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulotdan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin. Buning uchun rejalashtirilayotgan davr boshiga mahsulot qoldig‘ini qo‘shamiz va rejalashtirilayotgan davr oxiriga qoldiqlarni ayiramiz. Realizatsiyaning rejali hajmi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$R = Q_1 + T - Q_2$$

bu yerda:  $R$  - rejali davrda realizatsiya hajmi;

Q1 – rejalashtirilayotgan davr boshiga yuklangan va ombordagi har bir mahsulot turidan qoldiqlar;

Q2 – rejalashtirilayotgan davr oxirida omborda har bir mahsulot turi bo'yicha qoldiqlar.

Mahsulotlar assortimenti katta bo'lsa, ayrboshlash rejasи hisobini kombinatsiyalashgan usul bilan amalga oshirish mumkin. Mahsulotning asosiy turlarini ayrboshlashdan keladigan tushum to'g'ri hisob bilan aniqlanadi, boshqa assortimentdagи mahsulot ayrboshlanishidan keladigan tushumni hisoblash uchun barcha nomenklaturadagi mahsulot qoldiqlari bo'yicha ishlab chiqarilgan tovar olinadi, unga rejalashtirilgan davr boshidagi qoldiq qiymati qo'shiladi va rejalashtirilgan davr oxirida erkin narxda chiqarilishi bo'yicha va tannarx uchun kutilayotgan qoldiq ayiriladi.

Shu tarzda mahsulot, ish va xizmatlar ayrboshlanishidan tushumni mablag'larni ishlab chiqarishga joylashtirish va mahsulotlarni ayrboshlash, daromadlarni shakllantirish va moliyaviy resurslari tashkillashtirishning asosiy manbalari deb xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Bunda savdo va tushum hajimi alohida o'ringa ega. Tushum kattaligi bilan faqatgina xarajatlarni ichki ishlab chiqarishga joylashtirilishi va daromadlarni shakllantirish belgilanib qolmasdan, korxona faoliyatining moliyaviy natijasida yuzaga chiquvchi soliq to'lovlarining to'liqligi va o'z vaqtidaligi, bank kreditlarining kamaytirilishi ham belgilanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona va tashkilot uchun daromad asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Korxona (tashkilot)larning o'z daromadlari hisobidan xarajatlarni qoplash va foyda olish korxonada faoliyat yuritish bo'lib hisoblanadi.

Tayyor mahsulotni (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) sotishdan tushgan tushum korxonani moliyaviy holatini ifodalaydi. Sotishdan kelgan tushum va undan ko'rilgan daromad orqali korxona byudjet, mol yetkazib beruvchilar va hokazolar bilan hisob-kitob qiladilar.

Tushum bu – korxonaning o‘z oborot mablag‘larini tashkil qilishning asosiy manbai. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona egalari va menejerlar daromadni ko‘zlagan holda investitsiya va divident siyosatlarini yechimini qabul qiladi. Bu esa korxonani rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonani rejalashtirilayotgan yil uchun tushum tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

I. Yalpi tushum;

II. Korxonani asosiy faoliyatidan keladigan tushum;

- yordamchi xo‘jaliklardan keladigan tushum;

- bajarilgan ishlar bo‘yicha tushum;

- chiqindilarni (mahsulotlarni) ishlab chiqargan mahsulotlardan tushum.

III. Umumiy xo‘jalik faoliyatidan keladigan tushum;

IV. Sof tushum.

1. Ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi (neft, qishloq xo‘jalik) mahsulotlarni sotish uchun mo‘ljallangan tovar mahsuloti korxona ulgurji bahosida belgilanadi. Korxona ulgurji bahosining tarkibi shu mahsulot uchun belgilangan tovar mahsulotini ishlab chiqarishning tan narxi bilan foyda ko‘rsatkichining yig‘indisidan iborat.

2. Tovar mahsulotining shartnoma bahosi. Bu ko‘rsatkich shu tovar mahsuloti uchun belgilangan shu korxona ulgurji bahosi bilan qo‘shilgan qiymat solig‘i yig‘indisidan iborat.

3. Tovar mahsulotining erkin bahoda sotilishi. Bu bahoning turi bozorda sotib oluvchi va xaridorming sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

4. Aholining birinchi iste’mol uchun zarur bo‘lgan davlat tomonidan belgilangan baholar.

#### **4.3. Oddiy va iqtisodiy yoki analitik uslub**

Hozirgi vaqtida tushumni rejalashtirishda oddiy va analitik uslubdan foydalaniлади.

Oddiy uslub bilan tushum yoki foydani rejalashtirish kam assortiment tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida qo'llaniladi. Bu uslubning afzalligi 1 birlik yoki 10 birlik uchun tovar mahsulot uchun to'g'ri keladigan tushum yoki foydani hisoblash imkoniyatini beradi. Bu uslubni kamchiligi korxona faoliyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi bo'yicha tushum yoki foydani o'sishi yoki kamayishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha alohida tushum yoki foyda va zarar olish imkoniyatini asoslab bera olmaydi.

Tushumni operativ rejalashtirish korxona yuklatib yuborilgan mahsuloti evaziga kelib tushadigan pul mablag'larni o'z vaqtida kelib tushishishi nazoratiga qaratilgan.

Mahsulot sotishda kelgan tushumni aniqlash uchun sotilgan mahsulotning hajmini amaldagi baholarda qo'shilgan qiymat solig'isiz, aksizsiz, eksport mahsulotlarini tarifisiz bilish lozim.

Korxonada rejalashtirilgan yilga tushumni hisoblash shu rejadagi davrda mahsulotlarning assortimenti, ishlab chiqarish hajmi, sifat ko'rsatkichi, shartnomada ko'rsatilgan yuridik va moliyaviy normalarni bajarilishi, hamda yil boshiga va yil oxiriga ombordagi saqlanayotgan tovar mahsuloti va jo'natilgan tovarni o'zgarishi ham inobatga olinadi.

Korxonaning moliyaviy iqtisodchisi tomonidan asosiy faoliyat bo'yicha ishlab chiqarilgan va sotish uchun mo'ljallangan tovar mahsuloti bo'yicha tushumni hisoblash korxona shartli ulgurji bahosida amalga oshiriladi.

Mahsulotlarning har bir turi bo'yicha tannarxni belgilash kalkulyatsiyasidagi ishlab chiqilgan tannarxga nisbatan foyda olish imkoniyati hisoblanib, har bir tovar bo'yicha shartli ravishda korxona ulgurji bahosi hisoblanadi. Jami asosiy faoliyatdan keladigan tushumni hisoblash uchun shu mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmini inobatga olgan holda bir birlik mahsulot uchun belgilangan ulgurji bahosiga ko'paytirish orqali hisoblanadi, ya'ni:

$$MSt = \mathbf{R} \times \mathbf{RMB}$$

bu yerda: MSt -mahsulot sotishdan kelgan tushum;

R - realizatsiya hajmi;

RMB - realizatsiya qilingan mahsulotning bir birlik bahosi.

Rejalshtirilayotgan tushumni aniqlashda realizatsiya qilinayotgan mahsulotning miqdori va assortimentini bilish lozim.

Realizatsiya qilinayotgan mahsulotning miqdori quyidagi bilan aniqlash mumkin:

$$R = RM2 + RM2 + MJtm$$

bu yerda: RM1 - rejalshtirilayotgan yil boshiga realizatsiya qilinmagan mahsulot qoldig'i;

RM2 - rejalshtirilayotgan yil oxiriga realizatsiya qilinmagan mahsulot qoldig'i;

MJtm - mahsulot bo'yicha jonatishga mo'ljalangan tovar mahsuloti.

Rejalshtirilayotgan tushumni aniqlashda mahsulotni qanday bahoda sotilishini bilish kerak.

Tovar mahsulotini sotish va xizmat ko'rsatish, ish bajarish bo'yicha quyidagi baholar tizimi va turlari qo'llaniladi.

Analitik uslub bilan ishlab chiqarish hajmini yuqori darajadagi assortiment tovarlar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatidan shu uslub bilan tushum rejalshtiriladi.

Iqtisodiy yoki analitik uslub bilan tushum yoki foydani hisoblash ko'p bajmdagi tovar mahsulotini ishlab chiqarayotgan korxonalar faoliyati uchun taalluqli bo'lib, bu usul bilan tushum yoki foydaning afzalligi shu ishlab chiqarayotgan tovar mahsulot turlari bo'yicha yil davomida ta'sir etuvchi barcha omillar bo'yicha qo'shimcha tushum yoki foyda olish imkoniyatini beradi. Bu uslub bilan tushum yoki foydaning rejalshtirishning kamchiligi aniq so'm yoki tiyinda tushum yoki foydani hisoblash imkoniyatini bermaydi.

Iste'mol fondi – korxona ishchilarining moddiy va ijtimoiy ehtiyojarini qondirish uchun korxona yalpi foydasidan tashkil

qilinadigan fond. Iste'mol fondini tashkil qilishda quyidagi qonunchilikka e'tibor berish kerak: balans daromadining o'sish tezligi iste'mol fondining o'sish tezligidan yuqori bo'lishi kerak (ish haqi ham shuning tarkibida).

Aytish joizki, 4 guruhga bo'linuvchi korxona operativ pul fondlari davri oralig'ida shakllanadi.

Bir oyda ikki marta yoki bir marta ish haqini to'lash uchun pul fondlari tashkil etiladi. Uning asosi bo'lib ish haqi fondi hisoblanadi. O'z vaqtida ish haqi bo'yicha hisob-kitob qilish uchun korxona bir necha masalalarni hal qiladi. Shu maqsadlarda kerak bo'lgan pul mablag'lari to'planadi, pul mablag'lari mavjud bo'lmasa korxona bankka murojaat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan fondlardan tashqari korxonada quyidagi maqsadlar uchun fondlar tashkil qilinadi: bank kreditlarini to'lash uchun, yangi texnikani o'zlashtirish uchun, ilmiy-texnikaviy ishlari uchun.

#### **4.4. Mahsulot sotishdan tushgan tushumni taqsimlash tartibi**

Korxona foydasining to'g'ri taqsimlanishi va ishlatilishi tadbirdorlar ehtiyojini qondiruvchi va O'zbekiston Respublikasi daromadlari shakllanishi ta'minlovchi muhim jarayon hisoblanadi.

Foydani taqsimlash mexanizmi shunday tuzilishi kerakki, bu mexanizm orqali ishlab chiqarish samaradorligiga erishish hamda yangi xo'jalik shakllarini rivojlanishini ko'paytirishi kerak.

Iqtisodiyotning turli bosqichlarida jamiyat ishlab chiqarishining obyektiv shart-sharoitlarida bog'liq holda foydani taqsimlash tizimi o'zgarib va mukammallashib boradi.

Xususiyashtirish va aksionerlashtirishning rivojlanishi bilan korxona o'ziga tegishli bo'lgan, ya'ni majburiy to'lovlari, soliq summalarini va boshqa qonunga muvofiq yo'nalishlardan tashqari mablag'larni o'z imkoniyatiga, xohishiga qarab sarflashi mumkin.

Iqtisodiy asoslangan foydani taqsimlash tizimi davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarishni kafolatlashi hamda korxonaning ishlab chiqarish, moddiy hamda ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish kerak.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning faoliyatiga ishtirok etishdan olinadigan yalpi daromad, korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalardan olinadigan foiz va dividendlar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlaridan daromadlar, o'z-o'zini boshqarish organlari; ijara hamda boshqa mulkdan foydalanishdan olinadigan daromadlardan tashkil topadi.

Korxonalarda yalpi foyda quyidagi summalarga ham kamaytirilishi mumkin: 2000 dan ortiqroq kishi sig'adigan stadionlarda va ochiq maydonlarda o'tkaziladigan kontsert hamda bayramlar hisobiga; kazino ishlari, videosalonlar va boshqa o'yin avtomatlarini ishlatish hisobiga; dillerlik operatsiyaflariga va boshqa shartnomalar hisobiga soliq imtiyozlari belgilangan summa yalpi foydadan chegirib tashlanadi.

Soliq imtiyozlari belgilangan foyda summasi yalpi foydadan chegirib tashlanadi. Mavjud soliq imtiyozlari tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya faoliyatini kengaytirish, korxona ilmiy-texnikaviy potensialini oshirish, xizmatchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash va boshqacha sarflanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan to'g'rilanishlaridan so'ng qoladigan summa soliqqa tortiladigan summani tashkil qiladi. Belgilangan foyda solig'ini to'lagandan so'ng qoladigan summa, korxonaning sof foydasi hisoblanadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Mahsulot narxi, baho, kalkulyatsiya, konsalting firma, hajm, assortiment, eksrapolyatsiya usuli, parametrik usul, oddiy uslub, analitik (iqtisodiy) uslub, yalpi foyda, soliq, soliq imtiyozlari.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Kalkulyatsiya va bahoning uzviy bog‘liqligi nimada namoyon bo‘ladi?
2. Korxonaga bog‘liq bo‘lмаган omillarga nimalar kiradi?
3. Hozirda pul tushumini rejalashtirishda qanday uslublardan foydalaniлmoqda?
4. Mahsulot sotishdan tushgan tushumni qanday tartibda taqsimlash lozim?

## Topshiriqlar

1. Korxonalarda pul tushumini taqsimlash tartibini o‘рганиб чиқинг.
2. Oddiy, iqtisodiy va analitik uslublarini farqli va afzallik tomonlarini o‘рганиб чиқинг.

## Информатикада оғармаси

Информатикада оғармаси – оғармаси, якшамдиги таъсирини оғарушига негизги оғармаси. Информатикада оғармаси – оғармаси, якшамдиги таъсирини оғарушига негизги оғармаси.

## **V BOB. KORXONALAR FOYDASI, UNING TAQSIMLANISHI VA ISHLATILISHI**

### **5.1. Korxonalar foydasining mazmuni va mohiyati**

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatini baholovchi asosiy mezon foyda bo'lib hisoblanadi.

Foya – bu amaldagi moliyaviy tushumlar bilan xarajatlar o'rtaсидаги farq bo'lib, u korxonaning asosiy maqsadi sifatida moliyaviy xo'jalik faoliyatining natijaviylik ko'rsatkichidir.

Foya – bu murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U asosan kutilgan qiymatni yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Foya – bu xo'jalik subyektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'limgan faoliyat, hodisalar, sharoitlar kapitalining ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Korxona foydasini tashkil etish va taqsimlash o'ziga xos xususiyatga ega (l-chizma).


Daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" tarkibida aks ettirilib, ular xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining hisobot davrdagi moliyaviy natijalarining foya yoki zarar ekanligini aniqlash uchun ishlataladi. Foya (zarar) daromadlar va xarajatlarni bir-biri bilan solishtirish natijasida aniqlanadi, ya'ni:

**Daromadlar – xarajatlar = foya (zarar).**

Moliyaviy natijalarni aniqlash tartibini talabaga tushuntirish uchun, bizning nazarimizda, "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da aks ettiriluvchi ko'rsatkichlarning shakllanish tartibini ko'rib chiqish kerak.

“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi” hisobotda daromadlar, xarajatlar, foya va zararlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning quyidagi faoliyat sohalari bo‘yicha aks ettiriladi.

- asosiy faoliyat;
- investitsion faoliyat;
- moliyaviy faoliyat.



### 5.1-chizma. Korxona foydasini tashkil etish va taqsimlashning an'anaviy chizmasi

**Foyda** – korxonaning oxirgi moliyaviy natijasi hisoblanadi. U mehnatga hak to'lash fondi bilan birga (foydaning korxona ixtiyorida qolgan qismi) korxona daromadini tashkil kiladi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida foyda ko'rsatkichini to'g'ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur daromad hisobidan maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, rezerv fondi tashkil bo'ladi, kapital qo'yilmalar moliyalashtiriladi va korxonada ijtimoiy tadbirlar amalga oshiriladi.

Moliya natijalari miqdoriga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Masalan, inflyatsiya, valyuta kursining o'zgarib turishi, soliq yuki, kredit siyosati va boshqalar. Yuqorida sanab o'tilgan ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi omillar ta'siri hisobga olingan holda moliyaviy natijalarni aniqlanishi lozim bo'ladi. Aniqlangan moliya natijasi – foydasi haqiqatni aniq va to'g'ri aks ettirishi lozim. Buning uchun korxonalarda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish, olingan foyda miqdorini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Foyda miqdorining kamayishi davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag' miqdorining kamayishiga va bu o'z navbatida byudjet hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Zararga ishlaydigan korxonalar esa oxir oqibatda "sinadi", ya'ni inqirozga yuz tutadi. Chunki amaldagi qonunlarga ko'ra yaxshi ishlaydigan korxonalar foydasini qayta taqsimlash ko'zda tutilmagan. Shuning uchun ham zararga ishlaydigan korxonalar o'z xarajatlarini o'zları qoplashlari, buning uchun uni qoplash yo'llarini izlab topishlari kerak bo'ladi.

Hozirgi iqtisodiy o'sish sharoitida moliya natijalarini hisobga olish korxona faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi va uni hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- olingan foyda miqdorini, har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitobini olib borish;

- moliya natijalari bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi schyotlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish.

Moliya natijalarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalar asosida olib borish samarasiz xarajatlarni yuzaga keltirmaydi, har bir xarajat turini iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilishiga imkoniyat yaratadi.

## **5.2. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar foydasining ahamiyati**

Iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida har bir korxona manfaati o'zining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatidan korxona iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yetarli bo'lgan daromadni olish bo'lib hisoblanadi. Ammo, nafaqat foyda, korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi bo'lishi mumkin. Korxonaga samara bermaydigan ishlab chiqarish faoliyatini yuritsa, unda ishlab chiqarilgan mahsulot iste'molchilar talabini qondirmaydi va istiqbolda nafaqat foyda olishni, balki iqtisodiy o'sishni ham ta'minlay olmasligi mumkin bo'ladi.

Xo'jalik yuritishning hozirgi tizimi sharoitida foyda ko'rsatkichi korxonaning asosiy va aylanma mablag'laridan samarali foydalanishni talab hamda ehtiyojga qarab ishlab chiqarishni muvofiqlashdirishi, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'molchi talabiga javob bera oladigan bo'lishi, balki ishlab chiqarish xaridor uchun xizmat qilishi lozim. Mustaqil xo'jalik faoliyatini yuritishning muhim tamoyili korxonaning to'la mustaqillikka erishuvi va xarajatlarni o'z mablag'i hisobidan to'liq qoplashidir. Bu degani, korxona mahsulot sotishdan olgan mablag'idan o'zining hamma xarajatlarini qoplaydi va undan tashqari foyda ham oladi.

Korxona foydasining shakllanish manbalari ular xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlardir. Xarajatlar tasnifi Nizomiga asosan, korxona daromadlarini tashkil etish manbalari bo'lib:

- sotishdan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

- favqulodda foyda hisoblanadi.

Sotishdan olingan sof tushum mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingen pul tushumidan qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i hamda eksport boj poshlinasini chiqarish yo'li bilan aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Korxonalarning asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdan tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek, yetkazilgan zaralarni undirish bo'yicha daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;

- ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lмаган operatsiyalardan renta daromadi, korxona huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;

- korxonaning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingen daromadlar;

- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponet qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingen daromadlar;

- tovar - moddiy boyliklarni qayta baholash;

- davlat subsidiyalaridan daromadlar;

- xolisona moliyaviy yordam;

- boshqa operatsion daromadlar.

Korxonalar moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- olingen roylitilar va sarmoya transferti;

- Respublika hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingen daromad, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda korxonaga tegishli qimmatli qogozlar bo'yicha daromadlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraaga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish);
- valyuta schyotlari, shuningdek, chet el valyutlaridagi operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari;
- sarflangan (qimmatli qogozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Korxonalarning favqulodda foydasi - bu ko'zda tutilmagan tasodifiy tusga ega bo'lgan hodisa yoki korxonaning odatdag'i faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdag'i operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning kamdan-kam bo'ladigan moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foya kirmaydi.

Foydaning bir qismi byudjetga soliqlar hamda boshqa to'lovlarini to'lash uchun sarflanadi, qolgani esa korxona ixtiyorida qoladi va uning faoliyatini ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Korxona ixtiyorida qolgan mablag'larni qanday maqsadlarga sarflashni uning o'zi mustaqil ravishda hal qiladi.

Foya qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i sof daromadning shakllari bo'lib hisoblanadi. Ularning har biri tashkil topish mexanizmi va ulardan foydalanish yo'naliishlari bo'yicha bir-biridan farq qildi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i davlat byudjetiga mahsulot sotilganidan keyin o'tkaziladi, bu mablag' umum davlat hamda umumxalq maqsadlari uchun sarflanadi. Shuni e'tiborga olgan holda korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot (tovar, xizmat) hajmi qancha ko'p bo'lsa, ular tomonidan to'lanadigan ushbu soliq to'lovlarini oshib boradi. Bu esa oxir-oqibat mahsulot (tovar, xizmat) realizatsiyasi hajmini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois korxona mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarini samara keltiradigan chegaralarda amalga oshirishi zarur.

### **5.3. Korxona yalpi va sof foydasining mohiyati va ahamiyati**

Korxonalar o‘z mahsulotlarini iste’molchilarga sotadi va buning uchun pul mablag‘lari oladilar. Lekin bu ham hali foyda olishni bildirmaydi. Moliyaviy natijaga ega bo‘lish uchun tushumni mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar, ya’ni tannarx bilan solishtirib ko‘rish kerak. Agar tushum tannarxdan ko‘p bo‘lsa, korxona foydaga ega bo‘ladi; agar tushum tannarxga teng bo‘lsa, u holda korxona faqatgina qilgan xarajatlarini qoplagan bo‘ladi va foyda bo‘lmaydi, agar xarajatlar tushumdan ko‘p bo‘lsa, u holda korxona zarar ko‘radi, ya’ni salbiy moliyaviy natijaga ega bo‘ladi, bu korxonani qiyin moliyaviy ahvolga solib qo‘yadi va inqirozga uchratishi ham mumkin.

Korxonalarning, yuqorida keltirilgan, xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlari va qilingan xarajatlari asosida foydaning quyidagi beshta ko‘rsatkichlari aniqlanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda - bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut ko‘rinishida bo‘ladi:

$$\text{YaF}=\text{SST}\cdot\text{IT}$$

bu yerda: **YaF** - yalpi foyda;

**SST** - sotishdan olingan sof tushum;

**IT** - sotilgan mahsulotning ishlb chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda - bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar ko‘rinishida bo‘ladi:

$$\text{AFF}=\text{YaF}\cdot\text{DX}+\text{BD}\cdot\text{BZ}$$

bu yerda: **AFF** - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

**DX** - davr xarajatlari;

**BD** - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

**BZ** - asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda - bu asosiy faolyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus xarajatlari ko'rinishida bo'ladi:

$$\text{UF}=\text{AFF}+\text{MD}-\text{MX}$$

bu yerda: **UF** - umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda;

**MD** - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

**MX** - moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Soliq to'langungacha olingan foyda - bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar ko'rinishida bo'ladi:

$$\text{STF}=\text{UF}+\text{FF}-\text{FZ}$$

bu yerda: **STF** - soliq to'langungacha olingan foyda;

**FF** - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

**FZ** - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.

5. Yilning sof foydasi - bu soliq to'langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda. U soliq to'langungacha olingan foyda (daromad)dan to'lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarini chiqarib tashlagan holda aniqlanadi:

$$\text{SF}=\text{STF}-\text{DS}-\text{BS}$$

bu yerda: **SF** - sof foyda;

**DS** - foyda (daromad)dan to'lanadigan soliq;

**BS** - boshqa soliqlar va to'lovlar.

Demak, foyda korxona xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lganligidan, ya'ni ijobjiy moliyaviy natijaga erishilganidan darak beradi. Uning miqdori, asosan, ikkita ko'rsatkichga - mahsulot narxi va uni ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Foyda yalpi daromad olish bilan bog'liq bo'lgan korxona moliyaviy resurslarining asosiy manbasidir. Korxonaning yalpi daromadi moddiy

xarajatlar chiqarib tashlangandan so'ng ish haqi va foydani o'z ichiga olgan mahsulot sotishdan tushgan tushumdir.

Tannarx, yalpi daromad va korxona foydasi o'rtasidagi o'zaro aloqa mavjud, ularning har biri moliyaviy munosabatlarni o'sishida alohida ahamiyatga ega.

Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan olingan moliyaviy natija, boshqa operatsiyalardan olingan daromadlar, asosiy fond va korxonaning boshqa mulklarini sotishdan tushgan tushumlarning yig'indisidan kelib chiqadi.

Mahsulot (ish, xizmatlarni realizatsiya qilish) sotish orqali olinadigan foya amaldagi narxlarda (qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlarsiz) sotuvdan tushgan tushum hamda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar o'rtasida farq orqali aniqlanadi.

Eksport faoliyatini yuritayotgan korxona daromadini hisoblashda eksport qilingan yoki mahsulot sotishdan tushadigan tushumni aniqlash muhimdir.

Asosiy vositalar va boshqa mulkni sotishdan korxona oladigan daromad korxona yalpi daromadining ikkinchi tashkil etuvchi manbai bo'lib xizmat qiladi.

Yalpi daromadning uchinchi tashkil etuvchisi norealizatsiya operatsiyalaridan ko'rildigan daromaddan iborat bo'lib, ularga asosiy faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'limagan operatsiyalar kiradi. Xususan, mulkni ijaraga berishdan, korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlarning sotilishidan ko'rildigan foya, hamkorlikda faoliyat yuritishdan olinadigan foya, o'tgan yillardagi daromad va boshqalar shular jumlasidandir.

Korxona ishining samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish hajmlari, mahsulot sotishni ko'paytirish, uning tannarxini pasaytirish zaxiralarini aniqlash muhim o'rinn tutadi.

Daromad miqdorini oshirish zaxiralarini aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar turli belgilariga qarab turli toifalarga ajratiladi. Tashqi omillarga tabiiy sharoit, narxlarning, tariflarning, soliqlar va

imtiyozlarning, jarima sanksiyalarining davlat tomonidan boshqarilishi va boshqalar kiradi. Bu omillar korxona faoliyatiga bog'liq emas, lekin daromad salmog'iga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillar ishlab chiqarish bilan bog'liq va ishlab chiqarishdan tashqari omillarga bo'lindi. Ishlab chiqarish omillari mehnat predmetlarining mavjudligini va qo'llanilishini, mehnat va moliyaviy resurslarni xarakterlab, o'z navbatida ekstensiv va intensiv bo'lishi mumkin.

Ekstensiv omillar foyda olish jarayoniga miqdoriy o'zgarishlar: mehnat predmetlari va hajmlari, moliyaviy resurslar, qurilmalarning ishslash vaqtleri, xodimlar soni, ish vaqtি fondi va boshqalar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Intensiv omillar foyda olish jarayoniga sifat o'zgarishlari orqali: qurilmalar sifati va ish unumdorligining oshishi, texnologiyalarning mukammallashuvi, aylanma vositalar aylanish sur'atining jadallashtirilishi, mehnat va material sig'imining kamayishi, mehnatni tashkil etishning takomillashuvi va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi orqali ta'sir ko'rsatadi.

Korxona ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda sof foyda deyiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan soliqlar va to'lovlar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahliliда uning o'tgan yillarga shuningdek, korxona biznes rejasи ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'r ganiladi. Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Ichki axborotdan foydalanuvchilar ushbu qatorni o'r ganish va tahlil etish asosida korxonaning joriy davrdagi natijaviyligiga baho beradilar. Shuningdek, ular foydani o'stirish yoki zararni minimallashtirish bo'yicha mavjud ichki imkoniyatlarning borligiga, istiqbol rejalarini belgilashga, korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash yuzasidan

boshqaruvning muhim strategik qarorlarini qabul qilishga katta e'tibor beradilar.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonaning foydalilik darajasiga, o'z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Masalan, korxona mulkida hissali qatnashuvchilar aksiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga korxona ixtiyorida qoladigan sof foya hamda soliq idoralari soliq to'loviga qadar bo'lgan foya bilan qiziqsalar, investitsiya homiylari esa korxona faoliyatining barqarorligi va o'sish darajalariga ko'proq qiziqadilar.

#### **5.4. Korxonalar faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi**

Korxona foydasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hajmining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar bahosining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi;
- davr xarajatlarining o'zgarishi;
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan foya va zararlarning o'zgarishi;
- favqulodda foya va zararlar o'zgarishi;
- foydadan olinadigan soliqlar va soliqli to'lovlarining o'zgarishi.

Rentabellik korxona foydalilik darajasini xarakterlaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Korxonalar faoliyatida rentabellikning quyidagi turlari aniqlanadi.

1. Ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi.

$$IChXr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}} * 100\%.$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik qilingan ishlab chiqarish xarajatlar hisobiga olingan foyda summasini ifodalaydi.

## 2. Asosiy vositalar rentabelligi.

Asosiy vositalar rentabelligi (AVr) har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$AVr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} * 100\%.$$

3. Sotish bo'yicha rentabellik. Sotish bo'yicha rentabellik (Sr) sotilgan mahsulotlarning foydali darajasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$Sr = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum summasi}} * 100\%.$$

4. Aylanma aktivlar rentabelligi (AAr). Ushbu ko'rsatkich aylanma aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda, sof foyda summasini ifodalaydi.

Aylanma aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$AAr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Aylanma aktivlar o'rtacha yillik qiymati}} * 100\%.$$

5. Jami mulk rentabelligi (JMr). Ushbu ko'rsatkich korxona mulkining foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichhar bir so'mlik mulkka to'g'ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi.

$$JMr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami korxona mulki}} * 100\%.$$

6. O'z mablag'lari rentabelligi (O'Mr). Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini ifodalaydi.

Korxona sof foydasini uning o'zlik malag'lari manbaiga bo'lish asosida o'zlik kapitalining foydalilik darajasi o'tganiladi.

$$O'Mr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxona o'zlik mablag'lari}} * 100\%$$

7. Qarz mablag'lari rentabelligi (QMr). Ushbu ko'rsatkich korxona sof foydasini qarzga olingan mablag'lariغا nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik qarz mablag'iga to'g'ri keladigan foya summasini ifodalaydi.

$$QMr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablag'lari jami}} * 100\%$$

8. Asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag'lari rentabelligi (AVMAMr). Ushbu ko'rsatkich sof foya summasini korxona asosiy vositalari va moddiy aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. U har bir so'mlik asosiy va oborot mablag'iga to'g'ri keladigan foya summasini xarakterlaydi.

$$AVMAMr = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy va aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymati}} * 100\%$$

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birlklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foya summasining o'zgarishi va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxona sof foydasining o'zgarishi va asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi umumiy rentabellikka bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan sof foya summasining o'zgarishi, asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi va moddiy aylanma mablag'lar qaytimining o'zgarishlari ta'sir qiladi va h.k.

## **5.5. Foydaning taqsimlanishi va ishlatalish tartibi**

Foydaning taqsimlanishi deganda uning iste'mol va jamg'arishga yunaltirilishi, joriy davr foydasining soliqlar to'lovi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga hamda kapital egalari o'rtasidagi shartlar, kelishuvlarga binoan taqsimlanishi tushuniladi.

Sof foyda taqsimoti quyidagi yo'naliishlarda o'z akşini topadi:

- aksionerlik jamiyatida dividendlar to'lashga va rezerv kapitaliga ajratma qilinadi. Uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko'rinishida jamiyat ixtiyorida qoladi va korxona faoliyatini rivojlantirishda (asosiy fondlarni kengaytirishda va aylanma mablag'larni shakllantirishda) qatnashadi;
- qo'shma korxonada rezerv kapitaliga ajratma qilinadi, uning ustaviga muvofiq ta'sischilar o'rtasida taqsimlanadi yoki ta'sischilar qaroriga binoan korxona faoliyatini rivojlantirishga ishlataladi;
- xususiy korxonalarda rezerv kapitaliga ajratma qilinadi va uning qolgan qismi taqsimlanmagan foyda ko'rinishida korxona faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etadi;
- davlat korxonalarida rezerv fondiga ajratma qilinadi, qolgan qismi esa ustav fondiga qo'shiladi. Ma'lumki, korxona ustav fondi uning asosiy va aylanma fondlarini tashkil etishning muhim manbasi bo'lib hisoblanadi.

Foyda quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- soliq qonunchiligiga muvofiq davlat byudjetiga soliqlar, yig'imlar va to'lovrlarga;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga;
- aksiya va kapital egalariga dividendlar to'lashga.

Korxona o'zining hisob foydasidan, avvalo, davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda tasarrufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingen soliqlar qatiy stavkalarda va foizlarda undiriladi. Hisob foydasining soliqlar to'lovidan qolgan qismi

korxona sof foydasi sifatida uning erkin belgiloviga (aksionerlar yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

Moliyaning taqsimlash funksiyasiga binoan korxona daromadlari va ularning taqsimot yo'nalishlari belgilanadi.

Sof foydadan ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga oid sarflar aksionerlarning umumiy yig'ilishida hisob berish hamda ularning roziligini olish asosida belgilanadi.

Sof foydaning qolgan qismi chiqarilgan aksiyalarning turiga qarab va ularning imtiyozli shartlari asosida taqsimlanadi. Dastlab imtiyozli aksiya egalariga oldindan kafolatlangan foizlarda to'lovlar hisobga olinadi, foyda oddiy aksiya egalariga dividend foizlari va summalar e'lon qilinadi. Foydaning taqsimlanmagan qismi korxona uchun taqsimlanmagan foyda sifatida, agar korxona nochor ahvolda bo'lsa, unda qoplanmagan zarar sifatida keyingi hisobot yiliga o'tkaziladi. Qoplanmagan zarar va taqsimlanmagan foyda korxona faoliyatining birinchi yili bo'yicha balansning shu nomdag'i qatoriga mos tushadi. Keyingi yillar bo'yicha ularning taqqoslanuvchanligi ta'minlanadi. Ya'ni, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar (TF(QZ)) joriy davr uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$TF(QZ) = TF(QZ)h.b. + SFj.d. - TFSFIj.d$$


bu yerda: **TF(QZ)h.b.** - hisobot davrining boshidagi taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar;

– **SFj.d.** - joriy davr sof foydasi;

– **TFSFIj.d.** - joriy davrda taqsimlanmagan foyda va sof foydaning ishlatalishi.

Jamg'arma fondi korxona daromadi hisobiga tashkil etiladi va asosiy ishlab chiqarish, shuningdek, noishlab chiqarish fondlarning sotib olinishiga va ko'rilibshiga hamda qaytarilmaydigan xarakterga ega bo'limgan boshqa kapital qo'yilmalarga sarflanadi. Jamg'arma fondi uzoq muddatlari investisiyalarga yo'naltiriladi. Hisobraqamining balans aktiviga kiruvchi sarflangan mablag'lar o'rniga, ularga ekvivalent

bo'lgan va boshqa muddatlar bo'yicha aktivda aks ettililgan mulklar qiymati aks ettililadi:



### 5.2-chizma. Korxona daromadining taqsimlanishi

Bundan tashqari jamg'arma fondi hisobiga qaytmas xarakterga ega bo'lgan sarf-xarajatlar moliyalashtiriladi, jumladan:

- ilmiy tekshirish ishlarini olib borish;
- tabiiy muhitni saqlash tadbirdari;
- soliqqa tortish uchun tannarxga kiritilgan narsalardan ortiq xarajatlar (malaka oshirish, xizmat safari, kredit foizlari va h.k)
- qimmatli qog'ozlar xarajatlari;
- boshqa korxonalar tashkil etish uchun badallarga;
- foydani yashirganlik (kamaytirib ko'rsatganlik) uchun jarima sanksiyalari.

Iste'mol fondi ijtimoiy ehtiyojlarga va ishlovchilarni moddiy rag'batlantrish tadbirdarini moliyalashtirishga sarflanadi: ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan mukofotlar (uzoq yil ishlaganligi va boshqalar uchun) berish, moddiy yordam ko'rsatish; davolanish uchun yo'llanmalar berish; dividendlar to'lash va h.k.

Iste'mol fondlari bo'yicha xarajatlar qaytmas xarakterga ega. Rezerv fondi tabiyi ofatlar, favqulotda hodisalar, balans yo'qotishlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida ishlataladi.

### **5.6. Korxonalar foydasini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni maksimallashtirish**

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidan oladigan foydaning miqdori ichki va tashqi omillargan bogliq. Ichki omillarga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, xo'jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejerlarning savodxonligi, mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish darajasi kiradi. Korxona faoliyatiga bogliq bo'Imagan tashqi omillarga bozor konyunkturasi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslarning narxi, amortizatsiya normalari, soliq solish tizimi va boshqalar kiradi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida har bir korxonada foydani ko'paytirish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish lozim. Umuman olganda bunday tadbirlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:


- u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha monopol o'rinni egallashga (noyob mahsulotlar ishlab chiqarishga) erishish;
- doimo o'zgaruvchan konyunkturaga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilab turish;
- raqobatbardoshlik sharoitida tovarlarning sotila olishini ta'minlash maqsadida xaridorlarga turli xil xizmatlar ko'rsatish (jumladan, tovarlar sotilgandan keyingi xizmatlar);
- mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish;
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- ortiqcha uskunalar va boshqalarini sotish yoki ijaraga berish;
- mayjud moddiy resurslardan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va ish maydonlaridan, ishchi kuchi va ish vaqtidan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning tannarxini pasaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash;
- mahsulotlarni sotish bozorini kengaytirish va boshqalar.

Korxonalar faoliyatini samaradorligini aniqlash uchun yakuniy natijani (foydan) ishlab chiqarish xarajatlari yoki shunday natijaga erishishni ta'minlagan resurslar bilan taqqoslash lozim. Foyda hajmining katta yoki kichikligi faoliyatga baho berishning asosiy me'zoni bo'la olmaydi. Shuning uchun ham foydaning darajasi ya'ni xo'jalik faoliyatining rentabelligi aniqlanadi. Rentabellikni aniqlash nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar umumxo'jalik faoliyatiga, balki unda foydalananilayotgan resurslardan foydalananish darajasiga ham baho berishda muhim hisoblanadi.

## 5.7. Korxonalar foydasini bashoratlash asoslari

Korxonani boshqarish tizimida foydani rejalashtirishga asosiy o'rinni beriladi. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (5.3-chizma):



### 5.3-chizma. Korxonada foydani bashoratlashning bosqichlari

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda rejalashtirish terminiga urg'u beriladi, ammo o'tish bosqichida korxonalarda turli silkinishlarga duch kelishi mumkin bo'lgan sharoitda rejalashtirish jarayonining eng muhim komponenti bashoratlashga urg'u beriladi. Korxonalar faqat molivaviy

ko'rsatkichlarini bashoratlash orqali iqtisodiy chegaralarini aniqlashlari mumkin bo'ladi.

Korxona foydasini boshqarishning asosiy maqsadi bo'lib hisobot davrida foydani tashkil etish va shakllantirish, shuningdek, taqsimlashining asosiy sur'atlarini va bu harakatni keltirib chiqargan asosiy omillarni aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Korxona foydasini boshqarishning birinchi bosqichida korxona balans foydasi umumiy summasi o'zgarishi va hisobot davrida uning tovar aylanishiga nisbatan o'zgarishi darajasi ko'rib chiqiladi, bu ko'rsatkichlarning erishilgan amaliy qiymatlarining rejadagisidan farqlanishi (chetlanishi) aniqlanadi.

Korxona foydasini boshqarishning ikkinchi bosqichida korxona balans foydasining uning asosiy turlari bo'yicha tarkibi ko'rib chiqiladi. Bunda asosiy e'tibor korxonada tovarlar sotilishi umumiy summasi, darajasi va ulushi o'zgarishiga qaratiladi.

Korxona foydasini boshqarishning uchinchi bosqichida korxonaning alohida mas'uliyat markazlari bo'yicha foyda shakllantirilishi ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi. Bu tahlil jarayonida foyda turlarining (savdo va nosavdo faoliyati bo'yicha) amalda erishilgan summasi va darajasining bashoratlashtirilgan ko'rsatkichlardan farqlanishlari (chetlanishlari) darajasini o'matilgan chegaralari aniqlanadi.

Korxona foydasini boshqarishning to'rtinchi bosqichida hisobot davrida tovar sotishdan olingan foyda summasiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar o'rganib chiqiladi. Bunday tahlil predmeti birinchi navbatda oldin ko'rib o'tilgan "xarajatlar, sotuv hajmi va foyda bog'liqligi" tizimining omillari hisoblanadi. Ular keyingi davrda tovar sotilishi foydasining mumkin bo'lgan o'sishi darajasini topish imkonini beradi.

Korxona foydasini boshqarishning beshinchi bosqichida korxonada foyda ishlatalishining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Bu maqsadlarda balans foydasi summasi korxona ixtiyorida qolgan foyda summasini (sof foyda) aniqlash uchun bu manba hisobidan to'lanadigan

soliq to'lovlaridan "tozalanadi". Sof foyda tarkibida rejalashtirilgan davrda foyda ishlatalishi alohida yo'nalishlarining asosiy shakllari, summalarini va ulushlari ko'rib chiqiladi. Bu summalar korxona rivojlanishining moliyaviy ta'minlanishini baholaydi.

Korxona foydasini boshqarishning natijalari keyingi davrda foydaning bashoratlangan ko'rsatkichlari aniqlanishining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi.

### **Foyda shakllanishini bashoratlash**

Foydaning rejali summasini hisoblash uni bashoratlashning eng ma'suliyatli bosqichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni bashoratlash foydaning faqat tovarlar sotilishi va boshqa mulkni sotish bilan bog'liq turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Savdo operatsiyalaridan boshqa operatsiyalar foydasi summasi savdo korxonalarida bashoratlamaydi yoki vaqt kelganida rejalashtirilmaydi.

Bashoratlash jarayonida asosiy e'tibor tovarlarni sotilishidan ko'rgan foyda summasiga qaratiladi. Bu ko'rsatkich hisobi quyidagi asosiy usullar yordamida yoki ularni qo'llash asosida asoslanadi, ya'ni:

- a) daromadlar va muomala xarajatlari summalarining oldin aniqlangan bashoratli ko'rsatkichlari;
- b) tovarlar sotilishining oldingi aniqlangan bashoratlash ko'rsatkichi;
- c) tovar aylanishi rentabelligining o'rtacha darajasi;
- d) foyda maqsadli summasining shakllantirilishi;
- e) daromadlar va muomala xarajatlari summalarining oldin aniqlangan bashoratlashtirilgan ko'rsatkichlariga asoslangan tovarlar sotilishidan keladigan foyda summasini bashoratlashtirish usuli savdo faoliyati foydasi summasini hisoblashda foydaning maqsadli summasi ko'rsatkichi ishlatilmagan hollarda qo'llaniladi. Bu holda foyda hisobi modeli quyidagicha bo'ladi:

$$\sum T^S B_f^S = \frac{\sum S_D^B \times (100 - \Delta QOS)}{100\%} - \sum MX^B$$

bu yerda:  $\sum T^S B_f^S$  - tovarlar sotilishidan olingan balans foydaning bashoratlashtirilgan summasi;

$\sum S_D^S$  - savdo faoliyati daromadlarining bashoratlashtirilgan summasi;

$\sum MX^B$  - muomala xarajatlarining bashoratlashtirilgan summasi;

$\Delta QQS$  - qo'shilgan qiymat solig'i darajasi (savdo korxonasi daromadlari hisobidan to'lanadigan boshqa soliqlar ham), %da.

g) Tovarlar sotilishining oldin aniqlangan bashoratli ko'rsatkichiga asoslangan holda tovarlar sotilishi foydasi summasini bashoratlashtirish usuli "xarajatlar, savdo hajmi va foyda bog'liqligi" tizimiga asoslanadi. Bu holda foydani hisoblash modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'лади:

$$\sum T^S B_f^S = \frac{(\sum T_S^S - \sum ZT^S) \times (\Delta TaT^S - \Delta TaU^{MX})}{100\%}$$

bunda:  $\sum T^S B_f^S$  - tovarlar sotilishidan olingan balans foydasining rejorashtirilgan summasi;

$\sum T_S^S$  - tovarlar sotilishining bashoratlashtirilgan hajmi;

$\sum ZT^S$  - zararsizlik nuqtasiga erishishni ta'minlovchi tovarlar sotilishi hajmi;

$\Delta TaT^S$  - tovar aylanishiga nisbatan tovarlar sotilishi so'f daromadlari darajasi, %da;

$\Delta TaU^{MX}$  - tovar aylanishiga nisbatan o'zgaruvchan muomala xarajatlari darajasi, %da.

Bu hisob jarayonida zararsizlik nuqtasiga erishishni ta'minlaydigan tovarlar sotilishi hajmi aniqlanganligi sababli, parallel ravishda xavfsizlik (moliyaviy mustahkamlik) chegarasi va koeffitsiyentlari ko'rsatkichlari ham aniqlanishi mumkin.

h) Tovar aylanishi rentabelligining o'rtacha darajasiga asoslangan holda tovarlar sotilishi foydasi summasini rejorashtirish usuli savdo korxonalarida ishlataladigan eng sodda va eng keng qo'llanadigan usul

hisoblanadi. Unda bor-yo'g'i ikki ko'rsatkich ishlataladi: tovarlar sotilishining bashoratlashtirilgan hajmi ( $\Sigma T_s^B$ ) va bashoratlash davrida tovar aylanishining o'rtacha rentabelligi darajasi ( $\bar{T}a$  Rent, %da). Bularning oxirgisi uning hisobot davridagi daromadlilik va xarajatililikning kutilayotgan o'zgarishlarini hisobga olgan holda to'g'rilangan qiymatlari asosida aniqlanadi. Bu holda hisob modeli quyidagicha:

$$\sum T^S B_f^B = \frac{\sum T_s^B \times \Delta \bar{T}a \text{Rent}}{100\%}$$

Bunda:  $\sum T^S B_f^B$  - tovarlar sotilishidan olingan balans foydaning rejalashtirilgan summasi;

$\sum T_s^B$  va  $\Delta \bar{T}a$  Rent - yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlar.

i) Foydaning maqsadli summasi shakllantirilishiga asoslangan tovarlar sotilishi foydasi bashoratlashtirilgan summasini bashoratlash-tirish usuli savdo korxonasining keyingi davridagi strategik rivojlanish maqsadlari bilan eng yuqori bog'liqlikni ta'minlaydi. Bu hisobning asosi korxona ixtiyorida qoladigan foyda (sof foyda) hisobidan shakllantiriladigan o'z moliyaviy zaxiralariga bo'lgan talabni oldindan aniqlash hisoblanadi. Hisob bu talabning har bir elementi bo'yicha olib boriladi (ishlab chiqarish rivojlanishi; mulk egalariga daromad to'lanishi; xodimlarni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish va boshqalar). Korxona ixtiyorida qoladigan foyda hisobidan shakllantiriladigan mablag'larga bo'lgan umumiyl talab o'zida korxonaning bashoratlashtirilgan davridagi sof foydaning maqsadli miqdorini ifodalaydi. Bu holda tovar sotilishidan olingan balans foydaning maqsadli summasini hisoblash modeli quyidagacha bo'ladi:

$$\sum B^D T^S MF = \frac{\sum B^D K_{sf}^M \times 100}{100 - \Delta Fst}$$

bu yerda:  $\sum B^D T^S MF$  - bashoratlashtirilgan davr uchun tovar sotilishidan olingan balans foydaning maqsadli summasi;

$\sum B^D K_{sf}^M$  - bashoratlashtirilgan davrda korxona sof foydasining maqsadli summasi;

**АФЕТ** - foyda solig'i darajasi (foyda hisobidan to'lanadigan boshqa soliq to'lovlaring ham), %da.

Bu hisob usulining asosiy vazifasi shundaki, uning asosida olingan foyda ko'rsatkichiga savdo korxonasini rivojlantirishning muhim maqsadli yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi va boshqa muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarni rivojlantirishning asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda keyingi davrda korxonaning strategik rivojlanishini foydaning maqsadli summasini bashoratlashtirish butun asosiy ko'rsatkichlar tizimida o'z aksini topadi.

Shunday qilib hisoblarning tanlangan usulidan kelib chiqib tovarlar sotilishidan olinadigan foyda summasini shakllantirishni bashoratlashtirish korxonani butun iqtisodiy rejalashtirishning yakunlovchi yoki boshlang'ich bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Foyda, rentabellik, moliyaviy natijalarni rejalashtirish, bashoratlashtirish sof tushum, moliyaviy faoliyatdan daromadlar, favqulodda foyda, sof foyda, sof foydani taqsimlash, jamg'arma fondi, rezerv fondi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Korxona foydasiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
2. Yalpi foyda nima?
3. Sof foyda qanday hisoblab chiqiladi?
4. Korxonalar faoliyatini rentabellik ko'rsatkichlari qanday hisoblab chiqiladi?
5. Korxona foydasini oshirish bo'yicha qanday tadbirdarni amalga oshirish lozim?
6. Korxona sof foydasi qanday taqsimlanadi?
7. Korxonalar foydasini shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Korxonada foydani shakllantirish qanday bosqichiardan o'tadi?

9. Korxona foydasini bashoratlashtirish deganda nima nazarda tutiladi?

10. “Rejelashtirish” va “bashoratlash” terminlari o’rtasida qanday farqlanish mavjud?

### **Topshiriqlar**

1. Korxona yalpi va sof foydasi o’rtasidagi farqni tushuntiring.

2. Biron bir korxonani tanlab foydalilik va zararlilik ko’rsatkichlarini tahlil qiling.

3. Korxona moliyaviy hisobotlarida foyda haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiling.

4. Daromad va foyda o’rtasidagi farqni tushuntiring.

5. Biron bir korxonani tanlab foydasiga ta’sir ko’rsatayotgan omillarni tahlil qiling.

## **VI BOB. KORXONALARDA SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH VA INVESTITSIYAVIY FAOLIYAT**

### **6.1. Korxonalar daromadidan to‘lanadigan soliqlarning mohiyati, ahamiyati va turkumlanishi**

Korxonalar foyda solig‘ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to‘lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan foyda solig‘i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo‘srimcha qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to‘lov sifatida davlat byudjeti ixtiyoriga o‘tkazilishi bilan bog‘liq pul munosabatlari tushiniladi.

Amaliyotda soliq qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda foyda solig‘i deganda, korxona, tashkilot va birlashmalarning ishlab chiqarish faolyatidan qo‘lga kiritilgan foydasidan tashqari qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarida (aksiya, obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirishdan olgan devidentlar yoki foizlar ko‘rinishidagi daromadlar) daromadlar, shuningdek, boshqa korxonalar faoliyatiga qatnashishdan qo‘lga kiritilgan daromadlar ham e’tiborga olinadi. Umuman foyda solig‘i tushunchasi korxona, tashkilot va birlashmalar foydasining markazlashgan foyda (daromad)lar yig‘indisining bir qismini markazlashtirilishi bilan bog‘liq munosabatlarida ham o‘z aksini topmoqda. Bu esa foyda soliq munosabatlarini amal qiluvchi qonunlardan kelib chiqqan holda mazmunan takomillashtirilib turishini taqozo etadi.

Shunday qilib foyda solig‘ining mohiyatini tushinish maqsadida foyda soliq munosabatiga taalluqli uch xususiyatga ega bo‘lmish pul mablag‘larining strategik harakatiga diqqatni qaratish zarur, ya’ni:

1. Soliq to‘lovchi o‘z foydasining bir qismini foyda solig‘i sifatida davlat byudjetiga to‘lar ekan, buning evaziga u davlatdan shunga teng

biron bir tovar yoki xizmat olmaydi. Umuman to‘langan foyda solig‘i soliq to‘lovchining davlatdan oladigan mablag‘lari o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikda yuzaga kelmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko‘ra foyda solig‘i narxdan ruxsatnomalar va vositachilik yigimlaridan farq qiladi, chunki bular o‘ziga xos majburiy yoki ixtiyoriy to‘lov hisoblanadi, biroq hamma vaqt davlat tamondan ko‘rsatilgan xizmatdan muayyan foyda ko‘rilishi bilan bog‘liqidir. Har bir subyekt soliq to‘lovchi sifatida odatda jamiyat va o‘zining ko‘rgan foydasi yoki manfaatini to‘lagan soliqlar bilan baholay olmaganligi sababli, ular tomonidan ayrim hollarda soliqlar to‘lashdan bo‘yin tov lash yoki o‘z foydalarini yashirish hollariga olib kelmoqda. Bunday holatlar aniqlanib bunday shaxslarga nisbatan ma’muriy choralar ko‘rilmoxda. Davlat yig‘ib olingan foydadan soliqning ahamiyatini oshkora va samarali tarzda foydalansa hamda soliq to‘lovchilarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa dasturlarining ahamiyatini tushungan holda o‘z mablag‘lari hisobidan majburiy soliqlarini to‘lasalar soliq axloqini yuksak tamoyili barqarorlashgan bo‘lar edi.

2. Foyda solig‘i majburiy to‘lov sifatida to‘la va o‘z vaqtida davlat byudjetiga to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan. Shuning uchun ham javobgarlik foyda solig‘ining to‘lanishida, uning to‘lovchisiga majburiy mas‘ulyatni yuklaydi.

3. Davlat tomonidan foyda solig‘ining markazlashtirilishi orqali davlat byudjetining eng asosiy daromad qismi belgilangan miqdorlarda ta‘minlanadi. Shu sababli o‘ziga xos pul mablag‘larining harakati doirasida foyda solig‘ini to‘lashga monand bo‘lish soliq munosabatining yuksak darajasida yuzaga keladi.

Foyda solig‘i mohiyatini shu tartibda yoritar ekanmiz, uni foyda solig‘i doirasidagi munosabatlar nuqtai nazardan o‘rganish muhimdir. Foyda solig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra davlat byudjeti va yuridik shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyatini ochayotganda, uni qat’iy, doimiy takrorlanib turadigan voqelik, ya‘ni iqtisodiy voqelik deb qarash zarur. Demak, foyda solig‘i

bu moliyaviy kategoriyadir. Foyda solig‘ida doimiy, qaytarilib turadigan moliyaviy ya’ni pul munosabatlaridir. Ana shu pul munosabatlarining mazmunini ochish orqali foyda solig‘ining mohiyati yoritilishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, foyda solig‘i hamma pul munosabatlarini emas, balki soliq obyekti bo‘lmish foyda (daromad)ni taqsimlash, qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini ifodalaydi.

Foyda solig‘ining mohiyatini ochishda uning eng avvalo majburiy to‘lov ekanligini ko‘rsatib o‘tish zarur. To‘g‘ri foyda solig‘i munosabatlarida majburiylik mavjud, bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo‘lmish parlament qarori, ya’ni qonun bilan kiritiladi, davlatning qattiq talabi e’tiborga olinadi. Demak, foyda solig‘idagi majburiylik huquqiy demokratik me’yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan kiritiladi.

Qolaversa, foyda solig‘i mazmunida uzoq muddatga mo‘ljallangan majburiy pul harakatiga mansub munosabatlar yotadi.

Foyda solig‘ining mohiyatini yechishda uning eng demokratik to‘lov ekanligiga e’tiborni ham qaratish kerak. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida xilma-xil mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning foydasini davlat to‘g‘ridan to‘g‘ri soliqsiz majburiy to‘lov qilib ololmaydi. Qolaversa, davlat xilma-xil mulk shaklidagi korxona va tashkilotlarning foydasidan byudjetga daromad olish uchun Oliy Majlis tasdiqlab bergen foyda solig‘idan foydalanadi. Demak, foyda solig‘i soliq munosabatlarining o‘ziga xos mustaqil tarkibiy qismidir. Uning amal qilishi demokratik asosda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xuquqiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, foyda solig‘i pul munosabatini ifoda etib, bu munosabatlarda bir tomonda davlat va ikkinchi tomonda soliq to‘lovchilar, ya’ni korxona birlashma va tashkilotlar turadi. Shu munosabatlarni tashkil qilishni davlat o‘z qo‘liga olgan, chunki foyda solig‘i uning uchun byudjet daromadini tashkil etish manbai bo‘lib hisoblanadi va soliq to‘lovchilari uchan xarajat bo‘ladi. Davlat bilan soliq to‘lovchilar o‘rtasidadagi munosabatni Oliy Majlis qonun asosida belgilab beradi. Bunday munosabatning

belgilab berilishi foyda solig'ini to'lovchilarning Oliy Majlis tomonidan belgilanishi ikki tomonning, ya'ni soliq, undiruvchi davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtaсидаги rozilikning yuksak demokratik darajasiga amal etishдан dalolat beradi.

Foyda soliq munosabatlарининг ayrim amaliy xususiyatlари qatoriga quyidагиларни ham kiritish mumkin:

1. Soliqni hisoblashda korxonaning moliyaviy ahvoli va ishlab chiqarish faolyati har tamonlama inobatga olinishi mintaqadagi ish haqi koeffitsiyentlari, ya'ni sahrolarda, suvsiz joylarda, tog'li tumanlarda faolyat ko'rsatib olingan foyda va uni soliq obyekti doirasida e'tiborga olishda qo'llaniladigan chegirmalar.

2. Respublikamizda amal qiluvchi regressiv, progressiv va proportsional soliq stavkalarining o'zida turli faolyat darajasidan kelib chiqqan holda e'tiborga olinishi.

3. Foyda solig'ini hisoblashda aksiya, obligatsiyalardan ulardan tashqari olingan daromadlar hamda boshqa korxonalar faolyatida qatnashishdan ko'rilgan daromadlarning ham foyda soliq obyektini shakkantirishda e'tiborga olinishi.

4. Yaxshi ishlaydigan yoki ishlab chiqarilgan mahsulot (tovarlar)ni eksport qilish, kichik biznes korxonalariga nisbatan joriy etilgan imtiyozlar, chegirmalar va shu kabilar.

Foyda solig'ini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagи o'mni va ahamiyati ham benixoya kattadir.

Birinchidan, foyda soliq obyektining imtiyozlar orqali tartibga keltirish soliq to'loving o'ziga bog'liq qilib qo'yilganligi, korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan oshirishga sifatli mahsulot (tovar) ishlab chiqishga undaydi. Qo'lga kiritilgan va korxona balansidagi foyda noo'rin sarflashni qisqartiradi va to'g'ridan to'g'ri qaytim bermaydigan xo'jalik tarmoqlariga investitsiyani kengaytiradi, uni tez ishga solishga imkoniyat tug'dirmoqda.

Ikkinchidan, foyda solig'i korxonalarning mablag'larini uy - joy qurilishiga sarflashga va ularni eksport hajmini oshirishdan foyda

olishga qiziqtiradi. Chunki bunday foydalarning soliqdan ozod etish korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlaydigan to'lov qobilyatini kuchaytiradi.

Uchunchidan, foyda solig'i imtiyozlariga amal qilish ishlab chiqish xarajatlarini kamaytirishga, sifatli ko'plab mahsulot ishlab chiqishga va byudjet daromadlarini oshirishga qulay shart - sharoit yaratmoqda.

To'rtinchidan, foyda solig'ini kelajakda korxona daromadidan olinadigan soliq bilan birlashtirish imkoniyatlari ular tomonidan qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga bog'liq, chunki bunday soliq munosabatlarini yuzaga keltirish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalarida sifat o'zgarishlarining ijobjiy tomoniga siljilishiga erishish mumkin bo'ladi.

Daromad (foyda) solig'i korxonalar to'laydigan bevosita (to'g'ri) soliqlarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ushbu soliq faqatgina korxonaning soliqqa tortiladigan daromadga (foyda) ega bo'lsagina hisoblanadi, korxonaning zarari soliqqa tortiladigan bazadan kichik bo'lganda ushbu soliq mavjud bo'lmaydi. Demak, daromad (foyda) solig'ini to'lashning muhim sharti bo'lib korxonalarning rentabelli ishlab chiqarish faoliyatlaridan foyda olishlari hisoblanadi;

- daromad solig'ining miqdori bevosita korxonaning sof foydasiga solinadi, ya'ni uning mulkdorga qoladigan foydani kamaytiradi. Demak, soliq to'lovchilarda ushbu soliq ko'pincha norozichilikka olib keladi. Shuning uchun davlat soliq siyosatida ushbu soliq yukini doimo kamaytirib borish muhim urin to'tadi. Buning yorqin misoli daromad (foyda) solig'i stavkasini yil sayin kamaytirib borilishidir. Agar bu soliq stavkasi 1995-yilda 38 % bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib u 7,5 %ni tashkil etadi (6.1-diagrammaga qaralsin).


- daromad (foyda) solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlarni rentabelli ishlashga, inqirozga uchramaslikka intiltiradigan soliq turi hisoblanadi. Korxonalarning zarar bilan ishlashi nafaqat davlatga, balki ularning

o'zlariga ham manfaatli hisoblanmaydi. Daromadga (foyda) erishmagan korxona o'z ishlab chiqarishini rivojlantira olmaydi, shuningdek, jamiyatni rivojiga ham hissa qo'sha olmaydi.

- daromad (foyda)ni davlat tomonidan belgilab qo'ygan ishlab chiqarish turlari va shartlari evaziga olgan korxonalar ushbu soliq bo'yicha juda katta imtiyozlarga ega bo'ladi, jumladan ishlab chiqarishni fizik hajmini oshirishdan olingan foyda umuman soliqqa tortilmaydi, xalq iste'mol tovarlarini bolalar uchun tovarlarni, tovarlarni eksport qilganligi uchun ishlab chiqarish korxonalariga soliq qonunchiligidagi ko'ra juda katta imtiyozlar belgilangan.

6.1-diagramma

### O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar foyda solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasi<sup>5</sup>



Daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar bo'lib, quyidagilardan tashqari, barcha tadbirkorlik faoliyatidan foyda olgan xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining mos yillarga mo'hallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari ma'lumotlari asosida tuzildi

-xorijiy korxonalar, ushbu korxonalar maxsus yo'riqnomaga asosan soliqqa tortiladi;

- soliq solishning ixchamlashtirilgan shaklida, ya'ni yagona soliq tizimida, ishlovchi kichik va o'rta biznes korxonalar;

- yalpi daromaddan soliq to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar.

## 6.2. Soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini aniqlash

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solish obyekti bo'lib soliqqa tortiladigan foyda hisoblanadi. Ushbu foyda summasi Soliq kodeksi (14-43-moddalar) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq aniqlanadi.

Ushbu me'yoriy xujjalarga muvofiq korxonalar faoliyatining oxirgi moliyaviy natijalarini ifodalovchi foyda (zarar)larni aniqlash muhimdir (5-bobaq qaralsin).

Amaldagi soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni aniqlash ham muhimdir. Chunki "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarni shakllantirishda soliqqacha foyda summasini kamaytirishga olib borilgan, hisobotda sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari tarkibida aks ettirilgan xarajatlari (masalan, me'yordan ortiq ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, me'yordan ortiq reklama va vakillik xarajatlari, moddiy yordam va kompensatsiyalar, uyali aloqa xarajatlari korxonaning asosiy vositalari va boshqa aktivlaridan ko'tilgan zararlar, ko'rsatilgan xomiyilik summalarini va boshqalar) tushuniladi. Bunday xarajatlarni to'liq ro'yxati "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi

moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 1-ilovasida keltirilgan. Soliq qonunchiligiga asosan korxonalar soliq solish bazasiga qayta qo‘shiladigan xarajatlarni Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq mustaqil hisoblashlari, ularning summasini foyda (daromad) solig‘i hisob-kitobining alohida satrida (020-satr) ko‘rsatishlari lozim.

Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar deganda 9430 “Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar“ schyotida aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Ushbu xarajatlar foyda (daromad) solig‘i hisob kitobining alohida satrida (030-satr) ko‘rsatiladi.

Soliq bazasidan kelgusida chegiriladigan xarajatlar deganda “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda keltirilgan 2-ilovaga muvofiq o’tgan hisobot yilda soliq bazasidan chegirilmagan, lekin keyingi hisobot davridan boshlab 10 yil muddat ichida soliq bazasidan chegirilib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Soliq qonunchiligiga asosan korxonalar soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlarni nizomda keltirilgan tartibga muvofiq maxsus hisob-kitob yordamida mustaqil hisoblashlari va ma’lumotnomaga bilan tasdiqlashlari, ularning summasini foyda (daromad) solig‘i hisob-kitobining alohida satrida (040-satr) ko‘rsatishlari lozim.

Olingan dividendlar va foizlar. Soliq qonunchiligiga muvofiq alohida 10 foizlik dividend solig‘iga tortilishi munosabati bilan foyda (daromad) solig‘ini hisoblashda olinigan dividendlar va foizlar summalarini chegirib tashlanadi. Shuning uchun ularning summalarini foyda (daromad) solig‘i hisob-kitobining alohida satrida (060-satr) ko‘rsatiladi. Ushbu daromadlardan dividend solig‘i undirilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar ularni bergen yuridik shaxslarning ma’lumotnomalari bilan tasdiqlanishi lozim.

Jami daromad tarkibi, xarajatlar tarkibi va soliqqa tortiladigan baza:

1) Mahsulot sotishdan tushgan tushum.

2) Boshqa operatsion daromadlar:

- asosiy vosita va boshqa aktivlarni sotishdan tushgan daromad;
  - mol-mulkni ijaraga berishdan tushgan tushum;
  - tekinga olingan mol-mulk;
  - deponent, da'vo muddati o'tgan va kretitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;
- 3) Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar:
- foiz sifatida olingan daromad;
  - dividend sifatida olingan daromad;
  - roylati;
  - musbat valyuta kursi farqi;
  - lizingga mol-mulkni berish;
  - investitsiyani qayta baholash va boshqalar.
- 4) Favqulotda daromadlar. Bu daromadlar 3 kriteriyaga ega bo'lishi kerak:

1. Asosiy faoliyatga bog'liq bo'lmashlik;
2. Korxona rahbariyatining qaroriga bog'liq bo'lmashligi;
3. O'yamagan qanaqadir juda kam uchraydigan bo'lishi kerak.

**Jami daromaddan chegirmalar.** Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda buxgalteriya hisobi bo'yicha xarajatlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:**
  - bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
  - bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
  - boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo'lgan ustama xarajatlar.
- Ishlab chiqarish tanuarxiga kiritilmaydigan xarajatlar ya'ni davr xarajatlari:**
  - sotish xarajatlari;
  - ma'muriy xarajatlar;
  - boshqa operatsion xarajatlar.
- Moliyaviy faoliyat xarajatlari:**

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va o'zaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlari;
- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari;
- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafoyutlari va zararlar;
- sarflangan (qimmatli qoqozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baho'lashdan ko'rilgan zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

#### **4. Favqulotda xarajatlar.**

Ushbu xarajatlar soliqqa tortish maqsadida birmuncha boshqa usuldan foydalanadi.

**Soliqqa tortish maqsadida esa xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:**

- 1) Soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar.  
Ular tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan xarajatlar.
- 2) Soliqqa tortiladigan daromaddan chegirilmaydigan xarajatlar, ya'ni Soliq kodeksiga binoan chegirilmaydigan xarajatlar. Bu guruh xarajatlariga xayriya, homiylik, moddiy yordam, safar xarajatlari, shtraflar, penyalar va boshqalar kiradi.
- 3) Me'yoriy xarajatlar ya'ni qonunda bu xarajatlar uchun me'yor belgilanadi. Me'yordan ortiqchasi esa soliq bazasiga qayta qo'shiladi.  
Shuningdek soliqqa tortish maqsadidagi xarajatlar chegirib tashlanadigan xarajatlar va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.
- Chegirib tashlanadigan xarajatlarga:** moddiy xarajatlar; mehnatga haq to'lash xarajatlari; amortizatsiya xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

- Chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:**
- moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalardan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;
  - xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);
  - normalardan ortiqcha xarajatlар (xizmat safarları, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar);
  - nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;
  - xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;
  - umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;
  - yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;
  - soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;
  - xodimlarga bepul ko'rsatiladigan communal xizmatlar, beriladigan oziq-ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki xodimlar uchun ishlar hamda xizmatlarni bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, communal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summalari);
  - xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha kompensatsiyalar;
  - xodimlarning ovqatlanishi, yo'l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo'llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport seksiyalari, to'garaklari, klublaridagi mashg'ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi uchun, obunaga hamda xodimlarning shaxsiy

foydalanishi uchun tovarlarga qilingan xarajatlarning o'mini qoplash yoki to'lash va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

- pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;

- xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;

- ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganlik munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlarisiz haqiqatdagi ish haqigacha to'lanadigan to'lovlar;

- ekologiya, sog'lomlashtirish hamda boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalar, muassasalari va tashkilotlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar kiritish;

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

- mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdag'i ishlari) bajarishga sarflangan xarajatlar;

- atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlar;

- kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

- loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergen buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarini qismalarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga

o‘rnini qoplash mumkin bo‘limgan miqdordagi boshqa shunga o‘xshash xarajatlar;

- bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag‘batlantirish hisoblanadigan bir yo‘la mukofotlar;

- sud chiqimlari;

- aybdorlari aniqlanmagan o‘g‘irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur sumunalarning o‘rnini qoplash mumkin bo‘limganda ko‘rilgan zararlar;

- soliq to‘lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko‘rilgan (buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar;

- xo‘jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to‘langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagи sanksiyalar;

- davlat ulushlarini boshqarish bo‘yicha boshqaruvchi kompaniyalar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to‘lash, shuningdek, kompaniyalarning boshqa professional boshqaruvchilariga mukofotlar to‘lashga doir xarajatlar;

- boshqa xarajatlar.

Shunday qilib soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda jami daromaddan quyidagilari chegiriladi:

-qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, bojxona boji, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

-ish haqi xarajat;

-renta to‘lovleri;

-arenda to‘lovi;

-asosiy vositalarni remont xarajatlari;

-me‘yoridagi safar xarajatlari;

- umidsiz qarzlar;
- asosiy vositalarni, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotishdagi yo'qotishlar;
- amortizatsiya ajratmalari (va boshqa Soliq kodeksiga ko'rsatilgan chegirmalar).

### **6.3. Amaldagi soliq qonunchiligidagi korxonalar uchun mavjud soliq imtiyozlari**

Soliq qonunchiligiga muvofiq, barcha soliq turlari kabi daromad (foyda) solig'ini to'lovchilariga ham to'rt xil imtiyozlar turi belgilangan.

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliqni to'lashdan quyidagilar ham ozod qilinadi:

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

- shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

- tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

- investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

- Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalinishdan olingan foydasi;

- fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan olingan foydasi.

2. Soliqqa tortiladigan foydani topishda imtiyozlar sifatida chegiriladigan xarajatlar quyidagi tartibda soliq solinadigan foydadan kamaytiriladi. Misol uchun yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

- ekologiya, sog'lomlashadirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o'mini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihozlar bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

- yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

- diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining

ustavida belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiladigan ajratmalari summasiga.

Aytish joizki, soliq stavkasini pastga qarab pasaytirib borilishi ham yuridik shaxslarga taqdim etilgan imtiyoz desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun, foyda solig'i stavkasi 2016-yil 1-yanvardan hozirgi kunga qadar 7,5 % qoldirildi.

Korxona eksport bilan shug'ullansa eksport ulushi 15-30 %gacha bo'lsa, soliq stavkasi 30 %ga kamaytiriladi.

Agar eksport ulushi 30 % va undan yuqori bo'lsa soliq stavkasi 50 %ga qisqartiriladi.

Gastrol, konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasи bo'lgan yuridik shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar uchun soliq stavkasi 35% qilib belgilangan.

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq solish obyekti bo'lib soliqqa tortiladigan foyda hisoblanadi. Ushbu foyda summasi jami daromaddan Soliq kodeksi (126-166-moddalar) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 5-fevlardagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomiga muvofiq ko'rsatilgan xarajatlarni chegirishdan topiladi. Formula sifatida soliqqa tortiladigan daromad quyidagicha aniqlanishi tavsiya etiladi.

$$STD = \frac{\sum Daromad - \sum Xarajat + Iloval - Ilova2}{Imtiyozlar}$$

Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash tartibiga ham e'tiborni qaratilishi muhimdir.

Soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda 54-nizomdan albatta foydalilanildi, chunki unda xarajatlarning va oxirgi moliyaviy natijani aniqlashning metodologik asoslari o'rnatilgan.

Nizom buxgalteriya hisobi va soliq hisobidagi farqlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Soliq organlarini buxgalteriya foydasi

qiziqtirmaydi, ularni xo'jalik subyektlari tomonidan qilingan ayrim xarajatlari, buxgalteriya foydasiga qayta qo'shiluvchi xarajatlarning to'g'ri aniqlanishi qiziqtiradi.

Shunday qilib Ilova 1da sof foydasini aniqlashda korxonaning daromadidan chegiriladigan, lekin foya solig'i summasini aniqlashda soliqqa tortiladigan daromad qayta qo'shiladigan xarajatlar kiritiladi.

2-ilovada hisobot davrida chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar aks ettiriladi. Shunday qilib buxgalteriya hisobi ikki funksiyani bajaradi. Bir tomonidan korxonaning umumiy moliyaviy faoliyati natijalarini aniqlash uchun haqiqiy tannarxni aniqlash uchun ma'lumotlarini yig'adi, ikkinchi tomonidan soliq summasini to'g'ri aniqlash uchun soliqqa tortish maqsadidagi tannarxni aniqlaydi.

Daromad va xarajatlarni taqqoslash, oxirgi moliyaviy natijani "Moliyaviy natijalar hisobida" ko'rsatiladi (2-shakl).

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini joriy to'lovlarни kiritish orqali to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining summasi haqida ma'lumotnomma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 15-kuniga qadar hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foya eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarini to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'inining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini, shuningdek, sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

#### **6.4. Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi, ahamiyati, investitsion "portfeli" va siyosati**

- Ishlab chiqarish omillaridan biri - kapitaldir.
- Ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, jihozlar, transport vositalari, barcha instrument turlari, binolar, qurilmalar, inshootlar kabilar) investitsion tovarlar yoki investitsion resurslar deb ataladi.

Investitsion resurslar (tovarlar) va kapital sanoat korxonasida sinonim sifatida ishlataladi.

Ushbu terminlar mazmuniga pul kiritilmaydi, chunki u, o'z-o'zidan hech narsa ishlab chiqarmaydi, ishlab chiqarish resursi sifatida ishlatalimaydi. Pul ishlab chiqarish resurslarini sotib olish uchun manbaa bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib investitsion tovarlari (resurslar) bu uzoq muddatda foydalananadigan ishlab chiqarish vositalari bo'lib, u ko'plab tovarlar va xizmathar ishlab chiqarish va foya olish maqsadida foydalilanadi.

Investitsiya lotincha “*investire*” (kiyintirish, yasantirish), nemischa “*investition*” so‘zidan kelib chiqib, qisqacha uzoq muddatga ishlab chiqarishni kengaytirish, daromadni orttirish, foyda olish uchun qandaydir ishga yoki korxonaga kapital mablag‘ qo‘yishni bildiradi.

Investitsiyaga kengroq ma’noda ta’rif bersak, unda u foyda yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun biron-bir tadbirdorlik obyektiga (korxonaga) yoki boshqa faoliyatni yuritish uchun pul mablag‘larini; qimmatli qog‘ozlarni; pulda baholanuvchi mol-mulkni, jumladan mulkiy yoki boshqacha huquqlarni yo‘naltirish deb tushunilishi zarur.

Investitsiya so‘zidan investor – omonatchi so‘zi kelib chiqib, u omonat (qarz, kredit) beruvchi shaxs, tashkilot (korxona) yoki davlatni anglatadi. Investor investitsion faoliyatni obyekti hisoblanadi. Investorlar qatoriga qimmatli qog‘ozlarni sotib oладиган va bu bilan o‘zlarining bo‘sh mablag‘ini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar ham kiradi. Investitsiyalar alohida alomatlar bo‘yicha tasniflanadi. Uning tasnifi 6.1-jadvalda keltirilgan.

#### 6.1-jadval

#### Investitsiyalar tasnifi

T/r	Alomatlar	Turlari	Mazmuni
1	Maqsadi bo‘yicha	1.1. Foyda olish 1.2. Ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun	1.1. Turlari maqsadiga mos
2	Obyektlari bo‘yicha	2.1. Real investitsiyalar 2.2. Moliyaviy investitsiyalar	2.1. Pul mablag‘larini moddiy va nomoddiy aktivlarni avanslash 2.2. Qimmatli qog‘ozlarga (aksiya, obligatsiya v.b.) pul mablag‘larini qo‘yish
3	Tavsiyi bo‘yicha	3.1. Alomat nomi bo‘yicha	3.1. Alohida mahsulot turi bo‘yicha va avanslash-qandaydir aksiya paketim egallash uchun pul mablag‘ini qo‘yish
4	Investitsiyalash muddati bo‘yicha	4.1. Qisqa muddatli 4.2. Uzoq muddatli	4.1. Muddati bir yilgacha avanslash (qo‘yish) 4.2. Bir yildan ortiq muddatga avanslash (qo‘yish)

5	Mulk shakllari bo'yicha	5.1. Xususiy mulkdorlar 5.2. Davlat mulkidagi investorlar 5.3. Qo'shma va horijiy mulkdorlar	5.1. Nodavlat shakldagi yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan mablag' qo'yish 5.2. Davlat mulkiga ega korxona, tashkilotlar, mahalliy tashkilot va muassasalar 5.3. Qo'shma ya horijiy korxonalar, tashkilotlar, muassasalar
6	Hududiy alomati bo'yicha	6.1. Davlat ichida 6.2. Chet eldan	6.1. Davlat korkonalar, tashkilotlari va muassasalari, mamlakat ichidagi yuridik va jismoniy shaxslar 6.2. Horijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar, xalqaro moliyaviy-kreditlash tashkilotlari
7	Investitsiyalash riski darajasi bo'yicha	7.1. Risksiz 7.2. Kichik riskli 7.3. O'rtacha darajada riskli 7.4. Yuqori darajada riskli 7.5. Spekulativ investitsiyalash	7.1. Mablag' ni riski yo'q obyektlarga, ya'ni real daromadlar yoki foyda olish imkoniyati aniq 7.2. Mablag' ni o'rtacha bozor riski darajasi kam bo'lgan obyektlarga qo'yish 7.3. O'rtacha bozor riskli darajadagi obyektlarga mablag' qo'yish 7.4. O'rtacha bozor riski darajasidan yuqori bo'lgan obyektlarga mablag' qo'yish 7.5. Juda riskli aktivlarga mablag' qo'yish

Investitsion faoliyat deb – mablag' qo'yishdan boshlab to mablag'ni daromad bilan birga qaytarib olish davrigacha amalga oshirilgan jarayonlar majmui tushuniladi.

Investitsion faoliyat alohida bosqichlardan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich bosqich – jahon amaliyotida pul mablag'ini ajratish davri hisoblanadi. Bunda investor investitsiya obyektiga biron-bir

faoliyatni masalan, jihoz sotib olish uchun) bajarish uchun pul mablag'i ajratadi.

Ikkinchisi bosqich – ajratilgan *mablag'*ni qaytarilishi. Mablag'ni ajratilishi biron muddatda amalga oshiriladi, mablag'ni qaytarilishi investitsion sikl davrida masalan, yilma-yil mobaynida amalga oshiriladi.

Korxonalar investitsion faoliyatni amalga oshirishda investitsiyani ko'proq foyda keltiradigan joyga yo'naltirish muammosiga duch keladi. Ushbu muammolar – investitsiyalar qo'yish yo'nalishlarini aniqlash, joriy va perspektiv rejalar ishlab chiqish jarayonida aniqlanadi. Ushbu jarayon investitsion siyosatni ishlab chiqishda belgilanadi. Korxonaning investitsion siyosati bir qator omillar ta'sirida aniqlanadi. Ular ichida eng zaruriysi quydagilardan iborat:

- investitsiya obyektining mulk shakli;
- korxona faoliyatining hayot bosqichlari;
- iqtisodiy faoliyat turi;
- strategik ustuvorliklar;
- ishlab chiqarishning texnik-texnologik jarayoni;
- korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotning raqobathardoshligi, bozorbopligi;
- korxonaning bozordagi o'rni (nishchasi);
- korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati va boshqalar.

Investitsion siyosatda avvalombor mablag' qo'yiladigan korxonaning investitsiya uchun ustuvor obyekti aniqlanadi. Keyin investitsiyadan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi. Bunda investitsiyadan samarali foydalanishga ta'sir qiladigan barcha obyektiv va subyektiv omillar o'rganiladi, salbiy holatlar bartaraf etiladi.

Investitsiya ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Birinchisi, yangi korxonalar barpo qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, jihozlar sotib olish, litsenziya olish, ko'chmas mulk xarid qilish. Ikkinchisi, mablag'ni qimmatli qog'ozlarga qo'yish. Birinchisi *real investitsiya* deb tushuniladi, ikkinchisi *portfelli investitsiyalash* deb yuritiladi.

Portfelli investitsiyalar litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa investorga korxonanani boshqarish huquqini beradi.

Investitsiya – pul mablag‘lari, kredit, qimmatli qog‘oz shaklida olib boriladi, ko‘chma hamda ko‘chmas mol-mulkga, intellektual mulkga, ne’matlarga bo‘lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo‘yiladi, ya’ni korxonaning barcha aktivlariga ishlataladi.

Nomoliyaviy aktivlarga, ya’ni real kapitalga qo‘ylgan investitsiya asosiy kapitalni yangilash va takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablag‘larga kredit sifatida, qimmatli qog‘ozlarga) qo‘ylgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi – kengroq, ya’ni qandaydir vaqt o‘tgandan keyin, uchunchisi esa – umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (Masalan: chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatli qog‘oz o‘z qiymatini yo‘qotsa, oddiy so‘z bilan aytganda sinsa). Shu sababli moliyaviy investitsiyada investorga moliyaviy risk ko‘proq bo‘ladi.

Investitsiya moliya bozorining elementi hisoblanadi. Moliya bozori muayyan moliya muassasalari orqali o‘zaro aloqada bo‘ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Aksiya va obligatsiyalar investitsiya qimmatli qogozlari deb yuritiladi. Moliya bozorida qimmatli qogozlarning boshqa turlari – xazina majburiyatlar; depozit sertifikatlari; veksellar; warrantlar va hokazolar muomalada yuradi.

Investitsiya jamiyatni iqtisodiy rivojlanishiga va har bir jamiyat a’zosini moddiy farovonligini oshirishga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

Investitsiya korxona aktiviga, yangi mahsulot ishlab chiqish, ularni sifatini oshirish, mahsulotni sotishni va foydani ko‘paytirish uchun qo‘yladigan mablag‘. Shu sababli investitsiya ishlab chiqarishni kengaytirishni, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, yangi ish joylarini tashkil qilishni, ish haqini va aholini sotib olish quvvatini

oshirishni, davlat va mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazaridan investitsiya asosiy va aylanma mablag'larni jamg'arishni anglatadi. Moliyaviy nuqtai nazaridan moliyaviy resurslarni daromad (foyda) olish uchun to'plashni ko'rsatadi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlatalgan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalaydi.

Investitsiyani bir turi bu – annuitet. Annuitet aholining shaxsiy investitsiyasi bo'lib, omonatchiga qandaydir bir davr ichida yoki doirasida unga daromad beradi. Annuitet asosan sug'urta va pensiya jamg'armalariga mablag' qo'yishni anglatadi.

Investitsiya muassasalariga moliya brokerlari, investitsiya kompaniyalari (dillerlar), investitsiya sohasi bo'yicha maslahatchilar, investitsiya fondlaridan iborat bo'lib, ular investitsiya bo'yicha vositachilik, qimmatli qogozlarni chiqarishni yo'lga qo'yish, ularni uchinchi shaxslar foydasiga joylashtirish bo'yicha kafolatlar berish, aksiyalar chiqarish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

## 6.5. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga qo'yish sohalari

Investitsiya resurslari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishini boshqarishning iqtisodiy omili vazifasini bajaradi. Investitsiya mablag'lari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonlarida hamda aholining foydalanimayotgan mablag'larini to'planish natijasida, ularni boshqa jarayonlarda ishlatalishini ta'minlaydi.

Korxona nuqtai nazaridan investitsiya manbalari ular o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya, boshqa pul jamg'armalari); qarzga olingan mablag'lar (bank krediti va boshqa tashkilotlarni omonatlari); boshqa jalb qilingan mablag'lar (aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar); byudjet va byudjetdan tashqi mablag'lar tashkil qitadi.

Investitsiya tarkibida uning manbalari o‘z aksini topadi.

Investitsiya manbalarini uning tarkibidan kelib chiqib moliyaviy va moddiy resurslarga ajratish mumkin.

Moliyaviy manbalarga – naqd pul; chet el valyutasi; xalqaro to‘lov pullari; aksiyalar; zayomlar; korxonalar mablag‘lari; amortizatsiya fondi kiradi.

Moddiy resurslarga – xomashyo resurslari; ko‘chmas mulk; jamoa-shirkat-xo‘jalik mulki; fermerlar mulki; dehqon xo‘jalik mulki; tadbirdorlar mulki kiradi.


Investitsiya manbalarini shakllantirishda moliya bozori va uning infratuzilmasi muhim ahamiyatga egadir. Moliya bozorining asosiy maqsadi muamoladagi ortiqcha bo‘lgan pul resurslarini aktiv kapital sifatida ishlab chiqarishga jalb qilishdan iboratdir.

Moliya bozori juda keng ma’noli tushuncha bo‘lib, u doimo paydo bo‘ladigan jamg‘armalardan samarali foydalinish jarayonini o‘zida ifodalarydi.

Moliya bozori hayotda vujudga kelgan jamg‘armalarni (oilada, korxonada) bir turdan (jamg‘armalanishi) ikkinchi turga (real kapitalga aylanishi) o‘tishini ta’minlovchi mexanizmdir.

Hozirgi zamон moliya bozorining asosini moliya muassasalari va vositachilar tashkil qiladi. Ular sotuvchilar va xaridorlar, hamda sotiladigan va sotib olinadigan tovar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo‘lgan bozordir.

Moliya bozorining tasnifi quyidagi 6.1-chizmada tasvirlangan.



6.1-chizma. Moliya bozori tasnifi

- Investitsiyalarni obyektlarga qo'yish sohalariga qarab quyidagi larda ajratish mumkin:
  - kam qo'llaniladigan investitsion mablag'lar, ya'ni qo'riq (bo'sh yotgan) yerlami o'zlashtirish, mehnat resurslaridan vaqtincha foydalanish (mutaxassislar va rahbarlardan) va h.k.;
  - ma'lum hajmda talab qilinadigan investitsiya mablag'lari;
  - rejalashtirilgan investitsiyadan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi boshqa investitsion sharoitlar, ya'ni rejalashtirilgan asosiy investitsiya mablag'lariga qo'shimcha investitsiya mablag'larini jalg'etish yo'li bilan investitsiyadan keladigan foydani oshirish;
  - faoliyatga qo'yilgan shakliga qarab, investitsiya o'z harakatida daromadlarni oshirish yoki kamaytirish, xavf-xatarni kamaytirish, mehnat jamoasini manfaatdorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilishini ta'minlash zarur;
  - qo'shimcha investitsiyalar xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsulot ishlab chiqishni va sotishni oshirish, qo'shimcha daromad olishni ta'minlashga yo'naltirilish kerak;
  - ma'lum ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarishni ixtisoslashuviga qarab taqsimlanishi darkor;
  - investitsiyalar resurslarni tejash, yangi mahsulot ishlab chiqarish, korxona imidjini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarni ta'minlashi ham zarur.

## **6.6. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi ko'rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo'llari**

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish, investitsiyaviy loyihalashtirish, loyihalarni tahlil qilish hamda investitsiyani samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi.

Korxona misolida investitsiya strategiyasi – bu kelajak davrga korxonalarini asosiy faoliyatlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, shu jumladan o'z mablag'lari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplanish miqdorini aniqlash bo'lib hisoblanadi. Korxona aktivlarini hajmini va rentabelligini prognozlash orqali strategik bashoratlashda aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va uni ta'minlashning moliyaviy resurslari uzoq muddatga aniqlanadi.

Investitsion loyiha bu investitsiyani texnik-iqtisodiy asoslash bo'lib, u investitsion faoliyat ishtirokchilarini (mulkdor, tadbirkor, bankir, davlat va xalqaro tashkilotlar kabilar) iqtisodiy axborotnomasi, ularni o'zaro aloqalarini bog'laydi hamda tushintiradi. Qisqa qilib aytganda investitsiya loyihasi investitsiyadan belgilangan chegaralarda (me'yordorda) foydalanishni anglatadi.

Investitsiya loyihasini samaradorligini hisoblash - bu investitsiyadan keladigan samara ko'rsatkichlarini aniqlashni ifodalaydi.

Investitsiya loyihasini asosi bu kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Shu sababli investitsiya loyihasi samaradorligi kapital qo'yilmalar samaradorligi orqali aniqlanadi.

Jamiyat miqyosida kapital qo'yilmalar samaradorligi koeffitsiyenti ( $QQ_{koeff}^s$ ) milliy daromadning o'sish miqdorini ( $\sum MD\sigma^m$ ) kapital qo'yilmalar summasiga ( $\sum QQ$ ) nisbatan aniqlanadi, ya'ni:

$$QQ_{koeff}^s = \frac{\sum MD\sigma^m}{\sum QQ}.$$

Korxona miqyosida investitsiya samaradorligi (kapital qo'yilma) koeffitsiyenti ( $QQ_{koeff}^s$ ) quyidagicha hisoblanadi:

$$QQ_{koeff}^s = \frac{\sum ICh_{max}^k - \sum ICh_T}{\sum QQ} \text{ yoki } \frac{\sum F}{\sum QQ}$$

bu yerda:  $\sum ICh_{max}^k$  - yillik ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

$\sum ICh_T$  - yillik ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxi;

$\sum F$  - yillik foydaning miqdori.

Ko'p variantli kapital qo'yilmalar loyihasi samaradorligini aniqlash uchun har bir variantdagi xarajatlarni minimumga keltirish yo'li bilan aniqlanadi. Ya'ni:

$$\sum ICh_{\tau_i}^s + QQ_{koeff}^s \times \sum QQ \rightarrow \min$$

bu yerda:  $\sum ICh_{\tau_i}^s$  - i variantdagi xarajatlar;

$QQ_{koeff}^s$  - kapital qo'yilmalar samaradorligi koeffitsiyenti;

$\sum QQ$  - kapital qo'yilmalar summasi.

Solishtirilayotgan variantlar har xil davrga mo'ljallangan bo'lsa, bunday sharoitda variantlar (Var) keltirilgan koeffitsiyentlar bo'yicha aniqlanadi, ya'ni:

$$Var = \frac{1}{(1 + X^D X_N)} \times M_I^s t$$

bu yerda:  $X^D X_N$  - har xil davrdagi xarajatlarni keltirish normativi;

$M_I^s t$  - mablag'larni ishga tushirishdan samara olgungacha bo'lgan vaqt.

Investitsiya samaradorligini aniqlashda uning o'zini qoplash muddati, risk darajasi, inflyatsiyani oshish tempi, kelajakda soliqlar miqdorini o'zigarishi kabilar hisobga olinishi shart. Chunki investitsiyani qulay va samarali sohaga qo'yish investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon amaliyotidan shu ma'lumki pulni banklarda saqlash eng qulay hisoblanadi, chunki omonatchi undan protsent oladi.

Pulni investitsiya qilish (ishlab chiqarishga qo'yish yoki qimmatli qog'ozlar sotib olish) investorga faqatgina unga bank tamonidan beriladigan protsentdan ko'proq daromad keltirsagina foydaliroq bo'ladi. Bu investorlar uchun birinchi qoida bo'lib hisoblanadi.

Investorlarning ikkinchi qoidasi - investitsiya rentabelligi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lishi shart.

Shunday qilib, investitsiya samaradorligini hisobiaganda yuqorida keltirilgan qoidalardagi ko'rsatkichlarni solishtirma tablifi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Investitsiya loyihasini baholashda xarajatlar va daromadlarini har xil davrga solishtirma tahlili katta ahamiyatga ega. Chunki xarajatlar biron davrda ishlataladi, daromad esa nafaqat biron davrdan keyin, u asosan xarajatlar amalga oshirgandan keyin kela boshlaydi. Shu sababli davriy pul qiymati degan tushuncha ishlataladi. Ushbu ko'rsatkich oldin olingan 1 so'mning keyin olingan 1 so'mdan qimmatroq turishini anglatadi.

Shu sababli iqtisodiy va moliyaviy tahlilda so'mning joriy va kelajakdagi qiymatini hisoblaydi, tahlil qiladi. Bunday hisob-kitoblar diskontlashtirish deb yuritiladi.

Diskontlashtirish deganda investitsiya yoki pul oqimlarini kelgusidagi qiymatining joriy bahoda ifodalanishi tushuniladi.

Diskontlashtirish murakkab foiz hisoblashning teskari jarayonidir. Murakkab foiz usuli orqali investitsiyaning kelajak qiymati (ИИ) quyidagicha aniqlanadi:

$$IN_Q^I = IN_Q^J \times (1 + \Delta Bfs)^n$$

bu yerda:  $IN_Q^J$  - investitsiyani joriy qiymati;

$\Delta Bfs$  - bank foyizi stavkasi;

$n$  - yillar soni.

Masalan: bank foyizi 10 % bo'lgan holda 5 yildan keyin 1 so'mning qiymati  $= 1 \cdot (1+0,1)^5 = 1 \cdot 1,55 = 1,55$  so'mni tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkichni diskontlashtirish usuli bilan investitsiyaning joriy qiymati aniqlanadi. Buning uchun investitsiyani kelajak qiymatini  $(1+bank\ foizi)$  mo'ljalangan yillar soni darajasiga bo'lish bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$IN_Q^J = \frac{IN_Q^I}{(1 + Bfs)^n} = IN_Q^I \times (1 + Bfs)^{-n}$$

Masalan: bank foyizi 10% bo'lgan holda 20 yildan keyingi 1 so'mning joriy qiymati  $= 1 \cdot (1+0,10)^{20} = 1 \cdot 1,10^{20} = 1 \cdot 6,7 = 0,15$  so'mni tashkil qiladi.

Shunday qilib diskontlashtirish yilma yil ketma-ketlikda daromadlar, xarajatlar potoklarini diskont stavkasiga asosli bir-biriga

keltirish yo'li orqali kelajakdagi daromad va xarajatlarni joriy qiymatini belgilab olish uchun investitsiyani iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda ishlataladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Soliq, foyda solig'i, chegirib tashlanadigan xarajatlar, chegirib tashlanmaydigan xarajatlar, soliq imtiyozlari, investitsiya, investitsiya tasnifi, investitsiya samaradorligi, investitsiya portfeli, investitsiya loyihasi, kapital, investitsiya manbalari, moliya bozori, diskontlashtirish.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Korxona daromadidan qanday soliqlarni to'laydi?
2. Korxonalar to'laydigan foyda solig'i ahamiyati nimada namoyon bo'ladi?
3. Soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini aniqlash qanday amalga oshiriladi?
4. Investitsiya manbalarining korxonaga qo'yish sohalari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Moliya bozori tarkibi nimalardan iborat?
6. Investitsiyaviy loyihalar samaradorligi qanday aniqlanadi?
7. Diskontlashtirish deganda nimani tushunasiz?

### **Topshiriqlar**

1. Korxonalar foyda solig'i va yagona soliq to'lovi o'rtasidagi farqni tushuntiring.
2. Korxonalar foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarni umumlashtiring.
3. Korxonalarda investitsiya kiritish zarurligini tushuntiring.
4. Moliya bozori tarkibi va o'zaro munosabatlarni o'rganib chiqing.

## VII BOB. KORXONALARDA BAHONI TASHKIL ETISH

### 7.1. Bozor sharoitida bahoni shakllantirishning omillari va xususiyatlari

Korxona faoliyatining rivojlanishi bilan birga erkin raqobatning vujudga kelishi va bozorni tartibga solib beruvchi unsur sifatida bahoni amal qilishi muqarrardir. Ammo iqtisodiy adabiyotlarda bu masala etarli darajada yoritilmaganligi, ayniqsa, korxonaning baho siyosati va uning raqobatbardoshligini baholash va tahlil qilish masalasi umuman qarab chiqilmaganligi tufayli ushbu masalaga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning yana bir jihat shundaki, bozor tizimida uning unsurlari to'liq ishlashga tushgach korxona o'zinig raqobatbardoshligini ta'mintlamasa uning sinishi, inqirozga uchrashi tabiiy.

Korxona raqobatbardoshligini bilish uchun esa uni baho siyosatini bilish, tahlil qilish, rivojlantirish yo'llarini bilishi talab etiladi.

Korxona raqobatbardoshligini aniqlashdan oldin korxonaning ichki va tashqi bozordagi baho siyosatiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Ammo korxonaning baho siyosati to'g'risidagi tushuncha hamon etarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa korxona oldiga yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni hal etish esa har bir korxonaning kundalik vazifasi bo'lib qolmoqda.

Korxonalarda ham kutilmaganda mahsulotga (tovarlar, xizmatlar) talabning kamayishi tufayli ular narxining pasayishi, resurslar qimmatlashishi hisobiga xarajatlarning oshib ketishi tufayli zararsizlik darajasining o'zgarishi va ularga nisbatan tarmoqning "chidamliligi"ni aniqlash baho siyosatini olib borishda muhim masala bo'lib qolmoqda. Korxonalarda xarajatlar yitiqa 5 foizga qadar oshgandagina optimal bahoni shakllantirish va samarali faoliyat yuritish imkoniyatlari yuzaga kelishi mumkin bo'ladi.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, baho siyosatini yuritishda xarajatlarni optimallashtirish masalasi muhimdir, chunki ishlab chiqarish korxonalarining xarajatlari tarkibida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari katta salmoqni tashkil etishi ularda baho siyosatini olib borilishida katta ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Baho siyosati deganda, korxonaning qisqa va uzoq muddatli barcha maqsad va manfaatlarini o'zida ifoda etadigan, bozor tabiatiga mos keladigan, uning yashovchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, samarali faoliyatni yo'lga qo'yishga etadigan foyda olishga erishtiradigan imkon qadar ichki va tashqi bozorni egallaydigan optimal baho miqdorini belgilashi tushuniladi.

Ko'rinib turibdiki, baho siyosati korxonani samarali faoliyat yuritishga xizmat qiladigan, uning bozorni egallashida asosiy dastak bo'ladigan, yashovchanligini ta'minlaydigan, raqobatbardoshligini oshiradigan muhim jarayondir.

Baho o'zining bir qancha xususiyatlari bilan bozor munosabatlari qonuniyatlarini tartibga soladi va uning qonuniyatlariga bo'ysunadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, baho korxonaning rejada ko'zda tutilgan foydasini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar u rejada ko'zda tutilgan miqdorda bo'lsa rejadagi foydani ta'minlaydi. Agar oshib ketsa, mos ravishda bir xil ish hajmi bilan ko'p foyda olishi mumkin va aksincha, kamayib ketsa rejadagi mahsulotni ishlab chiqarib sotgan bilan ko'zda tutilgan miqdordan kam foyda olishga erishiladi.

Ikkinchidan, bir xil tovarlar bir xil sifatda bo'lib bahosi past bo'lsa unga talabni ko'paytirib yuboradi, natijada faqat baho olishi natijasida uning raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Uchinchidan, bahoning o'zgarishi bevosita talab va taklifning muvozanatiga ham bog'liq bo'ladi. Agar tovarning bahosi haddan tashqari ziyod bo'lsa, unga qancha talab va ehtiyoj bo'lishidan qat'iy nazar o'z vaqtida sotilmasligi mumkin. Bu holat mazkur tovarning sun'iy ortiqchaligini vujudga keltiradi. Bu holat esa baho olishi natijasida korxonalarga ham, jamiyatga ham ancha zarari tegadi.

To‘rtinchidan, baho aholi farovonligining, uning real daromadining oshishi uchun imkon yaratadi. Agar mahsulotning narxi aholi daromadi bilan muvofiq kelsa, aholi qancha ko‘p daromad qilsa tovar shuncha ko‘p sotiladi va aksincha. Shu tufayli aholi daromadi darajasi bilan bahoning miqdori bir-biriga to‘g‘ri kelishi lozim. Ko‘p hollarda aholi daromadining asosiy qismi bo‘lgan ish haqi 20 foiz oshiriladi. Bahoning oshishi ham shunga mos bo‘lsa ularning bir-biriga muvofiq kelganligidan dalolatdir. Agar daromad 20 foiz oshib baho 30 foiz oshsa aholining nominal daromadi oshadi, ammo real daromadi kamayadi va aksincha.

Beshinchidan, davlat byudjetiga to‘lanadigan soliq va boshqa majburiyat to‘lovlarining asosida ham baho yotadi. Shu tufayli bahoning oshishi bevosita soliqning ko‘payishiga olib keladi va aksincha. Ammo hamma davlat ham, jumladan O‘zbekiston ham bahoning oshishi evaziga soliqning ko‘payishiga manfaatdor emas. Chunki kuchli ijtimoiy siyosat olib borayotgan mamlakatning boyish yo‘li o‘sish evaziga amalga oshirilmaydi.

Oltinchidan, baho bevosita olingen kreditlarni va tovar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarni qoplash imkonini ham beradi. Bular pulda ifodalanganligi tufayli korxona uchun mahsulot hajmidan ko‘ra bahoning miqdori muhim bo‘lib hisoblanadi.

Shu holatlardan ham ko‘rinib turibdiki, korxonaning baho siyosati faqat uning manfaatinigina ifodalab qolmasdan aholining ham, davlatning ham, bozorning ham manfaatlarini o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun tadbirdorning baho siyosati bozor munosabatlari sharoitida katta e’tiborga loyiq sohadir.

## **7.2. Bozor taraqqiyoti bosqichlariga ko‘ra narx shakllanishining xususiyatlari**

Narx – bu murakkab iqtisodiy kategoriyadir. Iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichlarida barcha iqtisodiy munosabatlarga oid muammolar narxga kelib taqaladi. Misol uchun ishlab chiqarish,

mahsulot realizatsiyasi, qiymatning shakllanishi, YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi. Ammo barcha muammolarni hal etilishida narx nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunga qadar narxning ikki nazariyasi shakllantirilgan. Birinchi nazariya tarafdarlarining fikriga ko'ra tovarning narxi, o'zida uning qiymatini ifodalaydi.

Ikkinci nazariya tarafdlari esa narx bu xaridorning tovar uchun bergen puli hisoblanadi deb e'tirof etishadi. Shundan kelib chiqqan holda, narx - tovar qiymatining puldag'i ifodasidir. Narxdan farqli ravishda narxlashtirish tovar va xizmatlarga nisbatan narxning shakllanish jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu jarayon o'z navbatida ikki tizimdan tashkil topadi, deb fikr ham beradilar, ya'ni:

- markazlashtirilgan – davlat organlari tomonidan narxning shakllantirilishi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari asos bo'lib xizmat qiladi;

- bozor – talab va taklifning o'zaro munosabati doirasida shakllanishi chiqadi, ya'ni, bu ikki tizim ta'sirida o'ziga hos savol yuzaga kelib tovar narxining hajmi nima bilan belgilanadi? Ushbu savol iqtisodiy nazariyaning eng mukammal va dolzarb muammosidan biri bo'lib hisoblanadi hamda ushbu savol yuzasidan tortishuvlar hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda.

- Umuman narx nazariyasi kapitalizm rivojining boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Bu davrda asosan narxning xarajat nazariyasi (Adam Smit Vilyam Gette va David Rikardolar) olg'a surilgan. Bu nazariyaga asosan tovarning qiymati shu tovari ishlab chiqarish uchun ketgan zaruriy mehnat miqdori bilan aniqlanadi. Boshqa nazariyachilar (K.Marks) esa tovar – qiymat va narxga ega deb fikr bildirganlar.

### **7.3. Ishlab chiqarish xarajatlarining baho shakllanishiga ta'siri**

Narx ishlab chiqarish xarajati bilan emas, balki iste'molchi tomonidan shu tovarga bergen bahosi bilan aniqlanadi. Shunday qilib,

narx nazariyasi doirasida ikki konsepsiysi vujudga keladi. Narxning asosini esa taklif (qiymat) va talab (foydalilik) tashkil etadi. Tovar ishlab chiqarish jarayonidagi barcha korxona xarajatlari bozor narxlarida amalga oshiriladi va shu xarajatlar (ishlab chiqarish, realizatsiya xarajatlari) tovarlarni sotishdan olingan daromad bilan qoplanishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda bunday korxonalar bankrotga uchrashhlari mumkin.

Mahsulotni ishlab chiqarishga, realizatsiya qilishga ketgan korxona xarajatlari bu ishlab chiqarishning barcha omillari (asosiy vositalar, xomashyo, materiallar, ishchi kuchi) xarajatlarning puldagi kurinishidir. Bu asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'lib, korxona moliya siyosatini samarali olib borish va taklif narxini aniqlash uchun zarurdir.

#### **7.4. Korxona foydasining baho shakllanishiga ta'siri**

Korxonalar doimo maksimal foyda olishga intiladi deyish faqatgina qisman to'g'ridir. Amaldagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina korxonalar maksimal foyda olishga intilmasdan xarajatlarni qoplash uchun "normal" dividendlar olish uchun yetarli bo'lgan daromad bilan cheklanadilar. Chunki qisqa vaqt ichida katta foyda olish, kelajakda foyda olish istiqboliga qarama-qarshidir. Yirik va kichik biznes korxonalari joriy foyda darajasini kamaytirish hisobiga kelajakda yuqori foyda olishga intilishi tabiiydir.

Istiqbolda yaxshi foyda olish uchun bozorning ma'lum bir nuqtasida mustahkam o'mashib olish, kengaytirish, asosiy vositalarni doimo yangilab turish zarurdir.

Uncha katta bo'Imagan korxonalar raxbarlari korxonaning istiqboliga (kelajagiga) unchalik ishonmasliklari taqdirida bozor konyunkturasidan maksimal foydalanishga intiladilar.

Foydani maksimallashtirishga qaratilgan maqsadlar bir necha ko'rinishga ega bo'ladilar:

- korxona tomonidan, qator yillarga, o‘rtacha foyda miqdoriga mos keladigan bir xil daromadni belgilash;
- kapital qo‘yilmalarni qiymati o‘sishi sababli narx va foydani o‘sishining hisobi;
- kapital kelajakda rivojlanishiga ishonmasligi yoki pul mablag‘larining yetishmasligi sababli tez fursatda birlamchi foydani olishga intilish.

Firma olishga intilayotgan foyda absolyut va nisbiy ko‘rinishida hisoblanishi mumkin.

Absolyut foyda – xarajatlarni chegirgan holda, barcha tovarlar realizatsiyasidan olingan daromad.

Nisbiy foyda – bir mahsulotni realizatsiyasidan olingan daromad.

Shunday qilib, absolyut va nisbiy foydani sotilgan tovar soniga ko‘paytirish orqali ham hisoblash mumkin. Har xil tovarning nisbiy foydasi har xil bo‘ladi. Masalan birinchi navbatdagi ehtiyoj tovarlar (non, sut, uy-joy)ning nisbiy foydasi past, yuqori sifatli, obro‘li tovarlar esa yuqori nisbiy foydani ta’minlaydi. Shuningdek ta’kidlab o‘tish kerakki, kirib borish narxlardan foydalangan kompaniyalar yuqori daromad oladilar. Maksimal foyda olishni oldiga maqsad qilib qo‘yan korxona, har xil korxonalar sharoitida talab va xarajatlarni baholaydi va kelajakda eng maksimal foyda keltiradigan narxlarni tanlaydi.

## **7.5. Korxonaning baho siyesati va bahoni shakllantirish strategiyasi**

Korxonalar narxlarini to‘g‘ri shakllantirmsa, amaldagi qonunlarga rioya etishlari ta’milanmasa unda ular ma’muriy jazoga tortilishlari mumkin.

Ushbu qoidaga rioya etish narx siyosatini oqilona tashkil etishga va yurgizishga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, xomashyo, tovar, ish va xizmatlarga qo‘yiladigan narx (tarif)larni ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytiradi. Shunday qilib oqilona narxlarni tashkil etilishi aholini kuchli ijtimoiy himoyalanishida o‘z aksini topmog‘i lozim.

Korxonaning narx siyosatida infliyatsion kutilishni baholashda quyidagilar qo'llaniladi:

- iste'mol narxlarning jamlangan indeksi;
- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar indeksi;
- yuk tashuvchi transportlar ta'rif indeksi;
- moddiy texnika resurslari narxlari indeksi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlari indeksi;
- aholiga xizmatlar narxlari indeksi.

Narx ko'tarilishi to'g'risidagi infliyatsion kutilishlar quyidagi tashqi ma'lumotlar manbaiga asoslangan bo'lishi mumkin:

- mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanadirish bashoratiga;
- kelgusi yilga davlat byudjeti proyekti, proyektda kutilayotgan infliyatsiyaga baho berilganligiga;
- Markaziy bankning hisoblariga;
- ekspertlar fikrlari.

Korxonalar narx siyosatining asosini narx va sifat munosabatlari tashkil etadi:

- Narx tovar sifatiga bog'liq: sifat qancha yuqori bulsa, narx ham shuncha yuqori bo'ladi, lekin "sifatli mahsulot" tushunchasi nisbatan hisobga olinadi. U quyidagilar bilan taysiflanishi mumkin:
  - obyektiv xususiyatlar bilan ya'ni, texnik-iqtisodiy va texnologik taysifi masalan, davlat standartlariga mosligi, chidamliligi, ishonchliligi ekologik tozaligi va xokazolar bilan;
  - sifat va narx darajalarining mosligi bilan (masalan, sun'iy jundan tikilgan shuba (ayollar paltosi) past narx uchun sifatli mahsulot bo'lib hisoblanishi bilan yuqori narx uchun esa uning sifat xususiyatlari yetarli bo'lmasligi mumkin);
  - ishlab chiqaruvchining shaxsiy mahsuloti haqidagi taassuroti bilan;
  - iste'molchilarining tovar sifati to'g'risidagi taassuroti bilan.

Tovar sifati to'g'risidagi iste'molchining fikri korxonaning narx siyosatiga quyidagi holatlarda ta'sir etishi mumkin:

1. “Narx-talab” mosligi ta’minlanganda.
2. Iste’molchi tovarning ishlab chiqaruvchi tomonidan ko‘zda tutilmagan, kutilmagan qo’shimcha qo’llanishini topsa, bu ishlab chiqaruvchiga tovar narxini ko’tarishga imkoniyat berishida.

Tovarning ko’tarilgan sifati to‘g’risida iste’molchining taassuroti korxonaning obro’sini oshishiga imkoniyat beradi, savdo markasi obro’yining o’sishi, shuningdek, tovar narxini ko’tarishga sabab bo’ladi. Bunda korxonaning bozordagi har bir segment uchun sifatni shakllantirish bo‘yicha katta ahamiyatga ega (masalan, ba’zilar uchun kosmetik kremning samaradorligi va natijaga erishishning tezligi muhim bo’lsa, boshqalarga undagi tabiiy komponentlar tarkibi muhim bo’ladi).

## **7.6. Bahoni hisoblashda risk darajasining baholanishi**

Riskning ikkita funksiyasi bor: rag‘batlantiuvchi va himoyalovchi.

Riskni baholash jarayoni uch bosqichdan iborat. Uning birinchi baholash kriteriyasi quyidagilar bilan bog‘liq bo’ladi:

- muammoni hat qilish mumkin bo‘lgan barcha variantlarni aniqlash bilan;
- muammoni yechish natijasida kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa umumiy noxush oqibatlarni aniqlash bilan;
- riskning integral jihat bilan. U ikki bir-biriga bog‘liq jihatlariga bo‘linadi: miqdor va sifat.

Riskka baho berishning asosiy jihatni miqdoriy jihat hisoblanadi. Shunga karamasdan muammoni xal qilishga riskning miqdoriy jihatini aniqlashdan oldin riskning sifat jihatiga e’tibor berish lozim.

Risk miqdoriy baholashning 3 ta asosiy kriteriyasi mavjuddir.

Birinchi kriterianing mazmuni kutilayotgan risk holatida qabul qilingan qaror, ma’lum bir cheklanishni inobatga olgan holda baholanadi. Ikkinci kriteriya risk, aniq ma’lumotlar asosida qabul qilingan qarorning natijasi bilan bo‘limgan ma’lumotlar asosida qabul

qilingan qarorlar o'rtasida farq bilan baholanadi. Ayniqsa, bu farq ehtimoli 0,5-0,6dan yuqori bo'lishi kerak.

Moliyaviy nuqtai nazardan risk 3 darajali bo'lishi mumkin. Uni baholashning birinchi kriteriyasi quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- qarorlar amalga oshmaganligi bilan bog'liq bo'lgan va foydaning kamayishiga olib keladigan oddiy risk bilan;
- tushum yoki daromadning kelib tushmaslik ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan kritik risk bilan;
- korxona to'lov qobiliyatsizligiga olib keladigan katostrofik (inkiroz) riski bilan. Bunday risk korxonani bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Riskni miqdoriy baholashning ikkinchi kriteriyisi, amaldagi holatda boshqa variantlardagi ko'ra kam xarajat orqali kerakli natijaga erishishini ta'minlovchi qarordan iborat bo'ladi.

Uchinchi kriteriyaning mohiyati amalga oshirilish muddati eng kam vaqt talab etadigan qaror qabul qilinishidan iborat bo'ladi.

Risk darajasi kutilayotgan zarar bilan uning ro'y berish ehtimoli ko'paytmasi bilan aniqlanadi. Bunda risk darajasi ( $\Delta Risk$ ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Risk = V_1^{Q3}$$

bunda:  $V_1^{Q3}$  va  $V_2^{Q3} - 1$  va 11 variantlarga mos absolyut ifodadagi, qarorning amalga oshmasligi holda ko'rilihi mumkin bo'lgan zararni ifodalovchi kattalikdir.

$V_1^{Q3}$  va  $V_2^{Q3} - 1$  – zararning ro'y berishi ehtimoli hamda 1 va 11 variantlar uchun qarorning amalga oshish extimolidir.

#### **Narxlashtirish va narxni sug'urtalashda risk**

Korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotga narx qo'yish ma'lum darajadagi risk bilan bog'liqidir. Shuningdek ishlab chiqarish resurslariga narx qo'yish ham ma'lum risk bilan bog'liq. Inflyatsiya sharoitida narxlar dinamikasini aniqlash qiyinligi sababli narx qo'yishda 5-7 %ga adashish tabiiy hisoblanadi.

Risk ehtimoli tushuncha bo'lganligi sababi uni ehtimollar nazariyasi va matematik statistika yordamida o'lichehash mumkin.

Masalan, korxona o'z tovarlari donasiga 20 ming so'm narx qo'ydi va 90%ini shu narxda sotdi. Bunda narxning to'g'ri qo'yilganligi ehtimoli 0,9ga, xatolik riski esa - 0,1 ga yoki 10%ga teng. Risk bu, bozordagi vaziyatni oxirigacha aniqlamaslik oqibatida firma maqsadining amalga oshmaslik ehtimoli bilan bog'liq.

Korxona faoliyatida risk absolyut ko'rinishda o'chanadi, ya'ni zarar va yo'qotishlar summasida va risk darajasi bo'yicha o'chanadi, ya'ni bashoratlashfirilgan narxga erishmaslik ehtimoli bilan o'chanadi. Birinchi ko'rsatkich absolyut riskni ifodalaydi. Ikkinchisi esa, nisbiy riskni ifodalaydi. Absolyut risk so'mlarda ifodalansa, unda nisbiy risk foizlarda o'chanadi.

## **7.7. Korxonada bahoni shakllantirish strategiyasining to'g'ri tanlanishi**

Bozor tizimida o'zining raqobatbardoshligini ta'minlashi uchun korxona quyidagi uchta, eng muhim unsurlarni ko'paytirib turishdan manfaatdor bo'ladi. Bularga:

1. Ish hajmi, ya'ni mahsulot ishlab chiqarishni, ish bajarishni va xizmat ko'rsatishni ko'paytirish.
2. Agar imkon bo'lsa, tovar (mahsulot, ish, xizmat) bahosini oshirish.
3. Ishlab chiqarayotgan tovar (ish, xizmat) sifatini oshirish.

Ushbu unsurlar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin (7.1-chizmaga qaralsin).

Korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy unsurlar ichida baho muhim o'rinn tutadi. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, tovar (ish, xizmat)ning hajmi ham, uning sifati ham tadbirdorga bevosita bog'liq. Ammo baho hamisha uning xohish-irodasiga yoki sa'y harakatlariiga bog'liq emas. Uni bozorning qonumlari tartibga soladi.

**Korxonaning  
raqobatbardoshligini  
ta'minlovchi omillar**



**7.1-chizma. Korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillarning bir-biri bilan bog'liqligi**

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, korxona o'zining baho siyosatini shakllantirishda, uning o'zgarishini kuzatib borishda birqancha omillarga duch kelishi va ularga e'tibor qaratishi lozim ekan. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Bahoning miqdori korxona xarajatini qoplaydigan va ma'lum darajada unga foyda keltirishi.
2. Bahoning miqdori xaridorni qochirmaydigan, ya'ni raqobatchilarining mahsulotiga nisbatan uning bahosi ozgina bo'lsada kamroq belgilanishi.
3. Ushbu tovar bahosi bozor va davlatning narxlashtirish siyosatiga zid bo'imasligi, ya'ni korxona foydasi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishni ko'paytirish o'rniغا, faqat bahoni oshirish evaziga amalga oshmasligi. Shu tufayli mahsulot tannarxiga qo'shiladigan maksimal foyda miqdori bilan hisoblanganda, tovar bahosining miqdori me'yordan oshib ketmasligi lozim.
4. Mazkur tovarga (ish, xizmatga) bozor to'yingan bo'lib, uning bahosi pasayish tendensiyasiga ega bo'lganda, bahoning pasayishi tannarxdan pastga tushib ketadigan bo'lsa, mazkur tovari (ish, xizmatni) ishlab chiqarishni to'xtatib, boshqa tez sotiladigan tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarishga o'tish, ya'ni faoliyatni zudlik bilan o'zgartirish lozim.

5. Tovarni xaridor qancha ko'p oladigan bo'lsa, shunga mos ravishda uning bahosini pasaytirib borish amaliyotini qo'llash lozim. Bu xaridorui baho siyosati bilan rag'batlantirish evaziga o'ziga jalb qiladi va ularning sonini muttasil oshirib boradi. Bu usul ham jahon amaliyotida sinalgan bo'lishiga qaramasdan, bizda unga hali keng ko'lama o'tilgan emas.

Baho siyosati iqtisodiy siyosat tizimidagi o'ta nozik siyosatdir. Shuftufayli bozorni o'rganishda, talab va taklif muvozanatini tuzishda bu masalaga alohida ahamiyat berishi, korxona va uning marketologlari raqobatchi korxonalar tovarining bahosini, ularda qo'llanilayotgan baho siyosatini yaxshi o'rganib borishlari lozim. Bu holat mazkur korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Korxona baho siyosatini belgilashda faqat raqobatchilar tomonidan ishlab chiqiladigan tovar (ish, xizmat)larining bahosi bilangina qiziqib qolishi, ularning faqat baho siyosatini o'rganish bilan emas, balki shu va boshqa hududlardagi bozorlardagi holatni ham o'rganishi lozim. Agar, bir mahsulot bir bozorda bir xil bahoda sotilsa, ikkinchisida undan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Agar, shu bozorga tovarni olib borib sotish, tashish xarajatlarini qoplab ko'proq foyda olishni ta'minlaydigan bo'lsa, o'sha bozorni ham egallashiga harakat qilish maqsadga muvofiq.

Oligopolistik konkurensiya sharoitida narxlashtirishning ko'pgina strategiyalari qo'llaniladi. Ularga:

1. Narx belgilashda harakatlarni koordinatsiyalashtirish strategiyasi. Bu strategiyaning ikki xil shakli mavjuddir:

- "narxlar to'g'risidagi kelishuv" qabul qilish;
- "parallel narx siyosati"ni olib borishdir mavjuddir.

Aytish joizki, bir xil davlatlarda narxlar to'g'risidagi kelishuv qabul qilish ta'qiqlangandir.

2. "Paralel narx siyosati"da korxonalar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini unifikatsiyalangan moddalar bo'yicha kalkulyatsiya qilinadi va unga foyda me'yorini qo'shish orqali amalga oshiriladi. Shuning

uchun bozor omillari ta'siri ostida barcha kompaniyalarning narxlari bir xil proporsiya va bir xil yo'nali shda o'zgaradi.

To'liq monopoliya bozorida faqatgina bitta sotuvchi ishtirok etadi. Bu xususiy korkona yoki davlat tashkiloti bo'lishi mumkin. Davlat monopoliyasini qo'llash orqali bir xil tovarlarning, aholining ma'lum bir guruhi tomonidan iste'molini keskin ko'paytirish mumkin, chunki aholining bu guruhi yuqoridagi tovarni to'liq qiymati narxida sotib olishga qurbi yetmaydi (narx tannarxidan past qiymat o'rnatiladi). Shuningdek davlat monopoliyasi orqali bir xil tovarlarga juda yuqori narx qo'yishi mumkin, bu hol ma'lum bir tovar iste'molini chegaralash maqsadida qo'llaniladi.

Xususiy korxona monopolist o'zining mahsulotiga o'zi narx belgilaydi va boshqa firmalarning narxlashtirish siyosati bilan hisoblashmaydi. Shunga qaramasdan monopoliya ruxsat etilgan davlat, masalan, AQShda (elektroenergetika kabi tarmoqlar bo'yicha) tariflarning ko'tarilishi mahalliy hokimiyatlar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Narx qo'yishda katta erkinlikka ega bo'lgan firma talabdan kelib chiqqan holda, o'z tovariga optimal narx qo'yadi.

Monopolist korxona uchun o'z tovariga yuqori narx qo'yish hamma vaqt ham afzal bo'la olmaydi, chunki bu holda raqobatchilar paydo bo'lishi yoki davlat tomonidan nazoratga olinishi, natijada xaridorlarning bir qismini yo'qotishi mumkin. Ma'lum strategiyani tanlashda korxona quyidagi omillarni hisobga olishi kerak:

- mahsulot narxini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri kelishi;
- narxda ba'zan talab raqobat, iste'molchilar haqida ma'lumotlar hisobga olinmaydi;
- mavsum oxirida ba'zan past narx qo'llaniladi;
- tovarlarga talab elastik bo'ladi;
- xaridorlarni ko'pi rakobatchi firma arzon narxiga uchadi.

## **Tayanch so‘z va iboralar**

Baho, baho siyosati, narx, narx siyosati, risk, riskni baholash, narxni sug‘urtalash.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar**

1. Bozor sharoitida bahoni shakllantrishning omillari nimalardan iborat?

2. Ishlab chiqarish xarajatlarining baho shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Korxonalarda bahoni shakllantrish strategiyasi qanday amalga oshiriladi?

## **Topshiriqlar**

1. Korxonalarda bahoni qo‘yish zarurligini tushuntiring.

2. Baho, qiymat va narx o‘rtasidagi farq va bog‘liqlikni o‘rganib chiqing.

## **VIII BOB. KORXONALARING O'Z KAPITALINI BOSHQARISH**

### **8.1. Korxona o'z kapitalining tarkibiy tuzilishi, mohiyati va korxona moliyasini boshqarishdagi ahamiyati**

Respublikamizda o'nlab korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari maqomiga ega bo'lgan holda faoliyat yuritmoqdalar. Ularda ishlab chiqariladigan mahsulot, ularni sotish, ulardag'i baho siyosati, foydani tashkil etish va taqsimlash ayrim xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin, u ham bo'lsa qarorlar qabul qilishda aksiyadorlar ovozini olish.

Ularning faoliyatida o'z kapitali katta mavqega ega. Shu bois bunday korxonalarda xususiy kapital o'z kapitali deb nomlanadi va quyidagi tarkibiy tuzilishdan iborat:

- ustav (aksioner) kapital;
- qo'shilgan kapital;
- taqsimlanmagan foya.

Ustav kapitali – bu odadta chiqarilgan aksiyalarning nominal yoki e'lon qilingan qiymatiga aksionerlik kapital hisobraqamlarida aks etilishi kerak bo'lgan va ustav kapitalini aniqlash uchun ishlataladigan, qimmatli qog'ozlarida ko'rsatilgan bitta aksiyaning nominal qiymatidir. Sotib oluvchiga aksiyalar o'miga aksioner sotib olgan aksiyalarning sonini ko'rsatadigan sertifikat berilishi mumkin. Ko'p korxonalar qimmatli qog'ozlarining ikki turini chiqaradilar: oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalar.

Oddiy aksiyalar aksiyador korxonalarning qoldiq kapitalini aks ettiradi. Ya'ni boshqa kreditorlar va imtiyozli aksionerlarning talablari oddiy aksiyalar egalarinikidan yuqori turishini bildiradi. Oddiy aksiyalar -bu, odadtagiday, ovozga ega bo'lgan aksiyalarning yakka turidir. Ya'ni, oddiy aksiyalar egalarining direktorlar kengashi a'zolarini saylashga huquqi bor. Oddiy aksiyalar egalari direktorlar kengashi bilan e'lon

davrda investor tomonidan doimiy daromad sifatida bir maromda hisobdan chiqarilib borishi kerak.

**Keyingi sanalar** deganda, sotib olingandan keyingi balans sanalari tushuniladi. Ushbu sanalarda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyiv investitsiyalar balansda turli qiymatda baholanishi mumkin. Jumladan, BXMS № 12 ning 15-bandiga muvofiq qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar quyidagi baholardan biri bo'yicha aks ettirilishi kerak:

- bozor qiymatida;
- sotib olish qiymatida;
- bozor va sotib olish qiymatlaridan eng kichigida;
- qayta baholangan qiymatda.

BXMS № 12 ning 13-moddasiga muvofiq qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar balansda **bozor qiymatida** yoki **bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida** aks ettirilishi kerak. Agar ular bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida hisobga olingan bo'lsa, ularning balans qiymati qimmatli qog'ozlar portfelining jami investitsiya qiymati, yoki qimmatli qog'ozlarning guruhlari bo'yicha qiymati, yoki qimmatli qog'ozlarning alohida nomlari bo'yicha qiymatiga asoslanib topiladi.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **bozor qiymati** deganda ularning moliya bozorida sotish vaqtida namoyon bo'lgan sotish qiymati tushuniladi. Bozor qiymatini, boshqachasiga, haqqoniy qiymat deb ham ataydilar. Bu qiymat ko'p omillarga bog'liq, jumladan, aksionerlik jamiyati yoki tijorat bankining foydalilik darajasiga, to'lanayotgan dividendlarning miqdoriga, ularning kelajakdag'i obro'-e'tiboriga va boshqa omillarga.

**Qiymat tamoyiliga** muvofiq qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar boshqa aktivlar singari keyingi sanalarda yuqorida keltirilgan qiymatlarning eng kichik miqdorida balansda aks ettirilishi lozim. Ushbu qiymatda uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar balansda investitsiya portfeli metodiga asoslanib aks ettiriladi. Qisqa

muddatli qimmatli qog'ozlar ularning bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymati hisobga olingan bo'lsa, balansda qimmatli qog'ozlar portfeling jami investitsiya qiymatiga, yoki qimmatli qog'ozlar guruhlari bo'yicha qiymatiga, yoki qimmatli qog'ozlarning alohida nomlari bo'yicha qiymatiga asoslanib aks ettiriladi.

Keyingi sanalarda bozor qiymati sotib olish qiymatidan past bo'lsa qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarining sotib olish qiymati bozor qiymati darajasigacha yetkazilishi va balansda shu qiymat bilan aks ettilishi kerak. Agar sotib olish qiymati bozor qiymatidan past bo'lsa, u holda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarining qiymati balansda o'zgarishsiz qoldirilishi lozim. Hozirgi vaqtida amaliyatda bu tamoyilga to'liq amal qilinayotgan emas. Korxonalar balansida sotib olingan qimmatli qog'ozlar, jumladan aksiyalar, asosan sotib olish qiymatida (nominal qiymatda) aks ettirilmoqda. Bozor qiymatini o'zgarishi, ya'ni uni sotib olish qiymatidan past yoki yuqori bo'lishi, ularning ichidan eng quyi miqdorini ifodalovchi qiymati balansda aks ettirilmasdan qolmoqda. Bu holning mavjudlik sabablaridan biri bo'lib, korxonalarining hisob siyosatida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarining keyingi sanalarda qiymatini ko'rib chiqilishi tartibini aniq belgilanmaganligi hisoblanadi.

**BXMS № 1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobet"**ga muvofiq korxonalar o'zlarining hisob siyosatlarida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalari bo'yicha quyidagilarni aniq belgilab olishlari darkor.

1. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarini keyingi sanalarda baholash turini.
2. Qayta baholashga asos bo'igan hisob usulini.
3. Qayta baholashni qimmatli qog'ozlarning nomlari, guruhlari yoki investitsiya portfeli bo'yicha davriyigini.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni keyingi sana'larda baholash ular qiymatini haqqoniyligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi, shuning uchun ham ularning qiymatini qayta baholash zaruriyatni tug'iladi.

## 9.2. Korxona qimmatli qog'ozlari portfellari va investitsion strategiyalarining turlari

Investitsiya jarayoni – bu investorlarni qachon qancha miqdorda qimmatli qog'ozlarni sotib olishiga yo'naltirilgan faoliyatidir. Bu jarayon o'z ichiga besh jarayonni qamrab oladi:

1. Investitsiya siyosatini tanlash.
2. Qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish va analiz qilish.
3. Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish.
4. Qimmatli qog'ozlar portfelini qayta ko'trib chiqish.
5. Qimmatli qog'ozlar portfelini samaradorligini baholash.

Bu jarayonlar haqidagi to'liq ma'lumotlarni bilish va ko'nikmalarga ega bo'lgan holda ish tutish korxona moliyaviy natijalarini o'sishiga imkoniyat yaratib berdi. Shuning uchun ham har bir jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda korxona moliyaviy natijalarini oshishiga ta'sir etadi. Shunday qilib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlarning eng asosiysi bu investitsiya siyosatini tanlab olish bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya siyosatini tanlash – bu investoring maqsadini va qayhajmda qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun investitsiya qila olishini belgilaydi. Chunki investor uchun "ko'p pul qilish" daromad bilan risk o'rtaqidagi kurashdan iborat. Shuning uchun ham investor siyosatni tanlashda bu risk xavfini hisobga olish talab etiladi. Investor uchun asosiy vazifa portfeli qaysi turdag'i qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirish. Bu borada u qaysi qimmatli qog'ozlarga soliq imtiyozlari berilganligini hisobga olishi kerak bo'ladi.

Ikkinchı jarayon bu qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish va tahlil qilishdir. Bu jarayonda investor qimmatli qog'ozlarning barcha turlarini har tomonlama o'rganib, hozirgi bosqichda qaysi biri ko'proq daromad keltirishini aniqlash kerak. Buning uchun investor qimmatli qog'ozlar bozorini texnik analiz va fundamental analiz yo'llaridan foydalanishi kerak.

Uchinchi jarayon bu qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishdir. Bu borada investor qaysi aktivlar hisobiga qimmatli qog'ozlarning qaysi turi bilan portfeli to'ldirish masalasini hisobga olish kerak. G'arbda shunday bir maqol bor: "Не клади все яйца в одну корзину", ya'ni barcha tuxumlarni bir savatchaga qo'yma. Bu holda investor qimmatli qog'ozlarni turli xillari bilan ishlashi kerak. Ya'ni seleksiya o'tkazishi kerak va bir qism pulni jamg'armada saqlab turishi kerak. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni o'rganib, vaqtini poylab kerakli qimmatli qog'ozlarni sotib olishi kerak. Bu holda u riskning oldini oladi. Yana shu bozorda diversifikatsiyadan samarli foydalanish yo'llarini ishlab chiqishi kerak.

To'rtinchi jarayon bo'lib qimmatli qog'ozlar portfelini qayta ko'rib chiqish hisoblanadi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin qimmatli qog'ozlar bozoridagi investoring maqsadi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ham u ma'lum bir vaqtida qimmatli qog'ozlarning bir qismini sotib, ularning o'miga yangi ko'proq daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirishi talab etiladi, ya'ni bu jarayon har doim takrorlanib turishi kerak.

Beshinchi jarayon qimmatli qog'ozlar portfelini samaradorligini baholashdir. Bu jarayonda investor qimmatli qog'ozlar bozorida oladigan daromadini va risk o'rtaqidagi nomuvosiqqlikka katta e'tibor berishi, buning uchun ma'lum bir standartlar (etalonlar) ishlab chiqish talab etiladi.

Dunyo amaliyotida fond bozorida investitsion portfeli shakllantirish deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarga tegishli qimmatli qog'ozlarning bir butun yig'indi holatiga keltirilganligi

tushuniladi. Qimmatli qog'ozlar portfelin shakllantirish bu ko'proq soyda olish niyatida turli xil qimmatli qog'ozlarni sotib olish, investitsiya samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirish borasidagi jismoniy yoki yuridik shaxslarning faoliyatidir.

Nazariy jihatdan qimmatli qog'ozlar portfelin bir xil qimmatli qog'ozlar bilan ham shakllantirish mumkin yoki bir qimmatli qog'ozni boshqa biri bilan ham almashtirish mumkin. Lekin bu holda investor tomonidan yuqori daromad olish imkoniyati kamayadi. Risk xavfi esa kuchayishi mumkin. Shuning uchun ham qimmatli qog'ozlar portfeli turli xil qimmatli qog'ozlar bilan shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Qimmatli qog'ozlar portfelin shakllantirishda kurs qiymati oshib borayotgan kompaniyalar aksiyalari hisobiga shakllantirishga harakat qilish buning uchun qimmatli qog'ozlar portfelin shakllantirshining turli yo'llaridan foydalanish zarur bo'лади:

*Birinchisi.* O'sish portfeli – bu yo'lda aksiya kurslari oshib borayotgan kompaniyalar aksiyalaridan qimmatli qog'ozlar portfelin tashkil toptirish kerak. Bu ayniqsa yangi paydo bo'layotgan, kelajagi porloq bo'lgan kompaniyalar aksiyalaridan, bir necha yildan beri o'sish sur'atlari stabil bo'lgan nomi dongdor kompaniyalar aksiyalaridan portfeli shakllantirish kerak.

*Ikkinchisi.* Daromad portfeli. Bu holda qimmatli qog'ozlar portfeli yuqori daromad keltiruvchi, foiz va dividendlari yuqori ta'minlovchi qimmatli qog'ozlarga qaratilishi kerak. Bu o'rinda nafaqat kursi oshib borayotgan aksiyalar balki yuqori daromad keltiradigan obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan portfeli shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu hol qimmatli qog'ozlar bozoridagi risklarni minimal darajaga olib kelishi mumkin.

*Uchinchisi.* Pul bozori portfeli. Bu kapitalni to'liq saqlanishiga qaratilgan bo'lib, qimmatli qog'ozlar portfeli tez o'sib borayotgan aktivlar hisobiga shakllantiriladi. Qimmatli qog'ozlar bilan ishlashning "oltin qoidalari"dan biri "hech vaqtida barcha pulingizni qimmatli qog'ozlar sotib olishga sarflamang, bir qismini faqat bo'sh pul sifatida

saqlang, uni nohosdan vujudga kelgan qulay investitsion loyihalarni hal etishga ishlatish uchun”.

*To'rtinchisi.* Soliqdan ozod qilingan qimmatli qog'ozlar hisobiga qimmatli qog'ozlar portfelin shakllantirish. Ushbu jarayonda yuqori likvidli davlat qarz majburiyatlarini sotib olish muhim ahamiyatga ega. Bu qog'ozlar yuqori daromadli bo'lib hisoblanadi. Eng muhimi esa, soliqdan ham ozod qilingan. Masalan: davlat qisqa muddatli obligatsiyalar hisobiga portfeli shakllantirish.

*Beshinchisi.* Davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobiga portfeli shakllantirish. Bu qimmatli qog'ozlar diskont bilan sotib olinadi va u soliq imtiyozlariga ega bo'lgan holda o'z egasiga yuqori daromad keltiradi. Xuddi shunday chet el emitentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish ham o'z egasiga yuqori daromadlar keltiradi.

*Oltinchisi.* Turli tarmoqlardagi korxonalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobiga portfellarni shakllantirish. Ayniqsa konvertlashtirilgan imtiyozli aksiya va obligatsiyalarni sotib olib, korxona rahbari vaqt poylab ularni oddiy aksiya va obligatsiyalarga almashtirsa, yuqori foyda olishi mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tabiiyki, savol tug'ilishi mumkin. Portfelda qimmatli qog'ozlar bo'lishi qancha yuqori daromad keltirishi mumkin. Risklarning eng kam darajasi bu portfel 40dan 70gacha turli xil qimmatli qog'ozlar bilan shakllantirilsa. Agar qimmatli qog'ozlar portfeli bundan ortiq turlar bilan shakllantirilsa, diversifikatsiya samarasini nisbatini alternativ asosida o'rghanish va shu yo'l bilan qaysi variant ko'proq daromad keltirishini aniqlashdir.

G. Markovits portfel riskini ikki bo'limga ajratadi<sup>6</sup>:

Birinchi bo'limda har qanday sharoitda vujudga keladigan doimiy risk va buning oldi olinmaydi;

<sup>6</sup> Markowitz H. M., Mean Variance Analysis in Portfolio Choice and Capital Markets. Basit Blackwell, 1990

Ikkinchi bo‘limda o‘ziga xos risklar bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozorida turli manevrilar o‘tkazib ularni oldini olish mumkin hisoblanadi va risk darajasini nolga keltirish mumkin. Shu yo‘l bilan kelajakda kam foyda keltiradigan qimmatli qog‘ozlar portfelidan qutilish mumkin.

U. Sharpening indeks modeli<sup>7</sup>. Uning asosida har bir qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlar alohida hisoblanmaydi (G. Markovitts modeliga o‘xshab), balkim bir butun barcha qimmatli qog‘ozlardan shakllangan portfellarning indekslarini matematik yo‘l bilan hisoblash yotadi.

Ya’ni qimmatli qog‘ozlar korrelyatsiyasini hisoblab, kutilayotgan aksiya kursini hisoblaydi.

Masalan, 100 aksiyaning samaradorligini hisoblash uchun 500 kovariatsiy (variantlarni) qo‘llaydi.

Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishda aksiya kursini pasayishi yuz bersa, unda qimmatli qog‘ozlar portfelini samarali boshqarib bo‘lmaydi.

Qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirish va boshqarish bu qimmatli qog‘ozlar bozori professional qatnashchilarining vazifalaridir. Shu bois menejerlar bu ish bilan shug‘ullansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qimmatli qog‘ozlar portfelining samarasini investorlarning strategiyasiga ham bog‘liq. Ular har 3-5 yilda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi o‘z strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishi bu boradagi risklarni kamayishiga va yuqori daromad olishlarini ta’minlashi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish uchun investorlar qimmatli qog‘ozlar bozorini monitoring qilib turishi kerak, ya’ni fond bozori va uning rivojlanish tendensiyasini, qimmatli qog‘ozlar emitentlarining moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilib turish zarur bo‘ladi.

Aytish joizki, qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishning turli xil modellari mavjud. Shulardan ba’zilariga to‘xtalib o‘tish muhimdir.

<sup>7</sup> Investors and Markets: Portfolio Choices, Asset Prices, and Investment Advice. By William F. Sharpe. Princeton University Press, Princeton, 2007

G. Markovits modeli – uning asosida qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishda alternativ metodlardan foydalanishdir. Ya’ni investitsiya hajmi bilan xatarlar (risklar) o‘rtasidagi turli xil modellar ham qo’llaniladi. Bularning hammasining maqsadi investitsiya natijasida olinadigan daromad bilan risk o‘rtasidagi nomuvofiqlikning oldini olishdir. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida uni ikkilamchi bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli yuqorida qayd qilingan modellardan foydalanish darajasi juda past. Shu bois xorij tajribalarini o‘rganish orqali ushbu masala doirasida kuzatishlar va izlanishlar ishlarini olib borish muhimdir.

### **9.3. Korxona fond portfelining diversifikatsiyasi. Korxona fond portfeli samaradorligini baholash**

Investitsiya bilan bog‘liq risklarni kamaytirish usullaridan biri bu banklarning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishdir. Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish bankning investitsiya portfelida turli xil ko‘pdan ko‘p qimmatli qog‘ozlarning mavjudligini bildiradi. Diversifikatsiya usulida investitsiya siyosatini amalga oshirishda qimmatli qog‘ozlarning har xit xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Tijorat banklarinig qimmatli qog‘ozlar portfelini diversifikatsiya qilishning quyidagi turlari mavjud. Bular diversifikatsiya qilish, qimmatli qog‘ozlarning emitentlari bo‘yicha diversifikatsiya qilish va boshqalar.

Qimmatli qog‘oz sifatiga doir diversifikatsiya maqsadi - riskni minimallashtirish (u emitentning o‘z majburiyatlarini bajara olmay qolishlik ehtimoli bilan belgilanadi). Shu munosabat bilan aksiya sifatining ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha diversifikatsiya usuli ham mavjud bo‘lib, nazariyotchilar fikricha, u bir qator omillarni o‘rganib chiqishni talab qiladi. Bular emitent qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini, aksiya daromadi, dividend miqdori, kompaniya

qilingan dividendlarni davriy olishga huquqiga ega. Oddiy aksiyalar egalari direktorlar kengashi e'lon qilingan dividendlarni davriy olish huquqiga ega.

Imtiyozli aksiyalar oddiy aksiyalar oldida bir yoki ko'proq pozitsiyalar bo'yicha imtiyozlariga ega. Masalan, imtiyozli aksiyalar egalaridan oldin olishlari mumkin, odatda belgilangan stavka bo'yicha. Imtiyozli aksiyalarga dividendlar normasi foizlar kabi e'lon qilinishi mumkin.

Masalan, nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 6 foizlik imtiyozli aksiyalar – bunda imtiyozli aksiyalar bo'yicha 6 sum hajmida to'lanadigan yillik dividendlar ( $6 \% \times 100$  so'mdan). Imtiyozli aksiyalar egalari korporatsiya tugatilganida uning aktivlariga imtiyozli huquqqa egadirlar.

To'lanadigan imtiyozli aksiyalar – o'z ixtiyori bilan kompaniya tarafidan to'lanishi mumkin bo'lgan imtiyozli aksiyalar.

Konversiyalanuvchi (almashtiriladigan) imtiyozli aksiyalar – bu aksioner xohishi bilan oddiy aksiyalarga almashtirilishi mumkin bo'lgan imtiyozli aksiyalar.

Kumulyativ aksiyalar – vaqt o'tishi bilan to'lanmagan dividendlar tuplanib boriladigan va ular oddiy aksiyalar egalariga extimol to'lanishi mumkin bo'lgan davrgacha ma'lum bir yilda to'lanishi lozim bo'lgan imtiyozli aksiyalardir.

Dividendlar – aksionerlar orasida, odatda pul mablag'lari ko'rinishda, korporatsiya aktivlarining taqsimlanishi.

Muddati o'tgan dividendlar – o'tgan yillarda qolgan, kumulyativ imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'plangan to'lanmagan dividendlar.

Sotib olingan xususiy aksiyalar – bu erkin bozorda sotib olingan korporatsiyaning aksiyalari. O'zi sotib olingan aksiyalar buxgalteriya balansida kapitalning kontr hisobraqam sifatida aks etadilar.

Korporatsiya balans hisobotidan "xususiy kapital" bo'limiga ta'sir etadigan turli operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bu operatsiyalar quyidagi larni o'z ichiga oladi:

- qimmatli qog'ozlar;
- dividendlarni e'lon qilish va to'lash;
- sotib olingan xususiy aksiyalarini sotib olish va sotish.

## **8.2. Korxona o'z kapitalini shakllantirish siyosatining asosiy vazifalari va hozirgi zamон muammolari**

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lar manbalarining asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zararlar) kiradi. Xususiy kapitalning shakllanishida maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr daromadlari va to'lovlar zaxiralari vaqt bo'yicha farqlanishlarda o'z akslarini topib boradi.

Masalan, kelgusi davr daromadlarining tan olinib, hisobga kiritish muddati bo'yicha joriy davr foyda-zarariga kiritilishi va yakunida taqsimlanmagan foyda yoki xususiy kapitalning boshqa qatorlarida ifodalanishi shular jumlasidandir.

Xususiy kapitalning hisobga olinishi, shakllanishi va axborotlanishining huquqiy va me'yoriy shartlari O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Moliaviy hisobot shakllari va uni tuzish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomasida hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida o'z ifodasini topgan.

Tahlil etishda xususiy kapitalning holati va tarkib o'zgarishlariga, uning sabablariga, xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlar tizimiga e'tibor beriladi hamda shu asosda xususiy kapitalning o'stirishning imkoniyatlari va yo'nalishlari belgilanadi.

### **8.3. Korxona o‘z kapitali alohida elementlarining moliyaviy baholanilishi**

Korxona o‘z kapitali alohida elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- korxona egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlarni;
- korxona tasarrufidagi o‘z sarmoyasini;
- keyinchalik belgilanishi bo‘yicha qaytarilishi lozim bo‘lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlarni.

Balans passivi ma’lumotlari asosida quyidagilarni bilib olish mumkin:

- mablag‘lar qaysi manbalardan kelib tushganligini;
- mablag‘lar kimga tegishli (o‘zining yoki jalb qilingan) ekanligini;
- mablag‘larning belgilangan maqsadi qanday ekanligini (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli qo‘yilmalar).

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi “Korxonalar (tashkilotlar) yillik va yil choragi moliyaviy hisobotlarining shakllari hamda hajmini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5-sonli buyrugiga muvofiq 1997-yil 1-yanvardan boshlab yillik va yil choragi hisobotining yangi shakllari joriy etilgan.

Korxonalarda foydalanayotgan aylanma mablag‘larni alohida elementlarini har xil muddatda naqd pul mablag‘lariga aylanishi va korxona majburiyatlarini har xil muddat o‘tishi bilan qaytarilishi munosabatiga ko‘ra korxonalar balansi likvidligi ikki shaklda aniqlanadi:

- umuman mablag‘lar va korxona majburiyatları bo‘yicha, ularni asosiy ko‘rsatkichlar deyish mumkin;
- korxona mablag‘larini alohida elementlari va majburiyatlarini qaytib berish muddatiga qarab, ularni qo‘sishimcha ko‘rsatkichlar deb atash mumkin.

Balans likvidligi ko'rsatkichlari quyidagi guruhlardan iborat bo'lishi lozim:

- asosiy ko'rsatkichlardan;
- qo'shimcha ko'rsatkichlardan;
- omilli ko'rsatkichlardan.

Asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi, tahlil etiladi:

- umumiy likvidlik koeffitsiyenti;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- xususiy likvidlik koeffitsiyenti;
- mutloq likvidlik koeffitsiyenti.

Umumiy likvidlik koeffitsiyenti korxonaning o'zi bugun aktivlaridan foydalanib, majburiyatlarini tashqaridan uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni qaytib berishga qodirligini ifodalaydi. Demak, bu koeffitsiyent korxonaning imkoniyatlarini, salohiyatini ko'rsatadi hamda bu korxona bilan aloqador bo'lgan barcha korxona, organ va tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega.

#### **8.4. Korxona emissiya siyosatining dolzarb vazifalari va hozirgi zamon muammolari**

Korxona o'z mablag'larining ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik qayta qurallantirish bilan bog'liq holda kapital xarajatlarga investitsiya qilinishiga alohida e'tibor berishadi. Korxonani o'z mablag'larini kapital xarajatlarga investitsiya qilinishi quyidagilarda o'z aksini topishi mumkin:

- mablag'larning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinishida;
- moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy maqsadlar uchun fondlarni tashkil etilishida;
- xayriya ehsон maqsadlari va boshqalarda.

Moliyaviy mablag'lar – bu davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar qo'sida tashkil topuvchi pul daromadlari, jamg'armalar va tushumlardir.

Ular kengaytirilgan ishlab chiqarishni ta'minlash, turli xil faoliyatlarni moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va boshqalar uchun mo'ljallanadi. Moliyaviy mablag'lar moliyaviy munosabatlarni moddiy asosi hisoblanadi. Moliyaviy mablag'lar ikki muhim ahamiyatli ko'rinishda tashkil topadi:

- Makromablag'lar ko'rinishida (ular umum davlat miqyosida tashkil topadi);
- Mikromablag'lar ko'rinishida (ya'ni xo'jalik subyektlari moliyaviy mablag'larida).

Korxona moliyaviy mablag'ları – bu korxonaning ixtiyorida bo'lgan va moliyaviy majburiyatlarni bajarishga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga doir xarajatlarni amalga oshirishiga va korxona xodimlarini iqtisodiy rag'batlantirishga mo'ljallangan pul daromadlari va tushumilaridir. Korxonalar moliyaviy mablag'lar hisobidan o'z-o'zini moliyalashtiradi: korxona moliyaviy mablag'ları bir qancha manbalari hisobiga shakllanadi. Bu manbalarning ko'pgina olimlari o'z asarlarida sanab o'tishgan. Jumladan, V.A.Chjen korxona moliyaviy mablag'larini 3 guruhga bo'lib ko'rsatdi: O'z mablag'ları hamda ularga tenglashtirilgan mablag'lar; moliyaviy bozorga safarbar qilinadiganlardan tushgan mablag'lar va qayta taqsimlash tartibida tushuvchi moliyaviy mablag'lar. A.O'lmasov va M. Sharifxo'jayevlar esa moliyaviy mablag'lar manbalarini birma bir to'liq keltiradilar. Olimlarning fikrlarini solishtirib shuni anglash mumkinki, ular bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Bu fikrlarni jami lab moliyaviy mablag'lar manbalari iqtisodiy taraqqiyotning u yoki bu bosqichida turlicha bo'lishi mumkin. Bunga eng avvalo mulk shaklidan kelib chiqib korxonalarni faoliyat ko'rsatishi, korxonalarga taqdim etilayotgan turlicha moliyaviy imtiyozlar (soliq, kredit, sug'urta va h.k.) shuningdek, ichki va tashqi omillardan kelib chiqib moliyaviy resurslarni tashkil etishni shunday turlarini tanlashi mumkinki, bu turi korxonada iqtisodiy o'sishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlasin.

Shunday qilib, moliyaviy mablag'larini tashkil etish manbalari doimo munozarali masala bo'lib kelgan bo'lsa ham, uni tizimli shakllantirish kelajakda korxona faoliyatini oqilona boshqarilishiga shart-sharoit yaratadi.

### Tayanch so'z va iboralar

O'z kapitali, emissiya siyosati, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foya, moliyaviy mablag'lar, balans likvidligi, zaxira kapitali.

### O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Korxonalarda o'z kapitalini tarkibi nimalardan iborat?
2. Muddati o'tgan dividendlar nima?
3. Korxona o'z kapitalini shakllantirish siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

### Topshiriqlar

1. Korxona o'z kapitalini shakllantirish siyosatining hozirgi zamon muammolari o'rganib chiqing.
2. Biron bir korxonani tanlab, uning o'z kapitali tarkibini o'rganib chiqing.

## **IX BOB. KORXONA MOLIYAVIY AKTIVLARINI BOSHQARISH**

### **9.1. Korxona moliyaviy investitsiyalarining zarurligi, mohiyati va shakllari**

Moliyaviy investitsiya deganda aksiya, obligatsiya va boshqa turdag'i qimmatli qog'ozlarga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdag'i boyliklar tushuniladi.

Mulkni davlat tasarrufidan va nodavlat sektorining kuchayishi bilan moliyaviy investitsiya bir qadar faollashmoqda. Bu esa o'z navbatida moliyaviy resurslarning bo'sh turib qolishlari va pul fondlaridan maqsadli foydalanish imkonini beradi. Erkin pul mablag'lari va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan barcha jismoniy hamda yuridik shaxslar moliyaviy investitsiyaga ega bo'ladilar.

Moliyaviy investitsiyalashdan asosiy maqsad mavjud moliyaviy resurslarning bo'sh turib qolishlariga yo'l qo'ymaslik va ulardan samarali foydalanishdan iborat. Tahlil etishda bu resurslarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga hamda o'zgarish sabablariga baho beriladi. Shuningdek, manbalardan foydalanishning maqsadli va imkoniyatli yo'nalishlari belgilanadi. Tahlilda shu bilan birga har bir so'mlik moliyaviy investitsiyaga to'g'ri keladigan yalpi foya va sof foya ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirish;
- qarzga olingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish;
- jalb qilingan maqsadli tushumlar hisobiga moliyalashtirish;
- davlat mablag'lari hisobiga moliyalashtirish va h.k.

Tahlilda, albatta, investitsion faoliyatni manbalashdagi asosiy ulushni tashkil etuvchi qatorlarga muhim e'tibor qaratiladi. Negaki,

investitsiyalarni moliyalashtirishda o‘z mablag‘lariga asosiy ulushning to‘g‘ri kelishi ko‘proq ahamiyatli sanaladi.

Moliyaviy investitsiyalarning har bir turini baholash va qayta baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

**Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni baholashda ikkita sana muhim rol o‘ynaydi:**

- sotib olish sanasi;
- keyingi sanalar.

**Sotib olish sanasi** deganda, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni sotib olish, ya’ni ularni qabul qilib olish sanasi tushuniladi.

**Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BXMS) № 12 “Moliyaviy investitsiyalarning hisobi”ga muvofiq sotib olish sanasida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalar **sotib olish qiymatida** tan olinishi va hisobotda aks etfirilishi lozim.**

Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **sotib olish qiymati** deganda, ularni sotib olish bahosi setib olishga ketgan xarajatlar bilan birlgilikda olingan qiymati tushuniladi. Sotib olishga ketgan xarajatlarga brokerlik idoralariga to‘langan haqlar, boj to‘lovi, bank xizmati haqlari va boshqa sotib olishga doir xarajatlar kiradi. Sotib olish qiymati qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning **boshlang‘ich qiymatini** yoki balans **qiymatini** tashkil qiladi.

Agar sotib olish sanasida sotib olish qiymatiga ma‘lum sanagacha bo‘lgan davr uchun hisoblangan dividendlar va foizlar hissasi kiritilgan bo‘lsa, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyaning balans qiymati o‘tkazib berilgan summadan sotuvchi tomonidan bo‘nak sifatida to‘langan foiz va dividendlar summasini chegirishdan keyin qolgan qiymatda aks etfirilishi lozim. Chunki sotib olish vaqtida olingan summa va sotib olish qiymati o‘rtasidagi farq investoring investitsiyaga kiritgan mablag‘lari uchun avans tariqasida olgan daromadi hisoblanadi. Bu avans summa investitsiyani sotib olishdan to qaytarilganicha bo‘lgan

aksiyasingining joriy narxi, zaxirasi, kompaniyani kim boshqarayotganligi va boshqalar bo'lib, ko'rsatilgan savollarga javobni emissiya prospekti va birja axborotnomadaridan olish mumkin.

Qimmatbaho qog'ozlarning geografik tarqalishiga nisbatan diversifikasiya maqsadi - tegishli rayonlardagi iqtisodiy qiyinchiliklar ro'y berganda yuzaga keladigan risklarni kamaytirishdan iborat bo'lib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarning to'lash muddati bo'yicha diversifikasiya maqsadi - foiz stavkalarining tebranishi bilan bog'liq risklarning oldini olishdan iboratdir. Bu investitsiya siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari, odatda qimmatli qog'ozlarning tugatilish muddati bo'yicha pog'onali tizimdan foydalanishadi. Bunday pog'onali tizim natijasida muddati tugagan qimmatbaho qog'ozlar bo'lmaydi va ularni uzoq muddatli yuqori daromadli qimmatli qog'ozlarga reinvestitsiya qilish imkonli tug'iladi.

Qimmatli qog'ozlarning foiz darajalari prognozi amaliyotda nazariyadan farq qiladi. Shuning uchun tijorat banklari prognoz natijalarining ishonchlik darajasini oshirish maqsadida foiz stavkalarini tarkibini tahlil qiladilar.

Odatda jahon amaliyotida tijorat banklari o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish uchun boshqarish strukturasida maxsus investitsiya bo'limlarini tashkil qilishadi. Bo'limdagi xodimlar soni bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bular: qimmatli qog'ozlar portfeli kattaligi, bo'lim tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish bo'yicha bajariladigan funksiyalarga, bankning mijozlariga ko'rsatadigan xizmatlarga, qimmatli qog'ozlar turi va sifatiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Bo'lim ishchilarining malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bajarayotgan vazifa, ishning sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

#### **9.4. Qimmatli qog'ozlar portfelining monitoringi**

Ba'zi hollarda davlat sanatsiyasi yo'li bilan, ya'ni korxona moliyaviy-xo'jalik ahvolini sog'lomlashtirishga qaratilgan bir turkum maxsus tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan bankrotlikni oldini olishga harakat qilish mumkin. Bunday qaror qabul qilish uchun korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini monitoring va tahlil qilish kerak bo'ladi.

Monitoring - korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'risida axborot to'plash va umumlashtirish tizimidir.

Investitsiyaviy qo'yilmaning muqobil yo'nalishini baholash qarzdorlarning monitoring faoliyatini amalga oshirish orqali, resurslardan foydalanish samaradorligini ko'taradi. Moliyaviy dastaklardan foydalanish orqali xo'jalik obyektlari tavakkalchilik qilishga va jamg'arma to'plash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib barqaror va sog'lom moliyaviy tizimning rivojlanishi investitsiyalashning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Moliyaviy tizim asoslari huquqni, hisob yuritish va moliyaviy muassasalarga og'ir yuk tushmaydigan soliq tizimlarini shakllantirish orqali barpo qilinadi.

Investitsiyani moliyalashtirish asosan mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish tuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog'liq bo'ladi.

Investitsiya faoliyatini rivoji uchun mazkur omillarni ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Bu tahlil mablag'lar yo'nalishining eng maqbul usulini tanlash va kelajakda har bir xududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash imkoniyatini beradi. Iqtisodiy o'sishga erishishda nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarini tanlash lozimki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olishlari kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun investitsiya hajmini keskin ko'paytirish lozim bo'ladi. Hozirgi bosqichda mablag'lar yetishmovchiligini hisobga olib, nodavlat investitsiya manbalarini topish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **9.5. Aksionerlik jamiyati qimmatli qog'ozlari investitsion jalg etuvchanligini baholash**

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va iqtisodiyotda erkin raqobat muhitini yaratishdan iboratdir.

Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat korxonalari negizida xususiy mulkka asoslangan turli shakldagi korxonalarni tashkil etish ushbu vazifani hal etishning muhim yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon bilan barobar ravishda qimmatli qog'ozlar bozori shakllanib iqtisodiyotda aksiyadorlik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ham rivojlana boshladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, jumladan, uning huquqiy asosini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yaratish va fond bozori infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirishga asos yaratildi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqa mulk shaklidagi korxonalardan ajratib turadigan muhim jihatlaridan biri – bu ular ustav fondlarining aksiyalarga bo'linganligi va faoliyatlarining fond bozori bilan chambarchas bog'liqligidir.

Aksiya – bu aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganligidan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda ushbu jamiyatni boshqarishda ishtiroy etish huquqini

#### **9.4. Qimmatli qog'ozlar portfelining monitoringi**

Ba'zi hollarda davlat sanatsiyasi yo'li bilan, ya'ni korxona moliyaviy-xo'jalik ahvolini sog'lomlashtirishga qaratilgan bir turkum maxsus tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan bankrotlikni oldini olishga harakat qilish mumkin. Bunday qaror qabul qilish uchun korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini monitoring va tahlil qilish kerak bo'ladi.

Monitoring - korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'risida axborot to'plash va umumlashtirish tizimidir.

Investitsiyaviy qo'yilmaning muqobil yo'nalishini baholash qarzdorlarning monitoring faoliyatini amalga oshirish orqali, resurslardan foydalanish samaradorligini ko'taradi. Moliyaviy dastaklardan foydalanish orqali xo'jalik obyektlari tavakkalchilik qilishga va jamg'arma to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib barqaror va sog'lom moliyaviy tizimning rivojlanishi investitsiyalashning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Moliyaviy tizim asoslari huquqni, hisob yuritish va moliyaviy muassasalarga og'ir yuk tushmaydigan soliq tizimlarini shakllantirish orqali barpo qilinadi.

Investitsiyani moliyalashtirish asosan mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog'liq bo'ladi.

Investitsiya faoliyatini rivoji uchun mazkur omillarni ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Bu tahlil mablag'lar yo'nalishining eng maqbul usulini tanlash va kelajakda har bir xududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash imkoniyatini beradi. Iqtisodiy o'sishga erishishda nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarini tanlash lozimki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olishlari kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida iqtisodiy o'sishni jadidlashtirish uchun investitsiya hajmini keskin ko'paytirish lozim bo'ladi. Bozirgi bosqichda mablag'lar yetishmovchiligini hisobga olib, davlat investitsiya manbalarini topish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **9.5. Aksionerlik jamiyati qimmatli qog'ozlari investitsion jalg etuvchanligini baholash**

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy edoliotlarning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va iqtisodiyotda erkin raqobat muhitini yaratishdan iboratdir.

Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat korxonalari negizida xususiy mulkka asoslangan turli shakldagi korxonalarni tashkil etish uchbu vazifani hal etishning muhim yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu junyon bilan barobar ravishda qimmatli qog'ozlar bozori shakllanib iqtisodiyotda aksiyadorlik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ham rivojlana boshladi.


Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, jumladan, uning fmqiyl asosini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yaratish va fond bozori infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha salmoqli tahlil amalga osbirildi. Shu tariqa aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlinishiga asos yaratildi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqa mulk shaklidagi korxonalardan ajralib turadigan muhim jihatlaridan biri – bu ular ustav fondlarining aksiyalarga bo'linganligi va faoliyatlarining fond bozori bilan ehamiyyetli bog'liqligidir.

Aksiyalar – bu aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganligidan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini etish va odatda ushbu jamiyatni boshqarishda ishtiroy etish huquqini

beruvchi qimmatli qog'ozlardir<sup>8</sup>. Ta'rifdan ko'rinish turibdiki, boshqa qimmatli qog'ozlar turlaridan (obligatsiya, depozit sertifikatlari, veksellar va boshqalar) farqli o'laroq, aniq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi vositadir, ya'ni uning egasi aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyalarning ushbu xususiyati ularni muomalaga chiqarish va investorlar o'rtasida joylashtirishning asosiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi (9.1-chizmaga qaralsin).



9.1-chizma. Korxonalarda aksiyalar chiqarishning asosiy maqsadi

Chizmadan ko'rinish turibdiki, korxonalarning aksiyalar chiqarishdan asosiy maqsadi korxonaga nafaqat moliyaviy mablag'lar, balki samarali mulkdorlarni jaib qilishdan ham iboratdir. Samarali mulkdor deganda, biz korxona uzoq muddat barqaror rivojlanishidan uning ishlab chiqarish imkoniyatlari va salohiyati kengayishidan manfaatdor bo'lgan aksiyalarni tushunishimiz lozim. Samarali mulkdorlarni jaib qilishda, fikrimizcha, korxona aksiyalarini strategik

<sup>8</sup> Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. – T.: Konsauditinform, 2001. – 472 b.

investitsiyalar, ushbu korxona faoliyat turi bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lgan, korxonaga zarur bo'lsa, zamonaviy texnika va texnologiyalarni krita oладиган hamda yuqori darajada boshqaruvni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lgan mulkdorlar orasida joylashtirish lozim.

Fond bozori orqali aksiyadorlik jamiyatlariga mablag'arni jalb qilishda aksiyalarning o'z vaqtida va maqbul narxlarda investorlar orasida joylashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda korxonalarga investitsiyalarni fond bozori orqali keng miqyosda jalb qilish jarayonlarini sekinlashtirayotgan omillar ta'sirini o'rganish mubimdir. Bunday omillarga korxonalarda asosiy fondlarning jismomon va ma'naviy eskirganligi va bunday holatni sifatlari mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatining cheklanganligi, korxonalar aksiyalarining daromadlilik darajasining pastligi, divident to'lovlarining pastligi, ularni aksiyalarga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirishi, moliyaviy rivojlanishning harakat strategik dasturini mavjud emasligi, moliyaviy ma'lumotlarni to'plash holatini jahon andozalari talablariga mos kelmasligi, shu jumladan buxgalteriya hisobot tizimi va h.k.

Korxonalar o'z faoliyatlarini qimmatli qog'ozlar bozori bilan uzviy bog'liqlikda investitsiyalarga jalb etishi va shu orqali investitsion loyihalarni hayotiyligini ta'minlashga erishishlari, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish va zamonaviy lashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larni ham qidirib topish, korxonalarda ilg'or investitsion loyihalarni baholash imkonini beradi.

Investitsion loyihalarning xayotiyligini baholash, tahlil etishda xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga ahamiyat beriladi.

Investitsion xarajatlar va ularning baholanishi quyidagi xarajat elementlari bo'yicha o'rganiladi:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- ma'muriy va ustarma xarajatlari;
- moliyaviy xarajatlari;
- amortizatsiya bo'yicha xarajatlari.

Baholash ularning har bir turkumi bo'yicha olib boriladi va bu bilan loyihalarning xayotiyligi belgilanadi.

Investitsiyada yo'naltirilgan mablag'larni baholashning ikki usulini qayd qilish mumkin. Bular - real aktivlarning kutiqlari qiymati va joriy qiymatini aniqlash usullaridir. Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil qilishda bu masala asosiy hisoblanadi.

#### **9.6. Portfel investitsiyalar bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish usullari**

Hozirgi sharoitda investorlar o'z sarmoyalarini fond instrumentlariga yo'naltirishda mablag'lar saqlanishi va qiymatini o'sib borishidan manfaatdor bo'lib, portfel riski va daromad ko'rsatkichlari proporsiyasini ta'minlashga intiladi. Investitsion portfeli shakllantirish va boshqarishda, birinchi navbatda, uning tarkibiga kiruvchi qimmati qog'ozlarning daromadlilik va risklilik darajasi tahlil etiladi. Buning sababi iqtisodiyotda risklarning aktivlarga ta'siri kun sayin narxlarni o'zgarib turishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham risklarni boshqarish moliya bozori barcha ishtirokchilarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Investitsion portfeli boshqarish uchun tarkibiga kiruvchi moliyaviy instrumentlarning risk darajasini tahlil qilishni va samarasiz bo'lgan qimmatli qog'ozlarni portfel tarkibidan chiqarib tashlashni talab etadi. Risk darajasi yuqori bo'lganda, daromadlilik darajasi past bo'lishi mumkin. Shu bois portfel strategiyasidan kelib chiqqan holda uni optimallashtirish muammosi korxona uchun murakkab vazifa hisoblanadi. Bunda risk darajasini hisoblashda bir necha ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bu ko'rsatkichlar qimmatli qog'ozlarning umumiy fond bozori bilan, qimmatli qog'ozlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatini ifodalab, korxona rahbari fond instrumentlarini riskka moyillik darajasini belgilab olishga yordam

beradi. Shundan kelib chiqib, risk darajasiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi.

Bunda o'chov ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar asos qilib olinishi mumkin:

- daromadning variatsion kengligi;
- o'rtacha kvadratik chetlanish;
- variatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar qancha yuqori bo'lsa, qimmatli qog'ozlarning risk darjasasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ko'rsatkichlar o'sib boruvchi aniqlik bo'yicha joylashtiriladi va shu orqali ular ustidan oldingi ko'rsatkich natijalarini aniqlashtirib borishga xizmat qiladi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish maqsadida ko'rib chiqilayotgan korxonaning investitsion portfeli tarkibidagi 2 ta qimmatli qog'ozlar (ehtimoliy daromadlilik darajasi: minimal, o'rtal va maksimal) asosida quyidagi variatsion kenglikni aniqlashga erishiladi (9.1-jadval).

#### 9.1-jadval

**Qimmatli qog'ozlarning variatsion kengligi**

t/r	Ehtimoliy baho	Korxonalar		Sodir bo'lish ehtimoli	
		A	B	%da	Koeffitsiyentda
1	Minimal (daromad, %)	6,0	4,0	30	0,3
2	O'rtacha (daromad, %)	11,4	10,3	50	0,5
3	Maksimal (daromad, %)	17,3	25,4	30	0,3
4	Variatsion kenglik (%)	12,69	13,97	-	-
5	Matematik qutilish (%) (3-1)	11,3	21,4	-	-
6	O'rtacha kvadratik chetlanish (%)	6,27	21,31	-	-
7	Variatsiya koeffitsiyenti	0,70	1,92	-	-

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda qimmatli qog'ozning risk darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Bizning

misolimizda “A” korxona qimmatli qog’ozining risk darajasi 1,89 barobar ortiq bo’lganligini ko’rish mumkin ( $21,4:11,3 \approx 1,89$ ).

Hisoblab chiqilgan natijalar asosida keyingi risk darajasining ko’rsatkichini, ya’ni kvadratik chetlanishni hisoblash ham mumkin. Bunda ikki usuldan foydalanish tavsiya etiladi, ya’ni birinchisi matematik qutilish ( $Mq$ ). Buning aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$Mq (Ed) = \sum_{i=1}^n Ed_i \times Cs_i$$

bu yerda:  $Ed_i$  - matematik qutilish;

$Cs_i$  - sodir bo’lish ehtimoli.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan foydalaniб, quyidagi natijalarga erishish mumkin bo’лади:

1. “A” korxona bo’yicha  $= 6,0 \times 0,3 + 11,4 \times 0,5 + 17,3 \times 0,3 = 12,69\%$ ;

2. “B” korxona bo’yicha  $= 4,0 \times 0,3 + 10,3 \times 0,5 + 25,4 \times 0,3 = 13,97\%$ .

Ko’rinib turibdiki, “A” korxonada qimmatli qog’ozlar bo’yicha  $Mq$  12,69 %ni, “B” korxona bo’yicha esa 13,97 %ni tashkil etadi.

Umuman yuqorida hisoblab chiqilgan ko’rsatkichlar natijalaridan kelib chiqib o’rtacha arifmetik o’rtachani hisoblash mumkin. Bunda qimmatli qog’ozlarning ehtimol qilinayotgan daromadlilik darajalarining o’rtacha arifmetik ko’rsatkichi olanadi:

1. “A”  $= (6,0 \% + 11,4 \% + 17,3 \%) / 3 = 11,56\%$ ;

2. “B”  $= (4,0 \% + 10,3 \% + 25,4 \%) / 3 = 13,23\%$ .

Keyingi, ya’ni ikkinchi qimmatli qog’ozning o’rtacha arifmetik ko’rsatkichi birinchi qimmatli qog’ozning o’rtacha arifmetik ko’rsatkichidan katta. Bu esa ikkinchi qimmatli qog’ozning risklik darajasi maksimalligidan dalolat beradi.

Dispersiya – kvadratdagи standart chetlanish bo’lib, uni quyidagi formula orqali aniqlash tavsiya etiladi:

$$D = \frac{\sum (Aks_{\text{Dar}} - \bar{Aks}_{\text{Dar}})^2}{n}.$$

Bundan kelib chiqib dispersiyani aniqlash mumkin bo'ldi:

$$D_A = \sqrt{(6,0 - 11,56)^2 \cdot 0,3 + (11,4 - 11,56)^2 \cdot 0,5 + (17,3 - 11,56)^2 \cdot 0,3} = 19,16$$

$$D_B = \sqrt{(4,0 - 13,23)^2 \cdot 0,3 + (10,3 - 13,23)^2 \cdot 0,5 + (25,4 - 13,23)^2 \cdot 0,3} = 74,28$$

Shunday qilib, o'rtacha kvadratik chetlanish darajasi qanchalik katta bo'lsa, o'sha qimmatli qog'ozlarga bog'liq qo'yilmalarning risk darajasi shunchalik yuqori bo'ldi. "B" korxona qimmatli qog'ozlarining o'rtacha kvadratik chetlanishi "A" korxona qimmatli qog'ozlaridan 3,9 baravar ko'proq, unda "B" korxona qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qo'yilmalar ko'proq risk darajasiga ega:  $74,28 : 19,16 = 3,9$

Ushbudan umumiy risk darajasini variatsiya koeffitsiyenti yordamida hisoblash mumkin bo'ldi, ya'ni:

$$V_{\text{koeff}} = \frac{\bar{K}_{\text{v(DS)}}^{\text{Ch}}}{\text{Ar.k.}} \times 100\%$$

bu yerda:  $V_{\text{koeff}}$  – variatsiya koeffitsiyenti;

$\bar{K}_{\text{v(DS)}}^{\text{Ch}}$  – o'rtacha kvadratik chetlanish (dispersiya);

Ar.k. – o'rtacha arifmetik ko'rsatkich.

Ushbudan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlarning variatsiya koeffitsiyentini korxonalar kesimida hisoblash mumkin:

$$\text{"A"} = 19,16 / 11,56 = 1,66;$$

$$\text{"B"} = 74,28 / 13,23 = 5,61.$$

Bu yerda variatsiya koeffitsiyenti tarkibidagi "B" korxonaning qimmatli qog'ozlariga kiritilgan mablag'lari "A" korxona mablag'lariiga nisbatan ko'proq risk darajasiga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Bu yerda "B" korxonaning daromad darajasini yuqori bo'lishiga qaramay, uning ehtimoliy yo'qotishlar darajasi "A" korxonaga nisbatan yuqori bo'lган.

Qimmatli qog'ozlar portfelining risk darajasini aniqlashda korrelyatsion koeffitsiyentdan ham foydalanish mumkin. U asosan qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishda ko'proq foydalanishi,

shuningdek, ushbu ko'rsatkich -1 va +1 oralig'ida o'z aksini topishi mumkin. Absolyut ijobiy korrelyayatsiya (korelyatsiya koeffitsiyenti +1) qayd etilganda, bir qimmatli qog'oz kursining o'zgarishini ifodalasa, unda absolyut salbiy korelyatsiya (korelyatsiya koeffitsiyenti -1)ning mavjud bo'lishi ikki qimmatli qog'oz kurslarining teskariligi aloqadorlikda o'zgarishini ifodalaydi. Qimmatli qog'ozlar kursining o'sishi yoki pasayishi ham kuzatilishi mumkin. Bunda qimmatli qog'oz kursining oshishi bilan unga xos holda ikkinchi qimmatli qog'oz kursining pasayishi yuz berishi mumkin bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, turli xil qimmatli qog'ozlar guruhlari o'rtaida ijobiy (korrelyatsion koeffitsiyent +1 ga yetmaydi) korrelyatsiya mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, bitta qimmatli qog'ozning daromadlilik darajasi oshsa yoki kamaysa, ikkinchi qimmatli qog'ozning ham daromadlilik darajasi teng ravishda oshib yoki kamayib turadi.

Noijobiy variatsiyada ikkita ehtimoliy o'zgaruvchilar bir-biriga teskariligi munosabatda bo'lgan holda, birining oshishi ikkinchisining kamayishiga sabab bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin bo'ladi, ya'ni bir qimmatli qog'ozning daromadlilik darajasining oshishi ikkinchi qimmatli qog'ozning daromadlilik darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Variatsiya ko'rsatkichi qanchalik oshsa, ikkita o'zgaruvchining uzviy bog'iqligi yuqori bo'lib borishi mumkin bo'ladi.

Jahon amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish Martovits-Gobin-Sharp nazariyalariga asoslanadi. Qimmatli qog'ozlar portfeli investorlarning ya'ni shu portfel egasining talablariga javob berish uchun uning ichidagi aktivlarni surunkali ravishda almashtirib turish kerak. Shunday qilib qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bir qancha imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtiradi: birinchisi, investitsiya qilingan mablag'larni birlamchi bahosini saqlash; ikkinchisi, investitsion

1. O'sishi yoki kamayib turishi mumkin bo'lgan holda, ikkinchi qimmatli qog'ozlar portfeli qimmatli qog'ozning daromadlilik darajasi teng ravishda oshib yoki kamayib turadi.

daromadning maksimal darajasiga erishish; uchinchisi, portfeli investitsion yo'nalishini ta'minlash<sup>9</sup>.

Boshqacha qilib aytganda portfeli boshqarish jarayoni uning investitsion sifatini va investoring manfaatlariga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirilishi va yo'naltirilishi lozim. Portfeli boshqarishda ja'mi qo'llaniladigan metodlar va texnik imkoniyatlar portfeli boshqarish usullarini o'zida namoyon etadi va uni quyidagicha tavsiflash mumkin: aktiv, passiv va balanslashtirilgan usullarni.

Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishni aktiv usuli bozor o'zgaruvchanligida qo'shimcha daromad olish maqsadida portfel tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirishni nazarda to'tadi. Bozorning o'zgaruvchanligida ya'ni portfeldagi qimmatli qog'ozlar narxlarini o'sishi va pasayishi natijasida daromad olish katta risk bilan baholanadi, shuning uchun bu portfel ya'ni usulni tuzilishini quyidagicha keltirish mumkin:

**Portfel boshqarishning aktiv usuli:**

- a) portfel tuzilishini boshqarish;
- b) portfel riskini boshqarish;
- d) portfel likvidligini boshqarish.

Qimmatli qog'ozlar portfelini passiv boshqarish usuli uzoq muddatga ko'zlangan istiqbolli oldindan belgilangan risk darajasini yaxshi diversifikatsiyalangan portfeli o'zida namoyon etadi. Bu yondashuv samarali qimmatli qog'ozlar bozori va yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar mayjud bo'lganida amalga oshirish mumkin. Portfeli boshqarishning bu usuli doimiy muqim holatda bo'lganida uzoq umr kechirishi mumkin. Agarda fond bozor kon'yukturasi nomuqim holatda bo'lsa va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bozori asosiy o'rinn egallaganda portfeli passiv boshqarish usuli past samarali natija beradi.

<sup>9</sup> Семенкова Е.В. Операции с ценностями бумагами. - М.: Проспектива, 1997. - с. 213-217

Birinchidan, portfeli passiv boshqarishni samarali bo'lishi uchun u past riskli qimmatli qog'ozlardan tarkib topgan bo'lishi kerak, bunday qog'ozlar milliy bozorimizda kamchilikni tashkil etadi.

Ikkinchidan, portfel uzoq muddat davomida faoliyat yuritish uchun uning takibida uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bo'lishi kerak, bu esa portfeling passiv boshqarish usulining asosiy qismidir, lekin O'zbekiston fond bozoridagi dinamizm ya'ni narx-navoni o'zgarmasligi yoki ko'tarilib ketishi portfeldagi daromadni va uning qiymatini yo'qotish ehtimoli katta.

O'zbekiston fond bozoriga indeks fondi nomli, qimmatli qog'ozlar portfeli passiv boshqaruvi ko'proq to'g'ri keladi<sup>10</sup>. Indeks fondi – bu qimmatli qog'ozlar bozorini holatini tavsiflovchi, tanlangan birja indeksini harakatini aks ettiruvchi portfeldir. Agarda investor, portfelda bozor holatini aks ettirishini xohlasa, u portfelda qimmatli qog'ozlarni shunday ulushiga ega bo'lishi kerakki, bu ulush indeks hisoblangandagi qog'ozlarga to'g'ri kelishi kerak. Portfelga bu kabi yondashuv uning boshqaruvchisi tahlilga bo'lgan xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Chunki, bu holatda har bir emitent alohida tahlil qilinmasa, bozorni umumiy tendensiyasi tahlil qilinadi.

Qimmatli qog'ozlar portfelin balanslashtirilgan boshqaruv uslubi o'zida yuqorida keltirilgan usullarni sintetik birlashuvini namoyon etadi. Bu usulni tanlangan boshqaruvchi boshida bu portfeli bazasini tashkil etadi. Portfeli bazasi bu past riskli qimmatli qog'ozlar yigimidi, ularni asosiy maqsadi kapitalni saqlash. Odatda bazani davlat va korporativ obligatsiyalar hamda yetakchi emitentlarni imtiyozli aksiyalari tashkil etadi. Ba'zan bazaga ikkinchi toifali xattoki uchinchi toifali emitentlari aksiyalari ham kiritiladi, agarda ular uzoq muddatli investitsiya sifatida olinsa. Unda baza boshqaruvi passiv usulga asoslanadi, bu degani uning tarkibi kam holatlarda (odatda yiliga bir marta) qayta ko'rilib chiqilishi mumkin.

<sup>10</sup> Галаков В.А., Басов А.И. Рынок ценных бумаг.– М.: Финансы и статистика, 1996

## **Tayanch so‘z va iboralar**

Moliyaviy aktiv, moliyaviy investitsiya, qimmatli qog‘ozlar portfeli, investitsion strategiya, investitsiya jarayoni, balans likvidligi, zaxira kapitali, risk, korxona fond portfelining diversifikatsiyasi.

### **O‘z-e‘zini tekshirish uchun savollar**

1. Korxona moliyaviy investitsiyalarining zarurligi nimada namoyon bo‘ladi?
2. Korxona qimmatli qog‘ozlari portfellari tarkibi nimadan tashkil topadi?
3. Qimmatli qog‘oz sifatiga doir diversifikatsiya maqsadi nimadan iborat?
4. Investitsion loyihalarning xayotiligini baholash, tahlil etishda xarajaflar va ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat bo‘ladi?

### **Topshiriqlar**

1. BHMS №12ni o‘rganib unda moliyaviy investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qiling.
2. Korxonalarda investitsiyaviy strategiya turlarini aytib bering.
3. Korxona qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha amaliy ma’lumotlarni to‘plang va tahlil qiling.
4. Portfel investitsiyalar bilan bog‘liq risklarni aytib bering.

## **X BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI**

### **10.1. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati va mazmuni**

“O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘z nutqlaridan birida “Iqtisodiyotni erkinlashtirish - xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas’uliyatini oshirish demakdir”<sup>11</sup> deb ta’kidlagan edi. Bugungi kunda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatini tegishli mablag’, xomashyo, ish kuchi, ilg‘or texnologiya kabilar bilan o‘zları ta’minlashlari muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda. Tovarlarini (ishlar, xizmatlarini) o‘zları sotadi. O‘zining barcha faoliyatini tegishli moddiy va moliyaviy mablag‘lar bilan ham o‘zları ta’minlaydi.

Iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirot etuvchi xo‘jalik subyektlarida raqobatbardoshlikga erishish, korxonalarни modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida tadbirlarni olib borish talab etilmoqda. Shu boisdan ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun korxonalar moliyaviy faoliyatini rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy rejalashtirish korxona xo‘jalik faoliyatining asosiy tomonlarini qamrab olib, moddiy, mehnat va pul resurslarining tashkil topishi hamda ishlatilishi ustidan oldindan olib boriladigan nazoratni ta’minlaydi va korxona moliyaviy holatining barqarorlashuviga sharoit yaratadi.

---

<sup>11</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O‘zbekiston, 1999. - 37 b.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish – bu korxona rivojlanishini ta'minlash uchun uning hamma daromadlari va pul mablag'lari ishlatalish yo'naliishlarini rejalashtirishni ifodalaydi. Moliyaviy rejalashtirish, rejalashtirish obyekti va vazifalaridan kelib chiqqan holda turli tarkibdagi va ahamiyatdagi moliyaviy rejalar tuzish vositasida amalga oshiriladi.

Xo'jalik subyektlarida moliyaviy rejalashtirish – bu ular moliyasini boshqarishning vositasidir. Xo'jalik subyektlari rivojlanishini ta'minlash uchun daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishdir.

Iqtisodchi olimlar A.F. Kuzina va A.G.Dobrovolskiylar moliyaviy rejalashtirishga quyidagicha ta'rif berishadi: "Moliyaviy rejalashtirish – moliyaviy rejalar yordamida kompaniyaning operativ va strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi, reja, nazorat, tahsilni shakllantirish va amalga oshirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oluvchi o'zgarishlarga moslashish yo'llarini ishlab chiqish va prognozlashtirishga asoslangan kompaniyaning barcha darajalarida biznes (kompaniyaning barcha aktiv va passivlari, shuningdek, kompaniya moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash va foydalanish jarayonlari)ni boshqarish texnologiyasidir"<sup>12</sup>.

Korxonada moliyaviy rejalashtirish xo'jalik faoliyatini rejalashtirish bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari rejasini asosida tuziladi (ishlab chiqarish hajmi, realizatsiya, ishlab chiqarish xarajatlari smetasi, kapital qo'yilmalar rejasini va boshqalar). Ammo moliyaviy reja holati ishlab chiqarish rejasini ko'rsatkichlarining moliyaviy ko'rsatkichlaridagi oddiy arifmetik hisob-kitobi emas.

Moliyaviy reja loyihasini tuzishda ishlab chiqarish rejasini ko'rsatkichlariga kritik yondoshiladi, korxona ishlab chiqarish quvvatini effektivroq ishlatalish maqsadida xo'jalikning ichki hisobga olinmagan rezervlari ishlataladi hamda moddiy va pul resurlarini ratsional ishlatalish,

<sup>12</sup> Кузина А.Ф., Добровольский А.Г. Системы и принципы финансового планирования и прогнозирования в управлении организацией// Альманах современной науки. 2010. №2. С. 153-156.

mahsulot sifatini oshirish, assortimentini kengaytirish yo'llari aniqlanadi.

Moliyaviy rejaning loyihasini ishlab chiqish jarayonida quyidagilar aniqlanadi: realizatsiya qilinayotgan mahsulotga xarajatlar, mahsulot realizatsiyasidan tushum, pulli jamg'armalar, amortizatsiya fondi, rejalashtirilayotgan yilga ko'zda tutilgan investitsiyalar bo'yicha moliyalashtirish manbalari va hajmi; oborot mablag'lariiga ehtiyoj va uni qoplash manbalari, foydani taqsimlash va ishlatish, byudjet va bank bilan o'zaro munosabat, hududiy yo'l fondlariga to'lovlar.

Korxonada moliyaviy rejalashtirish quyidagi vazifalarni yechish bilan bog'liq:

- ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatini pul mablag'lari va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi;
- foydada tannarxni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish hisobidan, uni ko'paytirish;
- byudjet va banklar bilan moliyaviy o'zaro munosabatlarni aniqlash;
- o'z-o'zini qoplash va o'z-o'zini moliyalashtirish prinsiplari asosida korxonada rejalashtiriladigan xarajatlar va daromadlarining real balanslashganligini ta'minlash;
- korxona moliyaviy holati va to'lov qobiliyatini nazorat qilish.

Korxona moliyaviy rejasining asosiy shakli bo'lib: xarajatlar va daromadlar balansi hisoblanadi.

Moliyaviy rejani tuzish ishlari bir necha bosqichlarda olib boriladi:

- moliyaviy rejaning yil davomida bajarilishini tahlil qilish;
- loyihalashtirilayotgan ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish, ular asosida moliyaviy rejani tuzish;
- rejalashtirilayotgan yilga moliyaviy reja loyihasini ishlab chiqish.

Moliyaviy reja loyihasini ishlab chiqish jarayonida quyidagi usullarni maqsadli ishlatish zarur: iqtisodiy tahlil va sintez; ekstropolyatsiya; ko'p variantilik; balans metodi.

Daromadlar va xarajatlar balansining to'g'riligini tekshirish maqsadida amaliyotda maxsus tekshiruv balansi – shaxmat balansi tuziladi.

Hozirgi vaqtda tarmoqli rejalashtirish tizimi o'z mohiyatini yo'qotdi, shu sababli ko'pgina korxonalarda moliyaviy rejalashtirishga

unchalik katta e'tibor betilmayapti. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, korxonalarda moliyaviy rejalashtirishga e'tiborning kamayishiga inflyatsiya uning o'sishi yoki pasayishi ham sababchi bo'immoqda. Doimiy xo'jalik shart-sharoitlarining o'zgarishi, soliq tizimidagi o'zgarishlar, xo'jaliklar orasidagi aloqalarning buzilishi, o'zarot noto'lovliklar, bularning hammasi korxonada moliyaviy ko'rsatkichlarga bo'lgan ishonchni sayozlashtirmoqda. Shu bilan birga moliyaviy rejalashtirishning rad etilishiga va uning o'rniiga bashoratlash usulini qo'llanilishiga otib kelmoqda.

Moliyaviy rejalashtirishning obyekti - bu davlat va xo'jalik subyektlariniint moliyaviy faoliyatni hisoblanadi. Moliyaviy rejalarning shakli korxonalar (muassasalar, birlashmalar)ning ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish faoliyatidan kelib chiqib, alohida muassasaning "Smetasi"dan boshlab, davlatning "yig'ma moliyaviy balansi" gacha bo'ladi. Har bir moliyaviy rejada ma'lum bir muddatga mo'ljalangan daromadlar va xarajatlar xamda moliya soxalari va kredit tizimi bilan aloqalari (badallar, ajratmalar, byudjetga soliqlar, bank krediti uchun to'lovlar va h.k.) aniq qilib belgilanadi.

Moliya tizimining barcha bo'g'inlari moliyaviy rejalashtirishni amalga oshiradi, biroq moliyaviy rejaning shakli, tarkibi, tuzilishi va hajmi har bir bo'g'inning o'ziga xos xususiyatidan kelib chikadi. Masalan, tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari "daromadlar va xarajatlar balansi" shaklidagi moliya tejasini tuzsa, notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari "smeta xarajatlari"ni tuzadi, jamoa birlashmalar, kooperativ, sug'urta tashkilotlar moliyaviy rejalar tuzsa, davlat boshqaruvi organlari respublika hamda mahalliy byudjetlarini tuzadir.

Rejali iqtisod davrida ko'plab direktiv va manzilli rejalar qabul qilinad edi, shu jumladan, moliya rejalar ham qabul qilinganda chamalash (prognoz) usulidan foydalanish rad etilmasdi. Usha davrlarda turli xil ko'rinishdagi chamalashlar ishlab chiqilar edi, jumladan, demografik holat, tabiiy resurslar, fan-texnika progressi, moliyaviy resurslar va boshqalar. Ushbu rejalarning muddatlari 5 yildan 20 yilgacha bo'lib, perspektiv xarakterga ega bo'lar edi. Mazkur perspektiv rejalar nazariy tomonidan asoslangan bo'lsa-da, davr o'zgarishiga moslashmay egiluvchanlik xususiyatiga zid kelar edi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy elementlar quyidagilar hisoblanadi: narx-navo, tovar va xizmatlarga talab va taklif, ishchi kuchi, ssuda

kapitallari, raqobat va boshqalar. Bahoning tebranishi va uning miqdori tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va takliflarga bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitlarda tovarlar assortimentini aniqlaydigan, bozorni boshqaradigan tizimning mavjudligi bo'lishi zarur. Bozorni tashkil qilish, uning tahlili va rejalashtirish elementlari bilan boshqarish marketing orqali tashkil etiladi.

Hozirgi sharoitda moddiy ishlab chiqarish korxonalarida soddalashtirilgan, ya'ni daromadlar va xarajatlar qismidan tashkil topgan moliyaviy reja (bu asosan kichik biznes subyektlari uchun)ga ko'p qirrali, ya'ni daromadlar va xarajatlar balansidan iborat bo'lgan moliyaviy rejalar tuzish amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda.

## **10.2. Moliyaviy rejalashtirishning korxona faoliyatidagi o'rni va uning ko'rsatkichlari**

Xo'jalik subyektlari faoliyatini iqtisodiy tartibga solish tizimida ishlab chiqarish va sotishni rejalashtirish, shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish asosida moliyaviy rejalashtirish muhim o'rinni egalaydi.

"Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- taraqqiyotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish;
- jalb qilingan mablag'lar va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish menejmenti;
- firma ichidagi moliyaviy natijalar va pullarni rejalashtirish, hisobga otish va nazorat qilish texnologiyasi;
- investitsion menejment;
- kapitallar menejment;
- faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar)<sup>13</sup>.

Xo'jalik subyektlarida moliyaviy rejalashtirishni oqilona tashkil etishni quyidagi chizmada aks ettirdik.

---

<sup>13</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2007. – 172 b.

## Xo'jalik subyektlarida moliyaviy rejalashtirishni oqilona tashkil etish imkoniyatlari

- || → Ular faoliyatini rivojlantirish jarayonida barcha yo'nalishlarini to'liq ko'rsata olish va imkon boricha samaraliigini taminlash
- || → Samarali rivojlanishni taminlashga qaratilgan harakatlarni nazorat qilish
- || → Aniq rejali vazifalarni shakllantirish
- || → Xo'jalik subyektlari faoliyati asosiy yo'nalishlarining ichki nazorati bo'yicha zaruriy normativ bazani yaratish
- || → Tashqi moliyalashtirishni taminlash maqsadida barcha subyektlar uchun yagona axborot bazasini yaratish

### 10.1-chizna. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy rejalashtirishni oqilona tashkil etish imkoniyatlari<sup>14</sup>

Moliyaviy rejalashtirish quyidagi maqsadli yo'nalishlarga ham ega bo'lmoq'i lozim:

- xo'jalik subyektlari faoliyatini moliyaviy resurslar va pul mablag'lari bilan ta'minlash;
- asosiy va boshqa faoliyat turlari bo'yicha foyda (daromad)ni oshirish;
- byudjet, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, banklar, kreditorlar va debitorlar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarni tashkil etish;
- rejalashtirilayotgan daromad va xarajatlarni balanslashtirishni ta'minlash;
- xo'jalik subyektlarini to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlash.

<sup>14</sup> Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: Учеб. пособие. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 140 с.

Moliyaviy rejalashtirish firmaga nisbatan turli jarima sanksiyalaridan himoya qilib, byudjet, turli jamg'armalar, banklar va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga yordam beradi<sup>15</sup>.

Korxonada moliyaviy rejaning ahamiyati quyidagi larda bilinadi, ya'ni moliyaviy reja:

- o'z ichiga turli orientirlarni (mo'ljallarni) oladi, ushbu orientirlarga muvofiq korxona faoliyat yuritadi;
- raqobat kuchli bo'lgan sharoitda loyihaning hayotiyligini aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy rejalashtirishdan ko'zlangan maqsad moliyaviy resurslarning, kapital va rezervlarning kutiladigan hajmlarini moliyaviy ko'rsatkichlar kattaliklarini prognozlash asosida aniqlashdan iborat. Moliyaviy rejalashtirishning muhim jihatni uning strategiyasi, ya'ni Xo'jalik subyektlarining daromad (foyda) va xarajatlar markazlarini aniqlashdir. Xo'jalik subyektining daromad markazi unga maksimal foyda keltiruvchi bo'linmasi hisoblanadi. Xarajatlar markaziga xo'jalik subyektining kam rentabelli yoki umuman notijorat bo'lgan, lekin umumiy ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'yновчи bo'linmalar ham kiradi. Masalan, G'arb davlatlaridagi ko'plab firmalar "saksonga yigirma" qoidasiga rioya qiladilar, ya'ni 20 % kapital sarfi 80 % daromad keltirishi shart.

Moliyaviy rejalashtirish dastlabki va jamlangan bo'lib, moliyaviy rejalarini tuzish va ijro etish orqali amalga oshiriladi.

Dastlabki rejalashtirishgan korxonalarning, moddiy ishlab chiqarish tashkilotlarining, xarajatlari to'liq yoki asosiy qismi davlat byudjeti yoki maxsus mablag'lar orqali qoplanadigan davlat muassasalarining rejalarini kiradi.

Jamlangan moliyaviy rejalashtirish umum davlat, tarmoq va territorial bo'ladi. Hamma moliyaviy rejalarining birlamchi tizimi davlat

<sup>15</sup> Нечаев А.С. Проблема инвестиционного налогового кредита в России и возможный вариант ее решения // Проблемы современной экономики. 2004. № 4. с. 112.

byudjeti orqali ta'minlanadi va davlatning asosiy moliyaviy rejasi deyiladi. Byudjetni rejalashtirish deb ma'lum bir rejali vaqt ichida moliyaviy resurslarning miqdori, umum davlat maqsadlarini amalga oshirish uchun davlat byudjetiga kelib tushishini va sarflanishi aniqlangan jarayonga aytildi,

Bir vaqt ichida davlat byudjet siyosati o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq byudjet tizimini ayrim bo'g'indan orasida taqsimlash va qayta taqsimlash ko'satkichlarini ifodalovchi yo'llarini aks ettiradi.

Har bir byudjet xarajatlar tarkibi ayrim davlat mahalliy hokimiyyat organlari orasida davlat funksiyalari orqali taqsimlashga bog'liq bo'ladi, masalan: daromadlarning tarkibi va hajmi davlat soliqlar tizimi va soliqlar siyosatiga xos xususiyatlar, hamda byudjetni tartibga solish tiziminining xususiyatlari. Xalq xo'jalik tizimida va rejalarni moliyalashtirishda asosiy o'rinni davlat orqali jamlangan moliyaviy balans - davlat byudjeti egallaydi. Unda bir-biri bilan moliyaviy-arxiviy hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning mahsulotlari shaklida jamlanishi uchun balansli usul zarur bo'lgan hisobotlar orqali rejani real va balansi ekanligini tekshirib chiqishni ta'minlashi mumkin bo'ladi, shuningdek, xalq xo'jaligini rivojlanishiga kerakli umumiqtisodiy proporsiyalariga rioya qilishni, davlat byudjeti, tarmoqlar moliyaviy rejalarini, banklarni kredit va kassa rejalarini va umuman moliyaviy rejalar tizimini balans shartlari bilan ta'minlanadi. Ijtimoiy sohalarning ko'pligi, hozirgi zamon o'zgarishlarining anchasi me'yor bo'lib qolgan va shundan kelib chiqqan holda raxbarlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib faoliyatlarini muvaffaqiyatiga ta'sirini va o'zgarishlarni bartaraf qilishdir. Bunday o'zgarishlarga siyosiy o'zgarish, pui qiymatining o'zgarishi, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar kirishi mumkin.

Oxirgi yillarda bu o'zgarishlarni tezligi o'sib bormoqda va ular keskin hamda kutilmagan bo'lib qolmoqda. Omillarning o'zgarishini aniqllovchi ro'yxat yetarli darajada bo'lib, har xil sharoitda o'zgarib borishi mumkinligi uchun u bilan foydalinishga yagona ishlash usuli bo'lishi mumkin emas. Har bir korxona faoliyatini iqtisodiy ahvolini har

tomonlama tahlil qilib, afzalliklari va kamchiliklarini namoyon etishi hamda sharoitini tushunishi uchun imkon qadar ko'p izlanish ishlarini olib borish shart. Tahlil natijasida o'zgarishlarning tuzilishini aniqlab va zarur bo'lsa ularga ta'sir etish mumkin bo'ladi. Bu ishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri korxona moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar yuzasidan hisobot ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi.

### **10.3. Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari va usullari**

Moliyaviy rejalashtirishning obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanishi lozim:

- moliyaviy resurslarning samarali harakati;
- moliyaviy resurslarni shakkantirish, taqsimlash va foydalanishda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlар va ularni oqilona boshqarish;
- moliyaviy resurslarni taqsimlash natijasidagi moliyaviy munosabatlarga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish.

Rejalashtirishni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozim:

- istiqbolni belgilash, moliyaviy rejalashtirish rejalashtirilayotgan obyekt va jarayonlarni haqiqiy mavjudligi bilan bog'langan bo'lishi shart. Moliyaviy rejalashtirishda istiqbolda erishilishi mumkin va haqiqatga yaqin rejalarни kiritish ham tavsiya etiladi;

- proqnozlashtirish. Proqnozlashtirish asosiy omillar tizimli tahlilida korxonaning ichki va tashqi, iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarida ko'rinishi;

- moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash. Moliyaviy rejalashtirish moliyaviy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq moliyaviy risklarni hisobga olishi lozim;

- optimallashtirish. Moliyaviy rejalashtirish ushu tamoyili orqali moliyaviy resurslar muqobil foydalanishni chegaralash nuqtai nazaridan kerakli va eng yaxshi tanlovni ta'minlashi lozim bo'ladi;

- tekshirish va integratsiya. Moliyaviy rejalashtirishda korxona faoliyatining turli sohalarida integratsiya jarayonlarini hisobga olishni taqozo qiladi;
- tartibga solish. Moliyaviy rejalashtirish yordamida korxonaning barcha ishchilar harakati yagona tartibga keltiriladi;
- nazorat. Moliyaviy rejalashtirish ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini, korxona barcha bo'limlarining ish faoliyatini tahlilini nazorat qilishning samarali tizimini amalga oshirishni taqozo qiladi.
- hujjatlashtirish. Moliyaviy rejalashtirish korxona faoliyatining moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini hujjatli taqdim qilishni ta'minlaydi.

Zamonaviy moliyaviy munosabatlarda korxonalar moliyasida moliyaviy rejalashtirishni korxona moliyaviy xizmati xodimlari amalga oshiradi. Korxona moliyaviy xizmati xodimlari tarkibi moliyaviy menejer, bosh hisobchi, xazinabon, moliyaviy nazoratchi, soliqlarni rejalashtiruvchi va boshqalardan iborat bo'ladi.

**Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:**

- normal takror ishlab chiqarish jarayonininining zaruriy moliyalashtirish manbalarini ta'minlash. Bunda maqsadli moliyaviy manbalarga ega bo'lish, ularni shakllantirish va foydalanish ahamiyatlidir.
- aksionerlar va boshqa investorlar qiziqishini o'rganish. Biznes-reja investitsion loyihalarni to'liq moliyaviy asosnomasini o'z ichiga olib, investorlar uchun kapital jalb qilishni ta'minlovchi asosiy hujjat bo'lib, korxonaning byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar, banklar va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini kafolatlashdir. Ushbu korxona uchun eng maqbuli kapital tuzilmasining maksimal foya keltirishidir va bunda ko'rsatkichlarning bajarilishi byudjet to'lovlarini maksimallashtirish;
- turli maqsadli fondlar shakllantirish va ularni samarali taqsimlash va foydalanish;

– korxonaning moliyaviy holati, to‘lovga layoqatiligi uchun so‘mni nazorat qilish.

Moliya sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning sifati tamomila moliyaviy rejalashtirish sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Moliyaviy rejalashtirish sifatida asosiy diqqatni qaratishdan oldin biz ushbu o‘rganilayotgan masalaga oydinlik kiritishimiz lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa rejalashtirish va bashoratlashdir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmini faqat bashoratlash mumkin. Reja qat’iylik xususiyati bilan bashoratlashdan ajralib turadi, ya’ni u belgilangan natijani mutlaq ta’milanganligini aks ettiradi. Misol uchun realizatsiya 100,0 mln so‘m deb rejalashtirildi, u ta’milansa reja o‘z kuchiga bo‘ladi, agar ushbu 100,0 mln so‘mni ta’milash taxmin qilinsa, unda bashoratlash (prognoz) tushunchasi yuzaga keladi va u har bir korxona doirasida amal qiladi. Shu bois biz quyida keng ma’noda reja so‘ziga urg‘u bergen holda oldimizga qo‘yilgan masalani oydinlashtirishga harakat etsakda, uni vaqt va faoliyat yuritish jarayonlaridan kelib chiqib bashoratlashni nazarda tutish mumkin.

**Moliyaviy rejalashtirish sifatlari bo‘lishi quyidagi prinsiplarning amal qilishiga bog‘liq:**

– rejalashtirishning uzlucksizligiga;

– ilmiy asoslanganligiga;

– maqsadlilik (maksimal foydaga erishishda korxona moliyaviy resurslarini ratsional foydalanish);

– o‘zaro bog‘liqlik va muvofiqlik.

Moliyaviy rejalashtirish bir nechta uslublarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shularidan asosiyları bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

• ekstrapolyatsiya usuli;

• normativ (me’yoriy) usul;

• matematik modellashtirish usuli.

Ekstrapolyatsiya usulining mohiyati shundaki, o’tgan hisobot davrining moliyaviy natijalaridan xulosa chiqarib kelgusi hisobot yili

uchun moliyaviy rejani tuzishni ko'zda tutadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning proqnoz va rejali hisob kitoblari turli usullardan foydalanishga asoslanadi. Ekstrapolyatsiya usuli moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning dinamik o'zgarishlariga asoslanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar hisobot yilidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, o'tgan yili daromadlar tushumi 2.000 mlrd so'mni tashkil qilgan, rejada esa 1.900 mlrd so'm edi. Kelgusi yili reja 1.950 mlrd so'm qilib belgilanishi zarur. Bu ekstrapolyatsiya usulining ijobjiy ko'rsatkichidir. Mazkur usulning salbiy ko'rsatkichi vujudga kelganda quyidagi ko'rinish vujudga kelishi zarur.

O'tgan moliya yili davrida reja bo'yicha 1990 mlrd. so'm, tasdiqlangan. Biroq, haqiqatda, 1800 mlrd. so'm daromad mablag'lari shaklandi. Bunday holatda kelgusi yilgi moliya rejasi daromadlar bo'yicha 1850 mlrd so'mni tashkil qilishi lozim.

Normativ (me'yoriy) usulda, belgilangan norma (me'yor) va normativ (me'yor)lardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan: unli mahsulotlarni 1 kunda aylanish tezligi, omborda qancha un mahsulotlari saqlanishi lozim va h.k.

Matematik modellashtirish usulida, real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni takrorlovchi moliyaviy modellar tuzish orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarni manbalarini ulardan foydalanish bilan muvofiqlashtirish asosidagi rejalashtirish jarayoni balans usuli hisoblanadi. Balans usulida, moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari va ulardan foydalanishdagi bog'liqdik hamda tenglikni ta'minlash o'z ifodasini topadi.

Rejalashtirishni tashkil etish korxonaning katta kichikligiga bog'liq. Kichik korxonalarda boshqaruv funksiyalarida bo'limlar bo'Imaganligi sababli, rahbariyatning o'zi hamma masalalar bo'yicha yechim qabul qiladi. Yirik korxonalarda esa ish rejani tuzish markazlashtirilmagan tartibda bo'lishi zarur. Chunki xuddi ana shu ichki bo'limlar darajasida mutaxassislar yig'ilgan bo'lib, ularning har biri o'z ishlab chiqarish

sohalari bo'yicha operativ boshqarish, realizatsiya, xomashyo sotib olish bo'yicha ma'lakaga egalar. Shu sababli ichki bo'limlarda korxona faoliyatiga bog'liq takliflar oldinga suriladi va kelajakda ularni hisobga olish, ijobiy natija beradi.

Rejadagi ichki bo'limlarni ishlab chiqarishda ularni bir biridan ajratmagan holda amalga oshirish zarur. Masalan, realizatsiya ko'rsatkichlarining rejasini belgilashda, korxona qoplash miqdorini amalga oshirish bilan rejalashtirilayotgan chiqish narhlari va ishlab chiqarish sharoitlarini bilishi zarur.

Chunki koordinatsiya tizimini taktik va strategik harakatini ta'minlash kerak bo'ladi, ko'pgina korxonalarda reja tuzish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqilgan, u o'z ichiga qisqa rejani oladi (ko'p holda u taktik reja ham deb ataladi), bu reja ko'rsatkichlari hisob-kitobi bo'yicha hamma majburiyat va javobgartliklar xodimlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi.

Korxonadagi rejalashtirish haqidagi ko'pgina adabiyotlarda odatda reja tuzish ishlarini tashkil etish bo'yicha 2ta sxema ajratib ko'rsatiladi: break-down (tepadan pastga) usuli va build-up (pastdan yuqoriga) usullari bo'yicha. Break-down metodi bo'yicha rejalar tuzish ishlari "yuqoridan" boshlanadi, ya'ni, korxona rahbariyati maqsad va vazifalarni aniqlaydi, qisman foyda bo'yicha reja ko'rsatkichlarini ham. Keyin ushbu ko'rsatkichlar maqsadli tartibda maydalashtirilgan (detallashtirilgan, ya'ni korxona boshqaruvi strukturasining pastroq darajalariga tushish bilan) shaklda ichki bo'lim rejalariga kiritib boriladi. Build-up usuli bo'yicha umuman teskaridan ish ko'rildi. Masalan, realizatsiya ko'rsatkichlari hisob-kitobi aloxida sotish bo'limlaridan boshlanadi va keyin esa korxona realizatsiya bo'limi boshliqlari ushbu ko'rsatkichlarni yagona reja bilan solishtiradi, qaysiki keyinchalik korxonaning umumiy rejasiga tarkibiy qism bo'lib kiritiladi.

Ushbu break-down va build-up usullari 2 qarama-qarshi tendensiyalarni aks ettiradi. Amaliyotda ularning faqatgina bittasidan foydalanish unchalik to'g'ri emas. Rejani tuzish va uni rejalashtirish

joriy jarayon hisoblanib, unda doimo turli bo'limlar rejalarining muvofiqlashtirilishi (koordinatsiyasi) amalga oshirilib boriladi.

Daromad va xarajatlar rejasining vazifasi – korxona foydasining o'zgarishi va qanday shakllanishini ko'rsatishdir. Uni tuzishning asosida mahsulot realizatsiyasi hajmini baholash yotadi.

Yangi loyiha uchun pul mablag'lari oqimining bashoratlari (prognozlari), foydani bashoratlashdan (prognozlashdan) muhimroqdir, chunki unda diqqat detallik bilan (maydalashtirilgan holda) pul mablag'larining kirimi va chiqimini maksimal bo'lish vaqtini va miqdorini qarab chiqish zarurdir. Odatiy foydaning darajasi loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yilda, asosiy hisoblanmaydi. Chunki boshlang'ich yillarda daromadlar xarajatlardan ortmaydi. U yoki bu muddatda sotish darajasi va kapital xarajatlarni rejalashtirishni o'tkazishda, bashorat (prognoz) qo'shimcha moliyalashtirishning vaqtini va zarurligini va ishchi kapitalga bo'lgan talabni aniqlashni talab etadi. Bunda korxona ma'muriyati, ushbu qo'shimcha moliyalashtirishning qancha muddatga olinishini va ushbu mablag'larning qaytarilishini qanday amalga oshirishni yechishi zatur bo'лади.

#### 10.4. Korxonalarda byudjetlashtirishning maqsadi va vazifalari

Moliyaviy faoliyatni tezkor rejalashtirish tizimi korxona faoliyatini moliyaviy ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli reja (bashoratlash) vazifalarini kompleks ishlab chiqishdan iborat. Bunday moliya-reja (bashorat) vazifalarining asosiy shakli korxona byudjeti hisoblanadi.

Byudjet o'z-o'zidan qisqa muddatli davrda tezkor moliyaviy rejani (bashoratni) bir yilgacha bo'lgan davrda (qoida bo'yicha, chorak yoki oylik davr doirasida), korxona faoliyatining aniq shakllarining harakati jarayonida moliyaviy mablag'larning tushumini va xarajatlarini aks ettiradi.

U joriy moliyaviy reja (bashorat) ko'rsatkichlarining har bir bo'limi bo'yicha va javobgarlik markazlarining barcha shakllarida yetkazib beruvchi bosh reja (bashorat) hujjati hisoblanadi.

Rejali (bashoratli) byudjetni ishlab chiqish ikki asosiy vazifani yechishga qaratilgan:

- korxonaning bo'limlari va alohida birlidagi faoliyati bilan bog'liq xarajatlarning tarkibi va hajmini aniqlash;

- bu xarajatlarni moliyaviy resurslar bilan qoplashni turli manbalardan ta'minlash.

#### 10.1-jadval

##### Joriy byudjetining taxminiy rejasি

Ko'rsatkichlar	Chorak bo'yicha jami	Shu jumladan, oylar bo'yicha		
		Yanvar	Fevral	Mart
I. Joriy xarajatlar				
1. Material xarajatlar (xarajatlarning alohida muddalari bo'yicha)				
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi				
3. Mehnat haqi bo'yicha xarajatlar				
4. Mehnatga haq to'lash fondidan ajratmalar				
5. Soliq to'lovlar				
6. Boshqa bevosita xarajatlar				
7. Joriy ustama xarajatlar				
Jami joriy xarajatlar				
II. Operatsion faoliyatdan daromadlar				
1. Mahsulotlarni sotishdan tushgan daromadlar				
2. Boshqa operatsion faoliyatdan tushgan daromadlar				
Jami operatsion daromadlar				

III. Mahsulot bahosiga kiruvchi soliqlar (QQS, aksiz va boshqalar)				
IV. Sof daromad (II-III)				
V. Yalpi operatsion foyda (IV-I)				
VI. Foydadan to‘lanadagina soliq to‘lovi va yig‘imlari				
VII. Sof operatsion foyda (V-VI)				

Tezkor moliyaviy rejalashtirish (bashoratlash) jarayonida byudjetlarni guruhlashtirish qator xususiyatli belgilarga ko‘ra qo‘llaniladi.

Korxona faoliyatining sohalariga ko‘ra, byudjetlar operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo‘yicha ajratiladi. Bu byudjetlar joriy moliyaviy rejaning (bashoratning) tarkibini ishlab chiqish tartiblarini choraklar yoki oylar bo‘yicha detallashtirib aks ettiradi.

Joriy byudjet korxonaning daromad va xarajatlarining rejasini (bashoratni) aniqlashtiradi. U ikki bo‘limdan iborat: 1) joriy xarajatlar; 2) operatsion faoliyatdan olingan joriy daromadlar. Joriy byudjetning taxminiy shakli quyidagi jadvalda keltirilgan.

Kapital byudjet – aniq ijrochilarga kapital qo‘yilmalarning joriy rejasini (bashoratni) yetkazib berish shaklidir. U ikki bo‘limdan iborat. Kapital byudjetning taxminiy shakli quyidagi jadvalda keltirilgan.

## 10.2-jadval

### Kapital byudjetning taxminiy rejasি

Ko‘rsatkichlar	Chorak bo‘yicha jami	Shu jumladan, oylar bo‘yicha		
		Yanvar	Fevral	Mart
Kapital xarajatlar				
1. Bino va inshootlar sotib olish yoki qurish				
2. Mashina va mexanizmlar sotib olish				
3. Asbob-uskunalar sotib olish (inventar va xo‘jalik jihozlaridan tashqari)				

4. Nomoddiy aktivlarni sotib olish				
5. Boshqa turdag'i kapital xarajatlar				
6. Investitsion faoliyat bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar				
7. Kapital xarajatlarning zaxirasi				/
Jami xarajatlar				
Mablag'lar tushumining manbalari				
1. Investorning kapital xarajatlarni moliyalashga yo'naltirilgan o'z mablag'lari				
2. Aksiyadorlar (paychilar)ning pay badallari				
3. Moliyaviy lizing				
4. Obligatsiya emissiyasi				
5. Bank kreditlari				
6. Moliyaviy resurslarni jalb etishning boshqa manbalari				
Jami mablag'larning tushumi				
Mablag'larning tushumi va xarajatlarning qolig'i				

“Byudjet” atamasi keng ma’noda, davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida hukumat ixtiyorida markazlashgan pul fondlarining, korxonalar ixtiyorida esa markazlashmagan pul fondlarining shakllanishi va ulardan oqilona foydalanishni anglatadi.

Tor ma’noda esa, “byudjetlashtirish” atamasi<sup>16</sup> hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroficha yoritilmagan, chunki korxonaning

<sup>16</sup> Зайналов Д.Р. Планирование и прогнозирование финансового положения предпринимательской деятельности региона // Иктисолидтий эркинлаштириш ва модернизация килиш шаронтида ракобатбардошликтининг назарий ва методологик муаммолари халқаро илмий-амалий конференция маълумотлари. – Сам.: СамИСИ, 2005

doimiy asosda qo'yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznes-rejalashtirish bilan cheklangan edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruvi hisobida rejalashtirish (bashoratlash) jarayonini ta'riflash uchun "byudjetlashtirish" (bashoratlash) atamasidan keng foydalaniladi.

**Byudjetlashtirish** korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish (bashoratlash) hisoblanadi.

Byudjetlashtirishning afzalligi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish (bashoratlash), raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Byudjetlashtirishda asosiy e'tibor mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olimadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Byudjetlashtirishning quyidagi ijobiylari jihatlari mavjud:

- korxonaning asosiy maqsadini ta'minlashda xizmat qiladigan jarayoniarni rejalashtiradi (bashoratlashtiradi);
- alohida bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- korxona bo'linmalari rahbarlarini o'z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga ko'maklashadi;
- korxona xodimlarini ichki tartib-qoidalalarga rioxay qilishlarini ta'minlashga xizmat qiladi;
- korxona alohida bo'linmalari rahbarlarini belgilangan reja (bashorat)larning bajarilish darajasini baholashlarida asos bo'лади.

Byudjetlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- korxonaning maqsadlariga erishishishni ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish (bashoratlash);

- barcha darajadagi rahbarlarni o'zları javobgar markazlar (bo'limlari) maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;
  - turli xil bo'lmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo'lmalar xodimlarining manfaatlari e'tiborga olinadi;
  - korxona joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta'minlash;
  - javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo'yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o'tash;
  - menejerlar malakasini oshirishda ko'maklashish.
- Quyida ushbu vazifalarga batatsil to'xtalib o'tish muhimdir.

**Rejaliashtirish.** Ko'pchilik hollarda, boshqaruq qarorlari bo'yicha rejalar ishlab chiqarish dasturini tayyorlash jarayonida shakllantiriladi va byudjetlarni tuzishda uni mazmuni aniqlashtiriladi.

**Muvofiqlashtirish.** Korxonaning har bir javobgarlik markazi (bo'limi) boshqa javobgarlik markazlari ish jarayoniga ta'sir etadi va ularning faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Byudjetlarni tayyorlashda alohida faoliyat turlari o'zaro muvofiqlashtiriladi, bunda barcha bo'lmalar kelishuv asosida, korxona umumiy maqsadidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatadi. Bu holatda ishlab chiqarish rejasini marketing bo'limi rejası bilan muvofiqlashtirish, jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini rejaliashtirilgan sotish hajmi va tayyor mahsulotlar qoldig'i bilan taqqoslash asosiy talablardan hisoblanadi. Xomashyo va materiallarni sotib olishni rejaliashtirishda (bashoratlashda) ishlab chiqarish byudjetida ifodalangan mahsulot ishlab chiqarishga bo'lган talab tahlil qilinadi.

Ishlab chiqilgan rejalar (bashoratlar) barcha qatnashchilar ularning shartlari bilan to'liq tanishib olmaguncha amalga oshirilmasligi lozim.

- Rejalar (bashoratlar) quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:
- qancha mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqariladi;
  - ishlab chiqarishda qatnashadigan xodimlar, foydalaniadigan usullar va asbob-uskunalar to'g'risida ma'lumotlar;
  - qancha xomashyo va materiallarni sotib olinadi;

– sotish bahosi qanday belgilanadi, kelgusida qanday cheklov larga rivoja qilinadi va h.k.

Ushbu ma'lumotlar reklama, texnik xizmat ko'rsatish, ma'muriy va mehnatga haq to'lash xarajatlarini rejalashtirish (bashoratlashtirish) hamda mahsulot sifatini samarali boshqarishga imkon beradi.

**Rag'batlantirish.** Byudjetlarni tuzish jarayoni javobgarlik markazlari (bo'limlari) rahbarlari maqsadini amalga oshirishda muhim rag'batlantirish vositasi bo'lishi mumkin.

Byudjetlarning rag'batlantirish roli ko'proq menejerlarni o'z bo'linmalarida byudjetlarni tuzish jarayonida faol qatnashishlarida namoyon bo'ladi.

**Nazorat.** Puxta tayyorlangan byudjetlar haqiqiy erishilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi, shuningdek, ular byudjetlarni tuzish jarayonida kutilgan barcha o'zgarishlar natijalarini baholashni o'z ichiga oladi.

Hozirgacha korxonalar amaliyotida joriy natijalar o'tgan yil natijalari bilan taqqoslanib kelingan. Ko'pgina korxonalar ayni paytda ham taqqoslashning asosiy vositasi sifatida ushbu usuldan foydalanmoqda. Ammo, bu tarixiy usul joriy yil uchun rejalashtirilgan (bashoratlashtirilgan) rivojlantirish dasturidagi o'zgarishlarni aks ettirmaydi.

Haqiqiy ko'rsatkichlarni byudjet ma'lumotlari bilan taqqoslash boshqaruva faoliyatida asosiy e'tiborni qaysi jihatlarga qaratish zarurligini belgilab beradi.

Haqiqiy erishilgan natijalar bilan byudjet ma'lumotlari o'rtasidagi chetlanishlar tahlili quyidagi afzalliklarga ega:

– korxona faoliyatidagi eng avval hal qilinishi lozim bo'lgan muammoli jihatlarni aniqlashga ko'maklashadi;

– byudjetlarni tuzish jarayonida o'rganilmagan yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga yordamlashadi;

– bosh byudjetdag'i mayjud nomuvofiqliklarni ochib beradi.

**Baholash.** Har oyda byudjetlardagi chetlanishlarni aniqlash butun hisobot davri uchun nazorat maqsadlariga xizmat qiladi. Hisobot davri haqiqiy natijalari bilan byudjet ma'lumotlarini taqqoslash yil oxirida javobgarlik markazlari va ular rahbarlari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni baholash imkonini beradi.

**Malakani oshirish.** Byudjetlar menejerlarning malakasini oshirishda ham ijobjiy samara beradi ya'ni menejerlar byudjetlarni tuzishda o'z bo'limmalarini faoliyati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarga, shuningdek, javobgarlik markazlari o'rtaisdagi iqtisodiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bu esa korxona javobgar bo'lgan markazlariga mas'ul shaxslarni tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Byudjetlashtirish samarali boshqaruv usullaridan hisoblanib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- korxonaning faoliyati bilan bo'limmalar faoliyatini kompleks rejalashtiradi (bashoratlashtiradi);
- byudjetlashtirish loyihasini ishlab chiqish imkonini yaratadi;
- tuzilgan biznes-rejani (bashoratni) tasdiqlaydi;
- o'zgarib turuvchi ichki va tashqi salbiy omillarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar kelgusida daromadlarini oshirishlari uchun o'zlarining faoliyatlarini istiqbolli rejalashtirishlari (bashoratlashlari) zarur bo'ladi. Uning asosini byudjetlashtirish tashkil etadi.

Boshqaruv hisobining asosiy vazifasi hisoblangan va boshqaruv nazoratini ta'minlashda muhim bo'lgan rejalashtirish (bashoratlash) jarayoni quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- korxona tomonidan ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirish uchun o'rta va uzoq muddatli rejalarни amalga oshirish uchun maxsus dasturlar tuzish;

– zarur byudjet (smeta)larni ishlab chiqish. Byudjetlarni ishlab chiqish zarurati korxona tuzadigan rejalar asosli bo'lishi va ularni amalga oshirish yetarli moddiy mablag'lar mavjud bo'lishi belgilanadi.

Odatda, rejalashtirish (bashoratlash) jarayoni amal qilish vaqtiga munofiq uzoq, o'rta va qisqa muddatli, qo'yilgan maqsadga ko'ra esa operativ, taktik va strategik rejalashtirishga bo'linadi.

**Tezkor yoki qisqa muddatli rejalashtirish** (bashoratlash)<sup>17</sup> tizimi kun, hafsta, dekada, oy, chorak yoki bir yil davomida amalga oshiriladi. Bu rejalar bosh dastur asosida ishlab chiqilib, aniq maqsad va yo'nalishga ega bo'ladi, ularni bajarishda turli xil usullar qo'llaniladi. Tezkor rejalar korxona asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan taktik rejalarini ifoda etadi. Ular jumlasiga ishlab chiqarish rejasi, umumishlab chiqarish xarajatlari rejasi, moddiy texnika ta'minoti rejasi kabi lar kiradi.

**Taktik yoki o'rta muddatli rejalashtirish** 3-5 yil muddatni qamrab olib, korxonaning uzoq muddatli maqsadlarga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish yordamida amalga oshiriladi. Mazkur rejalashtirishda korxona maqsadining resurslar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi va turli xil moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosibliklar aniqlanadi.

**Strategik yoki uzoq muddatli rejalashtirishda** korxonaning 5-10 yil muddatga belgilangan rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bu konsepsiya korxonani bozorda barqaror holatini saqlash va o'z segmentiga ega bo'lish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, to'lov qobiliyatini yaxshilash, foydani eng yuqori darajaga olib chiqish va rentabellikni oshirish kabi strategik maqsadlariga erishishini ta'minlaydi. Strategik rejalar biznesni va tashkiliy tuzilmani belgilash, aniqlab olish bo'yicha tuziladigan bosh rejalar hisoblanib, alohida ehtiyoj bo'lmasa qayta tuzilmaydi. Ularga yangi texnologiyalarni joriy

<sup>17</sup> Keyinchalik rejalashtirish

etish, yangi bozorlarni o'rganish va xaridorlarni jalb qilish kabilarni kiritish mumkin.

Uzoq va o'rta muddatli rejalar korxona strategiyasini, qisqa muddatli rejalar esa taktikasini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Biznes-rejalar shartnoma amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- biznes-rejalar shartnoma uzuksizligi;
- qo'yilgan maqsadga erishish yo'llaridan eng maqbulini tanlashga imkon beruvchi ko'p variantlilik;
- korxona xodimlarini rejalar shartnoma to'liq jalb etilishida ishtirok etishlilik.

**Biznes-reja** nazarda tutilgan biznesning qisqa va tushunarligini, belgilab olingan asosiy vazifalarning to'g'ri yechimlarini topishga imkon beruvchi muhim quroldir.

Biznes-reja quyidagi tuzilmaga ega:

1. Biznes konsepsiyasি.
2. Hozirgi vaqtidagi vaziyat va korxona haqidagi qisqacha axborot.
3. Biznes obyekti tavsifi.
4. Bozorni taktik tahtil etishning mavjudligi.
5. Tashkiliy reja, shu jumladan huquqiy ta'minot.
6. Xodimlar faoliyatni va boshqaruv.
7. Ishlab chiqarish rejasи.
8. Marketing rejasи.
9. Yirik tavakkalchilik va xavf-xatarlar.
10. Moliyaviy reja va moliyaviy strategiya.

Biznes-reja ko'zda tutilgan biznesni asoslash va muayyan vaqt mobaynidagi natijalarni baholash uchun mo'ljallanadi.

Biznes-reja faoliyat yo'naliishini belgilab olishga va biznes boshqarishga imkon beruvchi harakat hisoblanadi. Shu sababli, uni ichki xo'jalikni rejalar shartnoma uzviy qismi yoki ijro va nazorat uchun amaliy qo'llanma sifatida e'tirof etish mumkin.

Korxonalarda biznes-reja investitsiyalarni yuqori daromad keltiradigan sohalarga yo'naltirishda ijobiy samara beradi. Shu jihatdan u investorlar uchun biznesni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Biznes-reja nazarda tutilgan biznes muvaffaqiyatini kafolatlashi va korxonaning tavakkalchilikka tayyorligini ta'minlashi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, biznes rejalashtirish - bu mahorat va san'atni talab qiluvchi jiddiy jarayondir.

Biznes rejalashtirishni jarayon sifatida amalga oshirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish lozim:

- korxona faoliyat ko'rsatayotgan muhitdagi o'zgarishlarga doimiy moslashuvchanlik;
- rejalashtirishning moslashuvchanlik xususiyatlarini nazarda tutuvchi uzlusizlik;
- manfaatlar muvofiqligi va integratsiyasiga asoslangan aloqadorlik;
- biznes-rejaning avval tuzilgan bo'limlarini umumlashtirish asosidagi takrorlanuvchanlik;
- qo'yilgan maqsadga erishishning muqobil imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlab olishga imkon beradigan ko'p variantlilik;
- korxona barcha xodimlarini rejalashtirishga jalb etish nuqtai-nazardan jarayonni muhimligini nazarda tutuvchi ishtiroy etish tamoyili;
- rejalashtirish jarayonida real muammojar va o'z-o'ziga baho berishni aks ettirishning aynan bir xilligi.

Biznes-rejalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari mavjud:

- o'zaro bog'liqlik munosabatlari bo'yicha: bunda ikkita mustaqil biznes-reja qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi va ulardan muqobil hamda yuqori daromad keltiradigani tanlab olinadi;
- kutilayotgan daromad bo'yicha: xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va texnologiyalarni yangilash hisobiga qo'shimcha daromad olish, bozorda munosib o'ringa ega bo'lish,

biznesning yangi sohalarini o'zlashtirish, ijtimoiy samara va sifatga erishish;

- tashkiliy ishlari bo'yicha: aniq maqsadni belgilash, bozorni tadqiq etish va yuqori imkoniyatga ega loyihamda asosida rivojlanish yo'naliishlarini ishlab chiqish.

Ta'kidlash lozimki, texnik-iqtisodiy asoslanish (TIA) ham ko'p jihatdan biznes-rejaga yaqin turadi. Undan biznes-rejaning asosiy farqi strategik yo'naliishi va tadbirkorlik xususiyatida hamda korxona ichki imkoniyatlarini tashqi muhit ta'siridagi ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyatning bozor xususiyatlari bilan o'zaro birikuvida namoyon bo'ladi.

Amaliyotda ko'pgina hollarda biznes rejalashtirish asossiz ravishda ichki xo'jalik rejalashtirilishi bilan bir xil deb qaraladi. Ammo, ular orasida quyidagi tafovutlar mavjud:

– ichki xo'jalik rejalashtirishidan farqli o'laroq, biznes-rejalashtirish korxona umumiy maqsadini emas, balki faoliyatning yangi turini rejalashtirish yoki biznes-rejaning mazmunini aniqlovchi eng muhim vazifalarni qamrab oladi. Biznes-reja, asosan, korxona rivojlanish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga mo'ljallanadi, ichki xo'jalikni rejalashtirish esa yuqoridagilardan tashqari joriy va istiqbolli faoliyatning xilma-xilligini ham o'z ichiga oladi;

– biznes-reja, odatda, bajarilishi muayyan muddatlar bilan belgilangan innovatsion loyihalarga ishlab chiqiladi, bu muddatlar tugashi bilan loyiha ustidagi olib borilayotgan ish tugallanadi. Ichki xo'jalik rejalashtirishi korxonani boshqarishning barcha davrlarida uzlucksiz amalga oshiriladi. Bunda davriy va yillik rejani bajarish mobaynida tegishli tuzatishlar kiritilgandan keyin navbatdag'i rejani amalga oshirishga o'tiladi va h.k. Biznes-reja nafaqat aniq, balki yanada torroq chegaralarga ega, har qanday ichki faoliyat rejasi esa bunday aniq chekllov larga ega bo'lmaydi;

– biznes-reja tadbirkorlarni yangi faoliyatni boshlashi va mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur resurslar, avvalambor moliyaviy resurslarga

ega bo'lish, shuningdek, ishonchli sheriklar qidirib topish, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni puxta tahlil qilishni talab etadi, bunda nafaqat ichki xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyat, balki kredit, moliyaviy va bank tizimlarida tavakkalning mavjud darajasi hisobga olinadi. Ichki xo'jalik rejalari ko'proq xususiy ravishda foydalanish uchun biznes-rejalar esa investorlar va kreditlar olish uchun zarur bo'lishi mumkin;

– biznes-rejalar korxona rahbariyati ishtirokida ishlab chiqiladi. Ichki xo'jalik rejalashtirishini amalga oshirish bilan esa korxonaning tajribali menejerlari va bo'lmalar mutaxassislari shug'ullanadilar.

Ichki xo'jalik rejasini ishlab chiqishda har bir tadbirdorning shaxsan ishtiroki nafaqat real strategik va tezkor maqsadni ishlab chiqishga imkon tug'diradi, balki kelajakda xarajatlar va daromadlarni solishtirish asosida biznes-loyihani bajarishning eng mukammal shaklini tashkil etishni ham ta'minlaydi.

#### **10.5. Korxona moliyasini boshqarishda operativ moliyaviy rejalashtirish tasnifi va mazmuni**

Korxonalarda moliyaviy rejalar 5 yilga, bir yilga yoki chorak uchun tuziladi. Shunga mos holda rejalar istiqbolli (strategik shu jumladan 5 yillik), joriy va operativ bo'ladi. Istiqbolli moliyaviy reja rivojlangan ishlab chiqarishning sur'ati va nisbati kabi muhim ko'rsatkichlarini belgilaydi. Besh yillik reja korxonani rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish shaklini, investitsiya strategiyasini va ko'zda tutilgan jamg'armani belgilaydi. Istiqbolli moliyaviy reja, odatda, korxonaning tijorat siri hisoblanadi.

Joriy moliyaviy reja korxonaning daromad va xarajatlarining yillik balansini, pul mablag'lari fondlarining tashkil etilishi va sarflanishi smetalarini; ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar fondlarini (jamg'arma fondlari); ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan mablag'lar fondlarini; rezerv va boshqa fondlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Operativ moliyaviy rejalashtirish to'lov kalendarlarini tuzish va undan foydalanish haqidagi, ya'ni korxonaning pul aylanmasini o'zida aks ettiruvchi batafsil moliyaviy xujjatlarni o'zida jamlaydi.

Choraklik to'lov kalendarlar o'zaro taqqoslanib, korxona faoliyatidagi muammolar va tendensiyalar aniqlanadi. Tahlil natijalariga qarab, navbatdag'i joriy moliyaviy reja ishlab chiqiladi.

Bunga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin (10.3-jadvalga qaralsin):

10.3-jadval

	Ko'rsatkichlar nomi	Summa, pul birligida
Daromadlar va mablag' kirimi		
1	Mahsulot, tovar, ish va xizmat realizatsiyasidan olinadigan daromadlar	38600
2	Moddiy zaxiralar va nomoddiy aktivlarni qo'shgan holda boshqa aktivlarni sotishdan tushgan foyda	2300
3	Boshqa asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi va sotilishdan tushgan foyda	7800
4	Boshqa korxonalardagi sheriklik faoliyatidan foyda	2400
5	Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan tushadigan foyda	800
6	Aukcionlarda valyuta sotish (xarid qilish)dan, valyuta kurslari farqidan olinadigan foyda	600
7	Amortizatsiya ajratmalari	9420
8	Bankning uzoq muddatli ssudalari	2700
9	Lizing bo'yicha mulk qiymatidan ortiq bo'lgan ijara to'lovi	300
10	Aylanma mablag'lar o'sishiga ssudalar	1480
1.	Boshqa daromadlar va mablag'lar kirimi	500
Jami daromadlar va kirimlar		71400

Korxonaning moliyaviy rejasini tekshiruv jadvali tuziladi. Bizning misolimizda, korxona daromadi yil uchun 51900 pul birligi miqdorida

rejalashtiriladi (15 bandlar yig'indisi). Uning asosiy qismini mahsulot, tovar sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatishdan tushgan foyda (74,3 %) tashkil qiladi. Daromadning bir qismi (15 %) asosiy vositalarning sotilishi orqali olinadi. Korxona qo'shma korxonaning ta'sischisi bo'lgani boisidan, tushum rejasini bo'yicha 4,6 %ni tashkil etuvchi, ustav kapitalidagi sheriklik hissasidan foyda ko'radi. Nomoddiy aktivlarning sotilishi evaziga umumi daromadning 4,4 %i miqdorida foyda ko'rish rejalashtirilgan. Daromadning qolgan 2,7 %i aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hisobiga olinishi ko'zda tutiladi. Auksionda valyuta sotishdan olinadigan daromad miqdori ko'p emas. Asosiy fondlar amortizatsiyasiga ajratmalar moliyaviy reja daromad qismining bir muncha salmoqli ulushini tashkil etadi.

Korxona kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun, foydalanish rejimi bo'yicha moliyaviy resurslarga tenglashtirilgan uzoq muddatli kreditlar jalb etilishini rejalashtirishga intiladi. Umumiy kirimdag'i uning hissasi 4 %ni tashkil etadi. Shuningdek asosiy vositalarni ortiqcha qiymati bo'yicha uzoq muddatli moliyaviy ijaraga berish orqali olinadigan, korxona balansiga kiritiluvchi ijara haqi ham moliyalashtiriladi. Korxona soliq to'langunga qadar qoplanadigan aylanma mablag' o'sishiga ssudalarni jalb etadi. Shuningdek korxona umumi daromadining 7 %ini tashkil etuvchi boshqa daromadlar va kirimlarni ham rejalashtiradi.

Moliyaviy rejaning xarajat qismi moliyaviy resurslar va ularga tenglashtirilgan mablag'larni taqsimlaydi. Korxona daromadiga va mulkiga solingan soliq jami 38,7% ni tashkil etadi.

Foydaning bu qismi byudjetga o'tkazilib, korxona ixtiyoriga 31800 pul birligi miqdorida sof foyda keladi. Boshqa aktivlarning, shu jumladan, moddiy zaxiralar va nomoddiy aktivlarning sotilishidan olinadigan daromad, asosiy vositalarning sotilishidan olinadigan daromadlar dam soliqqa tortiladi. Mahsulot sotishdan olinadigan daromad stavkasi bir muncha past bo'ladi. Buning sababi shundaki, korxona ayrim imtiyozlarga ega bo'lib, buning evaziga soliqqa tortish

bazasi kamayadi. Chet korxonalarda sheriklik faoliyatini yuritishdan hamda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar 15 %li stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Korxona tomonidan chet el valyutasida olingan foyda valyutaning hisob raqamiga tushgan kundagi kurslarida soliqqa tortiladi.

Korxona uzoq muddatli investitsiyalarga va buning uchun zarur pul fondlarini yaratishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Bu shuni anglatadiki, investorlar daromadni asosan dividendlar hisobiga emas, balki korxona ustav kapitalining o'sishi natijasida kurs farqlari hisobiga oladi. Kapital qo'yilma 10800 pul birligi miqdorida rejalashtirilgan.

Korxona davlat va aksionerlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish yo'li bilan uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarini rejalashtiradi. Mahsulot sotish, bank ssudalari va barqaror passivlar o'sishining moliyaviy manbai hisoblanmish aylanma mablag'larning o'sishiga katta e'tibor qaratiladi.

Korxona daromad hisobidan quyidagi fondlarga mablag' ajratishni rejalashtiradi: ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishga; ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini amalga oshirishga; ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltiriluvchi mablag'larga va moddiy yordamga.

Barqaror	sotishdan tushgan mablag'	sof foyda	Aktivlar umumiy summasi
o'sish koeffitsenti	x aktivlar umumiy summasi	x sotishdan tushgan foyda	Qarz majburiyatları umumiy summasi
x Qarz majburiyatları umumiy summasi			
ustav kapitali		(sof foydadagi dividend fondining ulushi)	

Korxona umidsiz qarzlarni qoplash va sug'urta (rezerv) fondlarini tashkil qiladi.

Korxona rivojlanishining maqbul sur'atlarini tanlab olish bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy tahlil va rejalashtirishning asosiy vazifalaridan biridir.

G'arb mamlakatlari amaliyoti qisqa muddat ichida haddan ziyod katta o'sish sur'atini tanlash ham maqsadga muvofiq emasligini tasdiqlamoqda.

Ushbu modelda birinchi va ikkinchi omillar (aktivlar samarasini va mahsulot rentabelligi) ishlab chiqarish faoliyatini, uchinchi va to'rtinchi omillar (moliyaviy barqarorlik) moliyaviy faoliyatni, beshinchi omil (dividend fondining ulushi) dividend siyosatini ko'rsatadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Moliyaviy rejalashtirish, reja, bashoratlash, moliyaviy reja, o'z-o'zini moliyalashtirish, tamoyil, usul, ekstrapolyatsiya, normativ, me'yor, matematik modellashtirish, break-down, build-up, daromad va xarajatlar rejasi, byudjetlashtirish, korxona joriy byudjeti, korxona tezkor byudjeti, korxona kapital byudjeti, nazorat, taktik rejalashtirish, moliyaviy biznes-reja.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni qanday tashkil etish lozim?
2. Korxonada moliyaviy rejalashtirish quyidagi vazifalarni yechishga xizmat qiladi?
3. Korxonada moliyaviy rejaning ahamiyati qayerda bilinadi?
4. Korxona byudjeti nima?

5. Korxonada byudjetlashtirishning qanday ijobiy tomonlari mavjud?
6. Korxonada biznes rejaning ahamiyati qayerda bilinadi?

### Topshiriqlar

1. Biron bir korxona o'ylab uni moliyaviy faoliyatini rejalashtirib chiqing.
2. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalarini aytib bering.
3. "Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish" mavzusida krossvord tuzing.
4. Korxona moliyasini boshqarishda operativ moliyaviy rejalash-tirishni tasniflab bering.
5. Byudjetlashtirishning asosiy vazifalarini aytib bering.

## **XI BOB: KORXONALAR FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BIZNES REJA**

### **11.1. Korxonalarda moliyaviy biznes-reja tuzishning ahamiyati va mohiyati**

Korxonalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – moliyaviy biznes-rejadir. Har qanday ish reja asosida bo‘lsa, muvaffaqiyat keltiradi. Oldindan zarur hisob-kitoblar qilinib, imkoniyatlar to‘la e’tiborga olinsa, o‘ylangan ish ustida to‘la tasavvur qilinsa, amalga oshishiga to‘la ishonch qilinadi va uni bajarish uchun dadil kirishiladi. Bunday tomonlar moliyaviy biznes-rejada o‘z ifodasini topishi kerak. Moliyaviy biznes reja biznes-rejaning tarkibiy qismidir.

Biznes-rejani molyaviy biznes-reja bilan uzviy bog‘liq qismlari tarkibida ishlab chiqarish, marketing, tashkiliy rejalar ham mavjud. Ularni uzviy bog‘liqligi moliyaviy rejani oqilona shakllantirish uchun imkoniyat yaratib beradi.

Moliyaviy biznes-rejaning ahamiyati ichki va tashqi zaruriyat bilan bog‘liqdir. Chunki u birinchidan tadbirkorlikning o‘z ichki imkoniyatlarini baholashni bilishga, faoliyatning ma’qul usullarini belgilashga yordam beradi va shu bilan birga faqat tadbirkor uchungina emas, balki korxonadagi barcha xizmatchilarda to‘la ishonch tug‘dirishga, ikkinchidan, tashqi aloqalar o‘matishda ham katta yordam beradi. Bank, materiallar, energiya va xomashyo yetkazib beruvchilar bilan moliyaviy aloqada bo‘lish uchun avvalo real haqiqatdan kelib chiqadigan moliyaviy biznes-reja bo‘lishi kerak.

Aytish mumkinki, moliyaviy biznes-reja korxonada tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zaruriyat bo‘lib hisoblanadi. Har qanday korxonani tashkil etish sohasidagi faoliyat real, amaliyotni o‘zida aks etadigan, barcha ish turlarini bajarishni rejali ta’minlay oladigan biznes-reja tuzishdan boshlanishi kerak. Bunday reja

markazlashtirilgan va umumxususiyatlarga ega bo'lgan o'tish davriga qadar mavjud markaziy rejalarashtirishdan tubdan farqlanadi. Moliyaviy biznes-reja moliyaviy imkoniyatlar asosida, ixtiyorilik xususiyatidagi real ish rejasidir. Bu reja qat'iylikni inkor etadi va ish jarayonida o'zgartirilishi va doimo aniqlik kiritilib borilishi imkoniyatiga ega, ya'nii korxonaning tadbirkorlik faoliyatini yuritishi mahoratini to'la ifoda etuvchi rejadir.

Moliyaviy biznes-reja b'olajak korxonaning faoliyat hajmi, shu bilan birga ish ko'radigan soha xususiyatlariiga to'la bog'liq holda tuziladi. Shunga ko'ra korxonaning katta-kichikligi, kengayishi mumkinligi va qaysi tarmoqqa taalluqligi bu rejada o'z aksini topishi kerak. Chunki, faoliyatdagi barcha tomonlar nafaqat ish hajmi va ish sohasiga balki moliyaviy imkoniyatlarga ham bog'liqdir. Faoliyat asosi bo'lgan mahsulot xilini, turini belgilovchi omil sifatida yuzaga chiqadi. Ishlab chiqarishda yoki savdoda ish yuritish boshqa texnologiya va tashkilotchilikni talab etadi. Shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarini oladigan bulsak, to'qimachilik va un sanoati kabilarning talab va xususiyatlari turlichadir. Shuning uchun ham ularning moliyaviy biznes-rejalarini bir xil bo'lmaydi.

Mahsulot murakkabligi ham moliyaviy biznes-rejaga ta'sir etadi. Uning darajasi yuqori bo'lsa, korxonaning ichki va tashqi aloqalarining murakkabligi oshadi va ancha keng bo'ladi, ish turlari hajmi ham yuqori bo'ladi va hokazo. Bularning barchasi albatta umumiy biznes-rejada o'z aksini topishi kerak.

### 11.1-jadval

#### Biznes-reja qismlari

Umumiy qism	Ishlab chiqarish rejasi	Marketing rejasi	Moliya rejasi	Tashkiliy reja
1. Titul varagi	1. Korxonada bajariladigan ishlar	1. Ichki omillar	1. Daromad va xarajat haqidagi ma'lumot	1. Mulk shakli va korxona turi

2. Kirish qismi	2. Subpod-ryadchiklar	2. Tashqi omillar	2. Naqd pul prognozi	2. Rahbariyat va tashkiliy tuzilma
3. Tarmoq tahlili	3. Ishlab chiqarish jihozlari	3. Yangi tovar, xizmat xususiyatlari	3. Balans rejasi	3. Korxona joylashuvi
4. Loyiha mohiyati	4. Xomashyo va materiallar	4. Bahot tanlash		4. Soliq qonunlari qo'llanilishi
5. Xatarilik bahosi	5. Ish kuchi	5. Sotish tizimi		
6. Qo'shim-chalar		6. Bozor segmenti		

Biznes reja va uni tarkibidagi moliyaviy rejani ishlab chiqishdan asosiy maqsad – korxona faoliyatini kelgusi davr va ayrim olingan davrdagi bozor ehtiyojlari va zaruriy manbalar olish imkoniyatlaridan kelib chiqishdir. Biznes rejalar tadbirkor uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal etishda yordam beradi:

- korxona faoliyati asosiy yo'nalishini, bozor maqsadlari va korxonaning bozordagi o'rmini aniqlashni;
- korxonaning uzoq muddatli va qisqa davr maqsadlari, strategiyasi, taktikasini amalga oshirishga erishishni belgilab berishni;
- korxonaning istemolchilarga tavsiya etadigan tovar (xizmat)lar tarkibini tanlash va asosiy ko'rsatkichlarni aniqlashni;
- kadrlarga qo'yilgan talablar va ularning o'z vazifalariga mos kelishini baholashni;
- bozorni o'rganish bo'yicha firma marketing tadbirlarini tarkibini, reklama realizatsiyani rag'batlantirish, bahoni shakllantirish va realizatsiya yo'llarini aniqlashni;
- mavjud material va moliyaviy mablag'lardan kelib chiqib firmanın material va moliyaviy holatini baholashni;
- biznes rejani muvaffaqiyatsizligiga ta'sir etuvchi omillar haqida ogohlantirishni;

- bugungi kundagi sharoit tadbirkordan shuni talab qiladiki, biznesda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan ko'ra ma'lum vaqt sarflab biznes reja ishlab olish kerakligini. Yozma shaklda jihozlangan biznes reja ishni tashkil etish va uni bajarishni ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Agar bozor tez sur'atlar bilan o'zgarib turgan taqdirda ham rejani ishlab chiqishni esdan chiqarmaslik shart.

Korxona faoliyatida moliyaviy biznes rejalardan foydalanish quyidagi samarani beradi:

- rahbarlarni firmaning kelgusi faoliyati bilan qiziqishga undaydi;
- ko'zlangan maqsadga erishishda qabul qilinayotgan qarorni o'ta aniq bo'lishiga imkoniyat yaratadi;
- korxona faoliyati ustidan kelgusida nazorat olib borish uchun ko'rsatkichlarni belgilaydi;
- rahbarlarning maqsadlarini aniq belgilash va unga erishishning to'g'ri yo'llarini tanlashga undaydi;
- bozordagi holatlarni to'saitdan o'zgarish sharoitida har qanday salbiy holatlardan muvaffaqiyatli chiqib ketishni ta'minlaydi;
- korxonaning barcha rahbarlari burch va majburiyatlarini aniq ko'rsatib beradi.

Yana bir yaxshi tomoni, to'g'ri tuzilgan moliyaviy biznes reja korxonaning kelgusida rivojlanishini ko'rsatadi, tadbirkorning ziarur bo'lgan quyidagi asosiy savollarga ham javob beradi:

- puñni ushbu faoliyatga sarflash maqsadga muvosiqmi?
  - daromad olib keladimi?
  - qilingan xarajatlarni qoplaydimi?
- Qoida bo'yicha, moliyaviy biznes rejaga ehtiyoj juda murakkab va ziarur masalalarini hal etishda yuzaga keladi, masalan:
1. Harakatdagi va yangi tuzilayotgan xususiy va hissadorlik korxonalari kredit olish uchun buyurtma tayyorlashda;
  2. Davlat korxonasini xususiylashtirishni asoslashda;
  3. Yangicha ish tashkil etish, firma kelgusi mahsulot ishlab chiqarish yo'naliishi va tijorat faoliyati ho'latini aniqlashda;

4. Korxona faoliyatini o'zgartirish va yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarish, yo'nalish va usullar tanlash orqali tijorat jarayonlarini amalga oshirish yo'nalishlarida;
5. Xususiylashtirilgan va xususiy firmalar aksiyalarini chiqarish va realizatsiyasini ta'minlasbda;
6. Tashqi bozorga chiqish va chet el investitsiyasini jaib etishda va boshqalar.

Moliyaviy biznes rejalar hajmi ko'zlangan maqsadning yo'nalishi hajmiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Bu yerda ko'rileyotgan masalalarni o'rganish darajasi ham asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari moliyaviy biznes reja tuzishda korxonalarning o'zları qatnashuvi darajasi juda ham zarur hisoblanadi. Chet el investorlari shaxsan rahbar tomonidan tuzilgan moliyaviy biznes rejalarini alohida baholaydilar. Maslahatchilar tomonidan ishlab chiqilgan va rahbar imzolagan moliyaviy biznes rejalarini ko'p holatlarni tan olmaydilar. Bu o'z vaqtida maslahatchilardan foydalananmaslikni bildirmaydi, ammo ekspertlarni jaib etishni keng qo'llab-quvvatlaydi. Gap shaxsan rahbarni moliyaviy biznes reja tuzishda ishtiroki haqida boradi.

Moliyaviy biznes reja ishlab chiqish va ishchi guruhni tashkil etish. Korxona moliyaviy faoliyatini rejalaشتirishning birinchi qadamlaridan biri yuqori malakali kadrlarga asoslangan ishchi guruhni tashkil etish hisoblanadi. Ushbu guruhga o'ta ma'suliyatli vazifa yuklatilib, korxona uchun moliyaviy biznes reja ishlab chiqish va bozor sharoitida muvaffaqiyatli ishlash mexanizmlarini yoki imkonini yaratib berishdir. Faoliyat turiga qarab ishchi guruh tarkibiga marketologlar, yuristlar, injener-texnik xodimlar, iqtisodchilar sotsiolog (ruhshunos)lar jaib etilishi ular tarkibidan mayda ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin. Bunda har bir guruhga ma'suliyatli shaxs tayinlanishi zarur bo'ladi. Korxona faoliyati mohiyatidan kelib chiqib aniq topshiriqlar berish va ularni bajarishning aniq muddatlarini belgilash ham muhimdir. Agar moliyaviy biznes reja ishlab chiqishda ma'lum bir chegaralangan shaxslar ishtirok etsa, ushbu biznes o'ta yuqori muvaffaqiyatga

erishmaydi. Shu maqsadda xorijiy davlatlarda moliyaviy biznes reja ishlab chiqishga korxonaning barcha asosiy bo'limlari boshliqlari (menejerlari)ni jalb etiladi. Chunki ular doimiy ravishda rahbariyat oldida reja bajarilishi haqida hisobot berib turadilar.

Shu bois moliyaviy biznes reja tuzish bu korxonani oldindan belgilab olgan taktikasi va strategiyasi asosida moliyaviy iqtisodiy ahvolini tahlil etish va baho berish jarayonidir. Yuzaga kelgan hisobotga baho berish jarayonida quyidagi savollarga javob berilishi kerak:

- 1) korxonaning tarmoq ichida tutgan o'rni qanday?
- 2) korxona faoliyat ko'rsatadigan bozor xarakteri qanday?
- 3) korxona mavjud bozorning qancha qismini egallashni xohlaydi?
- 4) qanday sezilarli o'zgarishlar bo'lishi mumkin?
- Ya'ni: a) ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatilgan **xizmat** sohasida;
- b) tarmoqda qo'llaniladigan texnologaya darajasida;
- d) raqobat xarakteri borasida;
- 5) korxona kelgusida mahsulot ishlab chiqarish sifatini (raqobatbardoshligini) orttirish maqsadida qanday tadbirlar amalga oshirishni ko'zda to'tadi?
- 6) korxona qanday afzallikkarga ega? Kuchli tomonlari mavjudmi?
- 7) korxonaning kuchsiz tomonlari mavjudmi?
- 8) korxonani ko'zlagan maqsadiga erishishida qo'shimcha kapital mablag' zarur bo'ladimi va h.k.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritish rahbarning o'tgan davrda korxona moliyaviy holatini chuqur tahlil etishni taqozo qiladi. Maqsadi mavjud aktivlardan oqilona foydalananish va kelgusida korxona strategiyani tejorashtirishni aniqlashdir.

Korxonaning moliyaviy hisoboti keng ma'noda olganda imkoniyatlari sheriklar (hissadorlar, qarz beruvchilar, mol yetkazib beruvchilar) bilan uzviy aloqani bosh manbai va vositachisi bo'lib xizmat qiladi. Hisobot ko'rsatkichlari tahlil etishni to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil etish va sheriklarda ishbilarmonlik

jarayonlarini birgalikda amalga oshirishga ishonch tug'diradi. Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etishda axborot manbai etib buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hisoboti olinadi. Korxona balansidan aniq bir davrga (kvartal, yil) moliyaviy holat to'g'risida tavsiynomma olish mumkin. Tahlil etishda quyidagi asosiy koeffitsiyentlardan foydalanishi mumkin: joriy likvidlik koeffitsiyenti (K.t.l.).

Joriy likvidlik koeffitsiyenti (darajasi) qarz miqdori bilan likvid mablag' (qarz to'lashga qodir mablag'ning) miqdori o'rta sidagi nisbatga bog'liq bo'ladi. Agar qarz likvid mablag'dan ko'p bo'lsa, korxona bankrot bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar korxonalarni oborot mablag'lari bilan to'la ta'minlanganligi va o'z vaqtida muddatli majburiyatlarini bajarilishini xarakterlaydi. U korxonada mavjud bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari, tayyor mahsulotlar pul mablag'lari, debitorlik qarzları va boshqa aylanma aktivlarini muddatli majburiyatlariga hisoboti bilan aniqlanadi.

Shaxsiy mablag'lar bilan ta'minlanganlik. Bu ko'rsatkich korxonani moliyaviy turg'unligini ta'minlovchi aylanma mablag'larining mavjudligini bildiradi. Shaxsiy mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti bu shaxsiy aylanma mablag'lar hajmi manbaidan haqiqiy asosiy vositalar qiymati va aylanmadan tashqari aktivlar farqini korxona oborotida bo'lgan mavjud ishlab chiqarish zaxirałari ko'rinishidagi aylanma mablag'lar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzları va aylanma oborot mablag'lar farqi nisbati bilan aniqlanadi. Moliyaviy iqtisodiy talab qoniqarli deb hisoblanadi, qaysiki quyidagi shartlardan biri bajarilsa, ya'ni:

- yil oxiriga likvidlik koeffitsiyenti 2 dan kam bo'imagan ahamiyatga ega bo'lsa;

- yil oxiriga oborot mablag'lar bilan ta'minlanganlik 0,1 kam bo'imagan ahamiyatga ega bo'lsa.

Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olishimiz zarur. Ularga: mahsulot ishlab

chiqarish hajmi va strukturasi, mehnat unumдорлиги, асосиый ишлаб чиқарыш fondalaridan foydalanish, yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish, ishlab chiqarish imkoniyatlardan oqilona foydalanish, foydalilik, to'lov qobiliyat, muomala xarajatlari kamayishi va hokazo omillarni kiritish mumkin. Yuqoridagi omillar ta'sirini tahlili yordamida boy berilgan imkoniyatlarni aniqlanadi. Shu asosda асосиый vositalar, mehnat, moliya materiallari va axborot manbalaridan foydalanish darajasini oshirishni moddiy imkoniyati tug'iladi. O'z-o'zini baholash jarayoni kelgusida korxonaning taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish sharoitini yaratadi va ko'zlangan maqsadga tezda erishishga olib keladi. Korxonaning barcha shakllangan bo'lim va bo'g'inlarida aniq va real maqsadlar bo'lishi kerak. Ular tarmoq va bozor nuqtai nazaridan asoslanishi shartdir. Yangi loyiha yuzasidan moliyaviy biznes reja ishlab chiqishdan avval birinchi navbatda ularni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash, ya'ni qo'yilgan maqsad bo'yicha loyihaning muvofiqligini aniqlash lozimdir. Agar loyiha maqsadga muvofiq bo'lsa, uni yana qo'shimcha ravishda o'rganish va to'laqonli darajada loyihani asoslash kerak. Uning keyingi bosqichida ko'zlangan maqsadni hal etish yo'lida moliyaviy strategik reja ishlab chiqish lozim va bu rejaga barcha bo'g'in va bo'limlarning moliyaviy strategiyasi kiritilishi shart. Bu yerda eng kerakligi bo'lim va bo'g'in rejalarini koordinatsiya qilinishi (ya'ni boshqa biznes reja bo'g'inlari bilan), muddatları bilan bir-biriga bog'langanligini ta'mintash maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy rejaning muvaffaqiyati ishlab chiqarish rejasini bilan bog'liq bo'lganligi sababli ko'zlangan maqsadga erishish uchun korxona ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish zarur bo'ladi va bunday ishlab chiqarish strategiyasi quyidagi savollarga javob berish kerak:

1. Mayjud tashkiliy tizimga qanday ta'siri bo'ladi?
2. Yangi yoki oldingi faoliyat turi korxonaning uzoq muddatli maqsadiga erishishga mos keladimi?

3. Ushbu loyiha bo'yicha qo'yilgan vazifani bajarishga korxona tayyormi?
4. Rahbarlik darajasi loyiha talablariga mos keladimi?
5. Moliyaviy nuqtai nazardan korxona o'zini boshqarishi mumkinmi?
6. Loyihani amalga oshirish uchun korxonani moliyaviy mablag'lari yetarlimi?
7. Loyihani amalga oshirishi yo'lida korxona zaruriy mablag'larni bir joyga jamlashi mumkinmi?
8. Strategiya korxonaning ijobiy tomonlarini yoritishga imkon beradimi?
9. Muvaffaqiyatni qo'lga kiritish uchun korxona yana nima ishlar qilishi kerak?
10. Korxona qanday riskka duch keladi, agar u amalga oshirilmasa yoki qo'llanilmasa maqsadga erishib bo'ladimi?
11. Korxona ishlab chiqarish strategiyasining amalga oshirishi qancha vaqt talab qiladi va u qanday natijalar beradi?
12. Risk darajasi qanday holatlarda kamayishi mumkin?
13. Korxona mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda qachon zararsizlik nuqtasiga erisha oladi?
14. Korxona faoliyatiga tashqi omillar ta'siri qanday bo'lishi mumkin?
15. Korxona tomonidan qabul qilingan rejani vaqtiga bilan ko'rib turilishi qanday?

Yuqoridaq savollarga biznes rejada atroficha, aniq tahlil ma'lumotlariga asoslangan holda javob berilishi ko'zlangan maqsadga erishishning bosh mezoni (kriteriyasi) hisoblanadi.

Har qanday moliyaviy biznes reja doimiy ravishda qayta ko'rib borilishi shart. Aniq va samarali moliyaviy reja ham tashqi muhit shartlari o'zgarishi hisobiga maqsadini yo'qotishi mumkin. Moliyaviy biznes reja maqsadi va vazifasi tashqi va ichki omillar hisobiga o'zgarishi mumkin, ya'ni umumiqtisodiy ahvol, xaridorning holati,

yangi texnologiya, raqobat, ichki omillar, yuqori malakali kadrlarni yo'qotish va hokazo. Bundan tashqari bozordagi, tarmoqdagi va korxonadagi barcha o'zgarishlarlarni hisobga olmoq kerak. Chunki bu o'zgarishlar keng ma'noda biznes rejani bajarilishga ta'sir etishi e'tibordan holi emas. Shuning uchun korxona rahbarlari tomonidan tegishli o'zgarishlar kiritilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Rahbar bozor sharoitidan kelib chiqib rejaga nisbatan farqlanishni tushunishi va to'g'ri baholashi lozim. Rahbarning bunday yondashuvi reja topshiriqlarini bajarish va maqsadga erishishda to'g'ri yo'lni tanlaganligini bildiradi va o'z navbatida muvaffaqiyat garovi ham bo'lib qoladi. Yuqoridagi maqsadga erishishning birdan bir to'g'ri yo'li, uning yetarli axborot manbaiga ega bo'lishidir. Hozirda biznes ko'proq axborot manbai yetarli emasligi hisobiga qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularga:

- rahbar ish stolida tezkor ma'lumot mavjud emasligi;
- tovar-material boylik hisobi yetarli darajada to'liq olib borilmasligi;
- tovar-material zaxiralari zarari, mahsulotlarni tabiiy yo'qolishi, unumsiz yo'qotishlar hisobi va to'la amalga oshirilmaganligi;
- mahsulot turi bo'yicha hisob yangi holatda olib borilmaganligi;
- debitor-kreditorlik qarzlari hisobotlari kech tayyorlanishi yoki rahbar tomonidan tahlil etilmasligi va hokazo.

Aytish joizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona rahbarlari tashqi axborot manbalaridan kam foydalanish holatlari mavjud. Buning sababi:

- axborot va konsalting markazlar xizmati joylarda talab darajasida emasligi;
- tijorat banklari faoliyat turi nisbatan cheklanganligi;
- tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasining ishlari tadbirkorlarni to'la qoniqtirmasligi;
- konsern, tarmoq uyushmalari, investitsion uyushmalar;
- kasb jurnallari kam darajada chop etilishi va o'z vaqtida yetib kelmasligi;
- birja yangiliklari doimiy ravishda berib borilmasligi;

• biznes fond materiallari o‘z vaqtida yetkazilmashigi. Demak, moliyaviy biznes reja sharoitni o‘zgartirishini hisobga olgan holda doimiy ravishda tahlil etilib va o‘zgartirilib borilishi kerak. Bu yerda korxona rahbarining sharoitni baholash va oldindan ko‘rish imkoniyatlari bunga halaqit bermaydi. Yuqoridagi qobiliyatlar o‘z navbatida rahbarning ijobjiy va salbiy tomonlarida namoyon bo‘ladi. Yaxshi, kuchli rahbar ichki istiqbol yo‘llari asosida to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi.

Moliyaviy biznes reja va moliyaviy bashoratlash (prognoz) har qanday biznes faoliyatini yuritishda katta ahamiyat kasb etadi. U boshqarish va rejalashtirishning quroli, zaruriy kapitalni jalb etish va moliyalashtirish usuli hamdir.

Shuni ham ta’kidlash joizki, kapital sarmoya turi va moliyalashtirish usulidan qat’iy nazar, har bir qarz oluvchi yoki xususiy investor asoslangan moliyaviy biznes rejaga ega bo‘lishga harakat qiladi. Hozirgi korxonalarda moliyaviy biznes reja ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun alohida tayyorlanadi. U imkoniyatli qarz beruvchi va investorlarga yetarli ma‘lumot beradi, ya’ni kelgusida korxona katta moliyaviy yutuqlarga erishishi mumkinligi to‘g‘risida. Korxonani boshqarish jarayonida “moliyaviy biznes reja” biznes maqsadini aniqlaydi va uni ushbu yo‘nalishda rivojlanishini tasdiqlaydi. Rejani tayyorlash rahbariyatga boshqarish, moliya, marketing sohaalarini o‘rganishga qiziqish imkonini tug‘diradi. Zarur holatlar bo‘yicha esa sezuvchanlik tahlilini ham o‘tkazishi mumkin. Biznes reja butun bir biznes davomida kuzatilib, tahlil va o‘zgartirishlar kiritishning instrumenti bo‘lib qoladi. Rejalashtirish jarayonida rahbariyat loyiha-ning bir necha variantlarni o‘rganadi. Biznes muvaffaqiyatsizligaga olib keluvchi to‘siqlar atroflicha ko‘riladi. Yuqoridagi holatlarni o‘rganish to‘siqlarni aniqlash rahbariyatga ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Agar yuqoridagi sharoitda hal etib bo‘lmaydigan holat yuzaga kelsa, yangi faoliyat ishlab chiqish bosqichiga qadar to‘xtatilishi mumkin. Bu qo‘sishimcha harakat, vaqt, pulni tejaydi. Tushuntirish, asoslash ko‘zlangan moliyaviy natijalarni biznesning barcha jixatlarida talab etiladi va imkoniyatli muammoni asoslashda ham xizmat qiladi. Moliyaviy bashoratlash (prognoz)lar asosiy savollarga javob beradi, ya’ni qachon korxona pul mablag‘iga muxtoj bo‘ladi, undan qanday foydalananadi va qaytaradi? Ayrim axborotlar taxminlarga asoslansada, moliyaviy biznes reja tuzish rahbarga qimmatli natija keltiradi. Yana bir muhim tomoni shuki, korxona uchun biznes reja tuzish katta muvaffaqiyat hisoblanadi. Bu jarayonda korxonaning kuchli va kuchsiz

tomonlari aniqlanadi, kelgusida rivojlantirishning aniq yo'llari belgilanadi va muvaffaqiyatga erishish taxminlari ortadi.

“Moliyaviy biznes reja” keng ma’nodagi biznes rejaning hayotiyligi va imkoniyatlarini ifodalaydi, shu bilan bir qatorda korxona rahbarlarini ayrim omillar o’zgarishini tushunishga va uning asosida ko‘zlangan maqsadga erishishga yo’naltiradi. Biznes reja moliyalashtirishni amalga oshiruvchi korxonalar uchun foyda normasini baholash, imkoniyatlari boshqaruv qarorini qabul qilish, hayot bilan reja bir maqsadga qaratilganligini belgilash imkoniyatini beradi.

Moliyaviy biznes rejaning keng mazmunligi va har tomonlamaligi, biznes doirasi va sohasiga bog’liqdir. Har bir sohaning moliyaviy biznes rejasi o‘z xususiyatlariga ega bo’ladi. Bunday tashqari bozor sig’imi, raqobat, korxona imkoniyatlarining o’sishi ham moliyaviy biznes reja mazmuniga ta’sir etadi.

## 11.2. Moliyaviy biznes-rejani tuzish uslubi

Moliyaviy biznes-reja faqat firmanın rahbari yoki mulk egasi tomonidan tayyorlanadi. Bunda tashqaridagi ishbilarmonlar, huquqshunoslar, buxgalterlardan foydalanish mumkin.

Moliyaviy biznes-rejani tuzish jarayoni biznesdagi ikkita risk turini bilish va uni baholashga yordam beradi:

- ichki tavakkalchilik. Xodimlar, tovar-moddiy zaxiralar, joylashgan manzili kabilalar ustidan nazorat o’matish mumkinligi;
- tashqi tavakkalchilik. Bu iqtisodiyot, yangi qonunlar, ob-havo, ya’ni o’zgartira olmaydigan narsalar.

Biznes-reja tuzishda unda ishtirok etuvchilardan katta bilim, ma’lumotlar, bozorni, yangi taxnologiyani va hokazolarni bilishni talab etiladi.

Biznes - reja tuzishda ba’zi-bir kamchiliklarni yashirib ketish hisob-kitob ishlarini chalqashtiradi, natijada korxona faoliyatini yomonlashib ketishiga sabab bo’ladi.

Biznes-reja tuzishda eng avvalo yaqin va uzoq muddatdagi maqsadlarni aniqlab olish zarur.

Moliyaviy biznes-rejani tayyorlash quyidagi maqsadlarni taqozo etadi:

- rahbarlarga korxonani to‘g‘ri boshqarish;
- bozor iqtisodiyotida biznesni amalga oshirishga o‘rgatish;
- korxonaning haqiqiy faoliyatini baholash va rejaga o‘zgartirishlar

kiritish;

- banklar, investorlar va kreditorlarni korxona faoliyatiga baho berish uchun ma’lumotlar bilan ta’minalash.

Moliyaviy biznes-rejani tayyorlashda juda katta ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim bo‘ladi, ya’ni:

- ✓ korxonaning startegik maqsadlari va unga erishishni;
- ✓ korxonani maqsadga erishish yo‘lidagi harakati (taktikasi) yoki maqsadiga qanday qilib erishishini;
- ✓ korxona ishlayotgan sharoitni o‘rganish va tahlil qilishni;
- ✓ korxonani kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilish;
- ✓ mahsulot (xizmat)larga bo‘lgan talabni o‘sishi va pasayishini bashoratlash (prognoz qilish)ni;

- ✓ korxona faoliyatidan kutiladigan natijalarini;
- ✓ korxona uchun zarur resurslar, ularning manbalarini;
- ✓ korxona faoliyati rejasini;
- ✓ natijalarini aniqlashni;
- ✓ korxona faoliyati natijalarini nazoratini.

Rejani tayyorlash uchun bozorni tahlil qilish zarur. Buning uchun:

- iste’molchilarga tavsif berish (ularni yoshi, jinsi, daromadi, mahsulotni iste’mol qilish hajmi va boshqalarga);
- iste’molchilarini joylashgan yeri;
- tovarlarga talabni o‘zgarib turishi, xarid qilishi qobiliyati;
- mahsulot sifatidan xaridorlarni qoniqish hosil qilish;
- tovari xaridorlarni o‘ziga jalb qila bilish;
- mahsulotni sotish va vaqtidagi korxonani baho siyosati;
- mahsulotni sotish hajmi, miqdori (darajasi), bozordagi xaridorlarni segmentlarga (tabaqalarga) bo‘lib mahsulot sotishni rejalashtirish.

Undan so'ng raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish zarur bo'ladi. Bunda yirik korxonalar bo'yicha bozor xizmati, mahsulot (xizmatlarni) xususiyatlari, ularni taqsimlash, yetkazish, reklama ishlari, mahsulotni iste'molchiga yetkazish bahosi, raqobatchilarni kuchli va kuchsiz tomonlari tahlil qilinadi.

Moliyaviy reja tuzish uchun resurslarga bo'lgan talab, kelajakda sotish mumkin bo'lgan mahsulot hajmi, xarajatlar, foydá miqdori hisoblab chiqariladi. Bu xil ishlarni bajarish amalda jadvallarda va chizmalarda aks ettiriladi.

### **11.3. Biznes-rejaning bo'limlari va ularning tasnifi**

Keng ko'rinishdagagi korxona biznes-rejaning taxminiy tuzilishi haqida shuni aytish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek u asosan 4 qismni o'z ichiga oladi: umumiy, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, moliyaviy reja, tashkiliy reja.

Umumiy titul varag'i, kirish qismi, tarmoqdagi ahvol tahlili, taqdim etilayotgan loyiha mohiyati, xatarilik bahosi va qo'shimchalar kiradi. Titul varag'ida korxona nomi va mazmani, tadbirkorlikning ismi va uy telefoni, taqdim etilayotgan loyihani qisqacha mohiyati, loyihaning yalpi qiymati kabilar kiradi. Shu yerda ko'zda tutilgan sarmoya manbalari, ya'ni aksiya, zayom va boshqalar ko'rsatilishi mumkin. Albatta hujjatda keltirilgan ma'lumotlar sir saqlanishi qayd qilinadi. Bu tadbirkorning g'oyasini himoya etish uchun zaturdir.

Kirish qismi qisqa va aniq bo'lib, u investorda qiziqish uyg'ota oladigan darajada bo'lishi kerak. Chunki investor ish joyi bilan tanishib, bir fikrga kelishi yoki aks holda butun biznes-rejani to'lig'icha ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Kirish qismida tashkil etiladigan korxona nima bilan shug'ullanishi, qancha pul sarf etilishi, mahsulotga talab qanday bo'lsa tadbirkor muvaffaqiyat qozonishi mumkinligi kabi tushunchalarni aniq tushunarli ravishda qisqa qilib yoziladi.

Tarmoqdagi ahvol tahlili yangi korxona g'oyasi bilan bog'lab himoya etiladi. Raqobat kurashidagi yangi korxonaning imkoniyatlari, uning mahsuloti taqdiri shu korxona faoliyat ko'rsatadigan ishlab chiqarish ahvoldidan kelib chiqishi aniq ko'rsatilishi kerak. Bunda tarmoqdagi joriy ahvol, rivojlanish mazmuni, raqiblar va ularning yangi korxonaga munosabati ta'siri kabilarga e'tibor beriladi. Shu bilan birga yangi korxona mahsuloti aynan qaysi iste'molchilarga qaratilganligi, aniq bozor segmenti ko'rsatiladi. Bu tarmoqning istiqboli hukumat hisoboti, tarmoqlar birlashmasi hisobotiga asoslangan holda ko'rsatilishi ham ahamiyatlidir.

Loyiha mohiyatida investoring korxona qaysi yo'nalishdagi va hajmini bilish uchun mahsulot yoki xizmat turini to'la ko'rsatish, korxonaning qanday binolarga joylashishi, qaysi mutaxassislar kerakligiga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Riskni baholash yangi korxonalar uchun ham zaruriy talabdir. Ma'lumki biznes juda ko'p to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengib borishi darkor. Bularning oldini olish uchun strategiyaga ega bo'lish zarurdir.

Moliyaviy biznes-rejaning mazmunini ko'rsatuvchi asosiy qismlari moliya, marketing, ishlab chiqarish, tashkiliy tomonlardan iboratdir. Korxonaning faoliyati shu sohalar yig'indisi faoliyatidan tarkib topadi.

Ishlab chiqarish rejasining asosiy vazifasi sheriklarga (hamkorlarga) haqiqatda zarur bo'lgan mahsulotni, kerak miqdorda va sifatda, kerakli muddatlarda ishlab chiqara olish imkoniyatini isbotlab berishdan iborat.

Korxona rahbari esa quyidagi savollarga javob topishga harakat qilishi talab etiladi:

- mahsulot eski ishlab turgan korxonada ishlab chiqariladimi yoki yangi korxonadami?
- buning uchun qanday ishlab chiqarish quvvatlari zarur bo'ladi va ular har yili qanchaga ko'payib borishi mumkin?
- qanday dastgohlar zarur bo'ladi va ular qayerdan keltiriladi?
- ishlab chiqarish aloqadorligi mo'ljallanganmi yoki yo'qmi? Mo'ljallangan bo'lsa kim bilan mo'ljallangan?

Rejaning bu qismidagi ma'lumotlarni 2-3 yilga berilsa yaxshi bo'ladi. Bu rejada - bo'ladigan xarajatlarni hisoblab uni baholash ham zarur. Bu yerda tabiatni muhofazasi uchun chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun kerak bo'ladigan xarajatlar ham esdan chiqmasligi kerak.

Moliya rejasida esa avvalgi rejalarining ma'lumotlarini umumlashtirib, bir qancha hujjatlar tayyorlash zarur bo'ladi, ya'ni:

- ishlab chiqarib sotiladigan mahsulot hajmini chamlab chiqish;
- pul mablag'lari xarajati va tushumini balansi;
- daromad va xarajatlar jadvali;
- korxona aktivini va passivining umumiy balansi;
- zararsiz ishlashga erishish grafigi.

Bu xil ma'lumotlar dunyo amaliyoti standartlariga mos keladi. Hozir bizda ham bu xil shaklda hisobot berish va rejelashtirish ishlari, Yevropa buxgalteriya hisobini qo'llash yo'lga qo'yilgan.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Biznes-reja, ishlab chiqarish rejasi, moliya rejası, marketing rejasi, tashkiliy reja.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar**

1. Biznes-reja nima?
2. Biznes-reja qanday qismlardan iborat?
3. Biznes rejani ishlab chiqishdan asosiy maqsad nima?
4. Biznes-rejaning taxminiy tuzilishi nimadan iborat bo'lishi mumkin?
5. Biznes-reja tuzishda qaysi savollarga e'tibor qaratiladi?
6. Biznes rejani tuzishda qanday standartlarga amal qiladi?

## **Topshiriqlar**

1. Biznes reja ishlab chiqish va ishchi guruhni tashkil etish jarayonini tavsiflab bering.
2. Biznes-rejaning asosiy vazifalarini aytib bering.
3. Biznes-rejani tayyorlashda kerakli ma'lumotlarni tahlil qiling.
4. Biznes reja tahminiy tarkibini tavsiflab bering.
5. Biron bir mahsulotni ishlab chiqish bo'yicha biznes-reja tuzing.

## TESTLAR

### **1. "Korxonalar moliyasi" fanini o'qitishdan asosiy maqsad nima?**

- a) O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalgalashirilishi jarayonida sodir bo'ladigan tubdan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda korxonalar faoliyatida ularning moliyasini tashkil etishga ta'sirini chuqur o'zlashtirgan holda tadbiq etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- b) korxonalarni pul mablag'lari bilan ta'minlanish yo'llari, moliya bozorlarini tashkil etish;
- c) korxonalarning moliyaviy rejasini (biznes-reja) tuzish va uni boshqarilishini nazorat qilish hamda rejalashtirish istiqbollarini va boshqalarini chuqur o'zlashtirish;
- d) \*barcha javoblar to'g'ri.

### **2. Korxonalar moliyasi - ...?**

- a) \*davlatning yagona moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi byudjet tashkilotlarida daromadlarning shakllanishida, taqsimlanishi va ishlatalish jarayonini aks ettiradi;
- b) xo'jalik subyeklarining pul daromadlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari yig'indisidir;
- c) milliy daromad va milliy boylik yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko'rsatmaydi;
- d) xo'jalik yurituvchi subyekt va davlat pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan takror ishlab chiqarish, rag'batlantirish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalansilmaydigan pul munosabatlari yig'indisidir.

### **3. Moliya tizimining bazaviy tarkibiga qanday elementlar kiradi?**

- a) \*moliyaviy resurs, moliya xizmati, boshqarish tizim osti;
- b) moliyaviy fond, pul mablag'lari, sugurta bozori, sug'urta fondi;
- c) ijtimoiy fond, pul mablag'lari;
- d) moliyaviy bozor, birja, pul mablag'lari.

### **4. Korxona daromad siyosatining asosiy maqsadi nimadan iborat?**

- a) \*amalda mavjud bo'lgan manbalardan tushumlarni maksimumlash va ushbu manbalar konyukturasini kengaytirish;
- b) mavjud manbalar nomenklaturasini oshirish va realizatsiyadan tashqari tushumlarni oshirish;
- c) asosiy faoliyatdan olinadigan daromadni maksimumga yetkazish va rentabellik darajasini oshirish;
- d) soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali daromadni oshirish.

**5. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy ishchi instrumentlariga nimalar kiradi?**

- a) \*nazorat raqamlari; moliyaviy ko'rsatkichlar;
- b) nazorat raqamlari; sonli raqamlar; sifatlari raqamlar;
- d) nazorat raqamlari; sifatlari raqamlar;
- e) moliyaviy ko'rsatkichlar; sonli raqamlar.

**6. Nazorat raqamlari deganda nimani tushunmoq lozim?**

- a) \*normativ xarakterga ega bo'lmagan ko'rsatkichlarni bir necha yillik dinamikasini konkret parametrlarining prognozlash;
- b) normativ ko'rsatkichlar dinamikasi;
- d) moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi;
- e) sifatlari raqamlar dinamikasi.

**7. Moliyaviy ko'rsatkichlar deganda nimani tushunmoq lozim?**

- a) \*moliyaviy tizim jarayoniga taalluqli konkret elementlarning sonli ma'nosini ifodalab, har bir tashkilot uchun normativ xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar;
- b) normativ xususiyatga ega bo'lmagan ko'rsatkichlarni;
- d) moliyaviy limit, normativlar;
- e) Iqtisodiy normativlar, nazoratni.

**8. Moliyaviy limit deganda nimani tushunmoq lozim?**

- a) \*rejalashtiriladigan parametrlar turlarini;
- b) zaxira, rejalashtiriladigan ko'rsatkichlar, qoldiq ko'rsatkich turlari;
- d) daromad dinamikasi;
- e) moliyaviy ko'rsatkichlarni iqtisodiy chegarasining quyisi.

**9. Iqtisodiy parametrlar deganda nimani tushunmoq lozim?**

- a) \*ikki va undan ortik ko'rsatkichlarni bog'lanishi;
- b) balansdagi ko'rsatkichlar bog'lanishi;
- d) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan ko'rsatkichlar bog'lanishi;
- e) xarajatlarni umulashtiruvchi ko'rsatkichlar.

**10. Xarajat siyosatini realizatsiya qilish yo'nalishlari nimalarda o'z ifodasini topadi?**

- a) \*xarajatlarni alohida elementlari boyicha boshqarish; ichki va tashqi xususiy investitsiyani boshqarish; moliyaviy tavakkalchilikni sug'urtalashni boshqarish;
- b) xuddi shunday daromad taqsimotini boshqarish;
- d) xuddi shunday maxsus fondlardan foydalanish orqali;
- e) xuddi shunday umum fondlardan foydalanish.

**11. Konkret investitsion dastur doirasida maqsadli xarajatlarni rejalashtirishda qanday moliyaviy hujjatdan foydalanish mumkin?**

- a) \*moliyaviy biznes reja;

- b) xarajatlar smetasi;
- d) daromad va xarajatlar balansi;
- e) korxona balansi.

**12. Operativ moliyaviy boshqaruvin doimo qabul qilinib kelinayotgan qarorni o'zgartirib o'z ishini taqozo eta oladimi?**

- a) \*korxonani ichki va tashqi faoliyati o'zgarib turish hollarida;
- b) korxona faoliyati moliyaviy omillar ta'siri kuchayib borishida;
- c) tashqi omil ta'sir etganda;
- e) moliyaviy resurslardan samarali foydalanimiga.

**13. Korxona egasi temonidan nazorat turining qaysi biriga tayangan holda, o'z faoliyatini samarali tashkil eta oladi?**

- a) \*an'anaviy nazorat turi;
- b) ichki va tashqi audit turidan;
- d) taftish turidan;
- e) komeral turidan.

**14. Korxona sharoitida qaysi bazaviy uslub moliyaviy rejalashtirishda maqsadliroq bo'lishi mumkin?**

- a) \*balans usuli;
- b) yakka usul;
- d) modelli usul;
- e) matematik va ekstropolyatsiya usullari.

**15. Moliyaviy nazoratning asosiy obyektlari nimada namoyon bo'ladi?**

- a) \*korxona naqd pul harakatida; korxona hisobraqamidagi pul harakatlarida; tashqi investitsiyaviy mulkiy munosabatlarda;
- b) korxona kassasidagi naqd pul xarajatida; korxona hisobraqamidagi pul xarajatlarida; pul qoldiqlarida; ish haqi to'lovida;
- d) ish haqi to'lovida; kredit olishda; xususiy mablag'lardan foydalinishda;
- e) maxsus fondlardan foydalinish; umumxo'jasik fondlardan foydalinish; asosiy fondlar taqsimoti; zayomlarni joylashtirish.

**16. Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari:**

- a) \*xususiy va unga tenglashtiriladigan mablag'lar; zayom mablag'lari;
- b) umumiylondalar; zayom mablag'lari, markazlashtirilgan maqsadli pul daromadlari;
- d) umumiylondalar;
- e) byudjet mablag'lari; zayom mablag'lari.

**17. Quyidagi keltirilgan likvidli aylanma mablag'lariiga nimalar kiradi: 1. Korxona kassasidagi naqd pullar; 2. Depozitdag'i va hisob schyotidagi pul mablag'lari; 3. Hisob schyotidagi pul mablag'lari; 4. Yuqori likvidli qimmat baho qog'ozlar; 5. Tezlik depozit schyotlaridagi**

**pul mablag'lar; 6. Ishlab chiqarish zaxiralari; 7. Tugatilmagan ishlab chiqarish:**

- a) \*1-7;
- b) 1-6;
- c) 1-5;
- e) 2-7.

**18. Korxona aylanma mablag'larini umumiyo ko'tinishi nimada namoyon bo'libadi?**

- a) \*pul shaklida;
- b) to'lovlar shaklida;
- d) materiallar shaklida;
- e) to'g'ri javob yo'q.

**19. Ishlab chiqarish korxonasining aylanma mablag'lariga nimalarni kiritish mumkin?**

- a) \*pul mablag'larini; ishlab chiqarish zaxiralarini;
- b) umumxo'jalik fondlarini; aksiyalarni;
- d) paylarni; xomashyolarni; asosiy fondlarni;
- e) yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni, likvidli jihozlarni.

**20. Tayyor mahsulot zaxiralari qaysi sohadagi korxona (tashkilot)larni aylanma mablag'ining elementi bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*ishlab chiqarish korxonalarini;
- b) muomala sohasidagi korxonalarini;
- d) umumiyo ovqatlanish korxonalarini;
- e) xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarini.

**21. Tovar zaxiralari qaysi sohadagii korxonalar (tashkilot)larning aylanma mablag'ining elementi bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*savdo tashkilot (korxona)larini;
- b) chorva-fermer xo'jaliklarini;
- d) yengil sanoat korxona (tashkilot)larini;
- e) oziq-ovqat sanoati korxonalarini.

**22. Asosiy fondlarni moliyalashtirish va yangilash qaysi mablag'lar hisobida amalga oshiriladi?**

- a) \*tashkil etuvchilarning mablag'idan;
- b) korxona xususiy mablag'idan;
- d) zayom mablag'laridan;
- e) hamma javob to'g'ri.

**23. Asosiy fondlardan ishlab chiqarishda samarali foydalanish uchun uni qanday elementlar doirasida tasniflash mumkin?**

- a) \*ishlab chiqarishda tutgan roli bilan;
- b) ishlab chiqarishda belgilanishi bilan;
- d) ishlab chiqarish jarayoni dagi o'rni bilan;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

**24. Hozirgi kunda moliyaviy rejalashtirishga unchalik e’tibor berilmayotganligini sababi qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?**

a)\* soliq tizimidagi o‘zgarishlar;

b) xo‘jaliklar orasidagi aloqalarning buzilishi, o‘zaro noto‘lovliklar;

d) xo‘jalik shart-sharoitlarining o‘zgarishi

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

**25. Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayoniga taalluqliliga qarab qaysi belgilari bilan ajralib turadi?**

a) \*ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jarayonlariga talluqliligi bilan;

b) noishlab chiqarishga mansubligi bilan; pul mablag‘lari bilan;

d) pul mablag‘lari bilan; ishlab chiqarishdagi tutgan o‘rnii bilan, transport vositalari bilan;

e) aylamma mablag‘lar bilan; asosiy vositalalar bilan.

**26. Asosiy fondlar faqat jihozlar nuqtai nazaridan ishlab chiqarish jarayoniga ko‘ra qanday belgilariiga qarab klassifikatsiyalanadi?**

a) \*asosiy ishlab chiqarish jihozlari; yordamchi jihozlar;

b) ishlab chiqarish fondlari yordamchi jihozlash; transport vositalari;

d) yordamchi jihozlar; binolar;

e) binolar; umumiy fondlar.

**27. Qaysi bir aylanma mablag‘ elementi eng yuqori likvidli bo‘lib hisoblanadi?**

a) \*korxona hisob raqamidagi pul mablag‘lari;

b) ishlab chiqarishdagi zaxiralari;

d) tugatilgan ishlab chiqarish mahsuloti;

e) chakana savdo tashkilot (korxonalar) dagi tovar zaxiralari

**28. Korxona aylanma mablag‘i qaysi elementlardan tashkil topishi mumkin?**

a) \*pul mablag‘lari, mahsulot zaxiralari;

b) asosiy fondlar, ish haqi;

d) tugatilmagan ishlab chiqarish;

e) Ammortizatsiya, pul mablag‘lari.

**29. Korxona asosiy fondini tashkil etuvchi eng asosiy manbalar nimalardan iborat?**

a) \*moddiy ne‘matlar, pul mablag‘lari;

b) kredit resurslar

d) byudjet mablag‘lari va moddiy ne‘matlar

e) pul mablag‘lari

**30. Transport vositalari asosiy fondning qaysi qismida o‘z ifodasini topadi?**

a) \*aktiv qismida;

- b) balansning passiv qismida;
- d) amortizatsiya ajratmalar qismida;
- e) aylanma mablag'lar qismida.

**31. Korxonaning oxirgi moliyaviy natijasi bu ...**

- a) \*foyda;
- b) xarajat;
- d) daromad;
- e) yalpi daromad.

**32. Bino asosiy fondning qaysi qismida o'z ifodasini topadi?**

- a) \*passiv qismida;
- b) moliyaviy biznes rejada;
- d) amortizatsiya ajratma qismida;
- e) balansning aktiv qismida.

**33. Jihozlar va muhandis kommunikatsiyasi asosiy fondning qaysi qismlarida o'z ifodasini topadi?**

- a) \*balansning passiv va aktiv qismlarida;
- b) biznes reja va passiv qismida;
- d) passiv va byudjet smetasida;
- e) aktiv va byudjet smetasida.

**34. Kichik korxonalar o'z faoliyatlarida amortizatsiya ajratmalarini qaysilari eng asosiy ajratma usuli bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*regressiv;
- b) tezlashtirilgan;
- d) bir chiziqli;
- e) hamma javob to'g'ri.

**35. Bezor iqtisodiyoti sharoitida investitsion siyosat korxona doirasida mavjud bo'lgan kapitalni qaysi qismini rivojlantirishiga qaratilgan bo'lishi zarur:**

- a) \*korxonaning xususiy kapital qismini;
- b) byudjet ajratmalar qismini;
- d) tijorat banklaridan qisqa va uzoq muddatli kredit olish qismini;
- e) zayomli kapital qismini.

**36. Korxona xususiy kapitalni rivojlantirishda moliyalashtirishning qaysi birini samarali manbaa sifatida foydalanish muhim?**

- a) \*xususiy mablag'ni;
- b) qisqa muddatli kreditlarini;
- d) byudjet ajratmalarini;
- e) uzoq muddatli kreditlarni.

**37. Asosiy fondlardan samarali foydalanishining qaysi bir ko'rsatgichini nobarqarorlik sharoitida foydalanish mumkin?**

- a) \*fondlar sig'imi;
- b) fondlar bilan qurollanishini;
- c) jihoziardan foydalanish koeffitsientini;
- e) mexnat bilan qurollanishni.

**38. Moliyaviy majburiyatlar mohiyatiga ko'ra qanday daromadlarda namoyon bo'lishi mumkin?**

- a) \*tashqi va ichki moliyaviy majburiyatlar;
- b) maxsus fondlarga ajratish majburiyatlar;
- d) byudjetga to'lov majburiyi;
- e) byudjetga ajratmalar majburiyi.

**39. Korxonani ichki moliyaviy majburiyatları kimlar oldida namoyon bo'ladı?**

- a) \*mulkdorlar; filiallar; yollanma xodimlar;
- b) mulkdorlar; moliya vazirligi;
- d) moliya vazirligi; soliq idoralari;
- e) soliq idoralari; davlat byudjeti.

**40. Korxonani mulkdor oldidagi majburiyatları nimalarda namoyon bo'ladı?**

- a) \*sof foydasini faoliyat natijalari bo'yicha dividendlar yoki tadbirdorlik daromadi shaklida to'lashda; yollanma ishchilarga ish haqi to'lashda;
- b) sof foydasini bir qismini davlat byudjetiga o'tkazishda; ish haqi to'lashda;
- d) sof foydasini bir qismini ta'minotchilarga to'lashda, daromadni davlat byudjetiga o'tkazishda;
- e) daromadni bir qismini bank foizlari sifatida to'lashda.

**41. Quyidagi keltirilgan javoblarning qaysilari korxona moliyasining funksiyalari bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*taqsimlash va nazorat;
- b) taqsimlash va audit;
- d) ishlab chiqarish va tartiblashtiruvchi;
- e) nazorat va audit.

**42. Quyidagi keltirilgan ko'rsatkichlarning qaysi biri yuqori likvidli bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*hisob raqamidagi pul mablag'lari;
- b) qimmatli qog'ozlar;
- d) aksiyalar;
- e) aylanma mablag'larning barcha elementlari.

**43. Korxonaning hisob raqamidagi mablag'lar qanday pul birliklarida mavjud bo'ladi?**

- a) \*milliy pul-so'mda, chet el valyutasida;
- b) chet el valyutasida, AQSh dollarida;
- c) milliy pul-so'mda;
- d) chet el valyutasi, ya'ni AQSh dollarida, Rossiya rubliida.

**44. Korxona balansida keltirilgan mablag'lar, ko'rsatkichlar qaysi pul birligida ifodalanadi?**

- a) \*so'mda;
- b) AQSh dollarida;
- c) Rossiya rubliida;
- d) yevro valyutasida.

**45. Ishlab chiqarish korxonasi qaysi ko'rsatkichdan foydalanilgan holda soliqni byudjetga to'laydi?**

- a) \*foyda va daromaddan;
- b) daromaddan;
- c) daromaddan va xarajatdan;
- d) kapital qiymatidan.

**46. Umumiy ovqatlanish korxonasi qaysi ko'rsatkichni asos qilib olgan holda byudjetga daromad solig'ini to'laydi?**

- a) \*faoliyatdan olingen daromadni;
- b) faoliyatdan olingen foydani;
- c) kapital qiymatidan;
- d) umumiy ovqatlanish aylanmasidan.

**47. Amortizatsiya nima?**

- a) \*asosiy fondni ishlatish muddatidan kelib chiqib belgilangan foizlarda uning qiymatidagi tayyor mahsulotga ko'chiriladigan qismi;
- b) aylanma mabiag'lardan belgilangan foizlarda undiriladigan qiymat;
- c) asosiy fond qiymatidan belgilangan foizlarda byudjetga undiriladigan qismi;
- e) aylanma mablag'larni kengaytirishga foydadan undiriladigan mablag'lar qismi.

**48. Amortizatsiya ajratmalari summasi korxenaning qanday ko'rsatkichining tarkibida olib boriladi:**

- a) \*ishlab chiqarish xarajatlari qiymati tarkibi;
- b) muonala xarajatlari tarkibi;
- d) taqsimlanadigan foya va sof foya tarkibi;
- e) korxona sof foyasi tarkibi.

**49. Quyidagi keltirilgan qanday subyektlar byudjetdan moliyalashdiriladi?**

- a) \*noishlab chiqarish muassasalari;

- b) ishlab chiqarish korxonaları;  
d) jamoa xarajatlari;  
e) savdo va umumi ovqatlanish korxona (tashkilotlari).

**50. Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy resurslarni tashkil etuvchi asosiy manba bo'lib qanday ko'rsatkich hisoblanadi?**

- a) \*mahsulot sotishdan tushgan tushum;  
b) asosiy fondlarni sotishdan tushgan tushum;  
d) aksiyalardan olingan dividendlar;  
e) xayriya mablag'lari.

**51. Korxona va davlatning aksariyat moliyaviy resurslari qanday ko'rsatkichdan tashkil topadi?**

- a) \*foyda va daromadlardan;  
b) daromadlardan;  
d) ishlab chiqarish va muomala xarajatlaridan;  
e) foydadan.

**52. Qanday ajratmalar kapital quyilmalarini moliyalashtirish manbai bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*amortizatsiya ajratmali;  
b) foyda ajratma;  
d) daromaddan ajratma;  
e) ustav kapitali va amortizatsiya ajratmalari.

**53. Asosiy fondarga investirlashtirilmagan pul mablag'lariiga.....:**

- a) \*asoiy fondlar deb aytildi;  
b) kapital mablag'lari deb aytildi;  
d) daromad deb aytildi;  
e) xarajat deb aytildi.

**54. Davlat ishlab chiqarish korxonalarida investitsiyani dastlabki tashkil etish manbai qanday mablag' bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari maxsus fondlar;  
b) byudjet mablag'lari va korxona (tashkilot);  
d) korxona daromadlaridan ajratmalar;  
e) byudjetdan tashqari maxsus fondlar.

**55. Nodavlat ishlab chiqarish korxonalarida investitsiyani dastlabki tashkil etish manbai qanday mablag'lar bo'lib hisoblanadi?**

- a) \*aksionerlik jamiyatlar kapitali;  
b) respublika va mahalliy byudjet mablag'lari;  
d) korxona daromadlari;  
e) maqsadli ajratmalar.

**56. Ishlab chiqarish korxona faoliyatining umumiyl moliyaviy natijalarini qanday ko'rsatkich ifodalaydi?**

- a) \*korxonaning balans foydasi;

- b) korxonaning sof foydasi;
- d) korxona daromadi;
- e) korxonaning taqsimlanmagan foydasi.

**57. Qanday mablag' korxonaning taqsimlanadigan foydasidan tashkil etilishi mumkin?**

- a) \*ijtimoiy xarajatlar;
- b) majburiy soliq to'lovlar;
- c) ish haqi;
- e) yo'l fondi.

**58. Korxonaning taqsimlanadigan foydasidan qanday yo'nalishda foydalanish mumkin?**

- a) \*ishlab chiqarishni rivojlantirishni moliyalashtirishga;
- b) ish haqini belgilashda;
- c) rentabellikni oshirishga;
- e) bevosita va bilvosita soliqlarni byudjet daromadiga to'lashda.

**59. Davlatni korxonalar faoliyatiga bevosita ta'siri qanday vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin?**

- a) \*soliqlar;
- b) ish haqi;
- c) xarajatlar;
- e) tannarx.

**60. Korxonalar faoliyatida samarasiz bolatlar yuz berganda qanday ma'muriy usullar foydalanishi mumkin?**

- a) \*cheklovlarni tartibli belgilash;
- b) resurslarni taqsimlash;
- d) narxlarni va resurslarni nazorat qilish;
- e) daromadlarni taqsimlash.

**61. Korxona moliyaviy faoliyatiga qanday usullar ta'sir etishi mumkin?**

- a) \*iqtisodiy va ma'muriy;
- b) iqtisodiy va rejalashtirish;
- d) rejalashtirish;
- e) boshqarish;

**62. Davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishda bosh instrument sifatida nima xizmat qiladi?**

- a) \*korxona moliyasi;
- b) ishlab chiqarish vositalari;
- d) tannarx;
- e) xarajatlar.

**63. Korxona moliyasini rivojlantirishni asosiy yo'nalishi nimada namoyon bo'ladi?**

- a) \*investitsion va tadbirkorlik iqlimini yaxshilashda;
- b) raqobat muhitini barcha korxonalarga nisbatan yaratib berishda;
- c) ma'muriy boshqarish usullarini tartiblashtirishda;
- e) ishlab chiqarishni boshqarishda.

**64. Korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'siqli muammoga nima kiradi?**

- a) \*korxona faoliyatini samarasiz boshqarish;
- b) korxonada professional ishchi va xizmatchilarni faoliyat ko'rsatmasligi;
- d) rag'battantirish vositalari;
- e) tannarxni o'sishi.

**65. Korxona moliyaviy faoliyatini samarali amal qilishiga qanday to'siq bo'lishi mumkin?**

- a) \*ustav kapitali miqdorining ozligi;
- b) Investitsion oqimlarni yetarli miqdorda bo'lmasligi;
- d) daromadlarning to'liq bo'lmasligi;
- e) foydaning noto'g'ri taqsimoti.

**66. Quyidagilarning qaysi biri o'zida korxona moliyaviy munosabatlarni mujassamlashtiradi?**

- a) \*korxonaning byudjet tashkilotlari bilan uzviy munosabatlari;
- b) korxonaning byudjetdan tashqari jamoa fondlari bilan munosabatlari;
- d) korxonaning notijorat korxonalarini bilan aloqasi;
- e) korxonaning ijtimoiy tashkilotlar bilan munosabati.

**67. Korxona moliyasiga qanday omillarning ta'siri kuchli bo'ladi?**

- a) \*huquqiy-tashkiliy, tarmoq xususiyatlaridagi iqtisodiy-texnika xususiyatlar omili;
- b) huquqiy-tashkiliy, inflyatsion, ishlab chiqarish, texnik va innovatsion omillar;
- d) tarmoq xususiyatlari, innovatsion omillar;
- e) inflyatsion, ishlab chiqarish va boshqaruv omillari.

**68. Korxona moliyasi yalpi ijtimoiy mahsulotning qanday darajali sohalari doirasida taqsimotni va qayta taqsimotni amalga oshiradi?**

- a) \*umum davlat, korxonalar, ishlab chiqarish kollektivi darajasida;
- b) umum davlat, jamoa tashkilotlari, maxsus jamg'armalar, davlat tashkilotlari darajasida;
- d) davlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarini doirasida;
- e) ishlab chiqarish korxonalarini, maxsus jamg'armalar doirasida.

**69. Aksionerlik jamiyatlarini yuqori boshqaruv organi bu - ...**

- a) \*aksionerlar umumi yig'ilishi;

- b) aksionerlarning dividendlarini taqsimlash bo'yicha yig'ilishi;
- d) aksiyadorlar yig'ilishi;
- e) kollektiv yig'ilishi.

**70. Aksionerlik jamiyatlarini rezerv fondi qaysi hujjat orqali rasmiy kuchga ega bo'ladi?**

- a) \*ustav;
- b) nizom;
- d) farmoyish;
- e) buyruq.

**71. Aksionerlik jamiyatlari ustaviga kim o'zgartirish kiritishi mumkin?**

- a) \*aksionerlarning umum yig'ilishi;
- b) aksionerlardan biri o'z taklifini ovozga qo'yish orqali;
- d) jamiyat raisi;
- e) jamiyatning hissadorlari.

**72. Aksionerlik jamiyatining ustav kapitalini oshirish yoki pasayirishni kim amalga oshiradi?**

- a) \*aksionerlarning umum yig'ilishi;
- b) jamiyat raisi;
- d) jamiyatning hissadorlari;
- e) aksionerlik jamiyatining filial boshliqlari.

**73. Aksionerlik jamiyatlarining zararlari qanday fond mablag'i hisobidan qoplanadi?**

- a) \*rezerv fondi hisobidan;
- b) foyda hisobidan;
- d) kapital hisobidan;
- e) maxsus jamg'arma fondi hisobidan.

**74. Korxonaning moliyaviy siyosatini ishlab chiqishdan maqsad ...**

- a) \*moliyani samarali boshqarish tizimini tuzish;
- b) moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash tizimini tashkil etish;
- d) korxona foydasidan maqsadli foydalanish;
- e) tashkilot daromadini maqsadli taqsimlash.

**75. Korxona moliyaviy siyosatining strategik vazifasi bo'lib ...**

- a) \*foydan maksimallashtirish hisobidan;
- b) foydan taqsimlash hisobidan;
- d) daromad (foydan) oqilona taqsimlashni tashkil etish hisobidan;
- e) kapitalni taqsimlash hisobidan.

**76. Korxona moliyaviy siyosatini ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishiga nima kiradi?**

- a) \*korxonani hisob va soliq siyosatini tuzish;

- b) korxonaning rezerv siyostaini yaratish;
- d) korxonaning foyda (daromad) olish siyosatini ishlab chiqish;
- e) korxonaning ustav siyosatini shakllantirish.

**77. Korxona faoliyatini tahlil etish korxona moliya siyosatini ...**

- a) \*ishlab chiqishni asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;
- b) boshqarish omili bo'lib hisoblanadi;
- c) tartiblashtirish va boshqarishni asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi;
- e) strategik yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

**78. Korxona moliyasini boshqarish maqsadida qanday mexanizm qo'llaniladi?**

- a) \*moliyaviy;
- b) rag'batlantirish;
- d) reja;
- e) narx.

**79. Moliyani boshqarish tizimi qanday elementlarni o'zida mujassamlashtiradi?**

- a) \*moliyaviy usullarni, moliyaviy instrumentlarni, huquqiy ta'minotni, axborot-uslubiy ta'minotni;
- b) moliyaviy usullarni, moliyaviy (richag) instrumentlarni, huquqiy-tashkiliy, iqtisodiy, axborot, boshqarish, rag'batlantirish;
- d) moliyaviy usullarni, moliyaviy instrumentlarni, rag'batlantirish;
- e) moliyaviy usullarni, boshqarishni, rag'batlantirishni.

**80. Moliyaviy hisob moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning qanday usuli hisoblanadi?**

- a) \*moliyaviy usuli;
- b) hisob tahlil usuli;
- d) tahlil usuli;
- e) hisob usuli.

**81. Moliyaviy rejalashtirish moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning qanday usuli hisoblanadi?**

- a) \*moliyaviy usuli;
- b) narxlashtirish usuli;
- d) baho usuli;
- e) hisob usuli.

**82. Moliyaviy tahlil moliyaviy munosabatlarning tashkil etishning qanday usuli?**

- a) \*moliyaviy usuli;
- b) baho usuli;
- d) hisob usuli;
- e) tahlil usuli.

**83. Moliyaviy nazorat va moliyaviy tartiblashtirish moliyaviy munosabatlarning qanday usuli?**

- a) \*moliyaviy usul;
- b) tahlil usuli;
- c) hisob usuli;
- d) rag'batlantirish usuli.

**84. Moliyaviy resursning miqdori nimaga bog'liq?**

- a) \*ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga va samaradorligiga;
- b) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga;
- c) ishlab chiqarilgan mahsulot samaradorligiga;
- d) kapital qo'yilmalarning hajmiga va utardan oqilona foydalanishga.

**85. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish nima bilan e'tirof etilishi mumkin?**

- a) \*moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi;
- b) soliq munosabatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi;
- c) foya taqsimoti;
- d) daromadlarni tashkil etish.

**86. Korxona aylanma mablag'larini aylanishining oshishi nimaga olib kelishi mumkin?**

- a) \*moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga, ishlab chiqarish hajmining o'sishiga;
- b) ustav kapitalining oshishiga, ishlab chiqarish hajmining oshishiga, rentabellik hajmining oshishiga;
- c) korxona daromadi darajasining oshishiga;
- d) korxona ishlab chiqarishining oshishiga.

**87. Korxona pul mablag'ları qachon tashkil etilishi mumkin?**

- a) \*korxonani tashkil etilishi kunidan boshlab;
- b) korxona foya (daromad) olib kunidan boshlab;
- c) foya taqsimoti amalga oshishidan boshlab;
- d) mahsulotni sotish kunidan boshlab.

**88. Quyidagilarning qaysi biri korxona ustavida ko'rsatiladi?**

- a) \*korxona nomi va yuridik manzil;
- b) korxona daromad (foyasi);
- c) korxonani har bir faoliyat yuksalish va ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi;
- d) mijozlarning manzillari.

**89. Korxonaning pul fondi orqali qanday faoliyat qo'llab-quvvatlanadi?**

- a) \*kengaytirilgan ishlab chiqarish;
- b) tijorat banklaridan olingan qarzlarni qaytarish;
- c) korxona munosabatlari;

e) maksimal foyda olish.

**90. Korxona ustav kapitalini oshirish nima hisobidan yuz berishi mumkin?**

a) \*qo'shimcha aksiyalarni chiqarish (emissiya qilish);

b) ishchi va xizmatchilar sonini qisqartirish yoki ularni professionallik darajasini oshirish;

c) foyda miqdorini oshirish;

d) foizlar miqdorini pasaytirish.

**91. Korxona ustav kapitalini kamayishi qachon yuz berishi mumkin?**

a) \*ishtirokchilar o'z kapitallarini qaytarib olganda;

b) korxonani ishlab chiqarish hajmining va mahsulot realizatsiyasi talab darajasida bo'lmaganda;

c) korxona daromadining pasayishida;

d) ishchilar sonini oshib ketishida.

**92. Qo'shimcha kapital qaysi fondga qarashlidir?**

a) \*korxona pul fondiga;

b) korxona ustav kapitaliga;

c) maxsus fondga;

d) jamoa fondiga.

**93. Quyidagilarning qaysi biri korxona pul fondini tashkil etish manbai bo'lib hisoblanadi?**

a) \*emission daromad va kapital qo'yilmalarni byudjetdan moliyalashtirish;

b) emission daromad va korxona kassasidagi pul mablag'larining qoldig'idan;

c) aholining ortiqcha pul mablag'lari;

d) asosiy fondlar qiymati.

**94. Asosiy fondlarni baholash – bu ...**

a) \*qiymatni pulda ifodalananishidir;

b) qiymat hisobidir;

d) yil davomida o'z qiymatini asta sekin tayyor mahsulotga o'giruvchi vositadir;

e) nolikvid vositadir.

**95. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati nimaga bog'liq?**

a) \*jihozlar miqdori va sifatiga;

b) jihozlar miqdoriga;

d) jihozlar sifatiga;

e) jihozlar sifatiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdoriga.

**96. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilanishi nimada o‘z aksini topadi?**

- a) \*korxona moliyaviy natijasida;
- b) qo‘shilgan jihozlardan voz kechishida;
- c) mutaxassislar malakasida;
- d) ekologiyani yaxshilashida.

**97. Quyidagi larning qaysi biri aylanma mablag‘larning elementi bo‘lib hisoblanadi?**

- a) \*pul mablag‘lari, debitor qarzları;
- b) asosiy fondlar qiymati, pul mablag‘lari;
- c) korxonadagi jihozlar;
- d) kreditor qarzları.

**98. Korxona pul mablag‘lari bo‘lishi mumkin:**

- a) \*moliyaviy instrumentlarda, korxona kassasida va hisoblarida;
- b) moliyaviy instrumentlarda;
- c) korxona kassasida;
- d) moliyaviy instrumentlarda, qimmatli qog‘ozlarda, fondlar birjasida, aksiyalarda.

**99. Korxonani aylanma mablag‘lariga bo‘lgan talabi qanday omillarning biri bilan bog‘liq?**

- a) \*ishlab chiqarilgan mahsulot va realizatsiya hajmi;
- b) ishlab chiqarilgan mahsulot sifati;
- c) realizatsiya miqdori;
- d) ishlab chiqarish strukturasi va ish bilan band bo‘lganlarning kasbiy mahorati.

**100. Qaysi metod bo‘yicha rejalar tuzish ishlari “yuqorida” boshlanadi, ya’ni, korxona rahbariyati maqsad va vazifalarni aniqlaydi, shu jumladan qisman foya bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarini ham. Keyin ushbu ko‘rsatkichlar detallashtirilgan, (ya’ni korxona boshqaruva strukturasining pastroq darajalariga tushish bilan) shaklda ichki bo‘lim rejalariga kiritib boriladi.**

- a)\* break-down;
- b) build-up;
- c) shut-down;
- d) break-dance.

## GLOSSARIY

**Aktiv** – bu xo‘jalik subyekti tomonidan nazorat qilinuvchi, avvalgi davrlarda qandaydir hodisa yoki jarayon natijasida paydo bo‘lgan va bulardan kelajakda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan iqtisodiy manfaat olishni ko‘zlaydigan resurslar tushuniladi.

**Aksionerlik jamiyati** – ustav jamg‘armasi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo‘lingan hamda jamiyatning aksiyadorlar oldidagi majburiyatlari aniq belgilangan xo‘jalik yurituvchi subyekt.

**Aksiya** – bu aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo‘shganligidan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog‘oz.

**Analitik (iqtisodiy) uslub** - ishlab chiqarish hajmini yuqori darajadagi assortiment tovarlar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatidan tushum rejalashtiriladigan uslub. Iqtisodiy yoki analitik uslub bilan tushum yoki foydani hisoblash ko‘p hajmdagi tovar mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonalar faoliyatini uchun taalluqli bo‘lib, bu usul bilan tushum yoki foydaning afzalligi shu ishlab chiqarayotgan tovar mahsulot turlari bo‘yicha yil davomida ta’sir etuvchi barcha omillar bo‘yicha qo‘shimcha tushum yoki foyda olish imkoniyatini beradi.

**Baho siyosati** – korxonaning qisqa va uzoq muddatli barcha maqsad va manfaatlarni o‘zida ifoda etadigan, bozor tabiatiga mos keladigan, uning yashovchanligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydigan, samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yishga yetadigan foyda olishga erishtiradigan imkon qadar ichki va tashqi bozorni egallaydigan optimal baho miqdorini belgilashi.

**Biznes-reja** – bat afsil tuzilgan loyiha rejasi, maqsadlarni, kelgusidagi faoliyatni, material xarajatlarni, yangi loyihaning moliyaviy jihatlarini yoki kompaniyaning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiruvchi hujjat.

**Byudjetlashtirish** – korxonaning ma’lum davrga mo‘ljallangan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish (bashoratlash).

**Davr xarajatlari** – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘limagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruva xarajatlari,

mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

**Diversifikatsiya** – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

**Dividend** – bu aksiyalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar uchun hisoblangan daromad.

**Zararlar** – bu asosiy faoliyat va barcha boshqa operatsiyalar, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

**Investitsiya jarayoni** – bu investorlarni qachon qancha miqdorda qimmatli qog'ozlarni sotib olishiga yo'naltirilgan faoliyatdir.

**Investitsiya loyihasi** – bu ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik – iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabi aspektlarga asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks xujjatlar yig'indisi hisoblanadi.

**Investitsiyalar** – yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalarga uzoq muddat (bir yildan kam bo'lмаган) davomida qo'shimcha foyda olish, ta'sir etish doirasini sotib olish maqsadlarida yoki shu sohada o'z faoliyatini tashkil qilgandan ko'ra uni shunday qo'yish (sarif etish) afzalroq bo'lganligi uchun kapitalni joylashtirish.

**Korxona moliyaviy mexanizmi** – boshqaruvchi tizim va korxona xo'jalik faoliyatini operativ rejalashtirish va rag'batlantirish elementlari yig'indisi, muayyan aniq xarajatni amalga oshirish maqsadida moliyaviy mablag'larni harakatga keltirish bilan bog'liq moliyaviy munosabatni samarali boshqarish, korxonani moliyaviy munosabatlarini boshqarishni moliyaviy richag va usullar orqali tashkil etish.

**Korxonalar moliyasi** - xo'jalik yurituvchi subyekt va davlat pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan takror ishlab chiqarish, rag'batlantirish va jamiyatning itimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalanishdagi pul munosabatlarining yig'indisi.

**Korxonalar foyda solig'i** - foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladigan soliq turidir. Shunday ekan foyda solig'i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan

qo'shimcha qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat byudjeti ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushiniladi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidai ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat

**Mahsulot sotishdan tushgan tushum** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish uchun olingan pul mablag'lari summasidir. Bu korxona xarajatlarini qoplovchi va uning daromadini tashkil etuvchi asosiy manbadir.

**Moliya** – davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalaniishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Moliyaviy boshqaruvi** – subyektlarning moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, pul oqimi – fondlarini uyushtirish, taqsimlash va samarali ishlatishga oid faoliyatni bildiradi.

**Moliyaviy investitsiya** – aksiya, obligatsiya va boshqa turdag'i qimmatli qog'ozlarga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdag'i boyliklar.

**Moliyaviy munosabat** – bu investitsiyalashtirish, kreditlashtirish, soliqqa tortish, moliyaviy richaglar tizimi, sug'ortalash va boshqalardir.

**Moliyaviy rejalashtirish** – bu korxona rivojlanishini ta'minlash uchun uning hamma daromadlari va pul mablag'lari ishlatilish yo'nalishlarini rejalashtirish.

**Moliyaviy resurslar** – bu YalM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qo'lidagi u yoki bu vaqtida bo'lgan pul daromadlari va fondlari yig'indisidir.

**Moliyaviy risklar** – belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning noaniqligi sharoitida moliyaviy faoliyatdan ko'zlangan maqsad natijalariga yo'naltirilgan mulkdorlar yoki moliyaviy menejerlar tomonidan qabul qilingan muqobil qarorlarni tanlashning iqtisodiy zarar (moliyaviy yo'qotish)lar keltirish ehtimoli.

**Moliyaviy richag** – bu moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi bo'lib, buning yordamida boshqaruvchi tizim korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir o'tkazadi. Bular: foyda, daromad, moliyaviy jazolar, baho, dividendlar, ish haqi, soliqlar va boshqalardir.

**Moliyaviy usul** – bu moliyaviy hisob, moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazoratdan iboratdir.

**Moliyaviy faoliyatdan daromadlar** – qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va qarziarni berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga royalti, dividendlar va foizlar, ijobjiy kurs farqlari ko'rinishidagi daromadlar va boshqalar kiradi.

**Nazorat** – jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini bo'lib, u rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining subyektiv ijod sohasidir.

**Oddiy uslub** - tushum yoki foydani rejalashtirish, kam assortiment tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida qo'llaniladigan uslub. Bu uslubning afzalligi 1 birlik yoki 10 birlik uchun tovar mahsulot uchun to'g'ri keladigan tushum yoki foydani hisoblash imkoniyatini beradi. Bu uslubni kamchiligi korxona faoliyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi bo'yicha tushum yoki foydani o'sishi yoki kamayishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha alohida tushum, foyda va zarar olish imkoniyatini asoslab bera olmaydi.

**Passiv** – bu uzoq muddati mablag'lar manbai bo'lib, ular hisobiga xo'jalik subyektining aktivlari shakllantiriladi. Ular o'z va qarz kapitalga ajratiladi.

**Rentabilidad** – korxona foydalilik darajasini xarakterlaydigan ko'rsatkich. Odatda uning bir necha turlari hisob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'mi yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

**Smeta** – moliyaviy resurslarning asosi byudjet mablag'laridan tashkil qilinib, manbasi ham byudjet bo'ladi.

**Soliq** – qonunda belgilangan tartibdag'i stavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolardan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to'lov.

**Soliq imtivozi** - soliq to'lovchi soliq majburiyatları hajmning to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi.

**Soliq imtiyozi** – soliq to'lovchi soliq majburiyatlar hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi.

**Sof tushum** – mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingen pul tushumidan qo'shilgan qiymat va aksiz soligi hamda eksport boj poshlinasini chiqarish yo'li bilan aniqlanadi. Unga tovarlarning qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

**Sof foyda** – bu soliq to'langandan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda. U soliq to'langungacha olingen foyda (daromad)dan to'lanadigan soliqni va qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi

**Taqsimot** – birlamchi taqsimlash (ish haqi fondini shakllantirish, foydani shakllantirish va boshqalar) va qayta taqsimlash (ish haqi fondini taqsimlash, foydani taqsimlash, soliqlar).

**Tannarx** – korxonaning mahsulot tayyorlash jarayonida sarflangan xomashyo, materiallar, ishlab chiqarish vositalari, to'langan ish haqi, shuningdek, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq bo'lган xizmatlar uchun to'lov va xarajatlarning pul orqali ifodalanishi.

**Ustav kapitali** – bu odatda chiqarilgan aksiyalarning nominal yoki e'lon qilingan qiymatiga aksionerlik kapital hisobraqamlarida aks etilishi kerak bo'lган va ustav kapitalini aniqlash uchun ishlatiladigan, qimmatli qog'ozlarida ko'rsatilgan bitta aksiyaning nominal qiymatidir.

**Favqulotda foyda** – bu ko'zda tutilmagan tasodifiy tusga ega bo'lган hodisa yoki korxonaning odatdag'i faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdag'i operatsiyalar natijasida paydo bo'ladi va olinishi kutilmagan foyda

**Foyda** – bu amaldagi moliyaviy tushumlar bilan xarajatlar o'rtaсидаги farq bo'lib, u korxonaning asosiy maqsadi sifatida moliyaviy xo'jalik faoliyatining natijaviylik ko'rsatkichi, xo'jalik subyektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lмаган faoliyat, hodisalar, sharoitlar kapitalining ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan badallar bundan mustasno.

**Foydani taqsimlash** – uning iste'mol va jamg'arishga yo'naltirilishi, joriy davr foydasining soliqlar to'lovi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga hamda kapital egalari o'rtaсидаги shartlar, kelishuvlarga binoan taqsimlanishi.

**Xarajat** – mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovar sotish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldagi ifodasi.

**Xo‘jalik subyektlari moliyasi** – bu moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan maqsadli yo‘nalishlarda foydalanish bilan bog‘liq pulli munosabatlар yig‘indisi.

**Yakka tartibdagи tadbirkorlik** - yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagи tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi.

**Yalpi foya** – bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovuti.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-soni farmoni.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999. 37 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017. 56 b.
5. B.A.Abdukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti: Darslik. T.: Fan, 2013.
6. Atrill Peter. Financial Management for decision makers. 5th ed. England, 2009.
7. Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatinining tahlili: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 392 b.
8. Richard A. Brealey, Stewart C. Mayers. Principles of corporate finance. – 5th ed. United States. McGraw-Hill, 1996.
9. Tax loopholes. Everything the Law Allows. Boardroom Classics, 1995.
10. Vahobov A., Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 388 b.
11. Vahobov A.V., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. T.: Sharq, 2009. 526 b.
12. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. T.: Noshir, 2012. 712 b.
13. Akramov E. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. T.: Moliya, 2003.
14. Алешин В.А., Зотова А.И. Финансы. Ростов н/Д: Феникс, 2009. 346 с.

15. Alimov I.I. Moliya: O'quv qo'llanma. T., 2007. 108 b.
16. Барулин С.В. Финансы. М.: КНОРУС, 2010. 640 с.
17. Болшаков А.С. Антикризисное управление на предприятии: финансовый и системный аспекты. СПб.: СПб ГУП, 2010. 488 с.
18. A.Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. T.: Sharq, 2005.
19. Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 316 b.
20. Zaynalov J.R., Rasulov Z.J., Axgotosh Z.O. Korxonalar moliyasi: Ma'ruzalar matni. Samarqand: SamISI, 2015. 160 b.
21. Ковалева В.В. Финансы организаций (предприятий): Учебник. М.: Проспект, 2010. 352 с.
22. Ковалева В.В. Финансы: Учебник. М.: Проспект, 2008. – 640 с.
23. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 288 b.
24. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarida. T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 660 b.
25. Нешитой А.С.Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник. М.: Дашков и К, 2010. 592 с.
26. Романовский М.В., Врублевская О.Б., Сабанти Б.М. Финансы. М.: Высшее образование, 2010. 462 с.
27. Фёдорова Е.А. Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2010. 306 с.
28. Шишкин С.Н. Государственное регулирование экономики: предпринимательско-правовой аспект. М.: Волтерс Клувер, 2007. 256 с.
29. Yuldashev Z.Yu., Malikov T.S. Moliya: Uy xo'jaliklari moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 112 b.

## **Internet saytlari:**

[www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi Hukumati sayti

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining rasmiy sayti.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - bilimlar sayti

[www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) - "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" elektron jurnalı sayti.

## Mundarija

Kirish .....	3
--------------	---

### I BOB. KORXONALAR MOLIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. "Korxonalar moliyasi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari .....	7
1.2. Moliya tizimining shakilanishida korxonalar moliyasining tutgan o'mni va mohiyati .....	10
1.3. Korxonaning moliyaviy mexanizmi.....	18
1.4. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish asoslari, ularni shakllantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari .....	22

### II BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY MUNOSABATLARINING MAZMUNI VA ULARNI TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI

2.1. Korxonalar moliyaviy munosabatlarining mazmuni va ularni mustahkamlash .....	27
2.2. Korxonalar tashkiliy-huquqiy shakllari va ularning korxonalarни moliyaviy munosabatlariga ta'siri.....	32
2.3. Aksionerlik jamiyatlar moliysi .....	37
2.4. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar moliysi .....	41
2.5. Kichik va xususiy korxonalar moliysi.....	42
2.6. Korxonalarning byudjet, nobyudjet fondlari, tijorat banklari va boshqa muassasalar bilan munosabatlari .....	46
2.7. Korxonalardagi moliya xizmatining funksiya va vazifalari .....	50

### III BOB. KORXONALARDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH XARAJATLARI, ULARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

3.1. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mohiyati .....	57
3.2. Korxonalarning asosiy faoliyati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari smetasini tuzish tartibi .....	64
3.3. Korxonalarning asosiy faoliyati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini rejalaشتirish va moliyalashtirish .....	69

3.4. Korxonalarda mahsulot tannarxini shakllanirish jarayonlarini boshqarish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish.....	72
--	----

#### **IV BOB. KORXONADA PUL TUSHUMI, UNI REJALASHTIRISH VA TAQSIMLASH**

4.1. Iqtisodiyotining erkinlashuvi sharoitida korxonalar faoliyatida baholar tizimi, uning tarkibi va bahoning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	75
4.2. Korxonada mahsulot sotishdan tushgan tushumni rejalashtirish....	79
4.3. Oddiy va iqtisodiy yoki analitik uslub .....	87
4.4. Mahsulot sotishdan tushgan tushumni taqsimlash tartibi .....	90

#### **V BOB. KORXONALAR FOYDASI, UNING TAQSIMLANISHI VA ISHLATILISHI**

5.1. Korxonalar foydasining mazmuni va mohiyati.....	93
5.2. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar foydasining ahamiyati .....	96
5.3. Korxona yalpi va sof foydasining mohiyati .....	99
5.4. Korxonalar faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi.....	103
5.5. Foydaning taqsimlanishi va ishlatilish tartibi .....	106
5.6. Korxonalar foydasini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni maksimallashtirish.....	109
5.7. Korxonalar foydasini bashoratlash asoslari .....	110

#### **VI BOB. KORXONALARDA SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH VA INVESTITSIYAVIY FAOLIYAT**

6.1. Korxonalar daromadidan to'lanadigan soliqlarning mohiyati, ahmiyati va turkumlanishi .....	117
6.2. Soliqqa tortiluvchi foyda miqdorini aniqlash.....	123
6.3. Amaldagi soliq qonunchiligidagi korxonalar uchun mavjud soliq imtiyozlari.....	130
6.4. Investitsiyalarga oid tushunchalar mazmuni, investitsiya tasnifi, ahmiyati, investitsion "portfeli" va siyosati .....	134
6.5. Investitsiya manbalari va ularning korxonaga qo'yish sohalari ...	139
6.6. Investitsiyaviy loyihibar samaradorligi ko'rsatkichlari, ularni aniqlash, baholash va samaradorligini oshirish yo'llari .....	141

## **VII BOB. KORXONALARDA BAHONI TASHKIL ETISH**

7.1. Bozor sharoitida bahoni shakllantirishning omillari va xususiyatlari.....	146
7.2. Bozor taraqqiyoti bosqichlariga ko'ra narx shakllanishining xususiyatlari.....	148
7.3. Ishlab chiqarish xarajaflarining baho shakllanishiga ta'siri.....	149
7.4. Korxona foydasining baho shakllanishiga ta'siri.....	150
7.5. Korxonaning baho siyosati va bahoni shakllantirish strategiyasi.	151
7.6. Bahoni hisoblashda risk darajasining baholanishi .....	153
7.7. Korxonada bahoni shakllantirish strategiyasining to'g'ri tanlanishi.....	155

## **VIII BOB. KORXONALARNING O'Z KAPITALINI BOSHQARISH**

8.1. Korxona o'z kapitalining tarkibiy tuzilishi, mohiyati va korxona moliyasini boshqarishdagi ahamiyati .....	160
8.2. Korxona o'z kapitalini shakllantirish siyosatining asosiy vazifalari va hozirgi zamon muammolari.....	162
8.3. Korxona o'z kapitali alohida elementlarining moliyaviy baholanilishi.....	163
8.4. Korxona emissiya siyosatining dolzarb vazifalari va hozirgi zamon muammolari.....	164

## **IX BOB. KORXONA MOLIYAVIY AKTIVLARINI BOSHQARISH**

9.1. Korxona moliyaviy investitsiyalarining zarurligi, mohiyati va shakllari.....	167
9.2. Korxona qimmatli qog'ozlari portfellari va investitsion strategiyalarining turlari .....	171
9.3. Korxona fond portfelining diversifikatsiyasi. Korxona fond portfeli samaradorligini baholash.....	176
9.4. Qimmatli qog'ozlar portfelining monitoringi .....	178
9.5. Aksionerlik jamiyati qimmatli qog'ozlari investitsion jalg etuvchanligini baholash.....	179
9.6. Portfel investitsiyalar bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish usullari .....	182

**X BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA  
KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI  
AMALGA OSHIRISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI**

10.1. Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati va mazmuni .....	190
10.2. Moliyaviy rejalashtirishning korxona faoliyatidagi o‘rnii va uning ko‘rsatkichlari .....	194
10.3. Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari va usullari .....	198
10.4. Korxonalarda byudjetlashtirishning maqsadi va vazifalari .....	203
10.5. Korxona moliyasini boshqarishda operativ moliyaviy rejalashtirish tasnifi va mazmuni .....	215

**XI BOB. KORXONALAR FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BIZNES  
REJA**

11.1. Korxonalarda moliyaviy biznes-reja tuzishning ahamiyati va mohiyati .....	221
11.2. Moliyaviy biznes-rejani tuzish uslubi .....	232
11.3. Biznes-rejaning bo‘limlari va ularning tasnifi .....	234
Testlar .....	238
Glossary .....	254
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	260

**OAYDLAR UCHUN**

ZAYNALOV JAHONGIR RASULOVICH, XODJAYEV ERKIN NORMATOVICH  
MUSAYEV RAXMAT, ALIYEVA SUSANNA SEYRANOVNA,  
XUSANOV BAXODIR SHERALIYEVICH, RASULOV ZOKIR JAXONGIROVICH,  
AXROROV ZARIF ORIPOVICH, LATIPOVA SHAXNOZA MAXMUDOVNA,  
RUZIBAYEVA NARGIZA YAKIMOVNA, XAMROYEV MEYROJ SIROJXONOVICH,  
XODJIMAMEDOV AKMAL ASHurovICH, MUXAMMEDOVA ZARINA MURODOVNA,  
AXMEDOVA AZIZA TOXIROVNA, RASULOV SHOXRUXBEK JAXONGIROVICH

## MOLIYA: KORXONALAR MOLIYASI

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*

*Muharrir Z. Bozorova*

*Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev*

*Kompyuterda sahifalovchi K. Boyxo'jayev*

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 06.09.2018 yilda berildi. Bichimi 60x84/16.

Offset qog'oz. «New Times Roman» garniturası.

Shartli b.t. 15,4. Nashr hisob t. 16,0

Adadi 200 dona. 20-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>“A”</sup>.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI”  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>“A”</sup>.

43000 ₸

Дарслик Зайналов Ж.Р. (1-боб 2-боб 2.1, 2.3, 2.5, 2.6, 2.7, 3-боб 3.2, 3.3, 4-боб 4.1, 4.2, 5-боб 5.1, 5.2, 5.3, 6-боб 6.1, 6.2, 6.6, 7-боб 7.1, 7.3, 7.5, 7.6, 7.7, 8-боб 8.1, 8.2, 8.3, 8.4, 9-боб 9.1, 9.5, 9.6, 10-боб 10.4, 10.5, 11-боб 11.1, 11.2, 11.3), Алиева С.С. (2-боб 2.7, 3-боб 3.4, 5-боб 5.1, 5.5, 5.6, 5.7, 7-боб 7.4, 8-боб 8.2, 10-боб 10.5), Ахороров З.О. (2-боб 2.2, 2.3, 2.6, 5-боб 5.2, 6-боб 6.1, 6.2, 6.6, 7-боб 7.5, 10-боб 10.1, 10.2, 10.3, 10.5, 11-боб 11.2, 11.3), Ходжаев Э.Н. (6-боб 6.5, 9-боб 9.2, 9.5, 9.6), Мусаев Р. (3-боб 3.1, 6-боб 6.5), Хусанов Б.Ш. (3-боб 3.2, 6-боб 6.3, 6.4, 9-боб 9.4), Расулов З.Ж. (5-боб 5.7, 7-боб 7.2, 9-боб 9.1), Лагипова Ш.М. (2-боб 2.4, 2.5, 4-боб 4.1, 4.2, 4.3, 8-боб 8.4), Рузибаева Н.Х. (2-боб 2.2, 4-боб 4.4, 6-боб 6.5), Хамраев М.С. (7-боб 7.6, 7.7, 9-боб 9.3), Ходжимамедов А.А. (11-боб 11.2, 11.3), Мухаммедова З.М. (8-боб 8.3, 10-боб 10.4), Ахмедова А.Т. (8-боб 8.4), Расулов Ш.Ж.лар (7-боб 7.4, 7.5) томонлардан яратылди.

43000.00

12.30  
MJS

ISBN 978-9943-13-720-2



9 789943 137202